O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“MENEJMENT” KAFEDRASI

# IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHI VA EKOLOGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

# УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

# SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND METHODOLOGICAL ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL MANAGEMENT

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

# MATERIALLAR TO‘PLAMI

**2024-yil 16-noyabr**

**Samarqand - 2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“MENEJMENT” KAFEDRASI**

# “IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHI VA EKOLOGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK MASALALARI”

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

# MATERIALLARI TO‘PLAMI

**(16-noyabr 2024-y.)**

**Samarqand - 2024**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

**КАФЕДРА «МЕНЕДЖМЕНТ»**

# «УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА»

## СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

**международной научно-практической конференции**

**(16-ноября 2024 г.)**

**Самарканд – 2024**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**SAMARKAND INSTITUTE OF ECONOMICS AND SERVICE**

**DEPARTMENT OF MANAGEMENT**

# «SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND METHODOLOGICAL ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL MANAGEMENT»

**COLLECTION OF PROCEEDINGS**

**of the international scientific and practical conference**

**(16-Nov 2024)**

**Samarkand – 2024**

**UO‘K:** 330.3(575.1)

I 99

**KBK:** 65.4(5O‘z)

**Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ekologik menejmentni rivojlantirishning metodologik masalalari** // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024-yil 16-noyabr. Samarqand, SamISI, 2024 – 770 bet.

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:**
**F.U.Tursunov** – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

**Nashr uchun mas’ullar:**
**D.X.Aslanova-** iqtisod fanlari nomzodi, professor
**M.T.Alimova** – iqtisod fanlari doktori, professor
**Sh.U.Tashmatov -** iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
**N.M.Usmonova -** iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
**A.A.Siddiqov -** iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

**Sahifalovchi:** B.M.Abdumannonov – SamISI “Menejment” kafedrasi assistenti.

Ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida “Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ekologik menejmentni rivojlantirishning metodologik masalalari”ga oid yo‘nalishlar yoritilgan. To‘plamda “Barqaror rivojlanish”, “Ekologik menejment”, “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish”, “Fan va ta’lim”, “Innovatsion rivojlanish va ekologik innovatsiyalar”, “Raqamli iqtisodiyot”, “Yashil iqtisodiyot”ga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislarda o‘z aksini topgan.

Tezislar mualliflar tahririda chop etilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

В материалах научно-практической конференции выделены направления, связанные с «Устойчивым развитием и методологическими вопросами развития экологического менеджмента». Сборник включает научно-теоретические и практические программы, направленные на «Устойчивое развитие», «Экологический менеджмент», «Социально-экономическое развитие», «Наука и образование», «Инновационное развитие и экологические инновации», «Цифровая экономика», «Зеленая экономика» отражено в статьях и тезисах, богатых рекомендациями.

Тезисы публикуются под редакцией авторов. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

The materials of the scientific and practical conference highlight areas related to "Sustainable Development and Methodological Issues of Environmental Management Development". The collection includes scientific, theoretical and practical programs aimed at "Sustainable Development", "Environmental Management", "Socio-Economic Development", "Science and Education", "Innovative Development and Environmental Innovations", "Digital Economy", "Green Economy" reflected in articles and abstracts rich in recommendations. Abstracts are published under the editorship of the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented in them. Some of their opinions may not correspond to the views of the organizing group.

**ISBN:** 978-9910-720-81-9

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024.
© “STEP-SEL” MChJ. Nashriyoti, 2024.

**M P Bhasa -** Professor TDIU Samarkand filiali
Managing Director – Lemon Bridge Research
+998-979344300, mpbhasa@gmail.com

# SME COMPETITIVENESS IN CENTRAL ASIA WITHIN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION AND SUSTAINABILITY: AN EMPIRICAL STUDY

**Abstract**

This study examines the relationship between digitalization, sustainability, and competitiveness among small and medium-sized enterprises (SMEs) in Central Asia.

Using data from 219 SMEs in the region, we investigate how the adoption of digital innovations and sustainability practices impacts business performance. Our findings suggest that educated entrepreneurs and SMEs that proactively adopt digital technologies as enablers of sustainability practices tend to perform better. Specifically, our results show that the level of education, level of innovation, and logistics and fleet optimization have a significant positive impact on business performance. However, green initiatives do not have a significant impact on business performance, likely due to their cost-intensive and time-consuming nature. This study contributes to the ongoing debate on the role of digitalization and sustainability in enhancing SME competitiveness, providing valuable insights for policymakers, entrepreneurs, and investors in Central Asia.

**Keywords:** SME, Central Asia, Sustainability, Competitiveness

## Introduction

Business practices, particularly for small and medium-sized enterprises (SMEs), have been significantly enhanced by the growth of digital innovation. This advancement enables SMEs to expand into new markets, improve operational efficiencies and launch new products. Consequently, SMEs have become vital contributors to economic development and job creation. In the recent times, SMEs are being closely watched for their contribution to economic growth even while they navigate through the challenges, they face in implementing sustainable business practices. As a consequence, SMEs are increasingly incorporating environmental, social and governance (ESG) practices in their business operations. Some SMEs in Central Asia are found to be aggressively adopting digital innovations which in turn are opening up unprecedented opportunities for them to expand their businesses both within their domestic markets as well as around the region. Faster growth always comes with a price and most often than not growth takes a toll on environment and natural resources. SMEs that bank on digital innovations to optimize resource utilization and waste reduction contribute to the current debate on sustainable business practices. Sustainable SMEs aim to generate economic wealth while achieving market efficiencies through the optimal use of the social outcomes of their innovations.

Extant research captures the robust interlinkage between digital economy and sustainable development. For example, digitalization, with its innovative tools and advantages, creates new growth opportunities that can contribute to sustainable development [Pérez-Martínez, et al, 2023]. By leveraging advanced information technology, digitalization fosters an economic system characterized by economies of scale and scope. This merging helps balance supply and demand in the market, boosting economic growth. The expected advancements in information technology are likely to reduce environmental impact, further supporting sustainable economic development [Hilty and Hercheui, 2010]. Additionally, industry clusters strengthen the link between digitalization and sustainable development. Clustering of industries in specific locations, facilitates resource pooling from various sectors, creating strong industrial dependencies and collaborative alliances. This leads to increased industrial advantages, boosting efficiency, creativity, competitiveness, and longterm growth [Yan et al., 2023]. Digitalization leverages data to understand user preferences, allowing for better supply-demand balance, reduced transaction costs, and increased demand, ultimately promoting industrial clustering and sustainable growth.

This study delves into the dynamic relationship between digitalization, sustainability, and competitiveness among SMEs in Central Asia. Driven by the burgeoning adoption of digital innovations within the region, the research seeks to understand how these technologies contribute to sustainable business practices and enhance competitiveness. The study examines the interplay between digitalization, environmental, social, and governance (ESG) practices, and firm performance, recognizing the unique challenges and opportunities faced by SMEs in Central Asia. By analyzing the impact of digitalization on resource utilization, waste reduction, and business operations, the study aims to shed light on the potential for SMEs to achieve sustainable growth and contribute meaningfully to the regional economy while minimizing their environmental footprint.

**Methodology**

Data for the period 2017-2023 was collected from 219 SMEs operating in the Central Asian region. This data has been sourced from the database of a private investment firm – LemonBridge Research – that has investments interests in Central Asian SMEs. Following Anton et al. (2015) two variables were deployed as proxies to assess competitiveness viz., *level of education* of SME owner represented by number of years the SME owner studied in school (Jones, 2001) and *level of innovation* defined as developing a tech-intermediated strategy to enable ESG practices. Additionally, two sustainability proxies, viz., *logistics and fleet optimization* defined as the difference in the number of truck runs done in the previous year (Y-1) versus that of year Y, and the *number of green initiatives* taken in each year during the period of study, were considered for the study. Dependent variable in this study, i.e., business performance is defined as percentage growth of profitability in the past three years (Cocca and Alberti, 2010). $Business\ Performance = \alpha + \beta_1\ level\ of\ education + \beta_2\ level\ of\ innovation + \beta_3\ logistics\ and\ fleet\ optimization + \beta_4\ green\ initiatives + \in$

**Findings**

This study reveals a strong correlation between both educational attainment and level of innovation with SME performance. Higher levels of education among SME owners are directly linked to improved business performance (Table 1). Educated entrepreneurs exhibit a deeper understanding of their business operations, allowing them to make informed decisions and take calculated risks, ultimately contributing to greater success.

| Table 1: Regression Results (N=219) | |
|---|---|
| Level of Education | 0.652** |
| Level of Innovation | 0.789** |
| Logistics and Fleet Optimization | 0.606** |
| Green Initiatives | 0.348 ** |
| Adjusted R2 | 0.691 |
| Standardized beta coefficients; ** Significance at 5% level | |

SMEs embracing digital technologies as catalysts for sustainability practices demonstrate significantly better performance compared to those that do not. This highlights the critical role of digitalization in achieving both environmental and financial benefits. Specifically, SMEs utilizing digital tools to optimize logistics and fleet operations report enhanced performance. This indicates that resource optimization through digital strategies can lead to substantial cost savings and improved profitability.

While green initiatives have not yet shown a significant impact on business performance, this likely stems from the time required for these initiatives to mature and generate tangible results. The long-term benefits of green practices are expected to become more evident over time.

**Conclusion**

This study underscores the significant influence of both educated ownership and digital innovation on the performance of SMEs. Findings reveal a strong correlation between the education level of SME owners and their firm's financial performance.

Educated owners demonstrate many advantages over their less educated counterparts. They are more adept at quickly acquiring new knowledge and adapting to changing market conditions. Their education equips them with the analytical skills to interpret market trends and anticipate future business outcomes. Also, they possess the knowledge base to make informed strategic decisions that positively impact their firm's financial performance.

Additionally, SMEs integrating digital innovation into their operations signal a commitment to technological advancement, resulting in a competitive edge as they are positioned at the forefront of technological changes, fostering operational efficiencies and competitive advantage. The study also demonstrates that digital technologies can be effectively leveraged for ESG practices leading to improved financial performance. SMEs employing digital applications to track, monitor, and optimize fleet operations exhibit lower resource consumption, reduced environmental waste, and enhanced bottom-line profitability. These findings

indicate a direct link between digital integration and improved sustainability outcomes.

However, while digital intermediation demonstrates cost reduction benefits for SMEs, non-digital initiatives like green initiatives show less impactful results on business performance. This observation can be attributed to the high cost and extended maturity time required for such initiatives to yield tangible benefits. In essence, this study highlights the pivotal roles of educated ownership and digital integration in driving SME performance. While the benefits of digital technologies are evident, the limitations of non-digital initiatives highlight the need for a balanced approach. Future research should explore the long-term impact of non-digital ESG initiatives and further investigate the interplay between digital innovation and sustainable business practices for SMEs.

**References**

1. Pérez-Martínez, J., et al. “Analysing Associations between Digitalization and the Accomplishment of the Sustainable Development Goals.” Science of the Total Environment, vol. 857, 2023, p. 159700, doi:10.1016/j.scitotenv.2022.159700.

2. Hilty, L.M., and M.D. Hercheui. “ICT and Sustainable Development: What Kind of Information Society? Governance, Virtuality, Surveillance, Sustainability, Resilience.” Governance, Virtuality, Surveillance, Sustainability, Resilience, Springer, Berlin, Heidelberg, 2010, pp. 227-235.

3. Yan, L., et al. “Internet Financial Services, Environmental Technology, and Happiness: Implications for Sustainable Development.” PLoS One, vol. 18, no. 11, 2023, p. e0287673, doi:10.1371/journal.pone.0287673.

4. Anton, S.A., et al. “An Assessment of SME Competitiveness in Indonesia.” Journal of Competitiveness, vol. 7, no. 2, 2015, pp. 60-74.

5. Jones, P. “Are Educated Workers Really More Productive?” Journal of Development Economics, vol. 64, no. 1, 2001, pp. 57–79, doi:10.1016/s0304-3878(00)00124-3.

6. Cocca, P., and M. Alberti. “A Framework to Assess Performance Measurement Systems in SMEs.” International Journal of Productivity and Performance Management, vol. 59, no. 2, 2010, pp. 186–200, doi:10.1108/17410401011014258.

**F.U.Tursunov** – SamISI, “Menejment” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent

## BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

**Annotatsiya:** maqolada yashil iqtisodiyot modellarini inson faoliyati va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni normallashtishga qaratilgan jihatlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar, yashil loyihalar, ekotizim, global muammolar

**Аннотация:** в статье рассматриваются аспекты моделей зеленой

экономики, направленные на нормализацию взаимодействия деятельности человека и природы.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, устойчивое развитие, зеленые технологии, зеленые проекты, экосистема, глобальные проблемы.

**Abstract:** The article examines aspects of green economy models aimed at normalizing the interaction of human activity and nature.

**Key words:** green economy, sustainable development, green technologies, green projects, ecosystem, global problems.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga o‘zaro bog‘liq holda erishish orqali muvozanatli, o‘zini-o‘zi ta’minlovchi rivojlanish hisoblanadi. Barqaror rivojlanish ijtimoiy rivojlanish modelini aks ettiradi, unda hozirgi va kelajak avlodlarning asosiy hayotiy ehtiyojlari qondiriladi. Barcha qarashlar xilma-xilligiga qaramay, barqaror rivojlanish muammosi ikkita asosiy yo‘nalishda mavjud. Birinchi yo‘nalish – yaxlit ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarini aniqlash va ularga erishishni ta’minlovchi shart-sharoitlarni aniqlashdir. Barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadlari ierarxiyasiga ko‘ra, iqtisodiy maqsadlar ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga nisbatan bo‘ysunuvchi holatda joylashtiriladi, ya’ni ular butun rivojlanishning barqarorligini ta’minlash vositasi sifatida qaraladi. Ikkinchi yo‘nalish - iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillarni o‘rganishdir. Yo‘nalish barqaror rivojlanish parametrlari va omillarini belgilaydi, uning muvozanatini ta’minlash shartlarini, optimallik mezonlarini belgilaydi, o‘sish imkoniyatlarini o‘rganadi. Barqaror rivojlanish doimiy miqdoriy o‘sish kabi tom ma’noda barqarorlikni anglatmaydi, balki ekologik va ijtimoiy komponentlarni hisobga olgan holda "nizolarsiz" rivojlanishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda “yashil” iqtisodiyot yangi vektor, barqaror rivojlanish dvigateli sifatida o‘rganilmoqda, uning asosiy vositalari innovatsion “yashil” texnologiyalar hisoblanadi. “Yashil” texnologiyalar energiya va resurslarni tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, toza transport, muqobil energiya manbalari, organik qishloq xo‘jaligi, ekologik rivojlanish (atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadigan qurilish), ilg‘or logistikaga asoslangan. Ular, o‘z navbatida, iqtisodiyotni tabiatga zarar etkazmasdan rivojlantirish va aholining ekologik farovonligini saqlash, tabiiy kapitalni saqlash va ko‘paytirish, zaharli va uglerod chiqindilarini kamaytirish, biologik xilma-xillikni kengaytirish, shuningdek, aholining daromadlarini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Yashil iqtisodiyot modeli inson faoliyati va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni normallashtiradi.

Tabiiy salohiyatning oshishi va sayyoradagi iqlim muvozanatining rivojlanishi bir necha milliard yil davom etdi. Bir necha ming yillar davomida ekotizimlarning qisman yo‘q qilinishi oxirgi yuz yil ichida sodir bo‘ldi. Ekotizimlar muvozanati va salohiyatini tiklash uchun esa million yildan ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi. Shuning uchun zamonaviy sivilizatsiya uchun asosiy muammo ekologik muammo sifatida qaralishi kerak. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi bilan to‘ldiriladigan barqaror rivojlanish g‘oyasini iqtisodiyotning barcha darajalarida amalga oshirishni taqozo etuvchi zamonaviy

strategik paradigma deb hisoblash mumkinligi tabiiydir. "Barqaror" va "ekologik mas'uliyatli" iqtisodiy rivojlanish faqat ilmiy asoslarda ham, zamonaviy biznes strategiyalarida ham o‘zgarishlar bo‘lganda mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, zamonaviy sivilizatsiya oldida turgan asosiy vazifalar nuqtai nazaridan, "zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning adekvat modellari"ni izlashda inklyuziv barqaror yashil rivojlanish konsepsiyasi yagona maqbul deb hisoblanishi mumkin.

**Jigarrang va yashil iqtisodiyot modellarining qiyosiy tahlili**

| **Taqqoslash omili** | **Jigarrang iqtisodiyot** | **Yashil iqtisodiyot** |
|---|---|---|
| Ustuvor sohalar | Tabiiy resurslarni qayta tiklanmasdan nazorasiz keng iste'mol qilish, faol chiqindilar va ifloslanishlar bilan ishlab chiqarish va ijtimoiy eksklyuzivlikka asoslangan iqtisodiyot | Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish namunalariga, biznes va bozorlarni ko‘kalamzorlashtirishga, barqaror infratuzilmaga, yashil soliq va byudjet islohotiga, tabiiy kapitalga sarmoya kiritishga va atrof-muhit samaradorligi ko‘rsatkichlariga asoslangan iqtisodiyot |
| Narx belgilash | Jarayonlarning aksariyati noqonuniy ravishda amalga oshiriladi, daromadlar, ish haqi va to‘langan soliqlarning minimal mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlari rasmiy e'lon qilingan holda ikki tomonlama hisobga olinadi. | Samarasiz subsidiyalarni yo‘q qilish, tabiiy resurslarni pul ko‘rinishida baholash va atrof-muhitga zarar etkazadigan narsalarga soliq solish |
| Soliq qonunchiligi | Noqulayliklarni qoplash uchun ijtimoiy qo‘shimcha to‘lovlar va atrof-muhitning buzilishi uchun jarimalar zarurligi tufayli ishlab chiqarish rentabelligining pasayishi | Ye'tiborni mehnat soliqlaridan ifloslanish soliqlariga o‘tkazish uchun yashil soliq tizimlarini isloh qilish |
| Investitsiya dasturi | So‘nggi yillarda maqsadli investitsiyalar tabiiy energiya resurslarini, ko‘chmas mulkni qazib olishga va fond bozori chayqovchiligi bilan tavsiflangan moliyaviy bozorlarni faol qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan | Barqaror infratuzilmaga (jumladan, jamoat transporti, qayta tiklanadigan energiya, energiya tejaydigan binolar) va tabiiy kapitalga davlat investitsiyalari |
| Ijtimoiy komponent | Aholi punktlari tizimidagi global o‘zgarishlarni va | Ijtimoiy maqsadlar va mavjud yoki taklif etilayotgan |

| | | |
|---|---|---|
| | urbanizatsiyaning nazoratsiz o‘sishini faol ravishda rag‘batlantiradi. | iqtisodiy siyosat o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash uchun mo‘ljallangan ijtimoiy strategiyalar |
| Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash | “Yashil” loyihalarni amalga oshirish tajribasi va mavjud iqtisodiy voqelikda qaysi vositalar samarali va qaysi biri samarasizligini tushunish tajribasi yo‘qligi sababli “yashil” loyihalarni moliyalashtirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjet mablag‘larini ajratishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin | Yekologik toza texnologiyalarni yaratish bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni davlat tomonidan maqsadli qo‘llab-quvvatlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash |

Yashil iqtisodiyotga tizimli o‘tish va inklyuziv o‘sish uchun tegishli ekologik barqarorlik maqsadlari strategik me’yoriy-huquqiy bazaga kiritilishi kerak. Yashil iqtisodiy model iqtisodiy faoliyatning butun tuzilmasini tubdan o‘zgartirishni va kapitalning uch turi (moliyaviy, insoniy va tabiiy) muvozanatini ta’minlashni o‘z ichiga oladi, shuning uchun uni rivojlantirish hududiy boshqaruv organlarining asosiy vazifasi bo‘lishi kerak. “Yashil” iqtisodiyotning zamonaviy modeli mamlakatning yangi mahsulot, xizmatlar va texnologik bozorlarga chiqishiga yordam berishi kerak. Yashil va inklyuziv iqtisodiy modellar so‘nggi global muammolarga o‘z vaqtida javob berish orqali nafaqat ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish, balki mamlakatning siyosiy barqarorligini ham ta’minlashi mumkin.

**Ashrapxanov Sunnatxon Kamol o‘g‘li -** Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti 2-kurs talabasi
**Ilmiy rahbar:** Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna
TMII, dotsent v.b.

## BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOTNING ROLI

Yashil iqtisodiyot - bu tabiiy boyliklarni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy rivojlanishning asosiy tamoyillariga birlashtiruvchi yangi siyosatdir. Yashil iqtisodiyot tabiiy boyliklarni tejash va chiqindilarni qayta ishlashga urg‘u beradi. Ishlab chiqarish va iste’mol uchun mo‘ljallangan energiya ta’minotida quyosh va shamol kabi toza energiya manbalari muhim rol o‘ynaydi. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni ifloslantiruvchi emissiyalarni kamaytirish va ekologik tozalikni saqlashga ko‘maklashadi; biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va saqlashga yordam beradi; o‘rmonlarni qayta tiklash va muhofaza qilish orqali

iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Suv resurslarini saqlash. Suv tanqisligi butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham katta muammolardan biri bo‘lib, yashil iqtisodiyot suvni tejash va boshqarishga yordam beradi.

2. Havo ifloslanishini kamaytirish. Energiya samaradorligini oshirish va toza energiya manbalariga o‘tish havo sifatini yaxshilaydi.

3. Iqlim o‘zgarishiga moslashish. Yashil iqtisodiyot O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga moslashishga yordam beruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida yangilanuvchi muqobil energiya manbalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, quyosh panellari orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish, suv havzalaridan energiya ishlab chiqarish hamda shamol generatorlari orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish shular jumlasidandir.

Ekologik tozalik va atrof-muhitni sifatli saqlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Sanoat korxonalaridan va transport vositalaridan chiqadigan zararli moddalarni kamaytirish orqali havoning ifloslanishini oldi olinmoqda.

2. Chiqindilarni suv havzalariga tushishini oldini olish va suv resurslarini tejash orqali suv ifloslanishiga qarshi kurashilmoqda.

3. Chiqindilarni qayta ishlash va yo‘q qilish, ya’ni utilizatsiya tizimlari takomillashtirilmoqda.

Yashil texnologiyalar va rivojlangan infratuzilmaga investitsiyalar quyidagi sohalarga yo‘naltirilmoqda:

- binolar, transport va sanoatda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha texnologiyalarni joriy etish;

- quyosh va shamol energiyasi, biogaz va boshqa toza texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash;

- toza suv ta’minoti, chiqindini qayta ishlash tizimlari va ekologik toza transport infratuzilmasini rivojlantirish.

Barqaror rivojlanishni ta’minlashda yashil iqtisodiyotning rolini oshirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- yashil iqtisodiyotni targ‘ib qilishda keng jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash zarur. Buning uchun keng ommaga ma’lumot tarqatish, ta’lim berish va ishtirokni alohida rag‘batlantirish kerak, ya’ni yashil iqtisodiyot haqida jamoatchilikni xabardor qilish, yashil texnologiyalar va ekologik muhofaza qilish bo‘yicha ta’lim berish hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda keng jamoatchilikni jalb qilish ko‘zlangan natijalarga erishish imkonini beradi;

- qonunchilik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish sohasida yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish; mavjud me’yorlarni yashil iqtisodiyot talablariga muvofiqlashtirish va ekologik standartlarga rioya qilishni nazorat qilishni kuchaytirish maqsadga muvofiq;

- yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan

hamkorlik aloqalarini kengaytirish, mazkur sohaga doir ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

**Elena Salnikova -** “Silk Road” International University of Tourism and Cultural Heritage, e-mail: yelena.salnikova@univ-silkroad.uz

## SUSTAINABLE TOURISM ROLE TO BALANCE ECONOMIC DEVELOPMENT AND ENVIRONMENTAL STEWARDSHIP

**Abstract:** Sustainable tourism is gaining momentum as a powerful tool to balance economic development with environmental stewardship. This article explores the notion of sustainable tourism, detailing its role in promoting economic growth while preserving natural and cultural resources. Key approaches and strategies employed to achieve sustainable tourism goals are discussed, drawing on case studies and theoretical insights. The article concludes by highlighting sustainable tourism as a dynamic pathway toward resilience and environmental equilibrium.

**Keywords:** Sustainable tourism, economic development, environmental stewardship, ecotourism, sustainable development, conservation.

**Аннотация:** Устойчивый туризм набирает обороты как мощный инструмент, позволяющий сбалансировать экономическое развитие и бережное отношение к окружающей среде. В данной статье рассматривается понятие устойчивого туризма, подробно описывается его роль в содействии экономическому росту при сохранении природных и культурных ресурсов. Обсуждаются ключевые подходы и стратегии, используемые для достижения целей устойчивого туризма, на основе тематических исследований и теоретических разработок. В заключение статьи подчеркивается, что устойчивый туризм - это динамичный путь к устойчивости и экологическому равновесию.

**Ключевые слова:** Устойчивый туризм, экономическое развитие, бережное отношение к окружающей среде, экотуризм, устойчивое развитие, охрана природы.

**Annotatsiya:** Barqaror turizm iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni muvozanatlashning kuchli vositasi sifatida jadal rivojlanmoqda. Ushbu maqolada barqaror turizm kontseptsiyasi ko‘rib chiqilib, uning tabiiy va madaniy resurslarni saqlash bilan birga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdagi roli batafsil yoritilgan. Barqaror turizm maqsadlariga erishish uchun foydalaniladigan asosiy yondashuvlar va strategiyalar amaliy tadqiqotlar va nazariy ishlanmalar asosida muhokama qilinadi. Maqolaning yakunida barqaror turizm barqarorlik va ekologik muvozanat sari dinamik yo‘l ekanligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Barqaror turizm, iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhitga hurmat, ekoturizm, barqaror rivojlanish, tabiatni muhofaza qilish

### Introduction

Tourism remains one of the most potent economic drivers worldwide,

offering significant contributions to GDP, employment, and cultural exchange. However, its robust growth often poses challenges to environmental sustainability and resource conservation. The imperative for sustainable tourism arises from the need to safeguard ecological and cultural treasures while supporting economic development. This article examines sustainable tourism's role in balancing economic advancement with environmental protection, offering insights into its theoretical foundations and practical applications.

**Theoretical Part**

The theoretical framework of sustainable tourism is built upon the integration of three core sustainability pillars: economic, environmental, and socio-cultural. Each of these components plays a crucial role in harmonizing the benefits of tourism with the need to preserve and protect our planet's resources and cultural heritage.

**1. Economic Sustainability**

Economic sustainability in tourism focuses on ensuring that tourism development contributes to the long-term economic stability and prosperity of the host communities. This involves creating jobs, stimulating local economies, and encouraging investments that do not compromise future growth opportunities. Economic sustainability emphasizes:

- **Local Economic Benefit:** Encouraging local entrepreneurship by promoting small and medium-sized enterprises (SMEs) that provide goods and services to tourists. This approach helps retain more economic benefits within the local community.
- **Equitable Distribution of Wealth:** Ensuring that economic gains from tourism are fairly distributed across different segments of society, reducing inequality and improving overall community welfare.
- **Resilience and Diversification:** Developing diverse tourism products and services to reduce dependency on traditional tourism markets and enhance the destination's ability to withstand economic shocks.

**2. Environmental Sustainability**

Environmental sustainability entails minimizing the negative impacts of tourism activities on the natural environment while actively contributing to its conservation and restoration. Key aspects include:

- **Resource Efficiency:** Implementing practices that reduce energy and water consumption, promote waste management, and minimize pollution. Sustainable tourism encourages the use of renewable resources and eco-friendly technologies.
- **Biodiversity Conservation:** Protecting and enhancing natural habitats and ecosystems. This involves managing visitor numbers, creating protected areas, and supporting conservation projects to safeguard wildlife and plant species.
- **Climate Action:** Addressing the tourism industry's role in climate change by reducing carbon footprints, promoting sustainable transportation, and supporting global climate initiatives.

**3. Socio-Cultural Sustainability**

Socio-cultural sustainability focuses on preserving the cultural integrity, traditions, and social fabric of host communities while encouraging meaningful interactions between tourists and locals. This dimension includes:

- **Cultural Heritage Preservation:** Protecting historical sites, traditional practices, and cultural expressions from degradation or commodification due to tourism.
- **Community Engagement and Empowerment:** Involving local communities in tourism planning and development, ensuring their voices and needs are represented. This fosters ownership and increases the likelihood of sustainable outcomes.
- **Ethical and Respectful Tourism Relationships:** Promoting ethical conduct and cultural sensitivity among tourists, encouraging them to respect local customs and contribute positively to the community's social fabric.

**Integrating the Three Pillars**

The synergy of economic, environmental, and socio-cultural sustainability forms the backbone of sustainable tourism. Theoretical models, such as the Triple Bottom Line (TBL), emphasize the interconnectedness of these dimensions, advocating for holistic approaches that address all three aspects simultaneously.

Sustainable tourism theory suggests the use of tools and frameworks such as carrying capacity assessments, environmental impact assessments, and sustainability indicators to measure and guide tourism development. Additionally, multi-stakeholder collaboration, involving governments, private sector entities, NGOs, and local communities, is crucial for effective implementation.

In summary, the theoretical part of sustainable tourism underscores a multifaceted approach that balances economic growth with the need to preserve and protect natural and cultural resources. By incorporating these theoretical insights, destinations can develop tourism strategies that not only enhance economic prosperity but also ensure long-term environmental and cultural sustainability.

**Methods**

To achieve the delicate balance between economic growth and environmental stewardship in sustainable tourism, a variety of methods and strategies are employed. These methods incorporate innovative practices, collaborative approaches, and policy frameworks designed to support both the local economy and the ecosystem. Below, we explore the key methods used in implementing sustainable tourism.

**1. Certification Schemes and Standards**

Certification schemes play a significant role in promoting and recognizing sustainable practices in the tourism industry. These programs provide guidelines and benchmarks for tourism businesses to achieve environmental, economic, and social sustainability goals.

- **Global Sustainable Tourism Council (GSTC) Standards:** GSTC offers criteria and certification for destinations and accommodation facilities, ensuring adherence to sustainable practices. These standards include resource management, cultural preservation, and community engagement.
- **Eco-labels:** Labels such as Green Key and EarthCheck signal to tourists and stakeholders that certified businesses are committed to minimizing their environmental impact, enhancing their reputation and marketability.

**2. Community-Based Tourism (CBT)**

Community-based tourism emphasizes empowering local communities through active involvement in tourism planning and development, ensuring that they receive a fair share of the economic benefits.

- **Participatory Planning:** Engaging local communities in decision-making processes to develop tourism strategies that align with their needs and cultural values.
- **Local Ownership and Employment:** Promoting local ownership of tourism enterprises and prioritizing local employment to retain economic benefits within the community.

**3. Policy and Governance**

Effective governance and supportive public policies are critical for fostering sustainable tourism practices. Governments at all levels can implement policies that incentivize sustainable development.

- **Regulatory Frameworks:** Establishing regulations and policies that mandate sustainability standards, such as environmental impact assessments, zoning laws, and protected areas.
- **Incentives and Subsidies:** Offering financial incentives, such as tax breaks or grants, to businesses that adopt sustainable practices, thereby encouraging investment in sustainability.

**4. Technological Innovations**

Technology plays a pivotal role in supporting sustainable tourism by enhancing resource efficiency and improving management capabilities.

- **Smart Tourism Technologies:** Utilizing data analytics, IoT, and mobile applications to manage tourist flows, reduce congestion, and optimize resource use in destinations.
- **Carbon Footprint Reduction:** Implementing technologies that monitor and reduce carbon emissions, such as energy-efficient equipment, renewable energy sources, and eco-friendly transportation options.

**5. Education and Awareness**

Enhancing awareness and promoting education about sustainable tourism principles among stakeholders, including tourists, businesses, and local communities, fosters a culture of sustainability.

- **Tourist Education:** Providing information and resources to educate tourists on responsible travel behaviors and the importance of sustainability.
- **Training Programs:** Offering training and capacity-building programs for tourism operators to implement and benefit from sustainable practices.

**6. Public-Private Partnerships (PPPs)**

Collaboration between the public sector, private companies, NGOs, and academic institutions is vital in advancing sustainable tourism objectives.

- **Collaborative Initiatives:** Developing joint projects that leverage the strengths and resources of different sectors to address sustainability challenges in tourism.

- **Stakeholder Engagement:** Fostering interactive dialogues and partnerships to ensure cohesive, inclusive, and comprehensive approaches to sustainable tourism development.

In summary, the methods for achieving sustainable tourism are diverse and interlinked, combining regulatory, technological, community-based, and collaborative approaches. By employing these methods, destinations and tourism operators can effectively balance economic growth with the need to protect and preserve valuable natural and cultural resources. The success of these efforts relies on a concerted commitment to sustainability from all stakeholders involved in the tourism ecosystem.

**Conclusions**

Sustainable tourism is instrumental in aligning economic progress with ecological and cultural preservation. Through strategic planning and an inclusive approach that encompasses environmental, economic, and socio-cultural dimensions, sustainable tourism can lead to resilient communities and ecosystems. As global awareness and demand for responsible tourism rise, it becomes imperative for stakeholders to embrace and implement sustainable practices. This collective effort is essential to safeguarding the planet's natural and cultural resources for future generations while supporting vibrant, economically viable communities.

**References**

1. World Travel & Tourism Council (WTTC) - Economic Impact of Tourism: wttc.org
2. Global Sustainable Tourism Council (GSTC) - Sustainable Tourism Standards: gstcouncil.org
3. United Nations World Tourism Organization (UNWTO) - Sustainable Tourism and the SDGs: unwto.org
4. Case Studies on Community-Based Tourism: Responsible Travel - responsibletravel.com
5. "Sustainable Tourism: Principles, Contexts and Practices" - David Weaver (Book)

**Fattoyev Olimjon G‘ayrat o‘g‘li** - Tayanch doktorant, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, e-mail: olimjon.fattoyev.99@mail.ru, tel:+998975535667

## DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGINI MOLIYALASHTIRISHDA ICHKI VA TASHQI MANBALARDAN OPTIMAL FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Maqolada davlat budjeti holati, undagi reja ko‘rsatkichlari va amaldagi ijro o‘rtasidagi nomutanosiblik hamda davlat moliyasining asosiy bo‘g‘inlari bo‘lgan davlat byudjeti va davlat qarzi holati tahlil qilingan. Davlat qarzi tarkibida ichki qarz ulushini orttirish bo‘yicha fikrlar berilgan hamda bu jarayonning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sirlari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat budjeti, davlat qarzi, ichki qarz, tashqi qarz, budjet ijrosi, konsolidatsiyalashgan budjet.

**Аннотация.** В статье анализируется состояние государственного

бюджета, несоответствие плановых показателей фактическому исполнению, а также состояние государственного бюджета и государственного долга, которые являются основными звеньями государственных финансов. Приведены мнения об увеличении доли внутреннего долга в составе государственного долга, а также отмечено положительное влияние этого процесса на экономику страны.

**Ключевые слова:** государственный бюджет, государственный долг, внутренний долг, внешний долг, исполнение бюджета, консолидированный бюджет.

**Abstract.** The article analyzes the state of the state budget, the disparity between the plan's indicators and actual implementation, and the state of the state budget and state debt, which are the main links of state finance. Opinions on increasing the share of domestic debt in the composition of the state debt are given, and the positive effects of this process on the country's economy are mentioned.

**Key words:** state budget, state debt, internal debt, external debt, budget execution, consolidated budget.

**Kirish.** Budjet taqchilligi – bu budjet xarajatlarining daromadlaridan oshishi natijasida hosil bo‘ladigan moliyaviy holat bo‘lib, jahondagi deyarli barcha davlat o‘z tarixida bunday iqtisodiy holatga duch keladi. Nazariy jihatdan balanslashgan, ya’ni davlat budjeti daromadlari va xarajatlari teng bo‘lgan budjet tushunchasi mavjud bo‘lsada, amaliy jihatdan bunday holatga erishish juda qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki rejadagi balanslashgan budjet ijrosini ta’minlashda bir qator ichki va tashqi ta’sirlar natijasida budjetning daromad yoki xarajat qismida ko‘zda tutilmagan o‘zgarishlar kuzatiladi.

Budjetning moliyaviy-iqtisodiy rejalashtirilgan daromadlar tarbiki benuqson, o‘sib borish tartibida ishlashi, davlat xarajatlari esa daromadlardan oshmaydigan davlatni tasavvur qilish qiyin. Sababi hozirgi kundagi butun jahon glaballashuvi jarayonida barcha mamlakatlarda bosh islohotchi sifatida u yoki bu ma’noda davlat bosh rolga chiqadi hamda o‘z funksiya va vazifalarini bajarishi uchun unga moliyaviy manba sifatida davlat budjeti kerak bo‘ladi. Jahon tajribasi dalolat berishicha, budjet taqchilligi muammosini optimal hal etgan mamlakatlar ko‘p emas, ular – Germaniya, Yaponiya va Shvetsariya. Hattoki AQSh uzoq davr mobaynida har yili sezilarli davlat budgeti taqchilligiga ega davlatdir. Bu taqchillikni qoplash maqsadidagi olingan qarz mablag‘lari ayni vaqtda (27.10.2024 soat 14:46)to‘lanishi kerak bo‘lgan foizlar bilan birga hisoblanganda 35.827873063 trln. dollarni[1] tashkil etadi. Joriy holatdagi AQShning davlat qarzi miqdorini o‘ta aniqlikda keltirishimizga sabab shundaki, olingan qarzlarning foizlari hisobiga davlatning qarz mablag‘lari soniyasiga o‘rtacha 30 dollarga ortmoqda.

Davlat budjeti taqchilligi, uni turli yo‘llar orqali qoplash hamda optimal moliyalashtirish nisbatini belgilab olish borasida ham mamlakatimizda ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining «Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash» deb nomlangan uchinchi ustuvor yo’nalishidagi 21-

[1] www.usdebtclock.org

maqsadda «Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023 yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta’minlash» va «Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz mikdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta’minlash» belgilangan[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Davlat budjeti taqchilligi, uni moliyalashtirish hamda davlat qarzining makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlash muammosi qator xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o’rganilgan. Jumladan, A.Smit, D.Rikardo, J. Keynslarning ishlarida yoritib berilgan.

Budjet nobalanslashuvi muammosiga turli iqtisodiy adabiyotlarda bir-biridan farq qiladigan yondashuvlarni uchratish mumkin. Lekin ohirgi paytda iqtisodchilarning ko‘pchiligi bu borada XX asrning buyuk iqtisodchisi J.Keyns fikriga qo‘shiladilar. J.Keyns va uning fikrlarini yanada to‘ldirib borgan Keynschilar nuqtai nazariga ko‘ra budjet taqchilligi fiskal siyosat yuritishning oddiy oqibati hisoblanadi. Har bir mazkur taqchillikning asoslanganligi iqtisodiyot yalpi xarajatlarida davlat ulushi miqdorining davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligiga bog‘liq. Keynschilar fikriga ko‘ra balanslashgan budjet iqtisodiyot muvozanat holatida, to‘la bandlike holatida bo‘lganda mavjud bo‘ladi. Bunda to‘la bandlik iqtisodiyotning yalpi xarajatlarini ko‘paytiradigan omillar o‘lchami to‘la bandlik bandlik iqtisodiyotning yalpi xarajatlarini kamaytiradigan omillar o‘lchamiga teng bo‘ladi. Agar yuqorida aytib o‘tilgan shartlardan bittasi ham bajarilmasa, budjetning balanslashmaganligi asoslanadi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2023-yildagi 886-sonli “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuniga asosan 2024-yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 52 609,9 mlrd.so‘m miqdorida rejalashtirilgan hamda bu ko‘rsatkich 2025 va 2026-yillar uchun mos ravishda 45 727,6 va 51 597,0 mlrd. so‘m miqdorida mo‘ljal qilingan. Ayni vaqtdagi rejalashtirilgan budjet taqchilligi mamlakat YaIMga nisbatan 4% miqdorida belgilangan.

**1-jadval**

**2022- 2024 -yillar uchun mo‘ljallangan budjet parametrlari, mlrd so‘m (reja)[3]**

| T/r | Yillar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Ko‘rsatkichlar | 2022 | YaIMga nisbatan, % | 2023 | YaIMga nisbatan, % | 2024 | YaIMga nisbatan, % |
| Davlat budjeti va maqsadli jamg‘armalari taqchilligi | 15 654 | 1.8 | 24721 | 2.3 | 40 882 | 3.1 |
| Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar | 10 696 | 1.2 | 7 813 | 0.7 | 11 750 | 0.9 |
| Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi | 25 546 | 3.0 | 32 534 | 3.0 | 52 609 | 4.0 |

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlili asosida ko‘rinadiki, dastlabki 2 yilda

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidalgi Farmoni

[3] www.lex.uz

konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YaIMga nisbatan 3% hamda 2024- yil uchun qilingan budjet mo‘ljalida 4% etib belgilangan. Bunda asosiy taqchillikning o‘sish miqdori davlat budjetida kutilgan. Shuni ham ta’kidlash joizki, yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi daromadlari va xarajatlaridan kelib chiqqan holda ushbu jamg‘armadagi taqchillik holatini ham keltirish mumkin. Lekin mazkur holatdagi summa umumiy miqdordagi taqchillikning juda kichik summasini tashkil etgani sababli bu ko‘rsatkich keltirilmagan.

**2-jadval**

**2022- 2024 -yillardagi budjet ijrosi, trln so‘m**

| T/r | Yillar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Ko‘rsatkichlar | 2022 | YaIMga nisbatan, % | 2023 | YaIMga nisbatan, % | 2024 (6 oylik ijro) | YaIMga nisbatan, % |
| Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi | 35.2 | 4.0 | 59.0 | 5.5 | 34.5 | 2.4 |

2022-24-yillardagi budjet ijrosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ushbu yillar uchun qilingan reja ko‘rsatkichlariga amaldagi holat to‘g‘ri kelmasligiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa 2023-yil uchun qilingan YaIMga nisbatan 3%li budjet taqchilligi 5.5% ga qadar oshib ketgan. Vaholangki, aynan 2023-yil “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni amalga oshirishdagi dastlabki yillari edi. Mazkur holatdan xulosa qilishimiz mumkinki, nafaqat 2023-yil uchun budjet reja ko‘rsatkichlari to‘gri mo‘ljal qilinmagan balki Taraqqiyot strategiyasidagi belgilab berilgan maqsa va vazifalarning ijrosi to‘liq ta’minlanmagan.

Mamlakatimizda mavjud davlat budjeti taqchilligini qoplashda faol qarzli moliyalashtirish amaliyotidan foydalaniladi.




**1-rasm. Davlat qarzi dinamikasi[4] mlrd dollar**

2021-yildagi davlat qarzi tarkibida ichki qarzlar ulushi 10.6% ni tashkil etgan

[4] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

va bu ko‘rsatkich keying yilda 11.3%ga yetgan. 2023-yilga kelib 15%li ichki qarzga ega bo‘lgan, umumiy qiymati 34.9 mlrd dollar bo‘lgan davlat qarzi shakllangan. Davlat qarzi so‘ngi uch yilda 32% ga ortganini hisobga olsak umumiy qarz miqdorida ichki qarz ulushining o‘sish dinamikasini ko‘rsatmoqda.

**Xulosa va takliflar.**

O‘zbekistondagi budjet ijrosi, uni reja ava amaliy ko‘rsatkichlarini o‘rganish, qarzli moliyalashtirish hamda uni tarkibidagi tashqi va ichki qarz nisbatlarini tahlil qilish orqali quyidagicha takliflarni keltirish mumkin:

- Davlarning budjet reja ko‘rsatkichlarini tuzishning aniqlik darajasini oshirish;
- Budjet ijro nazoratini kuchaytirish;
- Davlat qarzli tarkibida ichki qarz miqdorini oshirish.

Nima uchun davlat qarzi tarkibida ichki qarz miqdorini orttirishimiz kerak? Sababi ichki qarz davlatdagi nafaqat budjet taqchilligi muammosini, balki boshqa bir qator moliyaviy maslalalarda ham harakatlantiruvchi drayver ro‘lini amalga oshirishi mumkin. Ular quyidagilar:

- Moliya bozori jozibadorligini oshirish;
- Yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh turgan pul mab’lag‘larini harakatga keltirish;
- Davlat obligatsiyalari va boshqa ko‘rinishdagi moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali kam riskli moliyaviy aktivlarni muomalaga kiritish;
- Milliy valyuta qadrini oshirish;
- Pul aylanish tezligini oshirish va h.k.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidalgi Farmoni.
2. Zaynalov J.R., Aliyeva S.S., Xusanov B.Sh., Latipova Sh.M. “Davlat budjeti” O‘quv qo‘llanma – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021.
3. Зайналов Д.Р., “Проблемы эффективности управления финансовой системой в условиях инновационного развития экономики”, MP, vol. 43, pp. 675–680, Dec. 2023.
4. Fattoev O. Causes and Consequences of Budget Deficit //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 34-40.
5. www.lex.uz
6. www.stat.uz
7. www.usdebtclock.org

**Jumayeva Muxlisa Abdug‘ani qizi –** PhD, Alfraganus universiteti

e-mail: jumaeva4664gmail.com ORCID: 0000-0001-8999-1776

## INKLUZIV TADBIRKORLIKNING MAMLAKAT IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun inkluziv tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash zarurati va uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini yoritishga bag‘ishlangan. Bunda inkluziv tadbirkorlik tushunchasi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishga ko‘maklashuvchi omil sifatida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, inklyuziv tadbirkorlikning ekologik barqarorlikka qo‘shadigan hissasi, aholining zaif qatlamlariga iqtisodiy imkoniyatlar yaratishdagi roli, davlat va xalqaro tashkilotlarning qo‘llab-quvvatlashi hamda iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasi haqida tahlillar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Inkluziv tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat, kichik biznes, davlat qo‘llab-quvvatlashi, kam ta’minlangan qatlam

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО БИЗНЕСА В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

**Аннотация**: Данная статья посвящена выяснению необходимости поддержки инклюзивного предпринимательства для устойчивого экономического развития и его влияния на социальную и экономическую стабильность. При этом концепция инклюзивного предпринимательства рассматривается как фактор, способствующий сокращению социального неравенства, созданию новых рабочих мест и повышению экономической активности. Также представлены анализ и практические рекомендации о вкладе инклюзивного предпринимательства в экологическую стабильность, его роли в создании экономических возможностей для уязвимых слоев населения, поддержке государственных и международных организаций, его вкладе в экономический рост.

**Ключевые слова**: Инклюзивное предпринимательство, устойчивое развитие, социальная справедливость, малый бизнес, государственная поддержка, малообеспеченная группа населения.

## ROLE AND IMPORTANCE OF INCLUSIVE BUSINESS IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY

**Abstract**: This article is devoted to identifying the need to support inclusive entrepreneurship for sustainable economic development and its impact on social and economic stability. At the same time, the concept of inclusive entrepreneurship is considered as a factor that helps reduce social inequality, create new jobs and increase economic activity. It also provides analysis and practical recommendations on the contribution of inclusive entrepreneurship to environmental stability, its role in creating economic opportunities for vulnerable groups of the population, support

from government and international organizations, and its contribution to economic growth.

**Keywords**: Inclusive entrepreneurship, sustainable development, social justice, small business, government support, low-income group of the population.

Bugungi kunda mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti faqat yirik bizneslar va sanoat rivoji bilan emas, balki har bir fuqaroning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki orqali ham belgilanmoqda. Shu maqsadda dunyoda va mamlakatimizda “inklyuziv tadbirkorlik” tushunchasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Inkluziv tadbirkorlik – iqtisodiy resurslar va imkoniyatlarni jamiyatning barcha qatlamlariga taqdim etishni maqsad qiluvchi yondashuvdir. Bu ayniqsa yoshlar, ayollar, nogironlar va kam ta’minlangan qatlamlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish yo‘li bilan iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Inkluziv tadbirkorlik nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlaydi, balki iqtisodiy o‘sishni ham jadallashtiradi. Bu jarayonda kam ta’minlangan va iqtisodiy imkoniyatlardan chetda qolgan qatlamlar iqtisodiyotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa butun iqtisodiy tizimni harakatga keltiradi va daromadlarni teng taqsimlashga ko‘maklashadi. Misol uchun, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar iqtisodiy o‘sishining sabablaridan biri bu davlat tomonidan kichik va o‘rta bizneslarning inklyuzivligini oshirishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar bo‘lgan. Shu yo‘l bilan bu mamlakatlar iqtisodiyoti barqaror o‘sishni ta’minlagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma`lumki, inkluziv tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatlarda barcha qatlamlarning ishtirokini ta’minlash va ularga teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan tamoyildir. U yerda ijtimoiy va iqtisodiy tabaqalashuvni kamaytirish, kam ta’minlangan qatlamlarga yangi ish o‘rinlarini yaratish va umumiy iqtisodiy farovonlikka erishish asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Jumladan, chekka hududlarda mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish orqali aholiga nafaqat daromad manbai yaratish, balki mahalliy iqtisodiyotni jonlantirish va kambag‘allikni qosqartirish imkoniyati ham vujudga keladi.

BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi. Inkluziv tadbirkorlik esa ushbu jihatlarni uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Jamiyatdagi iqtisodiy notenglik darajasi pasaygani sayin barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Inkluziv tadbirkorlik aynan shunga xizmat qilib, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy adolatni ta’minlaydi. O‘zbekiston ham 2030-yilgacha bo‘lgan davrdagi global kun tartibida qo‘yilgan vazifalarni bajarish va “Barqaror rivojlanish maqsadlari” sohasidagi 16 ta milliy maqsadga erishish uchun ko‘plab manfaatdor tomonlar ishtirokidagi sheriklikka shuningdek keng qamrovli yondashuvga sodiq ekanini tasdiqlagan.

Inkluziv tadbirkorlik yangi ish o‘rinlari yaratish orqali iqtisodiyotni faollashtirishda alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar va yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish aholining turli qatlamlarini iqtisodiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Inkluziv tadbirkorlik orqali jamiyat a`zolari o‘z qobiliyat va resurslarini samarali ishga solib,

iqtisodiyotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buni “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi misolida ko‘rsak, ushbu dastur orqali yoshlar o‘z biznes g‘oyalarini amalga oshirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu faqat ish o‘rinlari yaratish bilan cheklanmasdan, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishga ham xizmat qilmoqda. “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida 3 ming 161 ta biznes loyihaga jami 408,8 mlrd. so‘m miqdorida imtiyozli kredit mablag‘lari ajratish orqali 20 ming 34 ta yangi ish o‘rni yaratilishiga erishildi. Jumladan, ishlab chiqarish sohasida 191,7 mlrd. so‘mlik 1 ming 462 ta xizmat ko‘rsatish sohasida 140,6 mlrd. so‘mlik 1 ming 72 ta, qishloq xo‘jaligi sohasida 93,7 mlrd. so‘mlik 715 ta loyiha realizatsiya qilindi.

Darhaqiqat, inkluziv tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit imkoniyatlari taqdim etilishi orqali ularning faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish eng ko‘p uchraydigan dastaklar qatoriga kiradi. O‘zbekistonda inkluziv tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar orqali ayollar va nogironlar kabi ijtimoiy zaif qatlamlarga ham tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyati beriladi, bu esa iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, inkluziv tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida o‘ta muhim rol o‘ynaydi. U barcha qatlamlarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, ijtimoiy barqarorlikni oshiradi va ekologik barqarorlikka hissa qo‘shadi. Shu boisdan inkluziv tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat va xalqaro miqyosda keng ko‘lamda amalga oshirilishi lozim. Bu kabi chora-tadbirlar qatorida davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, ta’lim va malaka oshirish dasturlarini yaratish, qishloq joylarida infratuzilmani rivojlantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda kichik va o‘rta korxonalarga axborot va maslahat xizmatlarini ko‘rsatish kabi amaliy qadamlarni taklif sifatida aytish o‘tish zarur.

**Kholmo‘minov Khumoyun -** PhD student of the National University of Uzbekistan

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF LOGISTICS SERVICES IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY

**Abstract:** In this article, the role of logistics services in our national economy and its importance are highlighted, mainly the contribution of logistics services to economic sectors, their share in GDP and the role of the country in the social sphere are also researched.

**Key words:** Logistics, sustainable development, logistic processes, integration, logistic chain, logistic functions, production.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada logistik xizmatlarning milliy

iqtisodiyotimizda tutgan o‘rni va uning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, asosan logistik xizmatlarning iqtisodiy tarmoqlarga qo‘shayotgan hissasi, Yaimdagi ulushi va mamlakatning ijtimoiy sohadagi o‘rni ham tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Logistika, barqaror rivojlanish, logistik jarayonlar, integratsiyalashuv, logistik zanjir, logistik funksiyalar, ishlab chiqarish.

**Аннотация:** В данной статье освещена роль логистических услуг в нашей национальной экономике и ее значение, а также исследован вклад логистических услуг в отрасли экономики, их доля в ВВП и роль страны в социальной сфере.

**Ключевые слова:** Логистика, устойчивое развитие, логистические процессы, интеграция, логистическая цепочка, функции логистики, производство.

Logistics services play a critical role in the sustainable development of national economies. By efficiently managing the movement, storage, and distribution of goods, logistics contributes to economic growth, resource optimization, and environmental sustainability. This article explores the significance of logistics services and their impact on the sustainable development of national economies.

In order to ensure stable growth of the national economy and improve macroeconomic indicators, it is necessary to improve the results in each branch of the economy. In our country, logistic services play an important role in ensuring continuity of regular activities of all economic sectors. In particular, in our country, logistics services have a special place in the field of services. As a result of the targeted state programs implemented in this direction, together with the increase in the number of enterprises operating in the logistics sector, the creation of services such as the delivery of the necessary products at the right time and to the right place within the framework of meeting the demand of consumers for products, not only the activities of manufacturers but also stimulates the increase of consumer demand for products[1].

According to analyses, from 2010 to 2023, the volume of gross added value in the sectors of Uzbekistan’s national economy has improved, with the share of transportation and storage services reaching 56.7 trillion soums in 2023, accounting for 5.3% of GDP. Although the share of transportation and storage services in GDP decreased from 7.7% to 5.3% during the observed period, the absolute amount increased significantly from 6.9 trillion soums to 56.7 trillion soums. This indicates the rapid development of logistics services in the country[2].

Analyzing the above data, we can see a positive growth trend in the overall contribution of transportation and storage services to the national GDP year by year. Particularly, due to the incentives created for foreign and local entrepreneurs in the sector, the gross added value in this field increased by 4.5 times from 2010 to 2019, while during the period from 2020 to 2023, this value grew by nearly 2 times.

Logistics services also play an important role in the social sphere of our country. In particular, several hundred thousand residents of our country are engaged in logistics services today (look at the photo 1). Also, food safety of the population is ensured through logistic services, and consumers have the opportunity

to consume ecologically clean products.




**Photo 1. The number of people who works in logistics sector of Uzbekistan (in thousands) [3]**

Moreover, Logistics plays a pivotal role in the sustainable development of Uzbekistan's economy. As the country continues to modernize and diversify its economic sectors, efficient logistics services are essential for ensuring the smooth flow of goods and services. There are several positive aspects of logistics services in the sustainable development of the country's economy:

- **Enhancing Economic Efficiency.** Efficient logistics systems streamline supply chains, reducing lead times and operational costs. In Uzbekistan, where various sectors-from agriculture to manufacturing-are crucial for economic stability, improved logistics can enhance productivity. By optimizing transportation routes and inventory management, businesses can operate more effectively, contributing to overall economic efficiency.
- **Supporting Trade and Market Expansion.** Logistics services are vital for supporting both domestic and international trade. As Uzbekistan seeks to integrate more fully into global markets, robust logistics networks enable the timely and cost-effective movement of goods across borders. This connectivity facilitates export opportunities and strengthens trade relationships, vital for the country's economic growth.
- **Promoting Regional Development.** Efficient logistics can stimulate regional development by connecting remote areas with urban centers. By improving access to markets and resources, logistics services can promote economic activity in less developed regions, thus helping to reduce regional disparities. This is particularly important in Uzbekistan, where rural development is a key component of national policy.[4]
- **Creating Employment Opportunities.** The growth of the logistics sector leads to job creation in various areas, including transportation, warehousing, and supply chain management. As more companies invest in logistics infrastructure, the

demand for skilled labor increases, helping to reduce unemployment and improve living standards in the country.

➢ **Environmental Sustainability.** Logistics also plays a critical role in promoting environmental sustainability. By optimizing transport routes and employing green logistics practices, such as using energy-efficient vehicles and reducing waste, Uzbekistan can minimize its environmental footprint. Sustainable logistics practices contribute to the country's broader goals of reducing carbon emissions and promoting eco-friendly economic growth.

➢ **Supporting Policy Implementation.** The National government has implemented various policies aimed at enhancing the logistics sector. These include investments in infrastructure, modernization of transport networks, and development of logistics hubs. Effective implementation of these policies is essential for realizing the full potential of logistics in fostering sustainable economic development.

In conclusion, logistics is a fundamental component of Uzbekistan's sustainable economy. By enhancing efficiency, supporting trade, promoting regional development, creating jobs, and advancing environmental sustainability, logistics services significantly contribute to the country's economic growth. As Uzbekistan continues to develop its logistics infrastructure and practices, the sector will play an increasingly important role in achieving sustainable economic objectives and improving the quality of life for its citizens.

**List of used literature**

**1**. Deimante Sulskyte The impact of logistics sector on sustainable development, Kaunas University of Technology, December 2019, DOI:10.15388/OpenSeries.2019.18407

2. https://stat.uz/uz/

3. https://logistika.uz/en/

4. Yusufkhonov Zokirkhan Yusufkhan ugli Topical issues of improving the quality of road transport in the Republic of Uzbeksitan, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Volume 1/issue 7, Issn 2181-1784, 2021y.

**Mansurov Saidxo'ja Kamalovich** - "International school of finance and technology" институти ўқитувчиси, "Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti" tayanch doktoranti

## TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA EKSPORT STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO AMALIYOT

**Kirish.** O'zbekiston to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida eksportning o'rni katta bo'lib, ayniqsa to'qimachilik mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham mamlakat eksport strategiyasini takomillashtirish va

xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tezisda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining hozirgi holati, xalqaro amaliyotda eksport strategiyalari va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqiladi.

**O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi.**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish davlatning ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Sifatli pahta xom ashyo zaxirasi mavjudligi chuqur qayta ishlash sanoatining katta potensialini namoyon etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat pahta xom ashyo yetishtirib eksport qilish tizimi mavjud edi. Ushbu ko‘rsatkichlar 2010 yilga kelib, chuqur qayta ishlash sanoatiga o‘tilib, ip-kalava, trikotaj mato, uni bo‘yash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshganligi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu borada Hukumat yirik xorijiy investitsiyalar kiritish, xomashyo yetishtirishni rag‘batlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston, dunyoda to‘qimachilik mahsulotlari eksportida yetakchi davlatlardan biri bo‘lishga intilib, sohaning eksport salohiyatini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Mamlakatda paxta yetishtirish va uni qayta ishlashdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qadar barcha bosqichlarni o‘z ichiga oladigan vertikal integratsiya tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim eksport qilinadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. Aynan 2016 yilga kelib, O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoatining transformatsiya qilish jarayoniga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib, strategik maqsadlar belgilab olindi. Bular barchasi mamlakat rahbari tomonidan tub islohotlar amlga oshirish bilan boshlandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shaxsan mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surgan tashabbus pirovardida bolalar mehnati, o‘qituvchi va tibbiyot hodimlarini pahta terimiga majburan jalb qilishga butkul barham berilib, natijada xalqaro pahta koalitsiyasi tomonidan (Cotton campaign) O‘zbekiston pahtasidan bo‘lgan mahsulotlarga boykot 2022 yilga kelib olib tashlandi.

Buning natijasida eksport mahsulotlari 2023 yilga kelib 2017 yilga nisbatan 3 karrasiga oshib 3,4 mlrd dollarni tashkil qildi. Tayyor mahsulotlar hajmi to‘qimachilik sanoatidagi ulushi ham sezilarli ravishda oshib bormoqda. Yana bir islohotlardan biri O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 14-dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-5285 sonli farmoni qabul qilindi. Farmon mohiyati mamlakat pahta xom ashyosini chuqur qayta ishlash asosida qo‘shimcha qiymat mahsulotlar ishlab chiqib ularni xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo‘ldi hamda qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish maqsadida pahta-to‘qimachilik klasterlar tashkil etildi. Bugungi kunga kelib jami pahta-to‘qimachilik klasterlar soni 142 tani tashkil etadi, shundan 10 ta klaster xom ashyodan tortib tayyor mahsulotgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunga to‘qimachilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga diversifikatsiya qilish jarayonlariga keng amalga oshirilib kelmoqda. Jumladan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga turli xil assortimentga ega mahsulotlar eksporti amalga oshirib kelinmoqda. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalqaro koalitsiya

tomonidan O‘zbekiston pahta boykotiga bo‘lgan ta’qiq olib tashlangach Yevropa bozorlariga kirish sezilarli darajada o‘sganligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Klaster sub’yektlari mamlakat paxtasini xalqaro me'yor va standartlarga mos keladigan darajada yetishtirish ularni yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, chuqur qayta ishlashda soha rivojiga doir Xukumat tomonidan juda ko‘plab qaror va farmonlar qabul qilingan bo‘lib, buning pirovardida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Xalqaro amaliyotda eksport strategiyalari**

Dunyo bo‘ylab rivojlangan davlatlarning eksport strategiyalariga nazar solsak, ularning asosiy muvaffaqiyat omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:




**1-Rasm. Xalqaro amaliyotda eksport strategiyalari.**

1. **Bozor tahlili va segmentatsiyasi**: Rivojlangan davlatlar eksport strategiyasini tuzishda avvalo bozor tahlili va segmentatsiyasiga katta e'tibor beradi. Bozor ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlash, xaridorlar talabini o‘rganish va mahsulotlarni ushbu talabga moslashtirish eksport muvaffaqiyatining asosiy omillaridandir. Masalan, Xitoy, Hindiston va Turkiya kabi davlatlar xalqaro bozorlarga o‘z to‘qimachilik mahsulotlarini chiqarishda bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishgan.

2. **Raqobatbardosh narx belgilash**: Xalqaro bozorda mahsulotning narxi raqobatbardosh bo‘lishi kerak. Bunda narxni pasaytirish emas, balki mahsulotning sifati va qo‘shimcha qiymatni oshirish orqali raqobatbardosh narxni ta’minlashga e'tibor qaratiladi. Vetnam, Turkiya, Xitoy, Bangladesh kabi davlatlar to‘qimachilik sohasida qo‘shimcha qiymatni oshirish orqali yuqori narxlarda muvaffaqiyatli eksport qiladi.

3. **Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish**: Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar eksportni rivojlantirishda hal qiluvchi omildir. Xalqaro kompaniyalar texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishmoqda. Masalan, Italiya, Germaniya va Italiya yuqori texnologiyali uskunalar va innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalari orqali to‘qimachilik mahsulotlarining sifatini oshirishga muvaffaq bo‘lgan.

4. **Marketing va brending strategiyalari**: Xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli eksport qilayotgan davlatlar marketing va brendingga katta ahamiyat beradi. Mahsulotni xalqaro bozorga chiqarganda, uni raqobatchilardan ajratib turadigan va xaridor e'tiborini tortadigan brend yaratish muhim hisoblanadi.

**O‘zbekistonda eksport strategiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari**

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirishda xalqaro amaliyotdan o‘rganish va ularni milliy strategiyaga tatbiq qilish zarur. Quyida O‘zbekiston uchun muhim bo‘lgan bir nechta yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi:

1. **Bozor diversifikatsiyasi**: Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning asosiy eksport bozorlarini Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari tashkil etadi. Lekin xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, eksport geografiyasini kengaytirish eksport hajmini oshirish va eksport bozorlariga bog‘liq bo‘lmaslik uchun muhim omildir. Shu boisdan ham O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlashi lozim.

2. **Texnologik modernizatsiya**: Zamonaviy texnologiyalarga sarmoya kiritish to‘qimachilik mahsulotlarining sifatini oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston kompaniyalari xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun texnologik modernizatsiyaga ko‘proq e'tibor qaratishi lozim bo‘ladi.

3. **Mahsulotning qo‘shimcha qiymatini oshirish**: O‘zbekistonda eksport qilinayotgan mahsulotlarning katta qismi yarim tayyor mahsulotlar ya’ni ip-kalava, trikotaj mato, gazlamala mahsulotlardan iborat. Bu esa qo‘shimcha qiymatni oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga ko‘proq e'tibor qaratish lozim.

4. **Brending va marketing strategiyalari**: O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarishda marketing va brendingga katta ahamiyat qaratishi kerak. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar xalqaro miqyosda o‘z brendi ostida tanitilishi, xaridorlar uchun e’tiborga molik bo‘lishi zarur. Buning uchun xalqaro brend yaratish strategiyasini ishlab chiqish muhimdir.

5. **Sertifikatlashtirish va xalqaro standartlarga rioya qilish**: Xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish uchun mahsulotlarning xalqaro sertifikatlarga mos bo‘lishi muhimdir. O‘zbekiston kompaniyalari xalqaro standartlarga rioya qilishi va eksport qilinadigan mahsulotlarni tegishli sertifikatlar bilan ta’minlashi lozim. Bu mahsulotlarning jahon bozorlarida tan olinishi va yuqori darajadagi xaridorgir bo‘lishiga xizmat qiladi.

**Xulosa:**

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida eksport strategiyalarini takomillashtirish xalqaro amaliyotni o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bozor diversifikatsiyasi, texnologik modernizatsiya, mahsulotning qo‘shimcha qiymatini oshirish, brending va marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali O‘zbekiston xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlashi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish ham eksport strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Mo‘ydinova Gulnozaxon Qahramon qizi** - Farg‘ona politexnika instituti tayanch doktoranti, tel:+998916642460, e-mail: gulnozaxonmuydinova@gmail.com

# SANOAT KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda korxonaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida ichki va tashqi muhitni chuqur tahlil qilish zarurligi yoritib berilgan bo‘lib, korxonaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ichki va tashqi muhitni tahlil qilishning o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. Bu tahlil tashkilotga o‘z salohiyatini to‘liq anglash va rivojlanishning uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlariga erishish uchun samarali yo‘llarni belgilashga yordam berishi ta’kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** Korxonaning rivojlanish strategiyasi, ichki muhit, tashqi muhit, raqobatbardoshlik, inson resurslari, innovatsion boshqaruv, korxona boshqaruvi.

**Аннотация:** В данном тезисе подчеркивается необходимость глубокого анализа внутренней и внешней среды в процессе разработки стратегии развития предприятия. Анализ внутренней и внешней среды становится все более важным при разработке стратегии развития компании. Этот анализ помогает организации полностью осознать свой потенциал и определить эффективные пути для достижения долгосрочных и краткосрочных целей развития.

**Ключевые слова:** Стратегия развития компании, внутреннее окружение, внешнее окружение, конкурентоспособность, человеческие ресурсы, инновационное управление, управление компанией.

**Abstract:** This thesis emphasizes the necessity of conducting a deep analysis of the internal and external environments in the process of developing a company's growth strategy. The importance and role of analyzing the internal and external environments in developing a company's strategy are increasingly growing. This analysis helps the organization fully understand its potential and determine effective ways to achieve both long-term and short-term development goals.

**Key words:** Business development strategy, internal environment, external environment, competitiveness, human resources, innovation management, corporate management.

Korxonaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun «tashkilotning ichki muhiti, uning salohiyati va rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, tashqi muhit, uning rivojlanish tendensiyalari va tashkilotning undagi o‘rni haqida chuqur tasavvurga ega bo‘lish kerak.

Shu bilan birga, ichki muhit va tashqi atrof-muhit strategik boshqaruv tomonidan birinchi navbatda tashkilot o‘z maqsadlarini belgilash va ularga erishishda hisobga olishi lozim bo‘lgan tahdidlar va imkoniyatlarni aniqlash uchun o‘rganiladi. Strategik boshqaruv atrof-muhitni uchta muhitning yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqadi: makromuhit, bevosita atrof-muhit va ichki muhit.

Har qanday korxonada muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun

majburiy ravishda kompleks tahliliy tadqiqotlar o‘tkazilishi zarur. Tashkilotni tahlil qilish avvalo uning tashqi muhitini batafsil o‘rganishdan boshlanishi kerak; faqat tashqi muhitni tahlil qilgandan so‘ng ichki muhitni o‘rganishga kirishish mumkin.

Bugungi kunda korxonaning samarali faoliyati ko‘plab turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan ichki muhit eng asosiylaridan biridir. Shu bilan birga, korxona strategiyasini ishlab chiqishda rahbarlar tashqi muhitni emas, balki ichki vaziyatni ham hisobga olishlari kerak.

Tashkilotning ichki muhiti haqida ma’lumot rahbariyatga tashkilotning potensiali, ichki imkoniyatlarini aniqlashda zarur, chunki ular raqobatdagi muvaffaqiyatni ta’minlash va belgilangan maqsadlarga erishish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

E.A.Repina ilmiy izlanishiga ko‘ra, ichki muhit - bu tashkilotning mavjud resurslarini bozorga taklif etiladigan mahsulotlarga aylantiruvchi jarayonlar majmuasidir. Ichki muhit, asosan, boshqaruv qarorlari natijasida yuzaga keladigan o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga oladi. Ichki muhitni sifatli va to‘liq tahlil qilish uchun, avvalo, tashkilotni xarakterlaydigan va kuchli hamda zaif tomonlar sifatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan ichki o‘zgaruvchilarni aniqlash zarur. Ularning ahamiyatini baholash va bu o‘zgaruvchilarni raqobatbardoshlik afzalliklarini yaratish uchun qanday ishlatish mumkinligini belgilash kerak.

Ichki o‘zgaruvchilar - bu tashkilot ichidagi holat omillari. Maqsadlar, tuzilma, vazifalar, texnologiyalar, inson resurslari tashkilotning ichki muhitining asosiy o‘zgaruvchilaridir.

Barcha ichki o‘zgaruvchilar tashkilotda bir-biridan izolyatsiya qilinib mavjud bo‘lolmaydi, chunki ular bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi va tashkilot faoliyatining samaradorligiga ta’sir o‘tkazadi. Shu sababli, har qanday o‘zgaruvchining sezilarli o‘zgarishlari ma’lum darajada boshqa barcha o‘zgaruvchilarga ham, tashkilot samaradorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Demak, tashkilot — o‘zaro bog‘langan qismlardan iborat butunlikdir.

Ichki o‘zgaruvchilarni tahlil qilish ularning muhitga ta’sirini aniqlash uchun zarur bo‘lib, quyidagi ahamiyatga ega:

– Ichki muhit haqida ma’lumot rahbariyatga quyidagi maqsadlarda zarur: ichki imkoniyatlarni va potensialni aniqlash, ularga asoslanib korxona raqobatdagi muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli resurslarga ega bo‘lishi mumkin.

– Ichki muhitni tahlil qilish tashkilotning maqsadlari va vazifalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

– Tashkilot mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdan tashqari, o‘z ishchilariga mavjud bo‘lish imkoniyatlarini ta’minlaydi va ularning hayot faoliyati uchun muayyan sharoitlarni yaratadi.

Ko‘pincha, ichki muhitni tahlil qilish tashkilot rahbariyatining diqqat markazida doimo bo‘lgan asosiy elementlar yoki ichki o‘zgaruvchi omillarni tasvirlashdan boshlanadi:

**1-jadval**

**Ichki o‘zgaruvchan omillar va ularning tavsifi**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Ichki o‘zgaruvchilar | Maqsad (vazifa) | Istalgan natija yoki yakuniy aniq holat — bu tashkilotning sa’y-harakatlari yo‘naltirilgan maqsad bo‘lib, unga erishish uchun barcha resurslar va imkoniyatlar ishlatiladi. Bu oldindan rejalashtirilgan yoki belgilangan ish bo‘lib, uni belgilangan muddatlarda, ma’lum uslub va tartibda bajarish kerak. | Xarakteristikasi |
| | Struktura | Funksional sohalar va boshqaruv darajalari o‘rtasidagi mantiqiy o‘zaro munosabatlar; tashkilot tuzilmasi, boshqaruv usullari, yuqori rahbariyatning malakasi va autoriteti, maxsus mehnat taqsimoti (vertikal va gorizontal), tashkilotning maqsadlari, vazifalari, missiyasi, marketing siyosati, hisobni tashkil etish, tadqiqotlar va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish. | |
| | Ishlab chiqarish tizimi | Ishlab chiqarish hajmi, tuzilmasi, sur’ati, chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi, xomashyo va materiallar bilan ta’minlanganlik, zaxiralar darajasi, ularni ishlatish tezligi, materiallarni ta’minlashni boshqarish, uskunalar va ularning foydalanish darajasi, zaxira quvvatlarning mavjudligi, ishlab chiqarishni standartlashtirish va avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik tozaligi, sifat nazorati tizimi, mavjud patentlar, brendlarning imiji, materialga bo‘lgan ehtiyoj, resurs va energiya samaradorligi. | |
| | Texnologiya | Xomashyoni kerakli (qidirilgan) xizmatlar va mahsulotlarga aylantirish vositasi. Bu, kerakli o‘zgartishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan jihozlar, asboblar, tegishli malakalar va bilimlarni birlashtirishni anglatadi. Ushbu jarayon ma’lumotlar, materiallar va insonlarni kerakli shaklda o‘zgartirish uchun kerakli vositalar va resurslarni o‘z ichiga oladi. | |
| | HR | Tashkilotning asosi, ya’ni uning jamoasi: tuzilma, xodimlarning malaka va son jihatidan tarkibi, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi, xodimlar almashinuvi, kadrlar siyosati, karyera boshqaruvi, tashkiliy madaniyat. | |
| | Moliya | O‘z moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik, debitorlik va kreditorlik qarzdorlik hajmi, uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalar hamda qarzlar nisbatlari va hokazo. | |

Yuqorida sanab o‘tilgan ichki o‘zgaruvchilar, tashkilotga o‘ziga xos «yuzi»ni berib, uning ichki muhitini tashkil qiladi. Korxona rahbari belgilangan maqsadlarga erishish uchun ushbu elementlarni ham umumiy holda, ham alohida ko‘rib chiqishi kerak. Bu, o‘z navbatida, elementlarning bir-biri bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishi

haqida tushuncha beradi va ularning korxona uchun ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Питер Т., Уотерман Р. В поисках эффективного управления. - М.: Прогресс. 1986. 418 с.
2. Репина Е. А. Основы менеджмента. – Дашков и К°, 2008.
3. Чупин Ю. Н. Анализ внешней и внутренней среды в формировании стратегии предприятия //Аграрное образование и наука. – 2017. – №. 3. – С. 43.
4. Ashurov, M., Kurpayanidi, K., Oripov, D., Shakirova, Y., Muydinova, G. (2023). Strategies for Improvement and Evaluation of the Quality Management System of Uzbekistan Manufacturers. In: Beskopylny, A., Shamtsyan, M., Artiukh, V. (eds) XV International Scientific Conference “INTERAGROMASH 2022”. INTERAGROMASH 2022. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 574. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-21432-5_167

**Mukhammadieva Nodira** - “Silk Road” International university of Tourism and Cultural heritage, e-mail: nodirabegim1988@gmail.com

## SUSTAINABLE REGIONAL MARKETING FOR TOURISM: BALANCING GROWTH WITH ENVIRONMENTAL IMPACT

**Abstract:** This article explores the concept of sustainable regional marketing in tourism, emphasizing strategies that balance economic growth with environmental protection. As destinations seek to attract more visitors, the impacts on local ecosystems and communities have become increasingly apparent. Sustainable marketing aims to ensure that tourism development is economically viable, socially responsible, and environmentally sound. This article examines the theoretical framework underlying sustainable tourism marketing, outlines practical methods for implementation, and draws conclusions about achieving sustainability in regional tourism marketing.

**Keywords:** Sustainable tourism, regional marketing, environmental impact, economic growth, responsible tourism.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается концепция устойчивого регионального маркетинга в туризме с акцентом на стратегии, обеспечивающей баланс между экономическим ростом и защитой окружающей среды. Поскольку туристические направления стремятся привлечь больше посетителей, воздействие на местные экосистемы и сообщества становится все более очевидным. Устойчивый маркетинг направлен на то, чтобы развитие туризма было экономически жизнеспособным, социально ответственным и экологически безопасным. В данной статье рассматривается теоретическая база, лежащая в основе маркетинга устойчивого туризма, описываются практические методы реализации и делаются выводы о достижении устойчивости в региональном

маркетинге туризма.

**Ключевые слова:** Устойчивый туризм, региональный маркетинг, воздействие на окружающую среду, экономический рост, ответственный туризм.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizmda barqaror mintaqaviy marketing kontseptsiyasi koʻrib chiqiladi, iqtisodiy oʻsish va atrof-muhitni muhofaza qilish muvozanatini taʼminlovchi strategiyalarga eʼtibor qaratiladi. Sayyohlik yoʻnalishlari koʻproq tashrif buyuruvchilarni jalb qilishga intilayotgani sababli, mahalliy ekotizimlar va jamoalarga taʼsiri tobora aniq boʻlib bormoqda. Barqaror marketing turizm rivojlanishining iqtisodiy jihatdan foydali, ijtimoiy masʼuliyatli va ekologik jihatdan qulay boʻlishini taʼminlashga qaratilgan. Ushbu maqola barqaror turizm marketingining nazariy asoslarini oʻrganadi, amalga oshirish usullarini tavsiflaydi va mintaqaviy turizm marketingida barqarorlikka erishish boʻyicha xulosalar chiqaradi.

**Kalit soʻzlar:** Barqaror turizm, mintaqaviy marketing, atrof-muhitga taʼsir, iqtisodiy oʻsish, masʼuliyatli turizm

## Introduction

The tourism industry is a vital economic driver for many regions worldwide, providing employment, generating income, and fostering cultural exchange. However, the rapid growth of tourism can lead to significant environmental degradation and socio-cultural challenges. Sustainable regional marketing for tourism endeavors to balance these competing interests, promoting tourism in a way that supports long-term environmental health and social well-being while achieving economic objectives. This article investigates sustainable marketing approaches that can help regions manage tourism growth responsibly.

## Theoretical Part

The theoretical foundation of sustainable regional marketing for tourism is rooted in concepts of sustainable development, responsible tourism, and stakeholder theory.

- **Sustainable Development:** This concept, popularized by the 1987 Brundtland Report, advocates development that meets current needs without compromising future generations. In tourism, this translates to harmonizing economic growth with ecological and social considerations.
- **Responsible Tourism:** This approach focuses on minimizing negative impacts and maximizing positive contributions of tourism to local environments and communities. Theories within responsible tourism emphasize accountability and ethical behavior by all stakeholders, including tourists, businesses, and governments.
- **Stakeholder Theory:** Stakeholder theory suggests that tourism development should involve all stakeholders in decision-making processes to ensure equitable benefits and responsibilities. This framework encourages collaboration and partnership among governments, businesses, communities, and tourists to achieve mutual goals.

**Methods**

Implementing sustainable regional marketing for tourism involves various methods and strategies:

1. **Destination Branding and Positioning:**
   - Developing a brand that highlights sustainability can attract environmentally conscious tourists. This involves promoting natural assets, cultural heritage, and sustainable tourism offerings.
   - Green destination certifications, such as Biosphere Responsible Tourism Certification, help communicate a commitment to sustainability.
2. **Market Segmentation and Targeting:**
   - Identifying and targeting demographics that value sustainability can ensure alignment with sustainability goals. Marketing efforts should focus on eco-conscious travelers and niche markets interested in responsible tourism practices.
3. **Collaborative Marketing Initiatives:**
   - Public-private partnerships can enhance resource sharing and joint promotional efforts. Collaboration with local businesses and community organizations ensures that marketing strategies align with local sustainability objectives.
   - Regional marketing alliances can pool resources for larger-scale campaigns promoting sustainable tourism themes.
4. **Sustainable Product Development:**
   - Creating tourism products that emphasize sustainability, such as nature-based tours, cultural experiences, and eco-friendly accommodations, can help differentiate a region in the marketplace.
   - Encouraging local businesses to adopt sustainable practices enhances the overall value proposition of the destination.
5. **Community Engagement and Education:**
   - Involving local communities in marketing efforts ensures that tourism development considers their needs and aspirations. Community input can guide sustainable tourism planning and content creation.
   - Educational campaigns targeted at tourists can raise awareness about responsible travel behaviors, emphasizing environmental care and cultural respect.

**Conclusions**

Sustainable regional marketing for tourism represents a balanced approach to managing tourism growth by integrating environmental, economic, and social considerations. By adopting sustainable development principles and leveraging stakeholder collaboration, regions can effectively market themselves as responsible tourism destinations. These efforts not only mitigate environmental impacts but also enhance community well-being and economic resilience. As tourism continues to grow, sustainable marketing will be essential in facilitating a harmonious relationship between tourism and the environment, ensuring lasting benefits for all parties involved.

**References**

1. World Travel & Tourism Council (WTTC) - Economic Impact of Tourism: wttc.org

2. Global Sustainable Tourism Council (GSTC) - Sustainable Tourism Standards: gstcouncil.org
3. United Nations World Tourism Organization (UNWTO) - Sustainable Tourism and the SDGs: unwto.org
4. Case Studies on Community-Based Tourism: Responsible Travel - responsibletravel.com
5. "Sustainable Tourism: Principles, Contexts and Practices" - David Weaver (Book)

**Musayeva Shoira Azimovna -** Professor of Samarkand Institute of Economic and Service, Samarkand, Uzbekistan, e-mail: musaeva_shoira@mail.ru

## ANALYSIS AND IMPROVEMENT OF THE MARKETING ENVIRONMENT IN THE ENTERPRISE

**Abstract:** This article covers the concept of marketing, wholesale trade activities, strengthening customer relations, digital marketing, advertising through social networks,development of a marketing plan is considered.

**Keywords:** Space, marketing environment, concept, wholesale, market, demand, advertising, brand.

**Introduction.** During the years of independence, there are many problems that need to be implemented in the field of trade, especially in the field of wholesale trade, despite the fact that positive property and organizational changes have taken place. The main reason for this is the market mechanism of the activities of wholesale trade entities in the current conditions, in their activitiesmodern serviceuse of economic levers, marketing and market opportunities, scope of service, communication links, relations with other economic sectors, improvement of its management and state regulation mechanisms.

**Analysis of literature on the topic** Based on foreign experiences, it should be noted that the competitiveness of the enterprise in the market is determined by the effectiveness of its market-oriented policy. Many economists have been engaged in the development of marketing activities and their practical application, including F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. .We can include famous scientists like Marshall.

It is necessary to acknowledge the scientists who made a great contribution to the development of the theory of marketing, while the research carried out in the field of marketing in our country for many years was based on national characteristics. R. Ibragimov to them. Y. Abdullaev, A. Saliev, M. Sharifkhojaev, D. Rakhimova, Sh. Ergashkhodjaeva, SH. A. Musayeva and others can be included.

The marketing environment is a set of market participants, external forces and processes that operate outside the company in the market and affect the company's ability to establish and maintain successful partnerships with its target customers. Any company operates and succeeds in a certain environment, not in a vacuum.

Marketing environmentmeans a set of entities and forces that directly affect

the establishment of good cooperative relations with customers of the company's marketing service employees and the maintenance of these relations. The marketing environment consists of a set of forces and factors that directly affect the market situation in general and enterprise activity in particular, including other market subjects.

The main goal of the analysis of the internal environment of the enterprise is to study the factors that determine the potential of the enterprise and influence it. The following elements of the internal environment were studied in the study of enterprise activity.

Management organization structure, division of labor, study and management of customer activities, working with CRM systems, functionally and hierarchically, centralization, procedures and methods of making key decisions, control of decision implementation, management information system, communication processes, type of management , professional nature and level of senior management, strategic planning system.

Production departments (number, specialists, capacity), the volume of goods offered depending on the current state of the leased or own production base, the type of technology used, the organization of customer service, warehouse capacity, product quality control making, non-threatening provision, production (packing, wrapping) power, direct losses in service. It is also important to assess the level of full utilization of production capacity.

In marketingapplied strategies, market (big and small, position, competitors), customers, enterprise image, enterprise goods, price, sales and communication policy, information supply situation and organization, mutual marketing relations, internal marketing, advertising and its structures, activities of moving products and goods, etc.

Financial and economic departmentbusiness assets, equity and debt capital, credit facilities, business liquidity, capital turnover and liquidity, capital planning, gross income, profit and utilization. One of the important indicators of enterprise activity is its profitability. It is calculated according to the ratio of the received income indicator (sales volume, gross income, working capital to production, cost of fixed assets, etc.).

Personnel departmentcomposition and qualification, professional and qualification level, personnel formation policy (planning, selection and temporary hiring, dismissal, unemployment, etc.), personnel development (professional orientation and retraining, certification and evaluation, testing of new employees conducting, ensuring growth in the service process), organizing and motivating work, applying relations between employees, etc.

The enterprise is engaged in wholesale trade activities, and the situation of the wholesale trade market was also considered.

**Research methodology.** Systematic approach, abstract-logical thinking, grouping, comparison, factor analysis, selective observation methods were used in the research process.

**Analysis and results** The company always pays serious attention to marketing. After all, being a wholesale company, it always deals with customers.

This implies the constant development of relations with marketing. If we look at the state of organization of marketing activities in the company's activities, the organization of marketing services is used in the company according to the 4 main organizational structures of marketing, market-oriented and product-oriented organizational structures. And its structure is as follows.

# КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

**Аннотация.** Мақолада тадбиркорлик фаолияти бўйича мамлакатимизда яратилган имкониятлар, ижтимоий соҳадаги тадбиркорликнинг жамият ривожланишидаги ҳамда учинчи ренессанс такомиллашувидаги тутган ўрни тўғрисида фикрлар юритилган.

**Калит сўзлар:** ижтимоий тадбиркорлик, ижтимоий корхона, ижтимоий лойиҳалар, давлат томонидан рағбатлантириш йўллари, учинчи ренессанс, тарққиёт стратегияси

**Аннотация.** В статье рассматриваются возможности, созданные в нашей стране для предпринимательства, роль предпринимательства в социальной сфере в развитии общества и благоустройстве третьего ренессанса.

**Ключевые слова:** социальное предпринимательство, социальное предприятие, социальные проекты, способы государственного стимулирования, третий ренессанс, стратегия развития.

**Annotation.** The article discusses the opportunities created in our country for entrepreneurship, the role of entrepreneurship in the social sphere in the development of society and the improvement of the third renaissance.

**Key words:** social entrepreneurship, social enterprise, social projects, methods of state stimulation, third renaissance, development strategy.

Ўзбекистонда ишбилармонлик ва тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизими аҳоли фаровонлигини ошириш ҳамда мамлакат иқтисодиётини мустаҳкамлаш мақсадида амалга ошириб келинмоқда. Шунингдек, ижтимоий тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг қабул қилиниши ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Мамлакатимиздаги қулай ишбилармонлик муҳити, хорижий инвесторлар учун яратилаётган имтиёз ва имкониятлар янги лойиҳаларни амалга оширишга хизмат қилмоқда. Бу эса давлатимиз томонидан олиб борилаётган соҳа фаолиятини ривожлантиришга доир ислоҳотлар натижасида уларнинг олдидаги мавжуд тўсиқ ва ғовларни бартараф этиш ҳамда корхоналар фаолияти барқарорлигини таъминлаш ва янада ривожлантиришда муҳим ўрин тутади.

Бугунги кунда иш билан банд аҳоли даромадининг 70 фоиздан ортиғи айнан кичик бизнес ҳисобига тўғри келмоқда. Шу боис, тадбиркорларнинг ҳуқуқларини муҳофаза қилиш мутасадди давлат органлари, муассасалари, ҳуқуқ-тартибот органларининг устувор вазифасига айланди. Бугунги кунда иш билан банд аҳоли даромадининг 70 фоиздан ортиғи айнан кичик бизнес ҳисобига тўғри келмоқда. Шу боис, тадбиркорларнинг ҳуқуқларини муҳофаза қилиш мутасадди давлат органлари, муассасалари, ҳуқуқ-тартибот органларининг устувор вазифасига айланди.

Юртбошимиз раҳнамолигида мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий

тадбиркорлик субъектларига шароит ва кафолатлар яратиш, солиқ ва божхона имтиёзларини кенгайтириш, уларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга катта аҳамият берилмоқда.

Юртбошимиз раҳнамолигида мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига шароит ва кафолатлар яратиш, солиқ ва божхона имтиёзларини кенгайтириш, уларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга катта аҳамият берилмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимизда ижтимоий тадбиркорлик тўғрисидаги қонуннинг лойиҳаси муҳокамага қўйилган.

Ижтимоий тадбиркорлик - юридик шахслар ёхуд якка тартибдаги тадбиркорларнинг муайян ижтимоий-экологик муаммоларни ҳал қилишга ёки уларнинг оқибатларини енгиллаштиришга қаратилган фаолиятдир.

Ижтимоий корхона – аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларини иш ўринлари билан таъминлашни, ижтимоий товарлар ишлаб чиқаришни ва ижтимоий хизматлар кўрсатишни ёки бошқа ижтимоий мақсадларни кўзлаган ҳамда мазкур Қонунда белгиланган тартибда ижтимоий корхоналар реестрига киритилган тадбиркорлик субъектидир.

Ижтимоий тадбиркорлик фаолиятининг мақсадларига қуйидагилар киради:

- аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларини иш ўринлари, ижтимоий товарлар ва ижтимоий хизматлар билан таъминлаш;
- аҳолига тиббий буюмлар, дори воситалари ёки ижтимоий аҳамиятга эга озиқ-овқат маҳсулотларини таннархида ёхуд таннархидан паст бўлган нархларда сотиш;
- фавқулодда ҳолатларга қарши курашиш ва уларнинг оқибатларини бартараф этиш ҳамда бошқа ижтимоий мақсадларни кўзлаган фаолиятни амалга ошириш кабилар киради.

Шу ўринда аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларига кимлар киритилиши ҳақида танишадиган бўлсак, улар жумласига қуйидагилар киради:

- бозор шароитида товарларни (хизматларни) харид қилишда ёки меҳнат бозорида иш топишда қийинчиликка дучор бўлаётган ёхуд ўзгаларнинг кўмагига муҳтож шахслар, жумладан:
- I ва II гуруҳ ногиронлиги бўлган шахслар, ногиронлиги бўлган болалар;
- етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болалар ҳамда улар тоифасига кирадиган 18 ёшдан 30 ёшгача бўлган шахслар;
- ижтимоий аҳамиятга молик бўлган касалликлар ва атрофдагилар учун хавф туғдирадиган касалликларга (сил, онкологик, психиатрик, наркологик, эндокринологик, инфекцион, таносил касаллиги, ОИТС ва касб касаллиги) чалинган шахслар;
- қарамоғида 16 ёшга тўлмаган ёки ногиронлиги бўлган болалари бўлган ёлғиз шахслар;
- ўқишни тугатгандан кейин 3 йил ўтмаган умумий ўрта, ўрта махсус ва профессионал таълими ташкилотлари битирувчилари;

- “Меҳрибонлик” уйларининг 30 ёшга етмаган битирувчилари;
- Жазони ўташ муассасаларидан озод қилинган шахслар;
- ўзгаларнинг парваришига муҳтож бўлган ёлғиз кексалар ва ёлғиз яшовчи кексалар;
- муомалага лаёқатсиз ва муомала лаёқати чекланган шахслар.

Ижтимоий тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш қуйидаги шаклларда амалга оширилади:

• имтиёзлар ва преференциялар тақдим этиш;

• ижтимоий лойиҳа харажатларини субсидиялаш;

• давлат ижтимоий буюртмасини жойлаштириш;

• молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш;

• ижтимоий корхона ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш;

• маслаҳат бериш, методик ёрдам кўрсатиш ва ахборот жиҳатидан қўллаб-қувватлаш.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

Бугунги кунда ижтимоий лойиҳалар ҳам амалга оширилиб, ижтимоий корхона томонидан аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларини иш ўринлари, ижтимоий товарлар ва ижтимоий хизматлар билан таъминлашга ёки бошқа ижтимоий мақсадларга йўналтирилган ижтимоий тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш усули ҳисобланади.

Ижтимоий товар – бошқа фуқаролар билан тенг имкониятлар яратиш мақсадида зарур бўлган маҳсулот ва воситалар, жумладан, ногиронлиги бўлган шахслар учун протез-ортопедия буюмлари ва инвентарлар, реабилитация-техник воситалари, “Брайл алифбо”ли китоб ва бошқа босма материаллар, имконияти чекланган болаларга ўқув ва бадиий адабиётлар, ишора тилини қўллаган ҳолда аудио китоб ҳамда видеоматериалларни ўз ичига олади.

Ижтимоий хизматлар эса Ўзбекистон Республикасининг “Кексалар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари учун ижтимоий хизматлар тўғрисида”ги Қонунида белгиланган шаклларда кўрсатиладиган хизматлар, шунингдек, ногиронлиги бўлган шахслар учун ортопедик протезлаш, протезортопедия буюмлари ва инвентарларини таъмирлаш, ногиронлиги бўлган шахсларни тиббий, ижтимоий ва касбий реабилитация қилиш, умумтаълим мактабларига бора олмайдиган ногиронлиги бўлган болаларга уйида таълим бериш, руҳий ҳолати бузилган шахсларнинг, шу жумладан ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат терапияси, уларни янги касбларга ўқитиш хизматларидан иборатдир.

Жамиятда ижтимоий тадбиркорликнинг асосий принципларига ижтимоий адолат, жамият манфаатларининг устуворлиги ва ижтимоий тадбиркорликнинг ихтиёрийлигини киритишимиз мумкин.

Ижтимоий тадбиркорлик соҳасида давлат сиёсатининг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат:

- давлат томонидан ижтимоий тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш;
- ижтимоий тадбиркорликнинг ҳуқуқий асосларини яратиш ва такомиллаштириш;
- ижтимоий тадбиркорлик соҳасида давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- ижтимоий лойиҳалар учун инвестициялар жалб қилишда қулай шарт-шароитлар яратиш.

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, 2021 йил 23 июнь куни Ўзбекистон Савдо-саноат палатасида "Замонавий тадбиркор - Янги Ўзбекистоннинг таянчи" мавзусида "Очиқ мулоқот" бўлиб ўтди. Ташкил этилган очиқ мулоқотда, мамлакатимизда сўнгги йилларда тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш борасидаги ислоҳотлар, уларнинг натижадорлиги, хусусан, Савдо-саноат палатаси томонидан бу борада 2017-2021 йилларда амалга оширилган ишлар тўғрисида ахборотлар берилди. Президентимиз ташаббуси билан бундан 4 йил аввал тадбиркорлик субъектларини текширишга оид мараторий эълон қилинган эди. Бунинг натижасида сўнгги 4 йил мобайнида 311 мингдан ортиқ янги кичик бизнес субъектлари ташкил этилиб, тадбиркорлар сони 2,1 баробарга ошди ёки 460 мингтага етди.

Жойларда ишбилармонлик муҳити ҳолатининг ўзгариши ва тадбиркорлик фаолиятида юзага келаётган муаммоларни аниқлаш мақсадида 60 мингдан ортиқ сўровномалар ўтказиб, соҳада юзага келаётган муаммолар ечими юзасидан таклифлар тайёрланди. Шунингдек, тадбиркорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида - тизимга малакали кадрлар жалб қилиниб, тадбиркорлар манфаатида судларга 400 мингга яқин даъво аризалар киритилди, ваҳоланки 2013-2016 йилларда бу кўрсаткич атиги 38 мингта бўлган. Натижада Палата иштирокида бугунги кунга қадар тадбиркорлар ўртасидаги 6 мингта низоли ҳолат ўзаро келишув йўли билан ҳал этилишига эришилди.

Тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш ҳамда учинчи ренессанс ривожланишига замин яратиш мақсадида тадбиркорлар иштирокида халқаро даражада юзага келадиган низоларни кўриб чиқиш бўйича Палата ҳузурида "Тошкент халқаро арбитраж маркази" ташкил этилди. Ушбу марказга 50 дан ортиқ етакчи халқаро экспертлардан иборат арбитрлар жалб қилинган. Амалга оширилган ишлар натижасида қиймати 3,8 млн. долларга тенг бўлган 22 та халқаро тижорат низолари кўриб чиқилди.

Палата томонидан ҳудудларда тадбиркорларга кўмаклашиш мақсадида барча туман ва шаҳарларда Тадбиркорликка кўмаклашиш марказлари ташкил этилиб, аҳоли тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашнинг яхлит тизими яратилганлиги мақсадга мувофиқдир. Марказлар томонидан тадбиркорларга 600 мингдан ортиқ бизнес-хизматлар кўрсатилди, уларнинг 95 фоизи бепул ҳизматлар ҳисобланади.

Айниқса, савдо-саноат палатаси тизимида ёшлар ҳам алоҳида ўрин

эгаллаган бўлиб, Палата томонидан 14 та ўқув марказининг фаолияти йўлга қўйилганлиги ҳам ўзининг ижобий натижасини бермоқда.

Юқоридаги фикрларни инобатга олган ҳолда ижтимоий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириб бориш аҳоли фаровонлигини ошириш, даромадларни кўпайтириш, ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлам вакилларининг муҳофазасини кучайтириш ҳамда учинчи ренессансни ривожлантиришга имконият яратади.

**Ниёзов Зухур Давронович -** Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Банк иши” кафедраси доценти и.ф.н. +998 90 192 90 58
niyozovzuhur@gmail.com

## ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИНИ РИВОЖИ-БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ ЗАРУРИЙ ШАРТЛАРИ

**Мақоланинг анотацияси**: Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шартлари сифатида эътироф этилган, бу борада қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган операцияларни, яъни векселларни барча хўжалик юритувчи субъектлар томонидан оддий ва ўтказма шаклларини чиқаришни илмий ва амалий асосида тадқиқ қилиш ва ривожлантириш зарурияти ёритилган.

**Калитли сўзлар**: Қимматли қоғозлар, молия, облигация, вексель, фонд бозори, бўш пул, эмитент, бизнесни кенгайтириш, институционал, банк, пул (қарз), корпоратив, молиявий ресурслар.

**Аннотация статьи:** В стратегии развития Узбекистана увеличение финансовых ресурсов в экономике признается необходимым условием устойчивого развития экономики страны, в связи с этим необходимость исследования и разработки на научно-практическом уровне Основа операций с ценными бумагами, то есть выпуск векселей в простой и передаточной формах, всеми освещенными хозяйствующими субъектами.

**Ключевые слова:** ценные бумаги, финансы, облигации, векселя, фондовый рынок, свободные деньги, эмитент, расширение бизнеса, институциональные, банковские, деньги (долг), корпоративные, финансовые ресурсы.

**Annotation of the article:** In the development strategy of Uzbekistan, the increase of financial resources in the economy is recognized as a necessary condition for the sustainable development of the country's economy, in this regard, the need to research and develop on a scientific and practical basis the transactions with securities, that is, the issuance of promissory notes in simple and transfer forms by all economic entities illuminated.

**Keywords:** Securities, finance, bond, promissory note, stock market, free money, issuer, business expansion, institutional, banking, money (debt), corporate, financial resources.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Янги Ўзбекистоннинг

тараққиёт стратегияси тўғрисида 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармонии билан тасдиқланган 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 миллион АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш,[15] мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг зарурий шартлари сифатида эътироф этилган. Бугунги кунда қимматли қоғозлар бозорида 33 та эмитентнинг фақат облигациялари сотувга чиқарилган бўлиб (фоиз даромадлари 24 % гача), уларнинг сўндириш муддатлари бир йилдан ортиқ муддатни ташкил этиб, қисқа муддатли ликвид инструментлар бозори мавжуд эмас. Бу эса, ўз навбатида, қимматли қоғозлар билан амалга ошириладиган операцияларни, яъни векселларни барча хўжалик юритувчи субъектлар томонидан оддий ва ўтказма шаклларини чиқаришни илмий асосида тадқиқ қилиш ва ривожлантириш заруриятини юзага келтиради.

Мамлакатимизда фонд бозорини ривожлантиришга қаратилган бир неча уринишлар амалга оширилганига қарамай, фонд бозорининг мамлакат ривожланишидаги ўрни ҳамон пастлигича қолмоқда. Айниқса, молиялаштириш манбаларида қимматли қоғозлар улуши анча паст. ЯИМга нисбатан акция ва облигацияларни чиқариш ҳажми ўртача 1,8% (1 млрд долл)га тенг.

Ўзбекистонда мустақилликка эришилганидан сўнг иқтисодиётни молиялаштириш манбаи сифатида асосий эътибор банк кредитларига қаратилди. Айнан банклар аҳоли, корхона ва ташкилотлар, шунингдек, давлат маблағларини кредит асосида жалб қилувчи муассаса сифатида иқтисодиётнинг реал секторига улкан сармоя киритдилар. Пул (қарз) бозорининг энг катта улуши (98 %) кредитларга тўғри келиб, уларнинг ўтача ставкаси (сўмда 28 %–30 %, валютада 9%–10 %) эди. Кредит олган тадбиркорнинг ишлаб чиқараётган маҳсулотларининг ўртача таннархи 80-90%ни ташкил қилмоқда.

Мамлакатда мустақиллик йилларидан фонд бозори шиддат билан ривожлана бошлади. Хусусан, 1994 йилда Республика фонд биржаси ташкил этилди, 1996 йилдан 2011 йилгача давлат қимматли қоғозлари бозорининг муайян ривожланиши кузатилди, корхона ва ташкилотларнинг дебитор-кредитор қарздорликларини камайтириш имкониятлари қулайлашди. Олий ўқув юртларида соҳа бўйича мутахассислар таёрлаш ишлари жадаллик билан амалга оширилди. Марказий банкда қимматли қоғозлар департаменти ва тижорат банкларда қимматли қоғозлар бўлимлари ташкил этилди ва соҳа мутахассислари ўқитилиб малакалари оширилди.

Маблағларни жалб этиш мақсадида капитал истеъмолчилари қимматли қоғозларни муомалага чиқаради ва уларни сотиш натижасида ишлаб чиқариш (савдо-сотиқ, молиявий фаолият ва ҳ.к.) жараёнини амалга ошириш учун маблағ олади. Капитал истеъмолчилари (эмитентлар) ва етказиб берувчилари

[15] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида ПФ-60-сонли Фармони. 2022 йил 28 январ

(сармоядорлар) ўртасидаги муносабатлар қайтарилиш, тўловлилик ёки мол-мулкка эгалик қилиш ҳуқуқини ўтказиш шартлари билан амалга оширилади. Шундай қимматли қоғозларнинг бир расмий ҳужжати вексель бўлиб ҳисобланади.

Вексель — вексель берувчининг ёхуд векселда кўрсатилган бошқа тўловчининг векселда назарда тутилган муддат келганда вексель эгасига муайян суммани тўлашга доир қатъий мажбуриятини тасдиқловчи ноэмиссиявий қимматли қоғоз[16].

Вексел векселда тўловчи сифатида кўрсатилган шахснинг вексел эгасига кўрсатилган суммани тўғридан-тўғри векселда кўрсатилган санада тўлаш бўйича сўзсиз мажбуриятини тасдиқлайди[17]

Вексель (нем. Wechsel — айирбошлаш) — кўрсатилган муддатда муайян миқдордаги пулни тўлаш мажбурияти қайд этилган қарздорлик ҳақидаги расмий ҳужжат; қимматли қоғоз.

У универсал тўлов, кредит ва ҳисоб воситаси бўлиб, халқаро савдода тўлов мажбурияти; қисқа муддатли (6 ой) тижорат-кредит воситаси; банклараро узоқ муддатли муносабатларни шакллантирувчи восита; банклардан ссуда олиш учун гаров (шунингдек тижорат банки марказий банкдан ссуда олишда берадиган гаров) тарзида кенг қўлланиладиган қимматли қоғоз.

*Векселнинг асосан:*

- оддий вексель (қарздор томонидан муайян суммани белгиланган муддатда қайтариш ҳақида қарз берувчи олдидаги мажбурият);

- ўтказма вексель (қарз берувчининг қарзни векселни тақдим этувчига ёки ҳужжатда кўрсатилган шахсга тўлаш ҳақидаги буйруғи);

-хазина вексель. (ўз харажатларини қоплаш учун давлат томонидан чиқарилади);

-молия вексель (бир банк бошқа банкка қарз пули олиш учун беради);

-тижорат вексель. (товар эгасига гаров тарзида берилади) ва бошқа турлари мавжуд.

Вексель ҳисоб воситаси ва айирбошлаш ҳужжати сифатида Европа мамлакатларда XVII-асрда шаклланди. XIX-асрнинг охиридан бошлаб Туркистондаги хусусий тижорат банклари савдо-сотиқда вексель муомаласини кенг йўлга қўйган. Собиқ Иттифоқда, шу жумладан Ўзбекистонда вексель янги иқтисодий сиёсат даврида (давлат ҳамда кооператив корхоналар ўртасидаги муносабатларда) ҳам ишлатилган. 1930—32 йиллардаги кредит ислоҳотида бевосита мақсадли банк орқали кредитлашга ўтилиши билан мамлакат ичида вексель муомаласи тугатилган.

Мустақил Ўзбекистонда Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрдаги «Қимматли қоғозлар ва фонд биржаси тўғрисида»ги қонунига

[16] Ўзбекистон Республикасининг «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги 2015 йил 3 июнда қабул қилинган ЎРҚ-387-сонли Қонуни

[17] (2008 йил 22-июлдаги "Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида" ЎРҚ-163-сон Қонун

мувофиқ 1994 йилдан бошлаб Векселларни чиқариш ва уларнинг муомаласи механизмини такомиллаштириш, хўжалик юритувчи субъектларнинг шартнома мажбуриятларини бажаришлари учун молиявий жавобгарлигини ошириш, улар чиқарган векселларнинг пули ўз вақтида қайтарилишини таъминлаш мақсадида[18] Ўзбекистонда векселлар муомалага киритилди. Векселлар нақд пулсиз ҳисоб-китобларни амалга оширишнинг энг қулай воситаси сифатида корхона ва ташкилотларда кенг қўлланилди.

1995-1996 йилларда 3,4 млрд сўмлик қоғоз шаклида чиқарилган векселларни айримларини сохталаштириш ва мулкий таъминланмаганлиги сабабли эгаларига пуллар қайтарилмади. 1997 йилда векселларни фақат Ҳукумат қарори асосида чиқариш талаби белгиланганлиги ортидан уларнинг муомаласи тўхтатилди.

Мамлакатимизда биринчи босқичда юқори барқарорлик рейтингига киритилган тадбиркорлик субъектларига қўшимча имкониятлар яратиш, уларнинг товар ишлаб чиқариш ҳамда инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш манбаларини янада кенгайтириш мақсадида уларда векселларни чиқариш. Кейинги босқичда тижорат банклар ва хўжалик юритувчи субъектлар томонидан векселларни барча шаклларини чиқариш орқали иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш имкониятлари ошади.

**Хулоса ва таклифлар**

**Векселнинг SWOT таҳлили**

| **Кучли жиҳатлари** | **Заиф жиҳатлари** |
|---|---|
| **1.** Арзон ресурс *(кредитдан фарқли равишда 10-12 фоизгача арзон айланма маблағларни жалб қилиш имконияти яратилади. Товар таннархини 15 фоизгача арзонлаштиради, рентабелликни 10 фоизгача оширади)*.<br>**2.** Товар чиқаришни рағбатлантиради *(товар айланмаси циклини тўхтатмасдан, 10 кун ичида маблағ жалб қилиш имкониятини беради. Банк кредитини олишга 2-3 ойгача вақт сарфланади)*.<br>**3.** Тўлов воситаси *(товарларни етказиб берганлик учун тўлов воситаси сифатида қабул қилинади ва 10-15 фоизгача дисконт даромадини келтиради)*. | 1. Янги инструмент *(векселлар молия бозори учун янги инструмент бўлганлиги сабабли унга нисбатан ишончсизлик бўлиши мумкин)*.<br>2. Тўловсизлик риски *(вексель берувчининг тўлов қобилиятсизлиги уни сўндиришда муаммо векселларни юзага келтириши мумкин)*.<br>3. Инфратузилманинг мавжуд эмаслиги *(электрон бозор, иккиламчи савдоси, котировкалари, мувофиқлаштирилиши ва назорати каби муаммоларнинг мавжудлиги)*.<br>4. Солиқ тўлови *(бугунги кунда акция ва облигациялар даромадлари солиқ имтиёзларига эга, қолган қимматли қоғозлар бўйича даромад солиғини тўлайди)*.<br>5. Қонунчиликдаги муаммолар |

[18] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 19.03.1997 йилдаги ПФ-1738-сон

| | |
|---|---|
| **4.** Мувофиқ шартлар *(векселнинг қиймати, фоизи ва муддати корхона молиявий аҳволидан келиб чиқиб мустақил белгиланади. Банк кредити фоизи 25-30 фоизгача).*<br>Таъминланганлиги *(векселларни корхона соф активларининг 50 фоизигача чиқаришга рухсат берилади ҳамда қонун билан халқаро конвенция билан белгиланган инструмент ҳисобланади).* | *(қонунчиликда вексель берувчи банкрот бўлганда чиқарилган векселлар бўйича пулларни қайтариш тартиби ва муддатлари аниқ белгиланмаган).* |
| **Имкониятлар** | **Хавф-хатар** |
| **1.** Банк кредитларига муқобил *(векселларни чиқарилиши молия бозорида ресурсларни ўртача 5 пунктгача арзонлашувига таъсир кўрсатади).*<br>**2.** Электрон векселлар *(векселларни электрон чиқариш имконияти мавжуд бўлиб, харажатларни камайтириш ва қарорларни тез қабул қилиш имконияти бўлади).*<br>**3.** Вексел бозорини кенгайтириш *(векселларни электрон тижоратини ривожлантириши ҳамда истиқболда халқаро молия бозорларида сотилишини ташкил этиш мумкин бўлади).*<br>**4.** Векселларни янги турларини чиқариш *(замонавий молия инструментлари "комбинацияси"да векселларнинг секьюритизация ҳамда товарларни олдиндан тўловлари учун ишлатиш мумкин бўлади).*<br>Норматив базани такомиллашуви *(қимматли қоғозларга оид норматив-ҳуқуқий базалар амалиётдан келиб чиқиб такомиллаштирилади ва векселларнинг кафолати кучайтирилади).* | **1.** Молиявий нобарқарорлик *(рецессия, инфляция юқори бўлганда векселларнинг молиявий қобилияти пасайиши ва тўловларига таъсир кўрсатиши мумкин).*<br>**2.** Муқобил қимматли қоғозлар билан рақобати *(облигациялар, тижорат қоғозлари ва деривативларнинг ривожланиши векселларнинг жозибадорлигини пасайтириши мумкин).*<br>**3.** Жозибали кредитлар *(кредитларнинг тезда ҳамда пасайтирилган ставкаларда берилиши векселларга эҳтиёжни камайтириши мумкин).*<br>**4.** Очиқликнинг йўқлиги *(вексел чиқарувчи корхоналарнинг молиявий ҳисоботлари омма учун очиқланмайди ва инвестор корхонанинг молиявий аҳволи тўғрисида доимий маълумотга эга бўлмаслиги мумкин).*<br>**5.** Векселларнинг котировкалари *(векселларнинг муомалада тез айланиши бўлмаганлиги сабабли уларнинг бозор котировкалари бўлмайди).* |

**Сиддиқов Ҳ.Т.** - ҚарМИИ “Инновацион иқтисодиёт” кафедраси ассистенти

# САНОАТ КОРХОНАЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

**Аннотация:** Ушбу мақолада саноат корхоналарида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари, уларнинг мамлакат иқтисодиётидаги ўрни ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** ишлаб чиқариш, самарадорлик, қайта ишлаш, саноат, ресурслар, технологиялар, келажак кўрсаткичлари.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются пути повышения экономической эффективности производства на промышленных предприятиях, их роль в экономике страны.

**Ключевые слова:** производство, эффективность, переработка, промышленность, ресурсы, технологии, показатели будущего.

**Abstract:** This article discusses ways to increase the economic efficiency of production at industrial enterprises, their role in the country's economy.

**Key words:** production, efficiency, processing, industry, resources, technologies, future indicators.

Ривожланаётган бозор иқтисодиёти шароитида давлатнинг иқтисодий стратегияси узоқ вақтга мўлжалланган фундаментал мақсадларни ўртага қўйиш билан бир қаторда бу мақсадларга эришиш воситалари, йўлларини белгилашни ҳам ўз ичига олади. Булар орасида **ишлаб чиқариш самарадорлигини** тўхтовсиз ошириб бориш асосий ўринда туради.

Ўзбекистон давлатининг қудратини мустаҳкамлаш, аҳолининг моддий ва маънавий неъматларга бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш, келажакда эса – уларни мўл-кўл яратиш, иқтисодий ва илмий-техника соҳасида энг ривожланган давлатлар қаторидан жой олиш ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишга бевосита боғликдир.

Маълумки, ишлаб чиқаришни ривожлантиришда икки хил омил: миқдор ва сифат, экстенсив ва интенсив, яъни кенгайтирувчи (узайтирувчи) ва зўр берувчи, кучайтирувчи омиллар ҳаракатда бўлади. Бошқача қилиб айтганда, агар ишлаб чиқариш соҳаси кенгайтирилса, экстенсив суратда кенгайган такрор ишлаб чиқариш бўлади; агар яна ҳам **кўпроқ самара** берадиган ишлаб чиқариш воситалари қўлланиладиган бўлса, интенсив суратда кенгайган такрор ишлаб чиқариш юзага келади. [2]

Ўзбекистон саноатида ана шу икки йўлдан оқилона фойдаланиш натижасида ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги босқичма-босқич ўсиб бормоқда.

*Самарадорлик сўзи* - бу энг кўп учрайдиган умумий тушунчалардан бири бўлиб, иқтисодий - ижтимоий тараққиётнинг хилма-хил соҳаларида жуда кенг ишлатилади. Масалан, ижтимоий ишлаб чиқариш самарадорлиги, меҳнат самарадорлиги, ўқиш ва ўқитиш самарадорлиги, даволаш ва даволаниш самарадорлиги, қабул қилинган қонун ва қоидалар ҳамда ечимларнинг

самарадорлиги ва ҳоказолар.

Самарадорлик саноат ишлаб чиқариш фаолиятининг “кўзгуси” ҳисобланади. Бу “кўзгу”да ишлаб чиқаришнинг барча натижаларини кўриш мумкин. Маълумки, ҳар бир тармоқ, корхона, қолаверса, ҳар бир шахс ўз ишлаб чиқариш фаолиятида максимум фойда олишга интилади. Унинг учун маълум харажатлар қилади. Ана шу фойда билан харажатлар ўртасидаги фарқ тармоқ ва корхона фаолиятининг “кўзгуси” бўлган самарадорликда кўзга ташланади. Ишлаб чиқаришнинг энг юқори самарадорлиги ишлаб чиқариш харажатларини минимум даражага келтиришдан иборат.

Бозор иқтисодиёти натижалиликни, фойдалиликни тақозо этади. Тартибли бозорга асосланган иқтисодиётда энг кам ресурс сарфлаб кўп натижага эришиш зарур. Маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнида 5 турдаги ресурслар тизими ҳаракатда бўлади: а) моддий ресурслар, б) меҳнат ресурслари, в) молиявий ресурслар, г) энергетик ресурслар, д) ахборот ресурслари, яъни информацион ресурслар. Мана шу ресурслардан оқилона фойдаланиб, ишлаб чиқаришнинг самарадорлигини ошириш мумкин. Бундай фаолият ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш йўналишида муҳим аҳамият касб этади. [3]

Самарадорлик - бу фойдалилик, натижалиликдир. Маълумки, қандайдир натижа олиш учун меҳнат қилиш, ишлаш, маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш ва маълум миқдорда харажат қилиш керак.

Самарадорликни аниқлаш учун натижани шу натижага эришишга сарфланган харажатлар ёки ресурслар билан таққослаш керак. Демак, Самарадорлик ишлаб чиқариш фаолияти натижалари билан уларга эришиш учун сарфланган меҳнат, моддий ва молиявий ресурсларнинг ўзаро нисбатидир.

Иқтисодиётнинг таркибий тузилишини такомиллаштириб бориш, чуқур қайта ишланган, тайёр, қўшилган қиймат ҳиссаси юқори бўлган маҳсулот ишлаб чиқарувчи тармоқларни жадал ривожлантириш ва уларнинг ЯИМ ҳамда мамлакат экспортидаги улушини кўпайтириш муҳим аҳамиятга эга.

Мамлакатдаги иқтисодий ўсиш омиллари ва манбалари таҳлили кўрсатишича инқирозга қадар бўлган даврда иқтисодий фаолликни юқори суръатлари асосан экспорт салоҳиятини ривожлантиришни жадаллаштириш, иқтисодиётга йўналтирилган инвестицияларнинг миқёси, иқтисодиёт таркибини тизимли ва босқичма-босқич янгиланиши ҳисобига эришилган. Иқтисодий ўсишни иқтисодиётни эркинлашувини чуқурлашуви ва миқёсини кенгайиши, валюта бозорини барқарорлашуви, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик секторини жадал суръатларда ривожланиши таъминлади.

Мустақиллик йилларида хом-ашё ресурсларини чуқурроқ қайта ишлаш, юқори қўшилган қийматли товарлар улушининг ортишига қаратилган таркибий сиёсатни амалга ошириш натижасида мамлакат ялпи ички маҳсулот таркибида қишлоқ хўжалиги улушининг пасайиши ва саноат, хизмат кўрсатиш соҳаларининг улушини ортиши кузатилмоқда.

Жаҳон амалиёти ва мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг натижаларига кўра макроиқтисодий барқарорлик даражаси

билан барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ўртасида бевосита боғлиқлик мавжуд. Масалан, инфляцияни юқори даражаси иқтисодиётни инвестициялашни мавжуд манбаларини сўндиради, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш суръатларига салбий таъсир кўрсатади. Кейинги йилларда инфляцияни жиловлаш, самарали бюджет-солиқ сиёсатини олиб бориш, солиқ юкини камайтириш, давлат бюджети харажатларини янада оптималлаштириш, банк тизими барқарорлигини мустаҳкамлаш, банкларнинг кредитлаш салоҳиятини ошириш, иқтисодиётни модернизация қилиш ва таркибий ўзгаришларни амалга оширишга жалб қилинаётган инвестициялар (жумладан, хорижий инвестициялар) ҳажмини кўпайтириш, экспорт ҳажмини ошириш ва уни диверсификациялаш борасидаги чора-тадбирлар, макроиқтисодий барқарорликни таъминлашга ва барқарор иқтисодий ўсишга эришиш учун хизмат қилади. Мамлакатдаги макроиқтисодий кўрсаткичларни таҳлили уни барқарорлигини ортиб бораётганлигини кўрсатмоқда.

Саноат иқтисодиёт тармоқларини ишлаб чиқариш воситалари, меҳнат қуроллари билан таъминлайди. Миллий иқтисодиёт, фан, маориф, маданият, соғлиқни сақлаш, спорт, туризм ва бошқа соҳалар ривожи саноатнинг тараққиёт даражасига боғлиқ. Ишлаб чиқариш кучлари ва муносабатлари тараққиётида саноатнинг тарихий роли беқиёсдир. Шу сабабли унинг ривожи ва самарадорлиги қанчалик юқори бўлса, давлатнинг мавқеи шунчалик кучли бўлади ва аҳоли турмуш даражаси янада яхшиланиб боради.

Саноат жамиятнинг етакчи кучи бўлган ишчилар синфини ўзида бирлаштиради. Саноат ривожи туфайли унда банд бўлган ходимларнинг сони кўпаяди, уларнинг билим ва илми, маҳорати ортади, кадрлар салоҳияти юқори даражага кўтарилади. Саноат асосан 3 турга бўлинади: оғир саноат, енгил саноат ва озиқ-овқат саноати.

Меҳнатни ижтимоий ташкил қилишнинг энг олий тури, концентрациянинг юқори даражаси ва шу асосда ижтимоий ишлаб чиқаришни уюштиришнинг илғор усуллари - ихтисослаштириш, кооперативлаштириш ва комбинатлаштириш, кўплаб ишлаб чиқариш ва узлуксиз поток системаси ёрдами билан ташкил этиш саноат соҳасида ҳукмронлик қилади.

Барча мамлакатларнинг сиёсий, иқтисодий ва ташкилий интилишлари, уларнинг хўжалик жиҳатдан ҳамкорлиги саноат соҳасида ҳам ўз ифодасини топади. Давлатларнинг табиий, меҳнат ресурсларидан, илм-фан ва техниканинг барча ютуқларидан фойдаланиш имкониятларининг кенгайишида саноатнинг аҳамияти салмоқлидир.

Саноатнинг вужудга келиши ва ривожланиши меҳнат тақсимотининг ўсиши, ишлаб чиқаришни дифференциялаш ва интенсивлаштириш билан чамбарчарс боғлиқ.

Ҳозирги замон йирик саноати бир бири билан чамбарчарс боғлиқ бўлган кўпгина тармоқлар ва ишлаб чиқаришлардан ташкил топади. Бугунги кунда республика саноатида 175 тармоқ, 1500 га яқин йирик ва ўрта саноат корхоналари мавжуд.[5]

Умуман олганда, тармоқлар бўйича ишлаб чиқариш таркибида оғир саноат (ёнилғи-энергетика мажмуаси, машинасозлик, металлургия)

салмоғининнг ошиши енгил саноат улуши ҳисобига бўлмоқда. Натижада, мустақил иқтисодга хос бўлган даражага яқинлашиш юз бермоқда ва собиқ иттифоқ мамлакатларида қайта ихтисослашувдан пайдо бўлаётган етишмовчилик ва тобеликнинг олдини олиш таъминланмоқда.

Бу кўрсаткичларнинг барчаси, аввало, экспорт таркибида юқори қўшимча қийматга эга бўлган рақобатдош тайёр маҳсулот улушининг изчил ошиши, биринчи навбатда, иқтисодиётимизнинг ўсиб бораётган салоҳияти ва имкониятларидан далолат беради. Мамлакатимизда фаол инвестиция сиёсати олиб борилиши натижасида ҳисобот даврида ўнлаб замонавий корхоналар ишга туширилди. Жумладан, “Женерал Моторс Павертрейн Ўзбекистон” қўшма корхонасида юқори технологиялар асосида автомобиль двигателлари ишлаб чиқариш йўлга қўйилди. Шунингдек, автомобиль генератори ва компрессорлари ишлаб чиқариш бўйича қувватлар барпо этилди, энергияни тежайдиган лампалар ишлаб чиқариш бўйича учта лойиҳа амалга оширилди.

Шулар қаторида “Зенит электроникс” қўшма корхонасида “Самсунг” кир ювиш машиналари ишлаб чиқариш ўзлаштирилди. Айни пайтда маиший газ плиталари, кондиционерлар, электр пылесослар ва бир қанча бошқа маҳсулотлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.

“Муборак газни қайта ишлаш заводи” унитар шўъба корхонасида суюлтирилган газ ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш мақсадида пропан-бутан аралашмаси қурилмасининг биринчи навбатини, Самарқанд вилоятида “МАН” юк ташиш машиналари ишлаб чиқариш бўйича янги мажмуанинг дилерлик марказини бунёд этиш ишлари якунига етказилди.

Навоий шаҳридаги эркин индустриал-иқтисодий зона муваффақиятли фаолият юрита бошлади, унинг ҳудудида янги ташкил этилган корхоналарда спидометрлар, автомобиллар учун ўтказгичлар, компрессорлар, рақамли телевизион тюнерлар, энергияни тежайдиган лампалар, ёритиш ускуналари, диодли лампалар, модемлар, полиэтилен ва полипропилен қувурлар, косметика воситалари ҳамда тиббиёт маҳсулотлари ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.

Саноат соҳасида ажойиб ютуқлар билан бирга бир қатор камчиликлар ва ҳал этилмаган муаммолар мавжуд. XXI асрда бу муаммоларнинг ечимини топиш учун Ўзбекистонда барча имкониятлар, яъни жуда катта моддий, меҳнат, молиявий ва интеллектуал ресурслар мавжуд. Ана шу ресурслардан оқилона фойдаланиш асосида Ўзбекистоннинг жуда қудратли ва самамарали саноатини янада юқори даражага кўтариш мумкин.

Юқоридаги натижаларга иқтисодиётда модернизация қилиш ва таркибий ўзгартиришлар жараёнини жадаллаштирмасдан, уни муҳим тармоқларини техник ва технологик жиҳатдан янгиламасдан эришиб бўлмайди.

Хулоса ўрнида таъкидлаш мумкинки, иқтисодиётни модернизация қилиш, саноат тизимининг истиқболини белгилаш, мамлакат иқтисодиётини янгилаш, фан сиғимкорлиги юқори бўлган устувор соҳаларни ривожлантириш асосида мамлакат иқтисодиётини инновацион ривожлантириш йўлига ўтказиш, мамлакат миллий иқтисодиётининг рақобатдошлигини ошириш ва

аҳолининг ўсиб, ўзгариб бораётган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.
2. Ортиқов А. Саноат иқтисодиёти. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2011, - 256 бет.
3. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар. Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2010, – 256 б.
4. Грузинов В.П. Экономика предприятия. Учебник. 2-издание. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010, - 295 с.
5. www.state.uz

**Толибжон Қазақов Шарифжон ўғли** - Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

## МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН МОДЕЛИ АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

***Аннотация:*** *Ушбу минтақавий иқтисодиётни барқарор ривожлантиришнинг инновацион модели асосида тартибга солиш истиқболлари, асосли ақлли стратегияларга асосланган ҳудудий ривожланишнинг инновацион моделлари ишлаб чиқилди ва қисман жорий этилиши, жамиятларнинг барқарор ривожланиши ҳақида фикир ва мулоҳазалар келтирилган.*

***Калит сўзлар:*** *давлат бошқаруви, ҳудудий ривожланиш, инновация, бошқарув, самарадорлик, барқарор ривожлантириш, инновацион модел.*

Илмий-техника тараққиётининг жадал динамикаси туфайли юзага келган туб бозор ўзгаришлари шароитида реинжиниринг бизнесни янги шароитларга максимал даражада мослаштириш учун қайта қуриш усули сифатида қаралади. Таърифга кўра, "бизнес-жараёнларнинг реинжиниринги - бу ташкилий тузилмани соддалаштириш, турли ресурсларни қайта тақсимлаш ва улардан фойдаланишни минималлаштириш, мижознинг талабларини амалга ошириш муддатларини қисқартиришга қаратилган моддий, молиявий ва ахборот оқимларини яхлит ва тизимли моделлаштириш ва қайта ташкил этиш. эҳтиёжларни қондириш, уларга хизмат кўрсатиш сифатини ошириш ва компаниянинг рақобатбардошлигини ошириш, бу эса компаниядаги инқирозли ҳодисаларни инқилобий тарзда бартараф этиш ва бизнес жараёнларини ҳар томонлама такомиллаштиришдан иборат”.

Замонавий шароитда реинжиниринг тамойиллари ва ёндашувлари, айниқса, кутилмаган ҳолатлар оқибатларини ҳисобга олган ҳолда, минтақавий ривожланиш моделларини шакллантириш учун ҳам долзарбдир. Тадқиқот

жараёнида моделни яратилаётган объектнинг шаклланиши, ривожланиши ва самарали фаолиятининг асосий тамойилларини тавсифлаш учун зарур бўлган восита сифатида қараш мумкинлиги аниқланди. Ўзининг концептуал мазмунига кўра, минтақанинг барқарор ривожланиши модели инновацион ҳисобланади, чунки ижтимоий-иқтисодий тизимларнинг барқарор ривожланишнинг асосий мақсадлари мувозанатини таъминлаш жараёнларига ўтишни ташкилий лойиҳалаш ва бошқарув, ишлаб чиқариш, тақсимлаш технологияларини сезиларли даражада ўзгартирмасдан амалга ошириш мумкин эмас.

Ҳудудларнинг барқарор, рақобатбардош ривожланиши моделларини шакллантириш соҳасидаги ривожланган давлатларининг тажрибасини, шунингдек, ижтимоий-иқтисодий тизимларни шакллантиришга назарий ва услубий ёндашувларни ҳисобга олган ҳолда, иқтисодиётни барқарор ривожлантиришнинг инновацион моделини ишлаб чиқиш, турли ташкилий ва маъмурий даражаларда амалга оширилиши мумкин бўлган минтақанинг барқарор ривожланишининг инновацион моделини лойиҳалаш таклиф этилади (1-расм).




**1-расм. Минтақанинг барқарор ривожланишининг инновацион моделини лойиҳалаш**

Ушбу моделни лойиҳалашда ҳудудларда барқарор ривожланиш мақсадларини амалга оширишнинг асосий тамойиллари, мезонлари, механизмлари ва воситалари акс эттирилган бўлиб, улар турли даражадаги давлат ва минтақавий лойиҳаларни бошқариш тизимларига бирлаштирилиши мумкин. Модел минтақани ташқи муҳит билан ўзаро таъсир қилувчи, трансформацион жараёнларни мақсадли равишда амалга оширувчи, натижалари барқарор ривожланиш мезонларига жавоб берадиган очиқ тизим

сифатида кўриб чиқиш асосида шакллантирилади.

Модел горизонтал ва вертикал коммуникацияларни ўрнатиш орқали мавжуд ютуқ ва камчиликларни ҳисобга олган ҳолда салоҳият, технологиялар ва бошқарув механизмларини босқичма-босқич такомиллаштиришга асосланган ўз-ўзини ташкил этишга асосида ҳудудий тизим фаолиятининг узлуксиз характерини назарда тутади. Номутаносиблик шароитида моделнинг самарадорлиги унинг таркибий қисмлари, биринчи навбатда бошқарув тизимлари, трансформацион жараёнларга таъсир қилиш воситалари ва қўлланиладиган технологияларнинг мослашувчан фазилатларига боғлиқ. Моделнинг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат:

1) Шартли ташқи муҳитдан келадиган барча ресурслар ва маълумотларни ўз ичига олган хусусан: молиявий, моддий ресурслар, технология ва манфаатдор томонлардан олинган маълумотлар.

2) Трансформация жараёнлари ҳудуднинг ҳаёти ва ривожланишини таъминлашнинг барча жараёнларини ўз ичига олади. Шу билан бирга, жараёнларни амалга ошириш технологиялари ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиш, энергия сарфини минималлаштириш, атмосферага зарарли чиқиндилар ва атроф-муҳит ифлосланишини камайтириш, инсон тараққиётига қаратилган инновацияларни кенг жорий этишга қаратилган. Замонавий ёндашувларга кўра, мавжуд ресурс салоҳиятидан келиб чиқиб, кучлар ва чекланган молиявий ресурсларни иқтисодиёт тармоқларини инновацион ривожлантиришга жамлаш имконини берувчи асосий рақобатдош устунликларни аниқлаш ҳамда ривожлантириш минтақа рақобатбардошлигининг муҳим омили ҳисобланади.

3) Мезон чекловлари - минтақанинг барқарор ривожланишига таъсир кўрсатадиган, минтақавий режалар ва дастурларни ишлаб чиқишда ҳисобга олиниши керак бўлган омиллар мажмуи (ҳудудларнинг давлат бошқарувини тартибга солувчи қонун ҳужжатлари, бюджет кодекси, бошқа қонун ҳужжатлари ва ҳудуднинг молиявий, инсоний салоҳиятига қўйиладиган юқори талабларсиз мавжуд манба).

4) Барқарор ривожланишнинг белгиланган мезонларига эришиш даражасини ва уларнинг мувозанатини ҳисобга олган ҳолда моделнинг ишлаш сифатини белгиловчи трансформацион жараёнлар натижасида олинган маҳсулотлар. Ўрганилган тадқиқотлар натижасидан келиб чиққан ҳолда номутаносиб ва ноаниқлик шароитида минтақанинг барқарор ривожланиши моделини шакллантириш реинжиниринг асосида амалга оширилиши керак, деб ҳисоблаймиз.

Яъни, ҳар бири учун амалга ошириш самарадорлигининг аниқ мезонларини белгилаш мумкин бўлган асосий, хизмат кўрсатиш, ёрдамчи бизнес жараёнлари ва барқарор ривожланиш мақсадларини ҳисобга олган ҳолда бошқарув бизнес-жараёнларини аниқлаш асосида минтақани ташкил этиш ҳамда бошқаришга принципиал янги ёндашувларни шакллантириш лозим. Барқарор ривожланишнинг инновацион концепциясини амалга оширишда марказсизлаштириш ислоҳотига мувофиқ кенг ваколатлар ва ҳудудларни, хусусан, ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш лойиҳаларига

йўналтирилиши мумкин бўлган қўшимча молиявий ресурсларга эга бўлган маҳаллий ҳамжамиятлар муҳим рол ўйнайди.

Бугунги кунга келиб, асосли ақлли стратегияларга асосланган ҳудудий ривожланишнинг инновацион моделлари ишлаб чиқилди ва қисман жорий этилди, жамиятларнинг барқарор ривожланиши жараёнларини бошлаш, мониторинг қилишда ҳамда фаол ривожланиш босқичида фойдаланиладиган стандартлар ва мезонлар белгиланди. Ушбу мезонлар асосида Ўзбекистон Республикасининг бир қатор ҳудудларида “ақлли ҳудуд” лойиҳаларини амалга ошириш мақсадга мувофиқдир. Бу борада, мослашувчан бошқарув механизмлари таъминланган тақдирда ушбу ташаббусларни янада амалга ошириш ҳудудларнинг барқарор ривожланишига хизмат қилади.

Тадқиқотда келтирилган барқарор ривожланиш моделини амалга ошириш механизмлари иқтисодий, ижтимоий, технологик ва экологик барқарорликни таъминлаш учун минтақадаги трансформацион жараёнларни ташкил этиш, тартибга солиш ва мувофиқлаштиришга қаратилган усуллар, функциялар ва бошқарув воситаларининг органик мажмуини англатади.

Ҳудуднинг барқарор ривожланишини бошқариш механизмларининг асосий мақсади экологик мувозанатни сақлашни кафолатлаган ҳолда инновацион асосда ҳудуд иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ва аҳоли турмуш сифатини оширишдан иборат. Ҳудуд иқтисодиёти мураккаб, тизимли субъект эканлигини ҳисобга олиб, унинг барқарор ривожланишнинг инновацион моделига ўтишини таъминлаш барқарор ривожланиш мақсадлари, мавжуд салоҳият ва истиқболли эҳтиёжларни ҳисобга олган ҳолда бошқарувнинг анъанавий механизмларини қайта кўриб чиқишни тақозо этади.

Наманган вилояти ҳудудларини инновацион ривожлантириш бўйича олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ҳудудларнинг барқарор ривожланиш моделига ўтишига тўсқинлик қилувчи инновацион фаолликнинг паст даражаси қуйидаги салбий омиллар билан боғлиқ:

- трансформация даврида; жамиятнинг инновацион салоҳиятининг бузилиши, бу хўжалик юритувчи субъектлар даромадларининг ва шунга мос равишда капитал оқимининг сезиларли даражада камайиши ҳамда шу асосда ҳалигача ўз салоҳиятини тикламаган илмий-ишлаб чиқариш мажмуаларининг қисқаришида намоён бўлди;

- миллий инновацион устуворликларни ривожланган давлатларнинг инновацион ривожланиш стратегиясига мослаштиришнинг самарали механизмининг йўқлиги, технологик ривожланиш прогнозлари учун ривожланган бозорнинг йўқлиги, иқтисодиётнинг анъанавий тармоқларида устуворликлар спектрини шакллантириш;

- фундаментал илмий тадқиқотларни давлат томонидан етарли даражада молиялаштирилмаганлиги;

- солиқ тизимининг номукаммаллиги, кредит ресурсларининг юқори баҳоси, фонд бозорининг ривожланмаганлиги;

– аҳоли реал даромадларининг пастлиги, истеъмол даражаси пастлиги сабабли кредит ресурслари ва ички бозорлар базасини торайтиради;

- ижтимоий йўналтирилган инновацион лойиҳаларга етарлича эътибор

бермаслик;

- эркин иқтисодий зоналар, устувор ривожланиш йўналишлари, технопарклар, венчур капитал компаниялари, инвестиция марказлари ва инкубаторлар каби воситалар томонидан амалга ошириладиган ҳамда бошқариладиган тизимли жараён сифатида инновациялар моҳиятини нотўғри тушуниш.

Ҳудуднинг барқарор ривожланишининг иқтисодий механизмлари хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий манфаатларига таъсир этувчи, уларни маълум, белгиланган тартибда ҳаракат қилишга ундайдиган элементлар мажмуини белгилайди. Ташкилий механизмлар умуман олганда минтақада ва ундан ташқарида ижтимоий-иқтисодий муносабатларни оптималлаштириш ҳамда уларнинг хатти-ҳаракатларини ҳар бир тадбиркорлик субъектининг барқарор ривожланишнинг умумий мақсадларига эришишга қўшган ҳиссаси йўналиши бўйича тартибга солишга қаратилган шартли “ўйин қоидалари” ни шакллантиради.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Bromley D. Sustainability / D. Bromley // The New Palgrave Dictionary of Economics, 2nd Edition. – 2008. – [Electronic resource]. – Access mode : http://www.dictionaryofeconomics.com/article?id=pde2008_S000482&editio n=current&q=sustainability&topicid=&result_number=1.

2. Разумовский С.А. Механизм регулирования бюджетно-кредитной деятельности региона в условиях повышения уровня экономической самостоятельности: автореф. дис. на соискание науч. степени к-та. экон. наук: спец. 08.04.01 «Финансы, денежное обращение и кредит» / С.А. Разумовский. – Харьков, 2000. – 14 с.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Бюджетлараро муносабатларни ва солиқ маъмуриятчилигини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги 15.04.2022 й. ПҚ-208-сон Қарори. BUXGALTER.UZ

4. Нужина И. Концептуальная модель региональной эколого-экономической системы / И. Нужина, О. Юдахина // Вестник Томского государственного университета. – 2008. - № 1(2). – С. 54 -67

5. Онищенко А.М. Экономико-математическое моделирование экологически сбалансированного развития экономики: автореф. дис. канд. экон. наук: спец. 08.03.02 "Экономико-математическое моделирование" / А.М. Онищенко. – К., 2003. – 16 с.

**Тоштемир Боймуродович Бердиев -** Тошкент Кимё халқаро Университети мустақил изланувчиси, PhD, e-mail: toshtemir.berdiev82@mail.ru
тел.: +99890-054-02-01; +99897-477-02-01

# АТ «ИПОТЕКА БАНК» НИНГ ХУСУСИЙЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация.** Мамлакатимиз банк тизимини босқичма-босқич модернизация қилиш ва банкларни трансформация қилиш бўйича ҳукумат томонидан олиб борилаётга ислоҳатлар йирик банкларлаги давлат улушини хусусийлаштириб иқтисодиётдаги давлат иштирокини камайтиришга хизмат қилади.

**Калит сўзлар:** Хусусийлаштириш, трансфармация, модернизация, стратегик инвестор, рақобат муҳити, фаолият шаффофлиги.

**Аннотация.** Реформы, проводимые правительством по поэтапной модернизации банковской системы страны и трансформации банков, служат снижению участия государства в экономике за счет приватизации государственной доли в крупных банках.

**Ключевые слова:** Приватизация, трансформация, модернизация, стратегический инвестор, конкурентная среда, прозрачность деятельности.

**Annatation.** The reforms carried out by the government on the step-by-step modernization of the country's banking system and the transformation of banks serve to reduce the state's participation in the economy by privatizing the state share in large banks.

**Key words:** Privatization, transformation, modernization, strategic investor, competitive environment, transparency of activities.

**Асосий қисм**.

Мамлакатимиз мустақиллигини қўлга киритиб ўз иқтисодий сиёсатини юрита бошлагандан бошлаб амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асосини давлатнинг иқтисодиётга аралашувини камайтириш, хусусийлаштириш орқали мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ташкил этади. Давлат мулкини хусусийлаштиришга ёндашувнинг муҳим хусусияти – уни дастурлар асосида босқичма-босқич амалга оширишдан иборатлиги ҳисобланади.

Замонавий тадқиқотлар тижорат банкларини хусусийлаштириш бозор иқтисодиёти ривожланишининг ажралмас қисми деб ҳисоблайди ва мамлакат иқтисодиётига қуйидаги имкониятларни яратади:

қисқа вақт ичида бюджетнинг даромадларини ошириш;

тўғридан-тўғри инвестициялар оқимини жадаллаштириш;

банк тизимига янги технологиялар ва илғор бошқарув тизимларидан фойдаланиш имкон беради;

рақобат муҳитини яхшилайди;

банкларни капиталлашуига ижобий таъсир қилади;

аҳолига хизмат кўрсатиш сифатини оширади.

Давлат улуши мавжуд банкларда институционал ўзгаришлар қилиш, фаолиятини трансфармация қилиш орқали хусусийлаштириш жараёнида

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги «2020 — 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида» ПФ-5992-сон Фармонини қабул қилиниши мамлакат банк тизимида тубдан бурилиш ясади. Йирик банклар фаолиятини ислоҳ қилишданинг биринчи босқичида банклар фаолияти трансфармация қилиш орқали хусусийлаштириш жараёнига тайёргарлик жараёни бажарилса. Иккинчи босқичда давлат улушини стратегик инвесторларга тўлиқ сотишни назарда тутади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги ПФ-60-сон Фармони қабул қилиниб мамлакатимиз ривожланишининг кейинги беш йилдаги дастури ишлаб чиқилди. Мамлакатимизда капитал ҳаракатини босқичма-босқич эркинлаштириш, давлат улушига эга тижорат банкларида трансформация жараёнларини якунлаб, 2026 йил якунига қадар банк активларида хусусий сектор улушини 60 фоизгача етказиш белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги «2020 — 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида» ПФ-5992-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Прпезидентининг 2021 йил 14 сентябрдаги ««Ипотека-банк» акциядорлик тижорат ипотека банкини хусусийлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ-5244 сонли қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 июндаги ««Ипотека-банк» акциядорлик тижорат ипотека банкини ўзгартириш ва уни Халқаро молия корпорацияси иштирокида кейинчалик хусусийлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 523-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида Венгриянинг «OTP Bank» банки билан келишилди. Ушбу жараён 2020 йилнинг июлида Венгрия ташқи ишлар ва савдо вазири Петер Сияртонинг Тошкентга ташрифи чоғида «OTP Bank» нинг Ўзбекистон бозорига кириб келиши бўйича хукуматлар аро келишув жараёни билан бошланди. OTP Group («Группа OTP», BSE: OTP, LSE: OTPD) — молия, суғурта, инвестиция ва банк бизнеси билан шуғулланувчи банк гуруҳи — активлар ва лизингни бошқаришдан тортиб, пенсияларни молиялаштиришгача бўлган соҳаларда фаолият юритади. 2021 йил сентабр ойида «OTP Bank» Group (Венгрия) Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги билан Ипотека-банк акцияларининг назорат пакетини сотиб олиш имконияти тўғрисида келишув имзолади.

- Jamoaviy ishlash: O‘zaro hamkorlikda ishlash va tez-tez aloqa qilish orqali samaradorlikni oshirish.

- Samarali vaqtni boshqarish: Tez va sifatli qarorlar qabul qilish, uzoq muddatli rejalarga ko‘ra qadam-baqadam ishlash.

Agile metodologiyasining qo‘llanilishi kompaniyalar uchun innovatsion va samarali qarorlarni qabul qilishda yordam beradi. Masalan, IT-kompaniyalar yoki xizmat ko‘rsatish sektori Agile yondashuvlarini qo‘llash orqali yangi mahsulot va xizmatlarni tezda ishlab chiqib, bozorga chiqarishadi.

3. Ko‘p Kanalli Marketing va Shaxsiylashtirilgan Yondashuvlar

Samaradorlikni oshirishning yana bir yangi yo‘li bu ko‘p kanalli marketing va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni joriy etishdir. Zamonaviy iste'molchilar har xil kanallarda faoliyat yuritishadi, shuning uchun kompaniyalar o‘z marketing strategiyalarini ko‘p kanalli (omni-kanal) yondashuvlar orqali boshqarishlari lozim.

- Shaxsiylashtirilgan marketing: Mijozning ehtiyojlari, xatti-harakatlari va xarid qilish tarixiga asoslangan marketing strategiyalari kompaniyalar uchun katta samaradorlikni ta'minlashi mumkin. Masalan, Amazon va Netflix kabi kompaniyalar mijozlarga shaxsiy tavsiyalarni taklif qilish orqali ularning qoniqishini oshiradilar va raqobat ustunligini qo‘lga kiritadilar.

- Ko‘p kanalli marketing: Onlayn va oflayn kanallarni integratsiya qilish orqali kompaniyalar mijozlar bilan ko‘proq aloqada bo‘lishlari va ularni yaxshi tushunishlari mumkin. Bu orqali marketing xarajatlarini samarali boshqarish, sotuvlarni oshirish va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatish mumkin.

4. Doimiy Takomillashtirish va Innovatsion Madaniyatni Rivojlantirish

Korxonalarda samaradorlikni oshirishning yana bir yondashuvi bu doimiy takomillashtirish va innovatsion madaniyatni rivojlantirishdir. Tashkilotlarda Kaizen (doimiy takomillashtirish) madaniyatini yaratish va xodimlarning yangi fikrlarni kiritishga rag'batlantirilishi samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘ladi. Bu yondashuvda:

- Xodimlarni jalb qilish: Xodimlarning innovatsion g‘oyalarini e'tiborga olish, ularni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash.

- Resurslardan samarali foydalanish: Resurslarni qayta taqsimlash, jarayonlarni yanada samarali qilish va ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish.

Toyota kompaniyasi, misol uchun, Kaizen tizimini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi va xatoliklar darajasini kamaytirdi. Har bir xodimga o‘z ish jarayonini takomillashtirishda qatnashish imkoniyatini yaratish orqali kompaniya yuqori samaradorlikka erishdi.[19]

5. Yashil Texnologiyalar va Barqarorlikni Ta'minlash

Yashil texnologiyalar va barqarorlik, ayniqsa, jahon bozoridagi ekologik talablar ortib borayotgan bir paytda korxonalarda samaradorlikni oshirishning yana bir muhim yo‘li hisoblanadi. Barqaror rivojlanishni ta'minlash va energiya

[19] https://old.gov.uz/oz/news/view/15928

samaradorligini oshirish orqali kompaniyalar xarajatlarni kamaytirishi va brend obro‘sini mustahkamlashlari mumkin.

- Yashil energiya manbalaridan foydalanish: Quyosh, shamol, va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytiradi va ekologik izni qisqartiradi.

- Resurslarni qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish: Resurslarni qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish orqali kompaniyalar nafaqat xarajatlarni optimallashtiradilar, balki atrof-muhitga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadilar.

**Metodologiya.** Ushbu maqolada sifat boshqaruvi va benchmarking’ni o‘rganish uchun sifatli tadqiqot metodologiyasi qo‘llaniladi. Tadqiqot uchun ma'lumotlar quyidagi manbalardan olinadi:

So‘rovnomalar: Korxonalarda sifat boshqaruvi tizimlari va benchmarking amaliyotlarini qanday qo‘llanayotganligi haqida so‘rovnomalar o‘rganildi.

Intervyular: Sifat boshqaruvi va benchmarking jarayonlarida ishtirok etgan rahbarlar va mutaxassislar bilan intervyular o‘rganildi.

Kompaniya hujjatlari tahlili: ISO sertifikatlari, audit hisobotlari va benchmarking tahlillarini ko‘rib chiqish.

Tadqiqotda maqsad sifat boshqaruvi va benchmarkingning samaradorligini o‘lchash, ularni bir-biri bilan qanday uyg‘unlashtirish mumkinligini aniqlashdir.

**Natijalar va Tahlil.** Sifat boshqaruvi samaradorligi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etgan kompaniyalar ko‘pincha o‘z jarayonlarini yanada samarali qilishadi, mahsulot yoki xizmatlarning sifatini yaxshilashadi va mijozlar qoniqishini oshiradilar. Masalan, Toyota kompaniyasi **"Lean"** va **"Kaizen"** metodlarini joriy etganidan so‘ng ishlab chiqarish jarayonlaridagi ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va sifatni oshirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

**Benchmarking natijalari.** Benchmarking orqali kompaniyalar o‘z raqobatchilari bilan taqqoslab eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganishadi va o‘z tizimlarini takomillashtiradilar. Masalan, Apple kompaniyasi o‘zining innovatsion mahsulotlarini ishlab chiqarishda boshqa texnologik gigantlardan eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganib, o‘z mahsulotlarini doimiy ravishda yaxshilab kelmoqda.

**Raqobatbardoshlikni Oshirish.** Benchmarking va sifat boshqaruvi yordamida kompaniyalar o‘z raqobatbardoshligini oshiradilar. Raqobatchilarning muvaffaqiyatlarini o‘rganib, ular o‘z strategiyalarini va jarayonlarini optimallashtiradilar. Misol uchun, Amazon kompaniyasi o‘zining logistik tizimini doimiy ravishda benchmarking orqali yaxshilab, jahon bozoridagi yetakchiligini mustahkamladi.

**Intervyular va Tadqiqotlar.** Ushbu maqoladagi tahlil va fikrlar asosan intervyular orqali olingan ma'lumotlar asosida shakllantirildi.

- Intervyu 1, Quality Digest LIVE. AQSH, 2015-yil.

Ushbu intervyu orqali o‘rta va yirik kompaniyalarda sifat boshqaruvi tizimlari va benchmarking metodlarini qanday qo‘llashayotgani haqida ma'lumotlar olindi. Intervyuda VERSE Solutions kompaniyasining mahsulot strategiyasi bo‘yicha direktori Tim Lozier bilan suhbat bo‘lgan. Suhbat mavzusi asosan risk va muvofiqlik (risk and compliance) masalalariga bag‘ishlangan. Lozier

kompaniyaning sifat boshqaruvi, xavf va muvofiqlik jarayonlarini qanday boshqarishi haqida gapirib bergan.[20]

- Intervyu 2: Fabien Chesne, 2018-yil

Bu yerda suhbat Fabien Chesné bilan, u Intuiti kompaniyasida UX/UI dizayn va mahsulot boshqaruvi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Ushbu intervyuda u mijozlar bilan qanday ishlashini, xususan, benchmarking (ya'ni raqobatchilarni va bozordagi boshqa misollarni o‘rganish), moodboard (ilhom va vizual g‘oyalarni jamlash) ishlatishni, va biznes-mijoz munosabatlari haqida gapirib beradi. Shuningdek, Fabien quyidagi ikkita asosiy savolga javob beradi:

1. Mijozlar bilan benchmarking va audit (tahlil) bo‘yicha qanday ishlaysiz?
2. Ichki jamoada va mijozlar bilan ishlash jarayonida ijodiy jarayonlar va ishni tasdiqlash bosqichlarini qanday belgilaysiz?

Bu intervyu benchmarking jarayonlarini tashkilotlarga qo‘llashda uchraydigan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar haqida ma'lumot beradi. Tahlil etilgan kompaniyalar benchmarking orqali o‘z faoliyatlarini qanday yaxshilaganligi va raqobatbardoshlikni qanday oshirganligi haqida muhim ma'lumotlar taqdim etildi.[21]

**Xulosa.** Korxonalarda samaradorlikni oshirishning yangi yo‘llari turli usullarni o‘z ichiga oladi. Raqamli transformatsiya, Agile metodologiyasi, shaxsiylashtirilgan marketing, innovatsion madaniyat va yashil texnologiyalar - bularning barchasi samaradorlikni oshirishga yordam beradi va tashkilotlarni raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bugungi kunda kompaniyalar uchun samaradorlikni oshirish faqatgina texnologiyalarni qo‘llash bilan cheklanmaydi, balki tashkilotning ichki madaniyati va boshqaruv uslublarini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, bu yangi yondashuvlar va metodlarni o‘z faoliyatiga integratsiya qilgan kompaniyalar bozorda muvaffaqiyatga erishish va uzoq muddatli raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lish imkoniyatini oshiradi. Innovatsion madaniyat va texnologiyalarning integratsiyasi orqali kompaniyalar nafaqat samaradorlik darajasini yuqori saqlaydi, balki mijozlarning ehtiyojlarini yanada samarali qondiradi. Shu bilan birga, doimiy takomillashtirish va sifat boshqaruvi yondashuvlari, masalan, TQM, ISO 9001 standartlari va benchmarking kabi vositalar orqali kompaniyalar o‘z jarayonlarini yanada sifatli va samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya, moslashuvchan boshqaruv metodlari va ekologik barqarorlikka intiladigan kompaniyalar bugungi o‘zgaruvchan va raqobatbardosh muhitda muvaffaqiyatga erishadi. Bularni o‘z ichiga olgan strategiyalarni joriy qilgan holda, tashkilotlar nafaqat bugungi bozor talablariga javob beradi, balki kelajakdagi o‘zgarishlarga moslashishga ham tayyor bo‘ladi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar.**

1. **ISO (International Organization for Standardization)**. (2015). *ISO 9001:2015 Quality Management Systems - Requirements*. ISO. Bu standart sifat boshqaruvi tizimlari va ISO 9001 haqida tushunchalarni yoritadi.
2. **Juran, J. M.** (1998). *Juran's Quality Handbook*. McGraw-Hill. Ushbu

[20] https://youtu.be/DMyi0W9w8CE?si=dbBZHkNFhQNZmseH
[21] https://youtu.be/TyicB9pHt-8?si=nYf-F0-UvwIIXJtZ

asarda Juranning sifat menejmenti va uning asosiy tamoyillari haqida kengroq ma'lumotlar keltirilgan.

3. **Deming, W. E.** (1986). *Out of the Crisis*. MIT Press. Demingning PDCA modeli va sifatni boshqarish jarayonlarini soddalashtirish haqidagi tushunchalari mazmunli tarzda yoritilgan.

4. **ISO rasmiy sayti** – https://www.iso.org ISO 9001 va boshqa sifat menejmenti standartlari haqida rasmiy ma'lumotlar.

5. **American Society for Quality (ASQ)** – https://asq.org Sifat menejmenti, TQM, Six Sigma, Juran va Deming yondashuvlari bo‘yicha maqolalar va resurslar.

6. **Investopedia** – https://www.investopedia.com Benchmarking, TQM va sifat boshqaruvi kabi asosiy biznes atamalari tushunchalari va izohlar.

7. **old.gov.uz** – https://old.gov.uz/oz “Kayzen” tizimi haqida ma’lumotlar olindi.

**Muratova Shohista Nimatullayevna** - *Bojxona instituti kafedra boshlig‘i, i.f.d., prof. Tel.: (+99893) 512-75-62, e-mail: shohista11@mail.ru*

# BOJXONA MAQSADLARINING EKOLOGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARI BILAN INTEGRATSIYASI

**Annotatsiya**. Maqolada davlat ekologik boshqaruv mexanizmining elementlari ko‘rib chiqilib, tadqiqot natijalari sifatida bojxona organlari tomonidan ekologik maqsadlarda amalga oshiriladigan faoliyatda yuzaga keladigan ekologik va bojxona boshqaruvining mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tavsiflangan. Iqtisodiy-ekologik munosabatlarning mazmunini yoritishda bojxona organlari va ekologik boshqaruv organlarining idoralararo o‘zaro munosabat shakllari belgilangangan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik boshqaruv, bojxona boshqaruvi mexanizmlari, ekologik maqsadlar, bojxona qonunchiligi, ekologik standartlar va me’yorlar, ekologik xavfsizlik.

**Аннотация**. В статье рассмотрены элементы механизма государственного экологического управления и по результатам исследования описана взаимосвязь между механизмами экологического и таможенного управления, возникающая в деятельности, осуществляемой таможенными органами в экологических целях. При изучении содержания экономико-экологических отношений определены формы межведомственного взаимодействия таможенных органов и органов экологического управления.

**Ключевые слова:** экологическое управление, механизмы таможенного администрирования, экологические цели, таможенное законодательство, экологические стандарты и нормы, экологическая безопасность.

**Abstract.** The article considers the elements of the mechanism of state environmental management and, based on the results of the study, describes the relationship between the mechanisms of environmental and customs management arising in the activities carried out by customs authorities for environmental purposes. When studying the content of economic and environmental relations, the forms of interdepartmental interaction between customs authorities and environmental management bodies are determined.

**Keywords:** environmental management, customs administration mechanisms, environmental objectives, customs legislation, environmental standards and norms, environmental safety.

Ekologiya sohasidagi milliy strategik vazifalarni samarali hal qilish uchun vakolatli hokimiyat organlarining harakatlarini muvofiqlashtirish orqali zamonaviy ekologik boshqaruv mexanizmining ishonchliligini oshirish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining bojxona organlari vakolatiga kiradigan ekologik boshqaruv mexanizmlari va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining integratsiyasi talab etiladi.

Ekologik maqsadlar uchun taqiqlar va cheklovlar o‘rnatilgan tovarlarning

ushbu toifalarini transchegaraviy harakatlanishi jarayonida yuzaga keladigan ekologik xavflar bojxona organlarining kuchlari va vositalari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik boshqaruv obyekti hisoblanadi. Ekologik boshqaruv vakolatlari bojxona organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan vakolatlar doirasida bojxona ishi sohasida nazorat faoliyatini olib borish orqali amalga oshiriladi [1].

Bojxona organlari umumiy va maxsus vakolatlarga ega davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik boshqaruv mexanizmining institutsional tizimining eng muhim elementidir. Shu bilan birga, bojxona boshqaruvi bojxona organlari faoliyatining belgilangan sohasi hisoblanadi. Bojxona boshqaruvining ommaviy mexanizmi – bu tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarining xatti-harakatlariga bojxona qonunchiligi va xalqaro shartnomalar talablariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida ta’sir ko‘rsatishga imkon beradigan iqtisodiy-huquqiy vositalar to‘plami.

Ekologik boshqaruv organlari tizimida bojxona xizmatining o‘rni va rolini baholashda shuni ta’kidlash kerakki, bojxona xizmati ekologik boshqaruv bojxona organlari faoliyatining belgilangan sohasiga tegishli emasligi sababli maxsus vakolatli funksional organlar guruhiga kiradi, natijada ekologik faoliyat ular uchun asosiy emas [2].

Bojxona organlari tashqi savdo ishtirokchilari tomonidan ekologik talablarga rioya etilishini baholash va nazorat qilish bilan bog‘liq turli funksiyalarni bajarishi mumkin, shu jumladan:

- tovarlarning eksporti va importi uchun hujjatlar va ruxsatnomalarni, shu jumladan tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalarni tekshirish;
- tovarlarni chegaradan o‘tkazishda ekologik standartlar va me’yorlarga rioya etilishini nazorat qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida olib kirish yoki olib chiqish taqiqlangan tovarlarning noqonuniy aylanishining oldini olish;
- atrof-muhitni boshqarishda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar va organlar, shu jumladan nazorat qiluvchi organlar, milliy va xalqaro ekologik tashkilotlar va boshqalar bilan hamkorlik qilish.

Shuningdek, bojxona organlari bojxona tartib-taomillari va nazorat tizimlarini takomillashtirish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi. Umuman olganda, bojxona organlari noqonuniy savdoni to‘xtatish, savdo tovarlarining ekologik talablarga muvofiqligini tekshirish va umumiy ekologik muammolarni hal qilish uchun boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qilish orqali atrof-muhitni boshqarish sohasida muhim rol o‘ynaydi. Bojxona organlari faoliyatidagi bojxona va atrof-muhitni boshqarish institutlarining eng faol aloqasi – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining idoralararo hamkorligi asosida namoyon bo‘ladi.

Idoralararo hamkorlik mexanizmi bojxona xizmati va O‘zbekiston Respublikasining ekologik boshqaruv organining birgalikdagi boshqaruvi masalalari bo‘yicha hujjatlashtirilgan ekologik ahamiyatga ega ma’lumotlarni almashishni ta’minlaydi.

Bojxona organlari faoliyatida ekologik va bojxona boshqaruvining davlat mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi bojxona qonunchiligida belgilangan vakolat doirasida strategik ekologik boshqaruv muammolarini hal qilish bilan tasdiqlanadi. Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish sohasidagi ushbu strategik ustuvorliklar “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida belgilangan [3].

Bojxona organlarining milliy va integratsion ekologik boshqaruv jarayonida ishtirok etishi ular tomonidan amaldagi milliy darajadagi hujjatlar va xalqaro shartnomalarga, atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash maqsadida belgilangan tartibda qabul qilingan tushunchalar va strategiyalarga muvofiq ekologik siyosatni amalga oshirishni anglatadi. Bojxona qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik boshqaruv funksiyalari bojxona ishi doirasida vositachilik qiladi va davlatning ekologik xavfsizligini ta’minlash uchun tashqi savdo faoliyatini tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya etilishini ta’minlash bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 203-moddasi bojxona organlari oldida turgan ekologik vazifalar va ularni ta’minlaydigan bojxona funksiyalari
(4-xatboshi) mavjudligini aniqlashga imkon beradi [4].

Shunday qilib, bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarga nisbatan taqiqlar va cheklovlarga rioya etilishini bojxona nazorati operatsiyalari, bojxona statistikasini yuritish funksiyalari, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, shuningdek radiatsiya va davlat nazoratining boshqa turlarini amalga oshirish orqali bojxona organlari va ularning mansabdor shaxslari inson hayoti va sog‘lig‘ini, hayvonot va o‘simlik dunyosini, atrof-muhitni muhofaza qilishning ekologik muammolarini hal qiladilar.

Bojxona organlari faoliyatida ekologik va bojxona boshqaruvining ommaviy mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning dolzarbligi xalqaro standartlarni bajarish bilan bog‘liq maqsad va vazifalar, shu jumladan global ekologik tahdidlarga qarshi kurashishga qaratilgan. Bojxona ishi doirasida belgilangan vakolatlar doirasida bojxona organlari jamoaviy ekologik xavfsizlikni ta‘minlaydilar. Shu tariqa, tuzilish nuqtayi nazaridan, ommaviy ekologik boshqaruv va bojxona boshqaruvi mexanizmlari bir vaqtning o‘zida ham bojxona, ham ekologik maqsadlarda amalga oshiriladigan boshqaruv subyekti faoliyatining mazmuni bilan kesishadi. Bojxona organlari faoliyati orqali amalga oshiriladigan strategik ekologik ustuvorliklar quyidagilardan iborat:

- “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- tabiiy ekotizimlarning biologik xilma-xilligini saqlash va biologik resurs obyektlarini muhofaza qilish;
- davlat ekologik nazoratining samaradorligini oshirish;
- biologik tahdidlardan ogoh bo‘lish uchun biologik xavflarning monitoring tizimini rivojlantirish;
- boshqa davlatlardan olib kirilishi xavfi bo‘lgan zararli moddalardan tabiiy muhitning ifloslanishini bartaraf etish.

Bojxona organlari faoliyatida ekologik va bojxona boshqaruvining davlat mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligini kuchaytiradigan yana bir omil – bu bojxona organlarining ekologik huquq sohasidagi xorijiy davlatlar bilan hamkorligidir. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlik amaliyoti bojxona organlari tomonidan Jahon bojxona tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda [5]. Istiqboldagi strategik yo‘nalish Birlashgan millatlar tashkilotining atrof-muhit bo‘yicha xalqaro tashabbus dasturi, ya’ni “Yashil bojxona” konsepsiyasi doirasida ekologik sezgir tovarlar ustidan tegishli nazoratni amalga oshirishda dunyo bojxona xizmatlarining funksionalligini oshirishdir.

Umuman olganda, milliy bojxona organlari xalqaro tashkilotlar va atrof-muhit xavfsizligi sohasida vakolatli boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, bir vaqtning o‘zida davlat boshqaruvining bir nechta turlarini – bojxona va atrof-muhit muhofazasini amalga oshiradilar, bu, ayniqsa, ekologik muammolarni hal qilish va atrof-muhit sifatini saqlash uchun juda muhimdir. Shuning uchun, nazarimizda, atrof-muhit muhofazasini ta’minlash bo‘yicha bojxona organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilab olishi taklif etiladi:

1. Tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishida atrof-muhit xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlarni prognozlash, aniqlash, tahlil qilish va baholash.
2. Tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishida atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va strategik rejalashtirishda ishtirok etish.
3. Tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishida atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash sohasini normativ-huquqiy tartibga solish.
4. Bojxona organlari tomonidan ekologik xavfsizlikni ta’minlash sohasida ilmiy faoliyatni tashkil etish.
5. Jamoaviy ekologik xavfsizlikni ta’minlash sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirish.

Bojxona organlarining ekologik boshqaruv organlarining amaldagi tizimidagi o‘rni davlatning ekologik siyosati va tashqi savdo faoliyatining ekologik xavflarga qarshi kurashish sohasida rasmiy ravishda e’lon qilingan davlat-huquqiy ustuvorliklar bilan belgilanadi. Bu bojxona organlari va ularning mansabdor shaxslari bojxona chegarasi orqali ekologik sezgir tovarlar va tabiiy resurslarning harakatini nazorat qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ekologik xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/4000640
2. Ронжина Н.А. Механизм юридического закрепления эколого-правового статуса таможенных органов. Финансовая экономика, 2021. – №4. – С.77-81.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://lex.uz/ru/docs/6600413

4. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O‘RQ-400-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni.
URL: https://www.lex.uz/acts/2876354
5. Булгакова Л.С. Международное сотрудничество таможенных органов в области обеспечения экологической безопасности государства. // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, 2018. – №9. – С.70-72.

**F.U.Tursunov** – SamISI, “Menejment” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent

## KORXONADA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNING ASOSIY USLUBLARI

**Annotatsiya:** maqolada korxonalarda mahsulot sifati menejmenti uslublarini takomillashtirishning dolzarbligi, iste’molchining talablariga javob berish uchun eng mos keladigan avtomatik sifat menejmenti usullari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** sifat menejmenti, texnologik usullari, sifat boshqaruvi, sifat talablari, avtomatlashtirish, sifatni boshqarishning iqtisodiy usuli, sifatni boshqarishning psixologik usuli.

**Аннотация:** в статье рассматривается актуальность совершенствования методов управления качеством продукции на предприятиях, наиболее подходящие автоматические методы управления качеством для удовлетворения требований потребителей.

**Ключевые слова:** менеджмент качества, технологические методы, менеджмент качества, требования к качеству, автоматизация, экономический метод управления качеством, психологический метод управления качеством.

**Abstract:** the article examines the relevance of improving product quality management methods at enterprises, the most suitable automatic quality management methods to meet consumer requirements.

**Key words:** quality management, technological methods, quality management, quality requirements, automation, economic method of quality management, psychological method of quality management.

Zamonaviy sifat menejmentining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, sifat menejmenti mahsulot ishlab chiqarish jarayonida maksimal samara beradi va mahsulot ishlab chiqarish jarayonidan oldin sifatni ta’minlash bo‘yicha tadbirlarni ham amalga oshirish kerak. Mahsulot sifatini boshqarish deganda mahsulotni yaratish, ishlatish yoki iste’mol qilishda mahsulot sifatining zaruriy darajasini belgilash, ta’minlash va saqlab turish maqsadlarida amalga oshiriladigan harakatlar tushuniladi.

Sifatni boshqarishning ma’muriy usullari sifat darajasini saqlab qolish va uni yaxshilash uchun ishlab chiqilgan rasmiy buyruqlar va buyruqlarning majburiy bajarilishida namoyon bo‘ladi.

Ma’muriy sifat usullariga quyidagilar kiradi:

- tartibga solish usullari (umumiy tashkiliy, funksional, rasmiy, tarkibiy);
- standartlashtirish usullari (turli darajalar va holatlar standartlariga asoslangan);
- normalizatsiya usullari (vaqt normalari, raqamli normalar asoslariga asoslangan);
- ko‘rsatma usullari (shu jumladan tanishish, tushuntirish, maslahat, ogohlantirish);
- ma’muriy usullar (qarorlar asosida buyruqlar, ko‘rsatmalar, operatsion va profilaktika ta’siridan foydalanish buyrug‘ining bajarilishini nazorat qilish);
- sifat menejmenti bo‘yicha ko‘rsatmalar va tadbirlar, sifatni ta’minlash uchun ularning bajarilishini nazorat qilish;
- taqdim etilgan ma’lumotlarning mantiqiy asosliligi va konkretligi(tafovutlarni istisno qiladigan aniq va qisqa shakllantirish);
- asosli dalillar;
- barqarorlik (kichik o‘zgaruvchanlik);
- sifatli tarkib.

Sifatni boshqarishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu sifat siyosatidir. "Sifat siyosati - bu yuqori rahbariyat tomonidan rasmiy ravishda shakllantirilgan sifat sohasidagi tashkilot faoliyatining umumiy niyatlari va yo‘nalishlaridir". Bu sifat menejmenti sohasidagi har qanday ma’muriy usul asos bo‘lgan asosiy hujjatdir, chunki uni amalga oshirish uchun mas’uliyat yuqori darajadagi menejer zimmasida bo‘ladi, sifat menejmenti tizimini joriy etish bevosita unga bog‘liq.

Sifat siyosatini shakllantirish jarayonida:
- tashkilot unga qo‘yiladigan barcha talablarga e’tibor berishi kerak;
- sifat bo‘yicha qo‘llanma siyosatni tashkilotning bosh direktori imzosi bilan yozma ravishda yozib qo‘yishi kerak;
- sifat siyosati sifatni ta’minlash uchun tashkilotning barcha bo‘limlari faoliyatini muvofiqlashtirishi kerak;
- sifat siyosati tashkilotning barcha xodimlari uchun tushunarli bo‘lishi lozim, chunki har bir xodim uni amalga oshirishi kerak.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, har qanday tashkilot uchun sifat siyosati ega bo‘lishi kerak bo‘lgan bir nechta xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:
- qisqalik;
- har bir xodimning sifatni ta’minlash faoliyatiga jalb qilinishi;
- standartlar, sifat talablari asosliligi;
- ishlab chiqarilgan mahsulot sifatining barcha jihatlarini to‘liq qamrab olish;
- tashkilotning bosh rahbari tomonidan sifat siyosatini tasdiqlash.

Sifat menejmentining texnologik usullari ishlab chiqarish jarayonlari sifatini boshqarish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini nazorat qilish va ulardan umumiy foydalanish usullariga bo‘linadi. Zamonaviy texnologiyalar turli xil muhandislik va texnologik usullar yordamida eng yuqori sifatga erishishga imkon beradi, ularning tanlovi boshqariladigan ob’ektning xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu usullar quyidagilarga bo‘linadi:
- avtomatik;
- avtomatlashtirilgan;

- mexanik;
- qo‘lda.

Zamonaviy iste’molchining talablariga javob berish uchun eng mos keladigan narsa bu avtomatik sifat menejmenti usulidir. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, ishlab chiqarish jarayonining ma’lum xususiyatlardan chetga chiqishi va tuzatish harakatlari aniqlanadi, ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, texnik qurilmalar yordamida jarayonga avtomatik ravishda ta’sir qiladi. Sifatni boshqarishning avtomatik usuli hozirgi vaqtda ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni boshqarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ishlab chiqarish va texnik nazorat qilish uchun eng istiqbolli hisoblanadi. Ishlab chiqarish va texnik nazorat uchun bu usul muhim ahamiyatga ega, chunki uni ishlatishda avtomatik boshqarish usullarini qo‘llashda nuqsonli mahsulotni o‘tkazib yuborish ehtimoli yo‘q qilinadi.

Bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi bilan sifat menejmentining iqtisodiy usullaridan keng foydalanish zarur, chunki faqat ulardan foydalanganda tashkilot zamonaviy bozor munosabatlarida omon qolishi va rivojlanishi mumkin. Sifatni boshqarishning iqtisodiy usulining mohiyati sifat darajasini optimallashtirish uchun motivatsiyaning iqtisodiy vositalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat. Iqtisodiy usul tashkiliy va ma’muriy usuldan farq qiladi, chunki u aniq iqtisodiy rag‘batlantirish va buyurtmalar va buyruqlarga emas, balki sifatli ish uchun haq to‘lashga qaratilgan.

Sifatni boshqarishning iqtisodiy usullarini qo‘llash samaradorligi yuqori darajada. Masalan, moddiy rag‘batlantirish, sifat menejmentining iqtisodiy usuli sifatida, ish haqining oshishi ishlab chiqarilgan mahsulot sifatining oshishiga olib keladi. Umumiy ma’noda, ushbu usuldan foydalanish ish haqining oshishi tufayli iste’molchilar talabini oshiradi, bu esa o‘z navbatida sifatning oshishi va tannarxning pasayishi tufayli ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish hajmining oshishiga olib keladi. Natijada, ushbu o‘zgarishlar tashkilotlarning yalpi daromadi va foyda miqdorining oshishiga olib keladi.

Korxonada mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish mustaqil yo‘nalishlari sifatida mahsulot sifatini firma ichida rejalashtirish, korxonada sifatni boshqarish tizimini joriy etishni rejalashtirish,

mahsulot sifatini oshirishni kadrlar bilan ta’minlashni rejalashtirish, ichki va tashqi brak natijasida korxona ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlarni rejalashtirish, shartnoma va kontraktlarda mahsulot sifatini rejalashtirishdan iborat. Keyingi yillarda korxonada mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri tayyorlanayotgan buyumlar (ishlar, xizmatlar), sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatlashga tayyorlashni rejalashtirish hisoblanadi. Yakuniy mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonalar xom ashyo va boshqalarni yetkazib beruvchi korxonalarga ularning mahsulotlari (xom ashyo, materiallar, yarimfab-rikatlar, butlovchi bumlar va boshqalar) sifatini yaxshilash borasida turli yordamlarni ko‘rsatishlari kerak. Shunday yordam shakllari, shuningdek uni ko‘rsatishga sarflanadigan harajatlar korxonada mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish predmeti bo‘lishi kerak.

Sifatni boshqarishning psixologik usullari ham mavjud. Ularning mohiyati

tashkilotda erishilgan sifat darajasini saqlab qolish va takomillashtirish maqsadida mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarga ta’sir qiluvchi omillar to‘plamidan foydalanishdir.

Sifat menejmentining psixologik usullariga quyidagilar kiradi:

- tashkilotning barcha xodimlarining sifati bo‘yicha faoliyatda sifat va faollikni oshirish uchun javobgarlikni rag‘batlantirish usullari;
- tashkilot xodimlari o‘rtasida psixologik mikroiqlimni takomillashtirish usullari: kelishmovchiliklarni bartaraf etish, yuqori kommunikativlikni ta’minlash;
- sifatni ta’minlash jarayonida xodimlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- tashkilotning har bir xodimi faoliyatini sifatini oshirishga yo‘naltirish uchun motivlarni shakllantirish;
- korxonaning yuqori sifat darajasini ta’minlash siyosatini qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish.

Taklif etilayotgan mahsulot (mahsulot yoki xizmat) sifati iste’molchining talablarini qondirish darajasini ifodalovchi mahsulot xususiyatlarining kombinatsiyasi bilan ifodalanadi.

Mahsulot xususiyati-bu mahsulotning ma’lum bir xususiyati bo‘lib, u butun hayot aylanishi davomida o‘zini namoyon qiladi (rivojlantirish, loyihalash, ishlab chiqarish, ishlatish yoki iste’mol qilish).

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifat darajasini baholashni ta’minlaydigan miqdoriy xususiyatlarining yig‘indisi sifat ko‘rsatkichini tanlashga bog‘liq. Sifat darajasini ob’ektiv baholash uchun turli xil o‘zaro bog‘liq texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘plami qo‘llaniladi, bitta ko‘rsatkichni baholashda xulosalar asosida sifat darajasini to‘liq baholash mumkin emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Агарков, А.П. Управление качеством [Электронный ресурс]: учебник / А. П. Агарков. - М.: Дашков и Ко, 2017. - 204с.

2. Аристов, О.В. Управление качеством [Текст]: Учебник для вузов (МО) / О. В. Аристов. - М.: ИНФРА-М, 2008. - 240с

3. Басовский, Л.Е. Управление качеством [Текст]: Учебник / Л. Е. Басовский, В. Б. Протасьев. - М.: ИНФРА-М, 2008- 212с

4. Поликарпова, М. Управление качеством работы промышленного предприятия [Текст] / М. Поликарпова // Проблемы теории и практики управления. - 2012.-№3.-С. 75-82.

5. Мельников, В.П. Управление качеством [Текст]: учебник для СПО / В. П. Мельников, В. П. Смоленцев, А. Г. Схиртладзе. - 4-е изд., стер. - М.: Академия, 2009. - 352с.

**Ro‘ziqulova Nilufar -** SamISI magistranti, mmr-124 guruh talabasi

# EKOLOGIK MENEJMENTNING IQTISODIY FOYDASI VA RAQOBATBARDOSHLIKKA TA’SIRI

**Kalit so‘zlar:** ekologik, tabiiy, resurs, global muammo, ekologik xavfsizlik, ekologik harakat, sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi, shahar infratuzilmasi, biologik xilma-xillik, shamol, quyosh, biomassa

**Key words:** environmental, natural, resource, global problem, environmental security, environmental movement, industrial enterprises, agriculture, urban infrastructure, biological diversity, wind, solar, biomass

**Ключевые слова:** окружающая среда, природный, ресурс, глобальная проблема, экологическая безопасность, экологическое движение, промышленные предприятия, сельское хозяйство, городская инфраструктура, биологическое разнообразие, ветер, солнце, биомасса.

**Annotatsiya:** ekologik menejment nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki korxonalar uchun raqobatbardosh ustunlik yaratish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ekologik menejmentni samarali qo‘llagan korxonalar resurslarni tejash, xarajatlarni kamaytirish, iste’molchilar orasida ekologik toza brend sifatida tanilish va yangi bozor imkoniyatlariga ega bo‘lish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, davlat tomonidan beriladigan rag‘batlar, imtiyozlar va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lish kabi afzalliklar kompaniyalar uchun qo‘shimcha iqtisodiy foyda keltiradi.

**Аннотация:** экологический менеджмент важен не только для защиты окружающей среды, но и как средство создания конкурентного преимущества предприятий. Предприятия, эффективно применяющие экологический менеджмент, имеют возможность экономить ресурсы, снижать затраты, стать известными среди потребителей как экологически чистый бренд и получить новые рыночные возможности. В то же время государственные стимулы, льготы и преимущества, такие как наличие международных сертификатов, приносят компаниям дополнительные экономические выгоды.

**Abstract:** environmental management is important not only to protect the environment, but also as a means of creating a competitive advantage for enterprises. Enterprises that effectively apply environmental management have the opportunity to save resources, reduce costs, become known among consumers as an environmentally friendly brand, and gain new market opportunities. At the same time, state incentives, benefits and advantages such as having international certificates bring additional economic benefits for companies.

Ekologik menejment tabiiy resurslarni samarali boshqarish, atrof-muhitni himoya qilish va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy yo‘nalishdir. Bugungi kunda ekologik masalalar global darajada ahamiyat kasb etganligi sababli, ekologik menejment fanining rivojlanishi va uning usullarini amaliyotga joriy qilish zarurati ortib bormoqda. O‘zbekistonda ekologik harakatlar so‘nggi yillarda bir qator ijobiy o‘zgarishlar bilan rivojlanmoqda. Bu jarayonlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqmoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Ekologik xavfsizlik to‘g‘risida"gi qonun ekologik harakatlarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda turli ekologik tashkilotlar va NGO‘lar faoliyat yuritmoqda. Ular atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash va aholini ekologik ta’lim bilan ta’minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda.

Ekologik menejmentning asosiy vazifasi resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashdir. Bu esa sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi va shahar infratuzilmasining atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirishga yordam beradi.

ekologik menejment iqtisodiyotni nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham foydali qilib, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Bu nafaqat korxonalar, balki butun jamiyat uchun ham manfaatli bo‘ladi. Bunga yaqqol misollar dunyo miqyosida bir necha bor duch kelishimiz mumkin.

**Germaniya – qayta tiklanadigan energiya:** Germaniya ekologik menejment orqali qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. 2020-yilda Germaniyada ishlab chiqarilgan elektr energiyasining katta qismi shamol, quyosh va biomassa kabi qayta tiklanadigan manbalardan olingan. Bu nafaqat energiya xavfsizligini oshirdi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratdi va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishga yordam berdi. Shu bilan birga, Germaniya energiya resurslariga bog‘liq tavakkalchiliklarni ham kamaytirib, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muvaffaqiyatga erishdi.

**Yaponiya – chiqindilarni qayta ishlash:** Yaponiya chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha ilg‘or texnologiyalar va strategiyalarni qo‘llab kelmoqda. Mamlakatda chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori bo‘lib, chiqindilarni minimallashtirish va qayta ishlash orqali mamlakat iqtisodiyoti katta foyda ko‘radi. Qayta ishlangan materiallar yana ishlab chiqarishga qaytariladi, bu esa xomashyo xarajatlarini kamaytiradi va ekologik ifloslanishni kamaytiradi. Yaponiyaning chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha strategiyasi boshqa davlatlar uchun ham namunaviy hisoblanadi.

**Norvegiya – elektromobillar rivoji:** Norvegiya elektromobillarni rag‘batlantirish uchun soliqlar va boshqa imtiyozlar yaratdi. Mamlakatda neft zahiralari ko‘p bo‘lishiga qaramay, Norvegiya ekologik menejment orqali avtomobil sanoatida elektromobillarni kengaytirishga intilmoqda. Hozirda Norvegiyada sotilayotgan yangi avtomobillarning katta qismi elektromobillardan iborat. Bu amaliyot mamlakatga nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki energiya tejash, xalqaro texnologik innovatsiyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda yordam beradi.

**Xitoy – ko‘mir chiqindilarini kamaytirish dasturi:** Xitoy ko‘mir energiyasidan foydalangan mamlakatlardan biri bo‘lib, bu katta ifloslanishga olib kelgan edi. Lekin so‘nggi yillarda Xitoy ekologik menejment orqali ko‘mir chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta e’tibor bera boshladi. Yashil texnologiyalarni rivojlantirish va shamol, quyosh energiyasini kengaytirish Xitoyda yangi ish o‘rinlarini yaratib,

iqtisodiy o‘sishga turtki bo‘ldi.

**AQSh – yashil qurilish va ekologik standartlar:** AQShda yashil qurilish standartlarini qo‘llash orqali energiyani tejash va chiqindilarni kamaytirish imkoniyati yaratildi. “LEED” (Leadership in Energy and Environmental Design) kabi sertifikatlash dasturlari orqali korxonalar va davlat idoralari ekologik standartlarga mos binolar qurmoqda. Yashil qurilish energiya sarfini kamaytiradi, bu esa xarajatlarni pasaytirib, uzoq muddatda iqtisodiy foyda keltiradi.

**Fransiya – organik qishloq xo‘jaligi:** Fransiyada organik dehqonchilikka o‘tish uchun qator dasturlar ishlab chiqilgan. Ekologik menejment orqali fermerlar kimyoviy o‘g‘itlardan voz kechib, tuproq va suv resurslarini asrashga intilmoqda. Organik mahsulotlarga bo‘lgan talab ortgani tufayli fermerlar yuqori daromad olishmoqda va bu, o‘z navbatida, sog‘lom oziq-ovqat ishlab chiqarishga yordam beradi. Bu misollar ekologik menejmentning nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki iqtisodiy samaradorlikka va rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Ekologik menejmentda raqobatbardoshlik korxona va tashkilotlarga bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, iqtisodiy foyda olish va shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradigan jihatdir. Raqobatbardosh korxonalar o‘z mahsulotlarini ekologik talablar va iste’molchilarning yuqori talablariga moslashtirish orqali o‘z ustunligini oshiradi.

Misollarda keltirilganidek, ekologik menejmentni qo‘llayotgan korxonalar barqarorlik va mas’uliyatli biznes yondashuvi orqali nafaqat o‘z brend obro‘sini oshiradi, balki kelajakda iqtisodiy samaradorligini mustahkamlaydi. Hozirgi vaqtda global bozorlar ekologik talablar va iste’molchilarning yashil mahsulotlarga e’tibori ortib borayotgani sababli, ekologik menejment biznesda uzoq muddatli muvaffaqiyat kaliti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shunday qilib, ekologik menejment korxonalar uchun nafaqat ekologik mas’uliyatni bajarayotganlik belgisi, balki raqobatda muvaffaqiyatli bo‘lishning zamonaviy va barqaror strategiyasi hamdir.

**Shoyev Davronbek Axmadjonovich -** Farg‘ona politexnika instituti,
“Menejment” kafedrasi katta o‘qituvchisi, +998905344104,
e-mail: davronbrks@gmail.com

## EKOLOGIK MENEJMENTNI BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI

**Annotasiya:** Ushbu maqolada, ekologik menejmentni boshqarishning zarurligi asosida ishlab chiqarish korxonalari tomonidan chiqarilayotgan zaharli moddalarni atmosferaga ta’sirini kamaytirish masalalari asoslab berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** menejment, ekologik menejment, ekologik muammo, atrof muhit, ekologik ta’lim.

**Аннотация:** В данной статье, исходя из необходимости рационального природопользования, обосновываются вопросы снижения воздействия токсичных веществ, выбрасываемых производственными предприятиями, на атмосферу.

**Ключевые слова:** менеджмент, природопользование, экологическая проблема, окружающая среда, экологическое образование.

**Abstract:** This article, based on the need for rational environmental management, substantiates the issues of reducing the impact of toxic substances emitted by production enterprises on the atmosphere.

**Key words:** management, environmental management, environmental problem, environment, environmental education.

ISO 14001 standarti ekologik menejment tizimining mezonni belgilab beradi va bu bo‘yicha sertifikatlashtirishni amalga oshirilish mumkin. Atrof-muhit ko‘rsatkichlariga talablarni belgilamaydi, balki samarali ekologik menejment tizimini yo‘lga qo‘yish uchun kompaniya yoki tashkilotning amal qilishini belgilab beradi. Sohadan qat‘i nazar, har bir tashkilotda qo‘llanilishi mumkin. ISO 14001 standartidan foydalanish kompaniya rahbariyati va xodimlariga, shuningdek tashqi manfaatdor tomonlarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini yaxshilashni kafolatlaydi[22].

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida jiddiy ekologik muammolar mavjud. Bu esa atrof-muhitga sezilarli zararli oqibatlarga olib kelmoqda. 2023-yil holati bo‘yicha birgina Farg‘ona viloyatini o‘zida qurilish materiallari sohasida 4 423[23] ta korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan va bu korsatkich o‘tgan 2022 yilga nisbatan 112,6 %ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati korxonalai**,** ayniqsa, beton, sement va g‘isht ishlab chiqarish korxonalari atmosferaga ko‘p miqdorda zaharli moddalar chiqaradi, shuningdek, qazib olish va qayta ishlash jarayonlari ham yer va havo ifloslanishiga olib keladi. Qurilish sanoat korxonalari belgilangan normadan 40 baravar ko‘proq zaharli moddalar chiqarmoqda. Qurilish materiallasi sanoati atmosferaning yomonlashishiga ikki tomonlama zararli ta’sir qiladi. Birinchidan atrof muhitga zaharli moddalarni chiqarsa ikkinchi tomondan qurilish uchun ishlatiladigan tabiiy resurskarni kamayishiga olib keladi yoki qurilish obyektlarini qurish uchun tabiiy resurslar yo‘q qilinmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy qurilish materiallarining (masalan, kompozit materiallar) ko‘p miqdorda ishlab chiqarilishi mikroplastik va mayda zarrachalarning chiqarilishiga sabab bo‘lmoqda va bu zarrachalar havo, suv va tuproq orqali keng tarqalaib odamlar organizmlariga kirib bormoqda hamda ekologik tizimlar uchun katta xavf tug‘dirmoqda. Ayniqsa, tsement va beton ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llaniladigan kimyoviy vositalar tuproq va suv resurslariga katta zarar yetkazmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarni kamaytirish yoki ular faoliyatini to‘xtatib turishning iloji yo‘q. Shuning uchun, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, masalan, quyosh, shamol yoki boshqa qayta tiklanadigan manbalarni joriy qilish energiya sarfini kamaytirishi hamda ekologik toza materiallardan foydalanish yani kam ifloslanish manbai hisoblanadigan qurilish materiallarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish atrof-muhitga yetkazadigan zararni kamaytiradi.

[22] https://tourquality.uz/uz/press-center/news/iso-14001-sistema-ekologicheskogo-menedzhmenta/
[23] https://www.farstat.uz/uz/

Qurilish materiallari sanoati korxonalari keltirib chiqarayotgan ekologik muammolarni to‘liq bartaraf etishning imkoni yo‘q, lekin ularni kamaytirish va ularni boshqarish, muammolarni erta aniqlash orqali keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan zararlarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Buning uchun, doimiy ravishda qurilish korxonalari faoliyatini monitoring va kuzatish tizimlarini joriy qilish, **r**esurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta’minlash masalalariga katta e’tibor qaratish lozim.

Xulosa sifatida ekologik muammolarni boshqarish va ularni kamaytirish maqsadida, har bir hududda chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish uchun zamonaviy mini zavodlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, qurilish ishlaridan tashqari shaharlararo elektr transport tizimini keng joriy qilish, soha mutaxassislari tomonidan odamlarda ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan samarali trening dasturlarini ishlab chiqish, xalqaro tajribalarni mahalliylashtirish, ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ISO 14001. “Спецификация и руководство по использованию систем экологического менежмента”.

2. ISO, 1996 yil. 2. ISO 14011. “Процедуры – часть 1: Аудит системы экологического менежмента”.

3. Shoyev D.A. Boshqarish sifatining iqtisodiy mohiyati va uni rivojlantirish masalalari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ilmiy jurnali. 05.12.2023y. 11-12 son, 342-345 betlar. 71-94 xalqaro daraja, ISSN: 2992-8982.

4. Shoyev D.A. Xodimlarlarning ishchanlik faoliyatini oshirish omillari - "performance-based training". “Soliq va hayot” electron ilmiy ommabop jurnal. 2023y.02.12. 2-tom, 282-286 bet. ISSN 2181-2292.

**Siddikov Askar Axrorovich -** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Menejment” kafedrasi v.b. dotsenti

**To‘ychiyev Yusufbek Rasuljon o‘g‘li** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi, tel: +998 97 031 1226, e-mail: toychiyevyusuf749@gmail.com

## IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHI VA EKOLOGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK MASALALARI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ekologik menejmentni takomillashtirishning metodologik masalalari ko‘rib chiqiladi. Ushbu yo‘nalishdagi nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar**: barqaror rivojlanish, ekologik menejment, iqtisodiy o‘sish, tabiiy resurslar, atrof-muhitni muhofaza qilish

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методологические вопросы устойчивого развития экономики и совершенствования экологического менеджмента. Анализируются теоретические основы и практические подходы в этом направлении.

**Ключевые слова**: устойчивое развитие, экологический менеджмент, экономический рост, природные ресурсы, охрана окружающей среды

**Annotation:** This article discusses methodological issues of sustainable economic development and improving environmental management. It analyzes theoretical foundations and practical approaches in this field.

**Keywords**: sustainable development, environmental management, economic growth, natural resources, environmental protection

Barqaror rivojlanish zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. XXI asrning ekologik inqirozlari va iqlim o‘zgarishlari sharoitida, iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda ta’minlash ehtiyoji kun sayin ortmoqda. Shu bois, ekologik menejmentni rivojlantirish va uni iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga qo‘shish juda dolzarb masala sanaladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ham bu borada bir necha bor alohida ta’kidlaganidek, **"Barqaror rivojlanish bizning strategik yo‘nalishimiz bo‘lib, unda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga, atrof-muhitni himoya qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash ustuvor vazifalardan biridir."** Bu so‘zlar iqtisodiy o‘sish va ekologik muhofazani bir vaqtning o‘zida amalga oshirish orqali kelajak avlodlarga munosib atrof-muhit qoldirish maqsadini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, ekologik menejment tizimini yanada rivojlantirish zaruriyatga aylangan.

Barqaror rivojlanish tushunchasi asosan atrof-muhitni saqlash, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish muvozanatini saqlashga qaratilgan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu konsepsiya asosan uch omilga – ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatga asoslanadi.

Ekologik menejment deganda korxona va tashkilotlarning atrof-muhitga ta’sirini boshqarish jarayoni tushuniladi. Ushbu menejment iqtisodiy faoliyatning ekologik xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantiradi. Shuningdek, ekologik menejment atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga qaratilgan.

Ekologik menejmentni rivojlantirishda bir qator metodologik masalalar mavjud. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

**Monitoring tizimlarini joriy etish**: Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, *tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash, atrof-muhitni asrashda eng samarali yo‘llardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, har bir korxona va tashkilot o‘zining ekologik mas’uliyatini his qilishi va muntazam monitoring tizimlari orqali tabiiy resurslar holatini kuzatib borishi zarur*.

**Innovatsion yondashuvlar**: Prezident o‘z nutqlarida, ayniqsa, ekologik innovatsiyalarning ahamiyatini ta’kidlab, shunday degan edi: **"Ekologik innovatsiyalarni keng tatbiq etish orqali biz nafaqat resurslardan tejamkor**

**foydalanishni ta’minlaymiz, balki kelajak avlodlarga toza va xavfsiz atrof-muhit qoldiramiz."** Shu sababli, korxonalar ekologik innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali ekologik menejmentga o‘z hissasini qo‘shishi lozim

**Xulosa va takliflar.**

Yuqorida aytib o‘tilganidek, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ekologik menejmentni takomillashtirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar ekologik menejment tizimini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirishda yordam berishi mumkin. Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ekologik menejment tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish;

Korxona va tashkilotlarda ekologik mas’uliyatni oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini kengaytirish;

Ekologik innovatsiyalarni joriy qilish uchun maxsus grant va rag‘batlantirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish kerak.

Bu maqola iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ekologik menejmentni rivojlantirishda duch kelinadigan metodologik muammolarni o‘rganib chiqdi va yechim takliflari ilgari surildi. Mazkur yechimlar kelgusida ekologik menejment tizimlarini samarali boshqarishga va resurslardan samarali foydalanishga yordam berishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.Ushbu kitobda prezident Shavkat Mirziyoyevning barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sish masalalari haqidagi qarashlari hamda "yashil" iqtisodiyot, ekologik menejment mavzularidagi fikrlari bayon etilgan.

2. Mamatqulov, B. (2021). *Ekologik menejment asoslari*. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.Mazkur asarda ekologik menejmentning nazariy asoslari, usullari va O‘zbekiston sharoitida amaliy yechimlari keng yoritilgan.

3. United Nations (2020). *The Sustainable Development Goals Report 2020*. United Nations Publications.Ushbu hisobot barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘llari, ekologik menejment va global iqlim o‘zgarishlariga oid dolzarb ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

UO‘K 504.064

**Tursunov Abdumansur Abduazizovich -** dotsent, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti, tel. (+99 8 97) 448-87-99
e-mail: abdumansur1980@mail.ru

## O‘ZBEKISTONDA IQLIM O‘ZGARISHI BILAN BOG‘LIQ FAVQULODDA VAZIYATLARNING OQIBATLARI

**Annotatsiya.** So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi oqibatida respublika hududida tabiiy ofatlar sonining ya’ni, zilzilalar, sellar, er ko‘chkilari, kuchli shamollar, suv

toshqinlari, tabiiy yong‘inlar, qor ko‘chkilarining sezilarli darajada oshganligi, global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq kuzatilayotgan vaziyat sababli respublikada iqlim o‘zgarishiga moslashuv choralarini ko‘rish, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni o‘rganish, tadqiq etish, tabiiy ofatlar bilan bog‘liq yo‘qotishlarni kamaytirish dolzarb vazifa ekanligi, suv manbalarining qisqarishi, tuproq namligining kamayishi hamda iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonda ham qator salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi kabi ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqlim o‘zgarishi**,** ko‘llar, yomg‘ir, qor erishi, xavf, issiqxona gazlari, atmosfera, global isish, ekologik muammo ва iflos gazlar.

**Аннотация.** В последние годы в результате изменения климата на территории республики значительно возросло количество стихийных бедствий, таких как землетрясения, наводнения, оползни, сильные ветры, наводнения, природные пожары, лавины, глобальный климат. изменить, что в связи с наблюдаемой ситуацией, связанной с изменением климата, актуальной задачей является принятие мер по адаптации к изменению климата в республике, изучению и исследованию чрезвычайных ситуаций, связанных с изменением климата, а также снижению потерь, связанных со стихийными бедствиями, Такая информация, как сокращение источников воды, уменьшение влажности почвы и изменение климата, вызывает ряд негативных последствий в Узбекистане.

**Ключевые слова:** изменение климата, озера, дождь, таяние снегов, риск, парниковые газы, атмосфера, глобальное потепление, экологические проблемы и парниковые газы.

**Annotation.** In recent years, as a result of climate change, the number of natural disasters such as earthquakes, floods, landslides, strong winds, floods, wildfires, avalanches, and global climate have increased significantly in the republic. Change that in connection with the observed situation related to climate change, an urgent task is to take measures to adapt to climate change in the republic, study and research emergency situations related to climate change, as well as reduce losses associated with natural disasters, Such information as a reduction in water sources, a decrease in soil moisture and climate change cause a number of negative consequences in Uzbekistan.

**Key words:** climate change, lakes, rain, snowmelt, risk, greenhouse gases, atmosphere, global warming, environmental problem and greenhouse gases.

**Kirish.** O‘zbekiston geografik nuqtai nazaridan tog‘ tizimlari, yirik cho‘l, yaylovlar va qir-adirlarni o‘z ichiga olgan mintaqa hisoblanadi. Iqlimi keskin kontinental, kecha-kunduzgi va fasllar haroratining katta amplitudasi, yuqori quyosh radiatsiyasi va nisbatan past namlik bilan tavsiflanadi. Mintaqada havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘p, so‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib ketdi. Buning oqibatida zilzila, suv toshqinlari, yer va qor ko‘chkilari, sellar kabi boshqa halokatli xavflar tahdid soladi. Respublikaning katta qismi sezilarli darajada iqlim o‘zgarishi ta’siri doirasida bo‘lib, iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, odamlarning turmush tarzi

va sog‘lig‘iga, iqtisodiy obyektlarning barqaror faoliyat olib borishiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi oqibatida respublika hududida tabiiy ofatlar soni sezilarli darajada oshdi. Tabiiy ofatlarning o‘rtacha soni 2001-2022 yillarda - 241 ta holatni tashkil etgan. Ularning 46 % zilzilalar, 27 % sellar, 13,5 % yer ko‘chkilari, 8,7 % kuchli shamollar, 2,4 % suv toshqinlari, 1,6 % tabiiy yong‘inlar, 0,8 % qor ko‘chkilari va boshqalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq kuzatilayotgan vaziyat sababli respublikada iqlim o‘zgarishiga moslashuv choralarini ko‘rish, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni o‘rganish, tadqiq etish, tabiiy ofatlar bilan bog‘liq yo‘qotishlarni kamaytirish dolzarb vazifa bo‘lib hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi-keng tarqalayotgan, jadal va tezlashib borayotgan jarayondir. Dunyoning deyarli barcha qismida istiqomat qilayotgan insonlar iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan hodisalarni o‘z tanalarida his qilishmoqda. Jazirama kunlarda hammamiz global isish haqida ko‘p o‘ylaymiz, kelajak haqida qayg‘uramiz. Biroq ob-havoning so‘nggi davrlardagi bunday injiqliklarini umumiy qilib «iqlim o‘zgarishi» deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki ob-havo nafaqat yozgi kunlarda, balki qishda ham o‘z injiqliklarini ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishi - bu issiqxona gazlari chiqindilarining ko‘payishi natijasida paydo bo‘lgan global ekologik muammo. Mutaxassislar iqlim o‘zgarishining asosiy omili issiqxona effekti ekanligini ta’kidlashadi. Ya’ni quyoshdan kelgan nurni Yer ham o‘z navbatida atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o‘rniga odamlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi meyoridan ortiq qiziydi va iqlimga ta’sir ko‘rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo‘ladi. Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida kam farq bo‘ladi. Ya’ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta’sirida qoladi. Bunday sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi. Issiqxona effektini hosil qiluvchi asosiy gaz bu - karbonat angidrid. U atmosferaga ham tabiiy, ham sun’iy yo‘l bilan qo‘shiladi. Metan, azot oksidi kabi boshqa iflos gazlar havoga inson omili tufayli chiqarilib, bular bir butun issiqxona effekti darajasini belgilaydi. Issiqxona effektini hosil qiluvchi gaz konsentratsiyalarining ortishi, sayyorada tabiiy issiqlik balansini buzadi va antropogen issiqxona effektini keltirib chiqaradi. Global isish bilan bir qatorda, iqlim o‘zgarishi muammosi qatoriga yog‘ingarchiliklarning bir maromda emasligi, gohida quruqchilik bo‘lishi, gohida esa birdan yog‘ingarchiliklar ko‘payib hududlarni suv bosishi ham kiradi. Yer sayyorasining harorati 1 °Cga oshgan. Bu raqam sezilarli emasdek ko‘rinishi mumkin, ammo unga sayyora yuzasidagi o‘rtacha ko‘rsatkich sifatida qaraydigan bo‘lsak, o‘zgarish katta ekanligini, oqibatda muzliklar eriyotganini va dengizlar sathining keskin ko‘tarilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Agar issiqxona gazlarining tarqalishi to‘xtamasa, olimlar Yer sayyorasi o‘rtacha haroratining 4 °C ga oshishini prognoz qilishmoqda. Bu esa quruqlikning katta qismini inson hayoti uchun yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi [5].

O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar qor erishi, suv ko‘payishi natijasida yuzaga kelgan suv toshqinlari va sel oqimlari bilan bog‘liq. Respublikamiz suv resurslarining qariyb 90%i qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikistonda joylashgan sharqiy tog‘ suv havzalaridan keladi. O‘rta Osiyoning baland tog‘larida

315 dan ortiq tabiiy ko‘llar joylashgan bo‘lib, ulardan 43 tasi O‘zbekiston Respublikasida, 12 tasi Tojikiston Respublikasida, Qirg‘izistonda esa 260 tani tashkil etadi. Ko‘llar yomg‘ir, qor erishi bilan to‘yinadi. Buning natijasida O‘zbekiston hududining 46 % selga xavfli hisoblanadi. Respublikada har yili bahor-yoz mavsumida sel, suv toshqinlari tez-tez sodir bo‘ladi va katta moddiy zarar olib keladi. Ular ekinlarni yuvib ketishi, sug‘orish kanallari, ko‘priklarni buzishi, tuproq va temir yo‘llarni yuvib tashlashi va h.k. natijasida aholi punktlari va xo‘jalik obyektlariga katta zarar yetkazadi [1].

Respublikada yana bir eng katta xavf, odatda, kuchli yog‘ingarchilik (yomg‘ir, kuchli qor) hisoblanadi. Xavfli yomg‘irning intensivligi 1,0 dan 3,5 mm / min gacha bo‘lib o‘tadi. Odatda, bu qisqa muddat davom etsada, lekin katta zarar keltiradi. Mart-may oylarida respublikaning tog‘ oldi hududlari Toshkent, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Farg‘ona vodiysida sel faolligi kutiladi. Mamlakat bo‘ylab yog‘ingarchilik notekis taqsimlanishi natijasida, mahalliy xususiyatga ega sel oqimlari sodir bo‘ladi. Namangan, Farg‘ona, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog‘ yonbag‘irlarida sel faolligi may-iyul va oktabr-noyabr oylarida ham davom etadi. Haroratning oshishi natijasida Farg‘ona vodiysining janubida glotsial sel oqimlari kuzatiladi. Shuningdek, Toshkent viloyatida va Qirg‘iziston hududidagi baland tog‘lardagi tabiiy ko‘llar to‘g‘onlari yorilishi natijasida Farg‘ona vodiysining shimoli va janubi bo‘ylab, Namangan va Farg‘ona viloyatlari hududiga sel oqimi kelish xavfi mavjud [4].

**Natijalar.** Yaqin kelajakda haroratning ko‘tarilishi tufayli muzliklarning erish tezligining oshishi kutilmoqda. Daryolar oqimining oshishi, suv toshqinlari, ko‘chkilar va tuproq eroziyasiga olib keladi. Biroq uzoq muddatli prognozlarga ko‘ra, muzliklar hajmining kamayishi Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon irmoqlari oqimining qisqarishi 25-30 %ga oshishi, bu ko‘rsatkich issiqlik ortishi bilan ayniqsa jiddiy bo‘lib, daryolar oqimining qisqarishi 70% ga yetishi mumkin. Bu esa harorat ko‘tarilishi natijasida suvning bug‘lanish koeffitsiyenti oshishi, hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta’sir etadi. Umuman olganda, hozirgi paytda nafaqat O‘zbekiston balki, Markaziy Osiyodagi suv resurslarining 90 % sug‘orma dehqonchilik uchun ishlatilmoqda. Suv qishloq xo‘jaligining asosi hisoblanadi va bu tarmoq Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat iqtisodiyotida ham muhim rol o‘ynaydi, chunki, qishloq xo‘jaligi sohasi bu mamlakatlar YAIMning 10 %dan 45 %gacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Shuningdek, qishloq joylardagi aholining 30 %dan ko‘p qismi shu tarmoq orqali ish bilan o‘zini band etgan.

Suv manbalari qisqarishi elektr energiya taqchilligi oshishiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Jumladan, ekologik tanglik oqibatida o‘tgan yilllar davomida umuman yog‘ingarchilik bo‘lmagan kunlar soni ko‘paydi. Bu o‘z navbatida suv manbalari qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki, Qirg‘izistonda 85 %, Tojikistonda 91 %, O‘zbekistonda 15 %, Qozog‘istonda esa 10 % yaqin elektr energiyasi gidroelektr stansiyalarda ishlab chiqariladi. Tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg‘oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko‘rsatkichlari tushib ketmoqda. Asr oxiriga borib, Markaziy Osiyo mintaqasida harorat Selsiy bo‘yicha 6 darajagacha ko‘tariladi. Havoning bu kabi isishi natijasida, 2050 yilga borib, Markaziy Osiyo

tog‘laridagi muzliklarning uchdan biri erib bitishi mumkin, bu esa ushbu hudud aholisini xavf ostida qoldirib, taraqqiyotga jiddiy tahdid bo‘lishi mumkin. 2000-2001 yillardan beri mintaqadagi qurg‘oqchilik Markaziy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo‘jalik mahsulotlarining nest-nobud bo‘lishi natijasida ko‘rilgan zarar 800 million dollardan ortiqni tashkil etgan [5].

Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho‘lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho‘l maydonlari paydo bo‘lishini tezlashtirmoida. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yerdan foydalanish va iqlim o‘zgarishi natijasida global chang chiqindilari 25-50%ga oshgan. O‘rta Osiyoda Orol dengizining qurigan tubida hosil bo‘lgan yangi Orolqum cho‘li changning asosiy manbaiga aylandi. Shuningdek, Orolbo‘yi hududida ichimlik suv tanqisligi, xavfli kasalliklar tarqalishi, yashash sharoitlari og‘irlashishi natijasida aholi migratsiyasi ko‘paydi, yovvoyi o‘simliklar va hayvonot dunyosi qirilib ketish xavfi ostida qoldi. Atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda. O‘tgan yilda mintaqaning aksariyat mamlakatlarida, xususan, Toshkent shahrida mavsumga xos bo‘lmagan chang-qumli bo‘ron hodisasi yuz berdi va bir necha kun atmosferada chang zarrachalari saqlanib qoldi. Bu kabi mintaqa uchun g‘ayritabiiy hisoblangan hodisalar soni esa yildan-yilga ortishi prognoz qilinmoqda [2].

Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo‘lishiga olib kelmoqda. Umumiy qilib aytganda, xavflarning ta’sir etish ko‘lami jihatidan prognoz ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, iqlim o‘zgarishi natijasida mamlakatimizning yuqori sharqiy hududlariga sel oqimlari, ko‘chkilar va suv toshqinlari xavfi tahdid qilsa, g‘arbiy viloyatlarimiz esa qurg‘oqchilikdan aziyat chekadi.

**Xulosa.** Iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonda ham qator salbiy oqibatlarga olib kelyapti, xususan:

harorat ko‘tarilishi natijasida suvning bug‘lanish koeffitsiyenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta’sir etmoqda;

ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog‘ingarchilik bo‘lmagan kunlar soni ko‘paymoqda;

tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg‘oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko‘rsatkichlari tushib ketmoqda;

atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda;

isish va sovish kabi anomal hodisalarning o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo‘lishiga olib kelmoqda.

Bu kabi tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish borasidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

yillar davomida ro‘y bergan tabiiy ofatlarni baholash natijalari va prognoz ma’lumotlari asosida tabiiy ofatlar xavfini erta aniqlash, tabiiy ofatlar xavfi yoki sodir bo‘lganligi to‘g‘risida xabar berish va ma’lumot yetkazish tizimlarining takomillashmaganligi, tabiiy ofatlar xavfi to‘g‘risida ma’lumot almashish bo‘yicha milliy va mahalliy darajadagi ma’lumotlar bazasining yaratilmaganligi;

tabiiy ofatlar xavfini baholashda zamonaviy uslublar ishlab chiqilmaganligi va tahdidlarni tor doirada baholash amaliyoti saqlanib qolayotganligi;

aholi punktlarini qurish va hududlarni rivojlantirishda tabiiy ofatlar xavfining yetarli darajada inobatga olinmasligi;

aholi orasida xavfsizlik madaniyatini targ‘ib qilish va aholini tabiiy ofatlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash ishlarining yetarli darajada olib borilmasligi;

tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda, tabiiy ofatlar xavfi ta’siriga uchrash ehtimoli yuqori bo‘lgan va boshqa zaif ijtimoiy guruhlarning to‘liq inobatga olinmasligi;

tabiiy ofatlar xavfidan sug‘urtalash va ushbu yo‘nalishdagi ichki investitsiyalarni rag‘batlantirish choralari va amaliy mexanizmlarining sust rivojlanganligidadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-fevraldagi “Sel toshqinlari, sel oqimlari, qor ko‘chkilari va ko‘chkilar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-585-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrdagi “Texnogen, tabiiy va ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni tasniflash to‘g‘risida”gi 455-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 362-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMTning 2023-yilda Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyadagi nutqi.

5. “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining uchinchi Milliy bayonoti” Toshkent, 2016-yil,
356-bet.

**Usmanova Nigina Marupovna -** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti PhD., dots v.b.

**Usmonov Behruz Sharofiddin o‘g‘li -** Samarqand iqtisodiyot va servis institutining magistranti

## INSON RESURSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy ishda inson resurslari samaradorligini oshirish omillari o‘rganiladi. Innovatsion boshqaruv usullari, raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi, soft skills rivoji va xodimlarning motivatsiyasini oshirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistondagi inson resurslari boshqaruvida mavjud amaliyotlar va ularning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida

inson resurslari samaradorligini oshirish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** inson resurslari, samaradorlik, innovatsion yondashuvlar, soft skills, motivatsiya, raqamli texnologiyalar, boshqaruv.

**Аннотатsiя:** В данной научной работе рассматриваются факторы повышения эффективности человеческих ресурсов. Анализируются инноватsионные методы управления, использование цифровых технологий, развитие soft skills и методы повышения мотиватsии сотрудников. Также изучаются существующие практики управления человеческими ресурсами в Узбекистане и оценивается их эффективность. На основе результатов исследования даются научно-практические рекомендатsии по повышению эффективности человеческих ресурсов.

**Ключевые слова:** человеческие ресурсы, эффективность, инноватsионные подходы, soft skills, мотиватsия, цифровые технологии, управление.

**Abstract:** This research explores the factors that enhance the efficiency of human resources. It analyzes innovative management approaches, the application of digital technologies, the development of soft skills, and methods to improve employee motivation. The study also examines the current practices of human resource management in Uzbekistan and evaluates their effectiveness. Based on the findings, practical recommendations for improving human resource efficiency are provided.

**Keywords:** human resources, efficiency, innovative approaches, soft skills, motivation, digital technologies, management.

**Kirish. Mavzuning dolzabrligi.** Inson resurslari samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi global bozor sharoitida tashkilotlar muvaffaqiyatga erishish uchun o‘z inson kapitalini to‘g‘ri boshqarishga va xodimlarning samaradorligini maksimal darajada oshirishga katta e’tibor qaratmoqda. Chunki, tashkilotning raqobatbardoshligi va umumiy natijadorligi ko‘p jihatdan uning inson resurslaridan qanday foydalanishiga bog‘liq. Inson resurslari samaradorligini oshirish masalasi nafaqat xususiy korxonalarda, balki davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda ham dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir davrda, raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish va innovatsion yondashuvlar inson resurslarini boshqarish jarayonlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa, xodimlarning o‘z malakasini doimiy ravishda oshirib borishini, moslashuvchan bo‘lishini va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini talab qiladi. Mazkur tadqiqotda inson resurslari samaradorligini oshirishda asosiy omillar tahlil qilinadi. Jumladan, innovatsion boshqaruv usullari, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, soft skills (yumshoq ko‘nikmalar) rivoji va xodimlarning motivatsiyasini oshirish kabi muhim jihatlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda inson resurslari boshqaruvida qo‘llanilayotgan amaliyotlar va ularning samaradorligi tahlil qilinib, mavjud muammolar va imkoniyatlar aniqlanadi.

O‘zbekiston sharoitida ham inson resurslarini boshqarish muhim masalalardan biridir. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan iqtisodiy islohotlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro bozorda raqobatbardosh kadrlarni

tayyorlash bo‘yicha strategiyalar inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali inson resurslari samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘plab muhim vazifalar mavjud. Shu sababli, inson resurslari samaradorligini oshirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar va usullarni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu tadqiqot O‘zbekistondagi mavjud kadrlar siyosatini tahlil qilish, global tajriba va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanib, inson resurslarini rivojlantirish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi.

**Tahlil va natija.** Zamonaviy mehnat bozorida sodir bo‘layotgan tendensiyalar bugungi kunda har bir korxona va tashkilotning mavjud inson resurslarini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirishga bo‘lgan talabni ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, inson resurslarini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishga bo‘lgan talab ham oshmoqda.

Umuman olganda, inson resurslarini rivojlantirish va undan samarali foydalanishga ta’sir qiluvchi omillar bir qancha bo‘lib, ularning har biri xodimning ish samaradorligi va tashkilotning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyida ushbu omillarning ahamiyatini batafsil keltiramiz:

**Moddiy holat:** Xodimlarning maoshlari va moddiy rag‘batlantirish tizimi ularning ishga bo‘lgan munosabati va mehnat samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xodimning moddiy ta’minoti yetarli bo‘lganida, u o‘zini tashkilotning ajralmas qismi sifatida his qiladi va faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashadi. Rag‘batlantirish tizimi esa xodimlarning mehnatini qadrlash va ularni ko‘proq intilishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardandir.

**Sog‘liq va xavfsizlik:** Ish joyida xodimlarning sog‘lig‘i va xavfsizligi ta’minlangan bo‘lishi, ularning ish faoliyatida barqarorlikni saqlash va stress darajasini kamaytirish uchun zarurdir. Sog‘lom ishchi kuchi yuqori samaradorlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Shu sababli, sog‘liqni saqlash dasturlari va xavfsiz ish sharoitlari tashkilotning muvaffaqiyati uchun muhim rol o‘ynaydi.

**Ijtimoiy muhit va uning o‘rni:** Ish joyidagi ijtimoiy muhit va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar mehnat samaradorligiga kuchli ta’sir qiladi. Ijobiy ijtimoiy muhit va jamoaviy hamkorlik xodimlar o‘rtasida motivatsiyani oshiradi va ularning jamoa ichida o‘zini qulay his qilishiga sabab bo‘ladi. Jamoaviy madaniyatning rivoji xodimlarning mehnatga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

**Ta’lim va rivojlanish:** Xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari ularning kasbiy salohiyatini oshirishda muhim hisoblanadi. Tashkilot ichidagi malaka oshirish kurslari, treninglar va ta’lim dasturlari xodimlarning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bu esa ularning ish faoliyatini yanada samarali va innovatsion yondashuvlarga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi.

**Kelajak kafolatlari:** Xodimlar kelajagining kafolatlanganligi, ya’ni mehnat shartnomalarining barqarorligi, pensiya va sug‘urta tizimlari, ish joyidagi barqarorlik kabi omillar ular uchun muhim rag‘bat vositalari hisoblanadi. Uzoq muddatli barqarorlikka ega bo‘lgan xodimlar o‘z tashkilotiga sodiq bo‘lib, faoliyatida yuqori samaradorlikni ko‘rsatishga intilishadi.

Yuqorida keltirilgan omillar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xodim va ish beruvchi

o‘rtasidagi munosabatlar sifatida ko‘rilishi mumkin, biroq bugungi kunda rivojlangan korxona va tashkilotlar bu bilan cheklanib qolmasdan, o‘z xodimlari va ularning oilalariga ham g‘amxo‘rlik qilish orqali xodimlarning qo‘nimsizligini oldini olishga intilmoqda. Ushbu yondashuvlar inson resurslarini rivojlantirishning yangi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘lib, xodimlarning nafaqat o‘zlari, balki ularning oila a’zolari uchun ham qo‘shimcha ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlashni ko‘zlaydi.

Quyida bu kabi tashabbuslarning bazilarini ko‘rib chiqamiz:

**Xodimlarning farzandlariga grant va stipendiyalar taqdim etish:** Ko‘plab tashkilotlar o‘z xodimlarining farzandlari uchun turli xil grant va stipendiya dasturlarini taqdim etmoqda. Bu nafaqat xodimlarning kelajakka bo‘lgan ishonchini oshiradi, balki ularning oilaviy yukini yengillatadi. Ushbu dasturlar orqali farzandlarning ta’lim olish imkoniyatlari kengayadi va bu xodimlarning ishga sodiqligi oshiriladi.

**Bayramlarda oilaviy rag‘batlantirish:** Ba’zi korxona va tashkilotlar bayramlarda xodimlarning turmush o‘rtoqlari uchun ham sovg‘alar taqdim etadi. Bu oilaviy qadrlarni e’zozlash va oilaviy munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlardir. Xodimlar oilalariga bo‘lgan bunday e'tibor ularning ish joyidagi motivatsiyasini kuchaytiradi va korxonaga nisbatan minnatdorlik hissini shakllantiradi.

**Ota-onalarga sanatoriya va dam olish imkoniyatlarini taqdim etish:** Ko‘pgina tashkilotlar o‘z xodimlarining ota-onalariga sanatoriya yoki dam olish markazlarida davolanish va dam olish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu orqali ish beruvchilar xodimlarning oila a’zolari salomatligiga g‘amxo‘rlik qilib, xodimlar uchun qo‘shimcha ijtimoiy qulayliklar yaratadi. Bu kabi imtiyozlar xodimlarning hayot sifatini yaxshilashga hissa qo‘shadi va ularning kasbiy faoliyatidagi barqarorlikni oshiradi.

Ushbu ijtimoiy dasturlar ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi, xodimlarning sodiqligini oshirib, ularni o‘z korxonasi bilan bog‘lab qo‘yadi. Natijada, xodimlarning qo‘nimsizligi kamayadi, ularning umumiy samaradorligi va ish faoliyatiga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi. Bu yondashuvlar, shuningdek, xodimlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tashkilotga nisbatan yuqori e'tiborni shakllantiradi, bu esa korxona va tashkilotlarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, inson resurslarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

**Birinchidan,** ushbu tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan omillar – xodimlarning moddiy holati, sog‘ligi va xavfsizligi, ijtimoiy muhit, ta’lim va rivojlanish imkoniyatlari, shuningdek, kelajagining kafolatlanganligi – tashkilotlar uchun xodimlarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda tashkilot va korxonalar o‘z boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilishlari maqsadga muvofiqdir.

**Ikkinchidan,** xodimlar qo‘nimsizligini oldini olish maqsadida tashkilotlar tomonidan qabul qilinayotgan oilaviy qo‘llab-quvvatlash choralarining ahamiyati

katta ekanligi aniqlandi. Xodimlarning farzandlari uchun stipendiyalar va grantlar taqdim etish, bayramlarda oilaviy rag‘batlantirish, ota-onalar uchun sanatoriya va dam olish imkoniyatlari kabi tashabbuslar xodimlarning ishonchini, ularning tashkilotga bo‘lgan sodiqligini oshiradi hamda qo‘shimcha motivatsiya manbai sifatida xizmat qiladi. Bu nafaqat inson resurslari samaradorligini oshiradi, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi deb hisoblaymiz.

**Uchunchidan,** zamonaviy ish beruvchilar inson kapitalining rivoji va samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar hamda keng ko‘lamli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishlari zarur. Raqobatbardosh va muvaffaqiyatli tashkilotlar xodimlarning nafaqat kasbiy faoliyati, balki ularning hayot sifati, oilaviy va shaxsiy farovonligi bilan ham bog‘liq bo‘lgan omillarni inobatga olib, boshqaruv strategiyalarini shakllantirishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Armstrong, M. (2014). Armstrong‘s Handbook of Human Resource Management Practice. Kogan Page.
2. Becker, B. E., & Huselid, M. A. (1998). High Performance Work Systems and Firm Performance: A Synthesis of Research and Managerial Implications. Research in Personnel and Human Resources Management, 16, 53-101.
3. Boxall, P. F., & Purcell, J. (2016). Strategy and Human Resource Management. Palgrave Macmillan.
4. Dessler, G. (2017). Human Resource Management. Pearson.
5. Kahn, W. A. (1990). Psychological Conditions of Personal Engagement and Disengagement at Work. Academy of Management Journal, 33(4), 692-724.

**Xayrullayeva Nilufarbegim Nematillo qizi** - BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti o‘qituvchisi, xayrullayevan@gmail.com

## O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING PANDEMIYADAN KEYINGI HOLATI:ISTIQBOLLI REJALAR VA INVESTITSION DASTURLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda ekologik turizm rivojlanishi va uning tabiiy resurslarni saqlash va iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasi muhokama qilingan. 2017-yilda davlat tomonidan olib borilgan ishlar, hamda Covid-19 davridan keyingi istiqbolli rejalar va investitsion dasturlar tahlil qilingan

**Kalit so‘zlar:** Ekologik turizm, Barqaror turizm, O‘zbekiston, Investitsiyalar, COVID-19, Infratuzilma, Iqtisodiy rivojlanish, Tabiatni muhofaza qilish.

**Annotation.** This article discusses the development of ecotourism in Uzbekistan and its contribution to preserving natural resources and economic growth. It analyses the measures taken by the government in 2017 and the prospective plans and investment programs following the Covid-19 period.

**Keywords:** Ecotourism, Sustainable Tourism, Uzbekistan, Investments, COVID-19, Infrastructure, Economic Development, Nature Conservation.

**Аннотация.** В данной статье обсуждается развитие экологического туризма в Узбекистане и его вклад в сохранение природных ресурсов и экономический рост. Проанализированы меры, предпринятые государством в 2017 году, а также перспективные планы и инвестиционные программы после пандемии Covid-19.

**Ключевые слова:** Экологический туризм, Устойчивый туризм, Узбекистан, Инвестиции, COVID-19, Инфраструктура, Экономическое развитие, Охрана природы.

Turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri bo‘lib, u ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. Xususan, ekologik turizm orqali mamlakat tabiiy resurslarini saqlash va samarali foydalanishga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu turizm turi nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga ko‘maklashadi, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Ekologik turizmni rivojlantirish O‘zbekistonda davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. 2017 - yilda qabul qilingan qonunlar va qarorlar turizm va tabiat muhofazasi o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlashda muhim o‘rin tutadi[3]. Hozirgi holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik turizm rivojlanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Shuningdek, bu iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda tabiiy resurslarni muhofaza qilishga ham yordam beradi.

Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm dunyo iqtisodiyotining 10% ni tashkil etadi. 2020-yilga qadar ekologik turizm asosiy beshta yo‘nalishdan biri sifatida tan olingan va uning ulushi har yili o‘sib bormoqda. 2021-yilda turizmdan tushgan daromadlar 7.6 trillion dollarni tashkil etdi, shundan 30% ekologik turizm hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu turizm turining yoshlar, oilalar va xorijiy sayyohlar orasida tobora ommalashib borayotgani bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda turizm rivojlanishiga oid ma’lumotlar, 2019-yildan boshlab o‘rganilganda, bu davrda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni sezilarli darajada oshgan. 2016-yilda O‘zbekistonga kelgan sayyohlar soni 2.8 millionni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu raqam 6.7 millionga yetdi.

Ushbu o‘sish sur’atlari bilan bir qatorda, ekologik turizmning ulushi ham o‘sib bormoqda. 2019-yilda ekologik turizmdan tushgan daromadlar 150 million dollarni tashkil etgan bo‘lib, umumiy turizm daromadlarining 10% ga tengdir. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli tushgan daromadlar va kelgan sayyohlar soni kamaygan bo‘lsa-da, 2021-yilga kelib tiklanish kuzatilgan.

Ekologik turizmning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga qaralganda, bu turizm turi mahalliy jamoalar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishga va tabiat muhofazasi ishlarini qo‘llab-quvvatlashga katta hissa qo‘shadi. Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ekologik turizm jahon bo‘yicha 50 milliondan ortiq ish o‘rni yaratgan.

O‘zbekistonda esa, ekologik turizm sohasida 2020-yilda 20,000 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi. Bu soha mamlakatning tabiiy boyliklaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilishga yordam beradigan yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekistonning turli hududlarida ekologik turizm rivojlanishiga oid turli ko‘rsatkichlar mavjud. Samarqand va Buxoro kabi tarixiy shaharlarda sayyohlar soni ko‘proq bo‘lsa, tog‘li hududlar va milliy bog‘larda ekologik turizmga qiziqish yuqori. Masalan, Chimyon tog‘laridagi dam olish maskanlariga kelgan sayyohlar soni 2019-yilda 200,000 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, Zomin milliy bog‘iga tashrif buyurganlar soni 150,000 nafarga yetgan.

Bunday ko‘rsatgichlardan shuni aytish mumkinki, ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. 2017-2021-yillarda O‘zbekistonga 100 million dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar kiritilgan. Bu mablag‘lar asosan milliy bog‘lar va tabiiy hududlarda dam olish maskanlari qurishga sarflangan.

O‘zbekistonda ekologik turizmga kiritilayotgan investitsiyalar so‘nggi 10 yil ichida tobora ko‘payib bordi, ammo bu jarayon 2017-yildan boshlab yangi bosqichga chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda rivojlanish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinganidan so‘ng, turizm va ayniqsa, ekologik turizm sohasini rivojlantirish uchun turli davlat dasturlari va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari kuchaytirildi.

2017-yilda ekologik turizmni rivojlantirish uchun maxsus qonunlar qabul qilinib, investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. 2017-2021-yillar davomida, ayniqsa, xalqaro donor tashkilotlar va xususiy investorlardan 100 million dollardan ortiq investitsiyalar kiritildi.

Ekologik turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bu mablag‘lar asosan milliy bog‘lar, tabiiy hududlardagi infratuzilmalarni yaxshilash, yangi dam olish maskanlari va yo‘lboshchi xizmatlarini yaratish kabi sohalarga sarflandi. Xususan, xorijiy sarmoyadorlar va xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorlik qilib, Zomin, Chimyon va Boysun kabi hududlarda ekologik turizm markazlari tashkil qilindi.

Ekologik turizm sohasiga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sezilarli o‘sishni namoyon etdi. Quyida ekologik turizmga yo‘naltirilgan investitsiyalarning dinamikasi turli yillarda qanday bo‘lgani haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz:

- *Ekologik turizm rivoji uchun investitsiyalar kiritilishi aynan 2017-yildan boshlab yangi bosqichga chiqdi. Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi bilan bir vaqtda, turizmga yo‘naltirilgan qonunchilik islohotlari ham amalga oshirildi. Ushbu davrda xalqaro tashkilotlar va donorlardan 20 million dollardan ortiq sarmoyalar kiritildi. Bu mablag‘lar asosan infratuzilmani rivojlantirish va yangi obyektlarni tashkil qilishga sarflandi.*
- *2018-yilda ekologik turizmga yo‘naltirilgan sarmoyalar hajmi 25 million dollarni tashkil qildi. Bu yil davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirildi. Ekologik turizm infratuzilmasini kengaytirish va yangi yo‘lboshchi xizmatlarini joriy qilishga e’tibor qaratildi.*

- *2019-yilda sarmoyalar hajmi yanada ortdi va 30 million dollarga yetdi. Xususan, xalqaro sarmoyadorlar bilan hamkorlikda Zomin va Chimyon tog‘ hududlarida dam olish maskanlari va ekologik yo‘lboshchilik xizmatlari tashkil qilindi. O‘zbekistonning tabiiy go‘zalliklarini reklama qilish va turizm imkoniyatlarini targ‘ib qilish uchun xalqaro loyihalar amalga oshirildi.*
- *2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli turizm sohasida umumiy pasayish kuzatildi, ammo bu yilda ham ekologik turizmga investitsiyalar mutlaqo to‘xtab qolmadi. Mamlakat ichidagi sayyohlik faoliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida 15 million dollar atrofida sarmoya kiritildi. Asosan ichki turizm va infratuzilmani yaxshilashga e’tibor berildi.*
- *2021-yilda pandemiyadan keyin tiklanish jarayonida sarmoyalar hajmi yana oshdi va 35 million dollarga yetdi. Davlat tomonidan ekologik turizm uchun soliq va bojxona imtiyozlari joriy etildi, bu esa xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilishni osonlashtirdi. Xususan, xalqaro turistik tashkilotlar va xususiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tabiatni muhofaza qilish va yangi obyektlar yaratish borasida loyihalar yo‘lga qo‘yildi.*

Shundan kelib chiqqan holda, investitsiya dinamikasining umumiy tahlili quyidagicha bo‘ladi:

- *2017-2019-yillar: Investitsiyalar doimiy ravishda o‘sib bordi, bu yillarda ekologik turizmning rivojlanish bosqichi asosan yangi infratuzilmalarni yaratishga va hududlarni obodonlashtirishga qaratildi.*
- *2020-yil: Pandemiyaga qaramay, ekologik turizmdagi sarmoyalar qisqargan bo‘lsa-da, davlat ichki turizmni rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratdi.*
- *2021-2024 - yilllar: Pandemiyadan keyin iqtisodiy tiklanish* jarayonida sarmoyalar yana oshib, sohaga bo‘lgan qiziqish kuchaydi.

O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha kelgusidagi sarmoyaviy rejalar davlat tomonidan 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi kutilmoqda. Bu dasturlar mamlakatning tabiiy resurslarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan bo‘lib, ekologik turizm orqali iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan. Kelgusi yillarda sarmoya rejalari bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni quyidagicha olib borish maqsadga muvofiq:

**1. Xalqaro sarmoyalarni jalb qilish.**Davlat kelgusi yillarda xalqaro sarmoyalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. 2022-2025-yillarga mo‘ljallangan rejalarga ko‘ra, turli xalqaro turizm tashkilotlari va investorlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsad qilingan. Buning doirasida 100 million dollargacha xalqaro sarmoyalar jalb qilinishini rejalashtirilmoqda. Mazkur sarmoyalar:

- Tabiat muhofaza qilingan hududlarda yangi ekoturizm markazlari barpo qilish.
- Milliy bog‘lar va zapovedniklarda infratuzilmani takomillashtirish.
- Ekoturizm yo‘nalishlarini xalqaro reklama qilish va sayyohlarni jalb qilishga yo‘naltiriladi.

**2. Ichki sarmoyalar va davlat dasturlari.** Davlatning kelgusidagi sarmoyaviy rejalarida ichki sarmoyalar ham muhim o‘rin tutadi. Hukumat 2022-2025-yillarda har yili 20-30 million dollar miqdorida davlat sarmoyalarini ekologik turizm infratuzilmasini yaxshilashga va mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlashga sarflashni rejalashtirgan. Bu mablag‘lar asosan:

- Milliy bog‘lar va maxsus hududlardagi yo‘llar, dam olish maskanlari va turistik xizmatlar infratuzilmasini yaxshilash.
- Tabiat muhofazasiga oid dasturlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.

**3. Maxsus eko-loyihalar.**Kelgusi besh yil ichida ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha bir qator innovatsion va maxsus loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Masalan:

- "Eko-tropa" loyihasi: Bu loyiha doirasida O‘zbekistonning turli hududlarida maxsus ekoturizm yo‘llari yaratiladi. Bu yo‘nalishlarda sayyohlar tabiatning boyliklari bilan yaqindan tanishib, qo‘lda ishlangan suvenirlar va mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olishlari mumkin bo‘ladi.
- "Milliy bog‘lar va ekologiya" loyihasi: Ushbu loyiha doirasida milliy bog‘larni xalqaro darajada rivojlantirish va turizm yo‘nalishlarini kengaytirish maqsadida hududlarning zamonaviy infratuzilmalari yaratiladi.

**4. Infratuzilma va ekologik himoya.**Kelgusi sarmoyaviy rejalarning muhim qismi ekologik muhofaza va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan. 2025-yilgacha quyidagi yo‘nalishlarda sarmoyalar kiritish rejalashtirilmoqda:

- Ekologik sertifikatlash va monitoring tizimini joriy qilish: Bu turizm obyektlarining ekologik standartlarga muvofiqligini nazorat qilish imkoniyati beradi va kelajakda tabiatga zarar yetkazmaydigan turizm modellarini qo‘llab-quvvatlaydi.
- Ekologik yoqilg‘i va qayta tiklanuvchi energiya: Turizm obyektlarida ekologik toza yoqilg‘i turlaridan foydalanish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol energiyasi) foydalanish uchun sarmoyalar yo‘naltiriladi.

**Xulosa.**Kelgusi sarmoya rejalari O‘zbekistonning ekologik turizm sohasini yanada rivojlantirish va uni jahon miqyosida raqobatbardosh qilishga yo‘naltirilgan. Xalqaro sarmoyalar, davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar, innovatsion loyihalar va infratuzilma rivojlanishi orqali bu yo‘nalish mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.Ushbu tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif qilinadi:

- Davlat darajasida ekologik turizmni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish.
- Ekologik turizmning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini keng targ‘ib qilish.
- Tabiat muhofazasi bo‘yicha qonunlarni yanada takomillashtirish.
- Ekologik turizmni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xamidov O.X. (2017). O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmlari. Samarqand: SamIES(Xamidov Obid Xafizovich).

2. Shomurotova N. (2011). O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. Toshkent: Gidrometeorologiya instituti(Shomurotova N).
3. https://lex.uz/docs/-3190804

**Ерматов Илмидин Тошматович -** к.э.н., доцент Ферганский политехнический институт tel.+998975035893 Email: ilmidin.yormatov@ferpi.uz

## УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ КАК ОСНОВА ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekistonda atrof-muhitni boshqarishning asosi sifatida barqaror rivojlanish masalalari muhokama qilinadi. Barqaror rivojlanish tamoyillarini mamlakatning iqtisodiy va ekologik siyosatiga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq asosiy jihatlar tahlil qilinib, bu boradagi asosiy muammo va imkoniyatlar baholandi.

**Kalit so‘zlar:** Barqaror rivojlanish, atrof-muhitni boshqarish, resurslarni tejash, ekologik siyosat, barqaror amaliyot, cho‘llanish, atrof-muhitning ifloslanishi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы устойчивого развития как основы экологического менеджмента в Узбекистане. Анализируются ключевые аспекты, связанные с интеграцией принципов устойчивого развития в экономическую и экологическую политику страны, а также оцениваются основные вызовы и возможности в данной области.

**Ключевые слова:** Устойчивое развитие, экологический менеджмент, ресурсосбережение, экологическая политика, устойчивые практики, опустынивание, загрязнение окружающей среды.

**Abstract:** The article examines the issues of sustainable development as the basis of environmental management in Uzbekistan. The key aspects related to the integration of sustainable development principles into the country's economic and environmental policies are analyzed, and the main challenges and opportunities in this area are assessed.

**Keywords:** Sustainable development, environmental management, resource conservation, environmental policy, sustainable practices, desertification, environmental pollution.

Устойчивое развитие стало важным приоритетом для Узбекистана в контексте глобальных вызовов, связанных с истощением природных ресурсов, изменением климата и ухудшением экологической обстановки. Страна активно работает над внедрением принципов устойчивого развития в различные сферы своей экономики, и экологический менеджмент выступает в этой стратегии одним из ключевых инструментов. В данной статье мы рассмотрим, как устойчивое развитие становится основой для создания эффективного экологического менеджмента в Узбекистане, опираясь на экономические данные и примеры.

Устойчивое развитие предполагает создание системы, которая обеспечивает удовлетворение потребностей настоящего поколения без ущерба для будущих поколений. Для Узбекистана, страны с богатым природным и

культурным наследием, это понятие особенно актуально. Важные аспекты устойчивого развития включают:

- Экономический рост: необходимо обеспечить устойчивый экономический рост, который не будет истощать природные ресурсы.
- Социальная справедливость: важным моментом является снижение уровня бедности и неравенства.
- Сохранение экологии: защита природы и поддержание биоразнообразия.

Согласно данным Национального статистического комитета Республики Узбекистан, уровень бедности в стране в 2021 году составил 21%, что подчеркивает необходимость внедрения эффективных стратегий для достижения устойчивого развития. Новый национальный стандарт благосостояния был установлен в 2021 году, и с тех пор наблюдается позитивная динамика. В 2023 году уровень бедности снизился до 11%, что указывает на сокращение на 6 процентных пунктов. Особенно значительное сокращение бедности отмечается в сельских районах, где уровень бедности уменьшился на 8 процентных пунктов.

Узбекистан сталкивается с рядом серьезных экологических проблем:

- Опустынивание: по оценкам ООН, около 10% территории Узбекистана подвержено опустыниванию из-за неэффективного использования водных ресурсов и сельскохозяйственных методов.
- Проблемы с водоснабжением: истощение водных ресурсов, особенно в контексте использования воды для ирригации, представляет собой серьезную угрозу для устойчивого развития.
- Загрязнение воздуха: в городах, таких как Ташкент, уровень загрязнения воздуха превышает допустимые нормы, что негативно сказывается на здоровье населения.

Экологические проблемы требуют комплексного подхода и внедрения устойчивых практик управления.

Экологический менеджмент в Узбекистане принимает форму системного подхода, направленного на управление воздействием человека на окружающую среду. Ключевые компоненты включают:

- Мониторинг экологической обстановки: создание системы мониторинга и оценки состояния окружающей среды.
- Разработка экологической политики: внедрение экологических стандартов и их соблюдение.
- Устойчивые практики: поощрение использования возобновляемых ресурсов и повышения эффективности использования энергии.

В 2020 году правительство утвердило «Стратегию устойчивого развития Республики Узбекистан на 2021-2030 годы», которая направлена на решение вышеописанных проблем.

Устойчивое развитие является основой для экологического менеджмента, который включает:

- Интеграцию экологических аспектов в экономическую политику: например, внедрение «зеленых технологий» в сельском хозяйстве.

- Экономическую эффективность и ресурсоэффективность: согласно данным Министерства инновационного развития Республики Узбекистан, использование «умных технологий» в сельском хозяйстве может увеличить урожай на 25%, что ведет к большей экономии ресурсов.

- Ответственность бизнеса: компании начинают включать в свою деятельность экологические аспекты, что способствует устойчивому развитию.

Несколько примеров реализации проектов, ориентированных на устойчивое развитие в Узбекистане:

**Raqobatning etishmasligi:** Bank tizimining xususiylashtirilmaganligi raqobatni kamaytiradi, bu esa banklarning xizmat sifatini pasaytiradi va kreditlarni qimmatlashtiradi.

**Raqobatning etishmasligi bilan bog‘liq muammolar:**

**Kreditga kirishning qiyinligi:** Bank tizimida raqobatning etishmasligi kichik va o‘rta bizneslarning kreditga kirishini qiyinlashtiradi.

**Kreditlash stavkalarining yuqori bo‘lishi:** Raqobatning etishmasligi kreditlash stavkalarining yuqori bo‘lishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi.

**Inovativ xizmatlarning etishmasligi:** Bank tizimida raqobatning etishmasligi inovativ xizmatlarning etishmasligiga va texnologiyalarning kechikishga olib keladi.

**Bank tizimini xususiylashtirish va raqobatni kuchaytirishning afzalliklari:**

**Samaradorlikni oshirish:** Banklarning xususiylashtirilishi ularning moliyaviy ko‘rsatkichlariga e’tibor berishga va samaradorlikni oshirishga olib keladi.

**Kreditlashning shaffofligi va ochiqligi:** Xususiy banklar kreditlash siyosatida shaffoflik va ochiqlikni ta’minlaydi, bu esa korrupsiya va nepotizmni kamaytiradi.

**Kreditga kirishning osonlashishi:** Raqobatning kuchayishi kichik va o‘rta bizneslarning kreditga kirishini osonlashtiradi va kreditlash stavkalarini pasaytiradi.

**Inovativ xizmatlarning rivojlanishi:** Raqobat banklarga innovativ xizmatlarni taqdim etishga va texnologiyalarni joriy qilishga undaydi.

**Bank tizimini xususiylashtirish va raqobatni kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar:**

**Banklarni xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish:** Davlatga tegishli banklarni xususiy investorlarga sotish, raqobatni kuchaytirishga va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

**Raqobatni kuchaytirish bo‘yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish:** Bank tizimidagi raqobatni kuchaytirishga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini qabul qilish kerak, masalan, banklarning kirish to‘siqlarini kamaytirish va ularga yangi xizmatlarni taqdim etishga imkon berish.

**Markaziy bankning nazorat qilish faoliyatini kuchaytirish:** Markaziy bank xususiy banklar faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash kerak.

Bank tizimini xususiylashtirish va raqobatni kuchaytirish O‘zbekistonda pul-kredit siyosatini samaraliroq qilish va iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish uchun zarur choralardir.

- *Kichik va o‘rta biznes uchun kreditga kirishning qiyinligi.*
- *Kreditlashning shaffofligi va ochiqligi bilan bog‘liq muammolar.*
- *Inflyatsiya nazorati bilan bog‘liq qiyinchiliklar.*

**O‘zbekistonda pul kredit siyosatini takomillashtirish yo‘llari:**

- Markaziy bankning mustaqilligini oshirish.
- Bank tizimini xususiylashtirishni tezlashtirish.
- Kichik va o‘rta biznes uchun kreditga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.
- Kreditlashda shaffoflik va ochiqlikni oshirish.
- Kreditlashda raqobatni kuchaytirish.
- Inflyatsiyani nazorat qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- Rivojlangan mamlakatlarning pul kredit siyosati tajribasi asosida O‘zbekistonning siyosatini takomillashtirish.

**O‘zbekiston pul kredit siyosatining kelajagi:**

- Global moliyaviy inqirozlarning o‘zbekiston pul kredit siyosatiga ta’siri.
- O‘zbekiston iqtisodiyotining globallashuvi va pul kredit siyosatiga ta’siri.
- O‘zbekiston pul kredit siyosati rivojlanishining istiqbolli yo‘llari.

**Xulosa:**

O‘zbekistonning pul kredit siyosati iqtisodiy o‘sishga erishish va barqarorlikni ta’minlash uchun muhim rol o‘ynaydi. Muammolarni hal qilish va takomillashtirish yo‘llarini amalga oshirish orqali O‘zbekistonning pul kredit siyosati yanada samaraliroq va iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *Cbu.uz* O‘zbekiston Markaziy bankining veb-sayti
2. *http://www.worldbank.org*/Jahon bankining O‘zbekiston haqidagi hisobotlari

3. Xalqaro valyuta jamg‘armasining O‘zbekiston haqidagi hisobotlari
4. *Stat.uz* O‘zbekiston Davlat Statistika Qo‘mitasi veb sayti

**Abdumannonov Bekzod Maxsudovich -** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Menejment” kafedrasi assistenti
**Халилов Жахангир Жалолович -** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактабининг лойиҳа бошқаруви тингловчиси
**Jumaboyeva Sevinch Husniddin qizi -** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Buxgalteriya hisobi va menejment” fakulteti mn-123 guruh talabasi

## IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH ETIKASI

Ijtimoiy tarmoqning foydali va zararli tomonlari haqida qisqacha fikrlar mavjud. Ularning foydalanuvchilariga qo‘l kelayotgan funksiyalar, shuningdek uning yaratilish tarixi, hamda ijtimoiy tarmoqlardan qanday foydalanish kerakligi haqida yoritib beriladi.

Axborot asrida zamonaviy texnologiyalar hayotimizga tobora ko‘proq kirib bormoqda.Nafaqat texnologiyalar balki turli ijtimoiy tarmoqlar ham rivojlanmoqda. Tan olishimiz kerakki, ushbu vazayit insonlar hayotiga ko‘plab qulayliklar va yengilliklar olib kelmoqda. Misol uchun, turli xil yangiliklardan tezda habardor bo‘lishyabdi, shuningdek aloqa va muloqot qilish imkonyatini, ma`lumot va bilimlar o‘rganishni bizness va reklama kabi sohalarni samarali rivojlanishiga xissa qo‘shmoqda.

Hamma narsaning ijobiy tomoni bo‘lgani kabi salbiy tomoni ham mavjud. Masalan, hatto bog‘cha tarbiyalanuvchisi ham mobil telefondan, undagi ilovalar va internetdan foydalanishni o‘rganib olmoqda. Insonlar orasida asosiy va eng ko‘p vaqtini mobil aloqa vositasi bilan o‘tkazayotganlar ham ko‘payib ketmoqda. Kelajak hayotni internet va hali kashf etilmagan yuqori texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ammo, bu zamon talabi deya, zamonaviy texnalogiyalarga ham mukkasidan ketish yaramaydi. Hayotiy olib qaraganda bu yalqovlik, dangasalik, loqaydlikka ham sabab bo‘lmoqda.

Umumiy qilib ijtimoiy tarmoq haqida bir tarix mavjud. 1803-1869-yillarda yashagan XIX asr rus yozuvchisi, faylasufi va jamoat arbobi Vladimir Odoyevskiy o‘zining 1835-yilda yozilgan „4338-yil“ tugallanmagan utopik romanida zamonaviy bloglar va umuman internetning paydo bo‘lishini bashorat qilgan edi. Unda aytilishicha, „tanish uylar o‘rtasida magnit telegraflar joylashgan bo‘lib, ular orqali uzoq masofada yashovchilar bir-biri bilan gaplashadi“, shuningdek, „ko‘p xonadonlarda, ayniqsa yaxshi tanish bo‘lganlar o‘rtasida“ nashr etiladigan "uy gazetalari " haqida: bu gazetalar "oddiy yozishmalar o‘rnini bosadi ", ularda „odatda egalarining sog‘lig‘i yoki kasalligi haqida xabarlar va uydagi boshqa yangiliklari, so‘ngra turli fikrlar, mulohazalar, kichik ixtirolar, shuningdek, qachon tushlikka chaqirilishi, ba’zan esa menyu o‘rin oladi“

1. 0000 Internet i blogi predskazal Vladimir Odoevskiy v 1837 godu — Лента.ру, 3.10.2005

Yuqorida aytib o‘tilgan ijtimoiy tarmoqdan foydalanishning ham o‘z etikasi mavjud. Buni men sizlarga sodda qilib tushuntirib berishga harakat qilaman. Kundalik hayotda deyarli barcha telegram ijtimoiy tarmog‘idan foydalanadi. Foydalanuvchilar o‘z profiliga turli rasmlar qo‘yishadi, uni kuzatuvchilar o‘sha profiliga qarab foydalanuvchining qanaqa inson ekanini bilib olishadi.

Instagram ijtimoiy tarmog‘ida ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkun. Ushbu ijtimoiy tarmoqda hikoya joylash mavjud. Joylagan hikoyasini ko‘rib foydalanuvchining qanday ahvolda ekanligini bilib olsak bo‘ladi. Ammo hardoim ham emas.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish etikasiga quyidagi muhum tamoyillar kiradi:

1. Hurmat. Boshqa foydalanuvchilarni hurmat qilish, ularning fikrlarini va qarorlarini qabul qilish.
2. Maqsadli va to‘g‘ri axborot tarqatish. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan axborot aniq, to‘g‘ri va asosli bo‘lishi kerak.
3. Shaxsiy hayotni hurmat qilish. Boshqalarning shaxsiy hayotiga aralashmaslik va ularning ruxsatisiz shaxsiy ma`lumotlarni tarqatmaslik.
4. Savodxonlik va mas’ulyat. Foydalanuvchilar o‘zlarining ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatlari uchun mas’ulyatli bo‘lishlari kerak.
5. Zarar yetkazmaslik. Boshqalarga zarar yetkazuvchi, kamsituvchi yoki zararli xulq-atvorlarni oldini olish.

Umuman olganda yuqorida aytib o‘tilgan qoidalarning buzilishiga, kundalik hayotimizda ham duch kelamiz.

**Kuldoshev Lazizjon -** SamISI stajyor tadqiqotchisi
**Tursunov Vohid -** SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali 4- kurs talabasi

## O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

**Annotatsiyasi:** Maqolada o‘zbekistonda xizmatlar ko‘rsatish iqtisodiyoti tarmog‘ining rivojlanish dinamikasi, iqtisodiyotdagi o‘rni, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi asosiy tarmoqlar atroflicha o‘rganilgan.

**Аннотация:** В статье подробно изучена динамика развития сети сферы услуг в Узбекистане, ее роль в экономике, ее доля в валовом внутреннем продукте, а также основные отрасли сферы услуг.

**Abstract:** The article studies in detail the dynamics of the development of the service sector network in Uzbekistan, its role in the economy, its share in the gross domestic product, as well as the main branches of the service sector.

**Kalit so‘zlar:** Xizmat ko‘rsatish sektori, yalpi ichki mahsulot, ko‘rsatkich, Xizmatlarning eksport, Turizm xizmatlari, Moliya va bank sektori, Xizmat ko‘rsatish sohasida sarmoyalar.

**Ключевые слова:** Сектор услуг, валовой внутренний продукт, показатель, Экспорт услуг, Туристические услуги, Финансово-банковский

сектор, Инвестиции в сферу услуг.

**Key words:** Service sector, gross domestic product, indicator, Export of services, Tourist services, Financial and banking sector, Investments in the service sector.

O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda jadal rivojlanish yo‘lidan bormoqda va bu jarayonda xizmatlar sektori alohida e’tiborga sazovor. Xizmat ko‘rsatish tarmog‘i zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi bilan, balki bandlik darajasini oshirish, eksportni kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli bilan ham ahamiyatlidir.

Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining turmush darajasini oshirishda, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda va bandlikni ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sektorini rivojlantirish mamlakatni iqtisodiy jihatdan modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasi oxirgi yillarda sezilarli ravishda rivojlanib bormoqda. Bu sohada axborot texnologiyalari, moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va turizm kabi tarmoqlar eng katta ulushni egallaydi. Xizmat ko‘rsatish sektorining yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi yil sayin oshib borayotgani iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining umumiy holati va ko‘rsatkichlari mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuvi jarayonida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Xizmat ko‘rsatish sektori iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri sifatida hisoblanadi, chunki u nafaqat turli tarmoqlardagi ish o‘rinlarini yaratadi, balki ichki bozor talabini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Quyida sohaning holati va asosiy ko‘rsatkichlari haqida batafsil ma’lumot keltiriladi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sektori yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning katta qismini tashkil etib, mamlakat iqtisodiyotida yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda bu soha tez sur’atlar bilan rivojlanib, YaIMda uning ulushi oshib bormoqda.

Xususan: Xizmat ko‘rsatish sektorining YaIMdagi ulushi 2022-yilning oxiriga kelib, xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi umumiy iqtisodiyotda 36-38% atrofida  2023 yilda esa 43 % ni tashkil etgan.

2023- yil yakunlariga ko‘ra, xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 437 822,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 6,8 % ga o‘sdi.

Shu jumladan, savdo xizmatlari 9,9 % ga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 12,5 % ga, tashish va saqlash xizmatlari 8,0 % ga, axborot va aloqa xizmatlari 24,2 % ga, boshqa xizmatlar 4,5 % ga o‘sdi.




**O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumoti.Stat.uz**

Bu ko‘rsatkichning oshishi mamlakatda xizmatlarga bo‘lgan talabning oshib borayotganligini, aholi va bizneslarning bu soha imkoniyatlaridan faol foydalanayotganini ko‘rsatadi.

Ish o‘rinlari va bandlik: Xizmat ko‘rsatish sohasi bandlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida band bo‘lgan aholi ulushi umumiy bandlik darajasining 50% dan ko‘pini tashkil etadi. Bu esa sohaning ahamiyati yuqori ekanini anglatadi, chunki xizmat ko‘rsatish sektori mehnat bozori uchun asosiy drayverlardan biridir.

Xizmatlarning eksportdagi o‘rni: Xizmat ko‘rsatish sohasi eksport qilinadigan xizmatlar hajmining sezilarli qismiga ega. Ayniqsa, IT xizmatlari, turizm, transport-logistika xizmatlari va moliyaviy xizmatlar so‘nggi yillarda xalqaro bozorga faol kirib bormoqda. Xizmatlar eksporti mamlakat valyuta tushumlarini oshirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston xizmatlar eksportini 2022-yilda 2,5 milliard AQSh dollariga yetkazdi. Ayniqsa, IT xizmatlari va turizm bo‘yicha eksport hajmi o‘smoqda.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi asosiy tarmoqlar:

1.Turizm: O‘zbekiston tarixiy va madaniy merosi, qadimiy shaharlari (Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqalar) bilan turizm sohasida katta imkoniyatlarga ega. Turizm xizmatlari sohasi 2019-yilda YaIMga 3.4% hissa qo‘shgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich keyingi yillarda ko‘paymoqda. Mamlakatning turizm rivojlanishi strategiyasiga muvofiq, xizmat ko‘rsatishda infratuzilma, mehmonxona va restoran tarmoqlari kengaytirildi. Xizmatlar eksportining oshishi O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuvi va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvini ta’minlaydi, bu esa mamlakatning global savdo tarmog‘ida kuchliroq pozitsiyaga ega bo‘lishiga yordam beradi.

2.Axborot texnologiyalari va raqamli xizmatlar: IT sektori va raqamli xizmatlar O‘zbekistonda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga

oshirayotgan bir paytda, IT xizmatlari va onlayn platformalar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlarning ahamiyati ortmoqda. Xizmatlar sektorining rivojlanishida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar joriy etilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi islohotlar va raqamli iqtisodiyotga o‘tish strategiyalari xizmat ko‘rsatish sifatini oshirib, iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga yordam bermoqda. 2021-2022 yillarda mamlakatda bir nechta IT-parklar va texnologik innovatsiya markazlari tashkil etildi, bu esa IT xizmatlarining rivojlanishi va eksporti uchun katta imkoniyat yaratdi.

3. Moliya va bank sektori: Moliya va bank xizmatlari sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mobil banking, onlayn to‘lovlar, mikroqarzlar kabi raqamli moliyaviy xizmatlar aholi va bizneslar uchun qulayliklar yaratmoqda. Mamlakatda moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talab oshib borayotganiga guvoh bo‘lish mumkin.

4.Transport va logistika: Transport va logistika xizmatlari O‘zbekistonning geografik joylashuvi hisobga olinsa, xalqaro savdo va yuk tashish tarmoqlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyodagi transport tizimi orqali xalqaro yuk oqimlarini ta’minlash imkoniyati transport xizmatlari eksporti uchun asosiy ustunliklardan biri hisoblanadi.

5.Ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari: O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari so‘nggi yillarda sezilarli rivojlanmoqda. Xususiy ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari ochilishi bu sohadagi xizmatlar sifatini oshirishga yordam bermoqda.

O‘zbekistonning xizmat ko‘rsatish sohasida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar o‘sib bormoqda:

1.Xizmat ko‘rsatish sohasida sarmoyalar: Sektor rivoji uchun davlat va xususiy sarmoyalar jalb qilinmoqda. 2023-yilda xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirilgan sarmoyalar umumiy investitsiyalarning 30% dan ko‘prog‘ini tashkil etgan.

2.Yangi tadbirkorlik sub'ektlari soni: Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi kichik va o‘rta biznes sub'ektlarining soni yildan yilga oshib bormoqda. 2022-yilda xizmat ko‘rsatish sohasida 20 mingdan ortiq yangi korxonalar ro‘yxatga olingan, bu esa sektorning o‘sish sur’atlarini aks ettiradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar tarmog‘ining ahamiyati ortib bormoqda va bu soha mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, eksport hajmining oshishi, bandlik darajasini ta’minlash va texnologik rivojlanishdagi eng muhim omillardan biriga aylanmoqda. Xizmatlar sektori o‘zining turli sohalari bilan iqtisodiyotning barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatib, O‘zbekistonni xalqaro miqyosda yanada kuchli raqobatbardosh davlatga aylantirishga hissa qo‘shmoqda.

Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tarmoqning diversifikatsiyalanishi, texnologiyalarni joriy etish va infratuzilma loyihalari uning kelgusida yanada tez rivojlanishiga asos yaratadi. Sektorning zamonaviy ko‘rsatkichlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan islohotlar xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirib, uning rivojlanishiga katta turtki berishi kutilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.Q.J.Mirzayev, G‘.S.Mustafoyev, B .K.Janzakov. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti [Matn]: Darslik “STEP- SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023.

2. L.Kuldoshev. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida xizmat Ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshligiga ta’sir Etuvchi omillar. “ Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish” jurnali 2024 Samarqand.

3.Stat.uz Statistika agentligi rasmiy internet sayiti.

**Mo‘minov Shohijahon Suyun o‘g‘li -** ISFT Intitute o‘qituvchisi, Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti doktoranti, shohjahon091@mail.ru
+998996681870

# O‘ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI VA MOLIYAVIY BOZORLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI
# ПУТИ РАЗВИТИЯ РЫНКА КАПИТАЛА И ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ
# WAYS TO DEVELOP CAPITAL MARKET AND FINANCIAL MARKETS IN UZBEKISTAN

**Annotatsiya:** Maqolada, kapital bozori, korporatsiyalarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirish va yangi zamonaviy loyihalarda ishtirokini oshirish hamda korporativ boshqaruv orqali iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Aksiyadorlik jamiyatlari, kapital bozori, investitsiya, startaplar, heyj fondlar, kompaniyalarni investitsion banklar orqali rivojlantirish, texnologik yangiliklar, iqtisodiy rivojlanish.

**Аннотация.** В статье даны предложения по развитию деятельности корпораций, повышению их активности на рынке капитала, инвестиционному финансированию новых современных проектов, дальнейшему развитию экономики через рынок капитала.

**Ключевые слова:** акционерные общества, рынок капитала, инвестиции, стартапы, хедж-фонды, развитие компаний через инвестиционные банки, технологические инновации, экономическое развитие.

**Abstract.** The article gives proposals for the development of the activities of corporations, increasing their activity in the capital market, investment financing of new modern projects, and further development of the economy through the capital market.

**Key words.** Joint-stock companies, capital market, investment, start-ups, hedge funds, development of companies through investment banks, technological innovations, economic development.

## Kirish

O‘zbekistonda kapital bozori va moliyaviy bozorlar faoliyatini rivojlantirish davlat iqtisodiyotining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kapital bozori mamlakat

iqtisodiyoti uchun moliyaviy vositalarni samarali taqsimlashni ta’minlovchi platforma bo‘lib, uning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishda va investitsion oqimlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida bu bozorni rivojlantirishning asosiy yo‘llari tahlil qilinadi. Global iqtisodiyotning rivojlanishi va moliyaviy bozorlardagi raqobatning oshishi aksiyadorlik jamiyatlarining (AJ) kapital bozorlarida faol ishtirok etishining zaruratini oshirdi. Aksiyadorlik jamiyatlari o‘z faoliyatini kengaytirish, rivojlantirish va kapital jalb qilish uchun kapital bozorlariga murojaat qiladi. Biroq, ko‘plab mamlakatlarda, xususan, O‘zbekistonda bu jarayonlarning samaradorligi va ishtirok darajasi hali ham cheklangan. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi faolligini oshirish uchun xalqaro amaliyotni joriy qilishning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozorlaridagi ishtirokini faollashtirish uchun xalqaro amaliyotni joriy qilish masalalari, xalqaro tajriba, O‘zbekistonda bu jarayonni rivojlantirish yo‘llari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Kapital bozori mamlakat iqtisodiyotining asosi bo‘lib, uning rivojlanishi barqaror iqtisodiy o‘sishini taminlaydi.

**Adabiyotlar sharhi**

Iqtisodiyot va moliya sohasidagi mavjud adabiyotlarda “Aksiyadorlik jamiyatlarini kapital bozoridagi ishtirokini faollashtirishda xalqaro amaliyotni joriy qilish” mavzusida xorijiy va mahalliy olimlarning savollari mutaxassislar tomonidan o‘rganilib, tegishli ta’riflar berilgan.

1**. Kenny, P. A., & Moss, T. (2020).** *Global Capital Markets: Integration, Crisis, and Growth.* Routledge. Xalqaro moliya bozori, xalqaro fond bozori va investitsiya bozorini shakllantirish usullari va ularning yangi tashkil etilgan kompaniyalari hamda loyihalarning moliyalashtirish jarayonida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan va bu ma’lumotlar uni moliyaviy jihatdan asoslab beradi.

2. **Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2019).** *Principles of corporate finance* (13th ed.). McGraw-Hill Education. Rivojlangan mamlakatlarda kapital bozori tajribasi, fond bozoriga fuqarolarning mablag‘larini jalb qilish va shu orqali venchur fondlar faoliyati bo‘yicha yangi loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarini jadallashtirish qimmatli ma’lumotlar va g‘oyalarni berdi.

3.Taxumova Oksana V., Kasatkina Elena V. Xalqaro moliya bozori, xalqaro fond bozori va investitsiya bozorini qanday shakllantirish va ularning yangi tashkil etilgan kompaniyalari va moliyalashtirish jarayonida loyihalarning roli haqida ma’lumotlar berilgan va bu ma’lumotlar uni moliyaviy nuqtai nazardan asoslaydi.

4.Vahobov A.V. Investitsiyalar haqida muhim bilimlar mavjud va aynan ushbu kitobda ekspert yangi loyihalarni moliyalashtirish jarayonini bank kreditlari hisobiga emas, balki kapital bozori va investitsiya fondlari orqali amalga oshirish muhimligini ta’kidlaydi.

**Tadqiqot metadologiyasi**

Kapital bozori bu moliyaviy resurslar, ya’ni aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalarni sotib olish va sotish amalga oshiriladigan iqtisodiy bozor turidir. Kapital bozorlari orqali aksiyadorlik jamiyatlari yangi investitsiyalar jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi

**Kapital jalb qilish**: Kapital bozorlariga chiqish orqali aksiyadorlik jamiyatlari koʻp miqdordagi mablagʻni jalb qilishi mumkin. Bu oʻz navbatida kompaniyaning innovatsion loyihalarini moliyalashtirish va oʻz biznesini kengaytirish imkoniyatini beradi.

1. **Korxonalar rivojlanishiga turtki**: Kapital bozorlarida faoliyat yuritadigan aksiyadorlik jamiyatlari raqobatbardosh boʻlib, kompaniya ichida samaradorlikni oshiradi. Bozordagi investitsiya jarayonlari bilan shugʻullanish kompaniyani xalqaro miqyosda rivojlantirishga imkon yaratadi.

2. **Bozor ishtirokchilarining ishonchini oshirish**: Kapital bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining faol ishtiroki investorlarda ishonch uygʻotadi va ularning kompaniyaga kapital kiritishga ragʻbatini oshiradi.

**Muhokama va natija**

**1. Kapital bozori ishtirokchilarining faoliyatini yaxshilash**

Kapital bozori ishtirokchilari — investorlar, emitentlar (qimmatli qogʻozlarni chiqaruvchi subyektlar), birjalar va vositachilar faoliyatini optimallashtirish katta ahamiyatga ega. Oʻzbekistonda bozor ishtirokchilari oʻrtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish va ularning faoliyatini rivojlantirish uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilishi zarur. Bu borada bir qancha qadamlar tashlanishi mumkin:

1. **Qimmatli qogʻozlar birjalarini modernizatsiya qilish**: Oʻzbekistonda birjalar faoliyatini modernizatsiya qilish orqali qimmatli qogʻozlar savdosini yanada soddalashtirish va shu orqali ichki va tashqi investorlar uchun bozorni jozibador qilish mumkin. Elektron platformalar orqali savdolarni kengaytirish va avtomatlashtirish bozordagi likvidlikni oshirishga yordam beradi.

2. **Moliyaviy vositachilarni rivojlantirish**: Moliyaviy vositachilar, jumladan, investitsion banklar va brokerlik kompaniyalarini rivojlantirish investorlar va emitentlar oʻrtasidagi vositachilik faoliyatini kuchaytiradi. Bu kompaniyalar investorlarning kapitalini samarali yoʻnaltirishda va korxonalar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishda muhim rol oʻynaydi.

**2. Moliyaviy bozorni liberallashtirish va institutsional investorlarni jalb qilish**

Kapital bozorini liberallashtirish va institutsional investorlarni jalb qilish Oʻzbekistonda moliyaviy sektorning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun juda muhimdir. Institut investorlar, masalan, pensiya fondlari, sugʻurta kompaniyalari va investitsiya fondlari bozorning barqaror ishtirokchilaridir. Ularning faolligini oshirish bir nechta yoʻnalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. **Pensiya va sugʻurta sektorlarini rivojlantirish**: Pensiya jamgʻarmalari va sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy bozorlarga kirish imkoniyatini kengaytirish orqali kapital bozoriga katta hajmdagi uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish mumkin. Bu oʻz navbatida, korxonalarning kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va bozorning barqarorligini oshiradi.

2. **Kredit reyting agentliklari faoliyatini rivojlantirish**: Kapital bozorida kredit reyting agentliklarining faoliyati investorlar uchun kompaniyalar va qimmatli qogʻozlarning xavf darajasini baholashda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekistonda kredit

reyting tizimini rivojlantirish orqali moliyaviy bozor ishtirokchilari o‘rtasida ishonchni kuchaytirish mumkin.

3. **Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik**: Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va investorlar bilan hamkorlik qilish orqali O‘zbekiston kapital bozoriga chet el sarmoyalarini jalb qilish hamda xorijiy tajribani o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu kapital bozorining jahon moliyaviy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

**Xulosa**

Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokini faollashtirishda xalqaro amaliyotni joriy qilish O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliyaviy standartlar, raqamli texnologiyalar, shaffoflikni oshirish va xorijiy investorlarni jalb qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro bozorlarda muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Bu esa nafaqat aksiyadorlik jamiyatlari uchun, balki butun iqtisodiyot uchun foydali bo‘ladi. Shu bilan birga, xalqaro tajribani joriy qilish jarayoni O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshiradi va xalqaro kapital bozorlarida munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotning joriy etilishi moliyaviy islohotlar va ta’lim tizimidagi yangilanishlar bilan birga olib borilganda samarador bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. **Damodaran, A. (2012).** *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset* (3rd ed.). Wiley.
   - Ushbu kitob aksiyadorlik jamiyatlarini baholashda va kapital bozorlarida qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha xalqaro standartlarni tushunishda muhim manbadir.
2. **International Financial Reporting Standards (IFRS) Foundation. (2021).** *International Financial Reporting Standards (IFRS) 2021*. IFRS Foundation.
   - Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro bozorlarda ishtiroki va hisobot berish amaliyoti haqida batafsil ma’lumot beradi.
3. **Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2019).** *Principles of Corporate Finance* (13th ed.). McGraw-Hill Education.
   - Korporativ moliya, aksiyadorlik jamiyatlari kapitali va bozordagi ishtiroki haqida asosiy tushunchalar.
4. **Jahon Banki (2021).** *Capital Market Development: Challenges and Opportunities.* Jahon Banki Hisobotlari.
   - Jahon Bankining kapital bozorlarining rivojlanishi va xalqaro amaliyotni joriy qilish bo‘yicha hisobotlari.
5. **Kenny, P. A., & Moss, T. (2020).** *Global Capital Markets: Integration, Crisis, and Growth.* Routledge.
   - Ushbu kitob xalqaro kapital bozorlarining integratsiyasi va rivojlanish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan.

**Nabiyeva Nargizakhon Nuriddin qizi** - PhD student of the Department of "Macroeconomic Analysis and Forecasting" of the Tashkent State University of Economics, e-mail: nargizamadaminova10@gmail.com,
Orcid: 0009-0002-3292-2221

# IMPACT OF INFLATION ON ECONOMY IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES

**Abstract:** Achieving a high level of economic growth in order to improve social well-being is one of the main goals of every country. However, developing countries have still not achieved the desired level of economic growth due to a number of socio-economic and political factors prevailing domestically and globally. Therefore, the main goal of this thesis is to theoretically study the impact of various external sources, especially inflation, on economic growth measured by real GDP per capita in Asian countries.

**Key words**: GDP, Inflation, Economic growth
**Kalit so‘zlar:** YAIM, inflatsiya, iqtisodiy o‘sish
**Ключевые слова:** ВВП, инфляция, экономический рост.

Inflation is a constant and continuous increase in the general price level of the country. In recent years, many central banks have focused on price stability. Monetary policy - whether through interest rates or the growth of monetary aggregates - is directed towards achieving low and stable inflation. Central banks and most other observers see price stability as the primary goal, as high inflation poses a significant risk and cost to the country's economy.

The study shows that effective monetary policy is necessary to control inflation. Low and stable inflation ensures the stability of financial systems, encourages investment and strengthens the process of economic development.




**Figure 2.** Average GDP dynamics in Asian countries[40]

Developing economies in Asia and the Pacific are forecast to grow by an average of 4.9 percent this year as the region continues to grow steadily amid strong domestic demand and a recovery in tourism.

According to the April 2024 Asian Development Outlook (ADO) published by the Asian Development Bank (ADB), growth will continue at the same pace next year. Inflation is expected to moderate in 2024 and 2025 as a result of rising food prices in many countries over the past 2 years.

[40] Source: Asian Development Bank

Strong economic growth in South and Southeast Asia - driven by domestic demand and exports - is offsetting a slowdown in the People's Republic of China (PRC) caused by weakness in the property market and low consumption. With its economic growth of 7 percent this year and 7.2 percent next year, India is expected to remain the main economic growth engine in Asia and the Pacific. The PRC's growth rate is expected to slow down from 5.2 percent last year to 4.8 percent this year and 4.5 percent next year.




**Table 1.** GDP dynamics in Central Asian countries.

Until independence in 1991, the economies of Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Turkmenistan were centralized by the Soviet Union and managed based on a strategy clearly defined by Moscow. After independence, despite some similarities, each country had its own independent economic policy.




**Table 2.** Expected level of GDP for 2024 in the countries of the Caucasus and Central Asia.

As can be seen from the table, GDP in Uzbekistan is at an average level compared to neighboring countries. However, as mentioned above, as a result of the

decrease in the income of the population, the level of consumption will decrease, and this, in turn, will lead to a lower GDP compared to previous years.




**Table 3.** Expected inflation rate for 2024 in the countries of the Caucasus and Central Asia.

Uzbekistan plans to reduce inflation to 5% by 2026. The necessary fiscal measures should be implemented for this. Inflation is expected to be 10 percent this year. In 2025, this level is predicted to decrease to 7-8 percent. Only then can the target set in 2026 be reached.

Sustainable development in Central Asia requires a balanced approach to attracting external financing through the strengthening and promotion of good relations between the countries of the region, the implementation of regional programs of international organizations and development banks. It also requires direct investment in non-commodity sectors and to tap countries' domestic savings potential.

Countries in the region must overcome four major structural challenges: landlockedness, resource dependence and underdevelopment of the financial sector, lack of coordination in managing the water-energy complex, and climate change. ETB researchers believe that as a result of joint efforts, Central Asian countries will overcome systemic development problems. During the period of strong economic growth, increasing pressure on the energy system and the common river basins of the countries leave no other option than cooperation in the field of water and energy. Equally important are coordinated efforts to develop transport infrastructure and combat climate risks. Eliminating infrastructure barriers will help to develop economic efficiency, trade and economic cooperation with neighboring countries, and stimulate the diversification of production and exports.

**List of references:**

1. https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan/economy
2. https://www.imf.org/en/Home
3. https://imrs.uz/archives/news/report_2024_04
4. https://www.caspianpolicy.org/research/economy/central-asian-economies-forge-ahead-with-strong-growth-despite-geopolitical-challenges

5. https://www.ebrd.com/home
6. https://eabr.org/en/analytics/all-publications/the-economy-of-central-asia-a-fresh-perspective/
7. https://timesca.com/central-asia-as-an-emerging-economic-region/

**Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li -** Shahrisabz davlat pedagogika institute, Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri i.f.f.d PhD

## IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIR ETUVCHI SALBIY VA IJOBIY OMILLAR TAHLILI

**Annotatsiya:** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bir nechta omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Ijobiy omillar orasida iqtisodiy o‘sish, investitsiya, ta’lim va innovatsiyalar kabi faktorlar mavjud bo‘lib, ular aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, salbiy omillar, masalan, ijtimoiy tengsizlik, korruptsiya, muhitning ifloslanishi va iqtisodiy beqarorlik, rivojlanishni to‘sqinlik qiladi va aholi uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga yordam berish bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, salbiy omillar, ijobiy omillar, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy tengsizlik, innovatsiyalar, korruptsiya, sifatli ta’lim, barqaror rivojlanish.

**Kirish.** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish har bir jamiyatning farovonligini belgilovchi muhim jarayondir. Bu jarayonni tushunish uchun turli omillarning ijobiy va salbiy ta’sirlarini tahlil qilish zarur. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘plab faktorlar, jumladan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillar bilan bog‘liq. Ijobiy omillar, masalan, ta’lim, innovatsiyalar, investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yangi ish o‘rinlarini yaratadi, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi. Biroq, salbiy omillar ham rivojlanishni to‘sqinlik qiladi. Ijtimoiy tengsizlik, korruptsiya, iqtisodiy beqarorlik, va muhitning ifloslanishi kabi omillar aholi turmush darajasini pasaytirishi, iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirishi va jamiyatda noroziliklarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, salbiy omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida kuchli ta’sir ko‘rsatadi va ularni bartaraf etish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillar tahlil qilish asosiy maqsad ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan va salbiy omillarni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishdir. Natijada, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yanada barqaror va inklyuziv qilish uchun zarur strategiyalar aniqlanadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillarni o‘rganish uchun ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Bu

borada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Ijobiy omillarni o‘rgangan olimlardan Amartya Sen (1999) o‘zining "Development as Freedom" asarida iqtisodiy o‘sish va ta’limning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini muhokama qiladi. U ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish orqali aholi farovonligini qanday oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu ijobiy omillar shuningdek, ta’lim tizimining yaxshilanishi orqali ijtimoiy adolatni ta’minlashga yordam beradi deb hisoblagan.

Brynjolfsson va McAfee esa o‘zlarining "The Second Machine Age" asarida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qanday tezlashtirishini tahlil qilishadi. Ular texnologik yangiliklar, jumladan, avtomatlashtirish va raqamli iqtisodiyot orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam berishini ta’kidlaydilar.[1]

Salbiy omillarni o‘rgangan olimlardan Thomas Piketty "Capital in the Twenty-First Century" asarida iqtisodiy tengsizlik va uning jamiyatdagi ta’sirini tahlil qiladi. U iqtisodiy o‘sish paytida ijtimoiy tengsizlikning oshishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘rsatib bergan. Piketty shuningdek tengsizlikning kelib chiqish sabablarini va buni bartaraf etish uchun bir nechta asosiy vaziflarni taklif qilgan.

Transparency International tashkiloti o‘zining "Corruption Perceptions Index" hisobotida korruptsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sirini ko‘rsatib o‘tgan. Korruptsiya iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi, chunki resurslar notekis taqsimlanadi.

Mahalliy olimlardan I.Axmedov va G.Tojiyeva kabi olimlar O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o‘rganish davomida raqamli texnologiyalar va AKTning o‘rnini muhokama qiladilar. Ular iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish uchun AKT vositalaridan foydalanish zarurligini ta’kidlaydilar.[3]

G.Tojiyeva ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o‘rganib, ijtimoiy siyosat va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘lanishni tahlil qilgan. U tadqiqotlarida shuni ko‘rsatadiki hukumat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri muhim ahamiyatga ega ekanligini bildirgan.[4]

M.Sharipov iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni masalan, korruptsiya va iqtisodiy beqarorlikni o‘rgangan olim hisoblanadi. U shuningdek bu omillarni bartaraf etish uchun kerakli strategiyalarni taklif etgan.[5] Xorijiy va mahalliy olimlarniari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillarni turli nuqtai nazardan ko‘rsatadi. Ijobiy omillar masalan ta’lim, innovatsiyalar va iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq salbiy omillar masalan ijtimoiy tengsizlik, korruptsiya va iqtisodiy beqarorlik, rivojlanishni to‘sqinlik qiladi. Bu omillarni bartaraf etish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur.

Yuqoridagi olimlarning tahlillari bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ko‘plab tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni to‘g‘ri yo‘nalishda olib borish uchun ijobiy omillarni kuchaytirish va salbiy omillarni bartaraf etishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillarni tahlil qilish uchun bir nechta tadqiqot metodlarini qo‘llash mumkin. Quyidagi metodlar ushbu mavzuda samarali tahlil o‘tkazishga yordam beradi. Nazariy tahlil orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin. Bu metodda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyalarini o‘rganish va mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish muhimdir. Amartya Sen, Klaus Schwab va boshqa olimlarning nazariyalari bu jarayonda qo‘l keladi. Bu metod orqali salbiy va ijobiy omillarni umumlashtirish va ularning ta’sirini baholash mumkin.

Suhbatlar va intervyular orqali tadqiqotchilar muayyan sohalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning holatini o‘rganishi mumkin. Bu metod ijtimoiy guruhlar, biznes rahbarlari va hukumat vakillari bilan o‘tkazilgan intervyular orqali amaliyotdagi tajribalarni yig‘ishga imkon beradi. Bunday metodlar orqali salbiy omillar, masalan, korruptsiya yoki iqtisodiy beqarorlik, haqidagi tajribalarni o‘rganish mumkin.

So‘rovnomalar orqali keng auditoriyadan ma’lumot to‘plash mumkin. Bu metod ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish haqidagi odamlarning fikrlarini, tajribalarini va nazarlarini aniqlashda foydali. Savollar orqali iqtisodiy imkoniyatlar, ta’lim, salomatlik va boshqa omillar bo‘yicha insonlarning qarashlari tahlil qilinadi.

Statistik tahlil metodlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘zgaruvchan omillari va tendensiyalarini aniqlash mumkin. Bu metod raqamlardan foydalanib, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy tengsizlik va boshqa ko‘rsatkichlarni tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu tahlillar orqali salbiy va ijobiy omillarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish mumkin.

Kontekstual tahlil metodlari yordamida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma’lum bir hudud yoki mamlakat kontekstida o‘rganiladi. Bu metod geografik, siyosiy va iqtisodiy omillarni hisobga olib, ma’lum bir hududda ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashga yordam beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillarni o‘rganish uchun bu metodlarning har biri o‘zining ahamiyatiga ega. Tadqiqotchilar bir nechta metodlarni birlashtirib yanada chuqurroq va keng qamrovli tahlil olib borishlari mumkin. Ushbu metodlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**Natijalar va muhokama**. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kompleks jarayon bo‘lib bir qancha ijobiy va salbiy omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu tahlil natijalari orqali biz ularning o‘zaro aloqalarini ahamiyatini va ta’sirini tushunishga harakat qilamiz. Ijobiy omillar ta’lim va malaka oshirish. Ta’lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim omil hisoblanadi. Keng qamrovli ta’lim tizimi orqali aholi bilim darajasi va malakasi oshadi, bu esa ish bilan ta’minlash darajasini yuqoriga ko‘taradi. Amartya Sen (1999) o‘zining "Rivojlanish erkinlik sifatida" asarida ta’limni rivojlanishning asosiy omili sifatida ko‘rsatadi, bu ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi.

Texnologik rivojlanish. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi. Brynjolfsson va McAfee (2014) "Ikkinchi mexanika asri" asarida raqamli texnologiyalar orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishi va mavjud ish jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradilar.

Texnologik taraqqiyot natijasida mahsuldorlik oshadi, iqtisodiy imkoniyatlar kengayadi.

Ijtimoiy kapital ya’ni odamlar o‘rtasidagi ishonch va hamkorlik, iqtisodiy rivojlanishda ijobiy rol o‘ynaydi. Ijtimoiy kapital yuqori bo‘lgan jamiyatlarda iqtisodiy o‘sish tezligi ko‘proq bo‘ladi, chunki odamlar bir-birlariga ko‘proq yordam beradilar va hamkorlikni rivojlantiradilar. Putnam (2000) o‘zining "Bowling Alone" kitobida ijtimoiy kapitalning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Salbiy omillarga esa ijtimoiy tengsizlik kiradi. Ijtimoiy tengsizlik iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi. Piketty (2014) o‘zining "XXI asrda kapital" asarida, iqtisodiy o‘sish davrida tengsizlikning oshishi ijtimoiy nizolar va beqarorlikka olib kelishini ta’kidlaydi. Ijtimoiy tengsizlik, eng kam ta’minlangan qatlamlar uchun qiyinchiliklarni kuchaytiradi, iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishiga olib keladi.

Korruptsiya iqtisodiy rivojlanishning salbiy omillaridan biri hisoblanadi. Transparency International (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korruptsiya resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga olib keladi va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi. Korruptsiya iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi va davlat boshqaruviga ishonchni pasaytiradi.

Iqtisodiy beqarorlik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Beqaror iqtisodiy vaziyatlar investorlarning ishonchini pasaytiradi va iqtisodiy o‘sish sur’atini sekinlashtiradi. Hozirgi kunda, global bozorlar beqarorlikdan azob chekmoqda, bu esa ishlab chiqarish va investitsiyalarni kamaytiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Salbiy omillar, masalan, korruptsiya va ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy o‘sish va rivojlanish jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin. Boshqa tomondan, ijobiy omillar, masalan, ta’lim va texnologik innovatsiyalar, ushbu jarayonlarni tezlashtirishi va rivojlantirishi mumkin. Ularning o‘zaro aloqasini tushunish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yanada samarali boshqarishga yordam beradi. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi salbiy va ijobiy omillarni tahlil qilish orqali ularning ahamiyatini va o‘zaro aloqalarini yanada chuqurroq tushunish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun ta’lim, innovatsiyalar va ijtimoiy kapitalni rivojlantirish muhimdir. Salbiy omillarni bartaraf etish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yo‘naltirilgan choralar muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish natijasida rivojlanishga yordam beruvchi va uni sekinlashtiruvchi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ijobiy omillar masalan ta’lim va texnologik rivojlanish iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirib jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Texnologik innovatsiyalar raqamli iqtisodiyot va ta’lim darajasining oshishi iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratadi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Boshqa tomondan ijtimoiy tengsizlik, korruptsiya va iqtisodiy beqarorlik kabi salbiy omillar esa iqtisodiy o‘sishni cheklaydi va aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish jarayonini sekinlashtiradi. Ijtimoiy tengsizlik mavjud bo‘lgan joylarda

iqtisodiy imkoniyatlar notekis taqsimlanadi bu esa ijtimoiy rivojlanishni cheklaydi.

Ta’lim va malaka oshirishga investitsiya qilish orqali ta’lim darajasini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash yordamida iqtisodiy o‘sishga va inklyuziv rivojlanishga zamin yaratish mumkin. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali zamonaviy va texnologik bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Texnologik taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash natijasida innovatsiya va raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratadi. Ushbu maqsadda startaplarni qo‘llab-quvvatlash va kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratish foydali bo‘ladi.

Korruptsiyaga qarshi samarali choralarni kuchaytirish orqali ijtimoiy ishonchni mustahkamlash mumkin. Bu borada shaffoflikni ta’minlash va samarali boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish kerak.

Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish. Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish uchun teng imkoniyatlar yaratish va barcha qatlamlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Bu borada daromadlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishga qaratilgan soliqlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish foydali bo‘ladi.

Tadqiqot va tahlillarni kuchaytirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning samaradorligini oshirish uchun muntazam ravishda tadqiqotlar o‘tkazish, har bir omilning ta’sirini baholash va rivojlanishni rag‘batlantirishda yordam beradigan strategiyalar ishlab chiqish zarur. Ushbu chora-tadbirlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va salbiy omillar ta’sirini kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, inklyuziv iqtisodiy o‘sishga erishish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*.

2. Thomas Piketty  Schwab, K. (2016). "Capital in the Twenty-First Century" *The Fourth Industrial Revolution*.

3. Axmedov, I. (2021). "AKT va hududiy rivojlanish: imkoniyatlar va chaqiriqlar". *Journal of Economic Research*.

4. Tojiyeva, G. (2021). "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda hukumat siyosati". *Economics and Management Journal*.

5. Sharipov, M. (2020). "Korruptsiya va iqtisodiy beqarorlik: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri". *Uzbekistan Journal of Economics*.

6. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.

7. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).

Тўртинчидан, ногиронлиги бўлган аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилаш ҳамда ижтимоийлаштириш учун уларнинг эҳтиёжларини тўғри ва ўз вақтида аниқлаб, кундалик ҳаётидаги фаоллиги ва иштирокини баҳолаш тизимини ҳам такомиллаштириш орқали камбағалликни қисқартириш лозимлиги ҳам

---

[43]Лола Абдуазимова.Индивидуал тартибда ижтимоий хизматлар кўрсатиш тартиби белгиланди. 14.03.2024.https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/individual_tartibda_ijtimoiy_hizmatlar_kursatish_tartibi_belgiland.

[44] Мамаюнус Пардаев, Мехрангиз Мамаюнусова. Ногиронлиги бор инсонларга кўрсатиладиган хизматлар такомиллаштирилади. //https://telegra.ph/Nogironligi-bor-insonlarga-k%D1%9Ersatiladigan-hizmatlar-takomillashtiriladi-08-06. SamTVR | MTRK. 2024 йил 6 август. – 0,2 б.т.

таъкидланган.

Бешинчидан, ногиронлиги бор шахсларга тиббий ижтимоий экспертиза комиссияси (ТИЭК) кўриги учун оилавий шифокорлар томонидан тегишли ҳужжатлар тўғри расмийлаштирилган ҳолда ўз вақтида электрон тарзда амалга оширилиши ҳам белгиланган.

Олтинчидан, эндиликда одамларнинг ногионлагини баҳолашда Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ)нинг тартиб қоидаларига, уларда қўлланиладиган шкалаларни ўзимизнинг маҳаллий хусусиятларимизга мослаган ҳолда амалга оширилиши тартиби ҳам кўзда тутилган.

Еттинчидан, “18 ёшдан катта шахсларга ногиронликни белгилашда шахснинг клиник-функционал бузилишлари тавсифидан келиб чиқиб ногиронликнинг муддати, сабаби, тиббий реабилитация тадбирлари, шунингдек, протез-ортопедия мосламалари ва реабилитация қилишнинг техник воситаларга муҳтожлигига оид маълумотлар “Ягона ижтимоий ҳимоя” ахборот тизимида шакллантирилади”[45]. Бу ҳам ногиронлиги бор шахсларга бир қанча қулайликлар яратади.

Саккизинчидан, “Фуқароларга биринчи маротаба ногиронлик белгилангандан сўнг “Инсон” марказлари томонидан уларни таълим ва касбга йўналтириш, бандлигини таъминлаш, спортга жалб этиш ҳамда психологик қўллаб қувватлаш бўйича индивидуал тартибда ижтимоий хизмат ва ёрдамлар кўрсатиш режалари ишлаб чиқилади ва ижроси мониторинг қилиб борилади”[46].

Тўққизинчидан, яна бир муҳим жиҳат, соғлиқни сақлаш вазирлигида мазкур соҳа бўйича вазир маслаҳатчиси лавозими жорий этилади. Бу вазирликнинг марказий аппаратида ногиронлиги бўлган шахсларга тиббий хизматлар кўрсатилиши жараёнини мувофиқлаштириш билан боғлиқ ишларни амалга оширади.

Ўнинчидан, эндиликда Президентимизнинг юқоридаги қарорида кўрсатилишича ногиронлик инсоннинг касаллигига қараб эмас, балки шахснинг мустақил ҳаракати, мулоқат қобилияти ва ижтимоий ҳаётдаги иштирокига қараб белгилаш кўзда тутилган.

Ўн биринчидан, эндиликда ногиронлиги бўлганинсонлар ҳаракатига мослаштириш мақсадида янги қурилаётган барча турдаги объектларда, йўлларда, метро, автобус бекатларида, чарраҳаларда тўсиқларсиз, хавфсиз муҳит яратилади.

Ўн иккинчидан, чаррахаларда ногиронлиги бўлган инсонлар учун хавфсиз ва тўсиқсиз муҳит яратиш масаласи ҳам муҳим вазифалардан бири сифатида белгиланган. Ушбу тадбирга харажатлар “Хавфсиз йўл ва хавфсиз пиёда” республика жамғармасининг 10 фоиз қисми ҳисобидан қопланиши ҳам белгиланган.

Ўн учинчидан, юқоридаги қарорда 2026 йил 1 январгача ногиронлиги бор инсонлар учунхавфсиз ва тўсиқсиз муҳит яратилганлиги тўғрисида

[45]Сувонов Л. Тенг ва ижобий муносабат: алоҳида эътиборга муҳтож инсонларга яратилаётган қулайликлар кўлами кенгайишига хизмат қилади. // “Янги Ўзбекистон” газетаси. 2024 йил 1 август. 153-сон. – 5-бет.
[46]Ўша жойда.

маълумотларни аниқлайдиган “Интерактив харита” ахборот тизими шакллантирилиши кўзда тутилган.

Ўн тўртинчидан, ногиронлиги бор инсонларнинг хавфсиз ҳаракатини таъминлашга мўлжалланганжамоат транспортини ҳам ташкил қилинади. Буларнинг бари ногиронлиги бор инсонларга тегишли шароитларни яратиб, уларни бача инсонлар қатори фаровон ва хотиржам яшашини таъминлашга қаратилгандир.

**Хулоса ва таклифлар**. Тадқиқотлар натижаси кўрсатдики, ногиронллиги бор инсонларни қўллаб-қувватлаш, камбағалликни қисқартириш каби тадбирлар “Инсон қадри учун” ғоясини амалга оширишга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир. Бунга эришиш учун яна бир қанча вазифаларни амалга ошириш ҳам мақсадга мувофиқ. Булар:

**Биринчидан**, ногиронлиги бор шахсларни маҳаллабай рўйхатини шакллантириш ва уларнинг ҳар бирининг камбағалликдан чиқиши учункўрсатилиши лозим бўлган хизматларни маҳалла еттилиги назоратига олиш мақсадга мувофиқ.

**Иккинчидан**, хўжалик юритувчи субъектларда ногиронлиги бор инсонларга мос иш ўринларини яратиш ва уларга давлатимиз томонидан тегишли имтиёзлар билан рағбатлантириш ҳам мақсадга мувофиқ.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган “Инсон қадри учун” шиори остидаги мақсад ва вазифаларни бажаришга хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

**1.** Сувонов Л. Тенг ва ижобий муносабат: алоҳида эътиборга муҳтож инсонларга яратилаётган қулайликлар кўлами кенгайишига хизмат қилади. // “Янги Ўзбекистон” газетаси. 2024 йил 1 август. 153-сон. – 1 – 5 б.

**2.** Лола Абдуазимова.Индивидуал тартибда ижтимоий хизматлар кўрсатиш тартиби белгиланди. 14.03.2024.https://www.norma.uz/qonunchilikdayangi/individual_tartibda_ijtimoiy_hizmatlar_kursatish_tartibi_belgiland.

**3.** Мамаюнус Пардаев, Мехрангиз Мамаюнусова. Ногиронлиги бор инсонларга кўрсатиладиган хизматлар такомиллаштирилади. //https://telegra.ph/Nogironligi-bor-insonlarga-k%D1%9Ersatiladigan-hizmatlar-takomillashtiriladi-08-06. SamTVR | MTRK. 2024 йил 6 август. – 0,2 б.т.

**Мамаюнусова Меҳрангиз Олимовна** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таянч докторанти

# КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШГА ҚАРАТИЛГАН ЧОРА-ТАДБИРЛАР
# МЕРЫ ПО СОКРАЩЕНИЮ БЕДНОСТИ
# POVERTY ALLEVIATION MEASURES

**Аннотация:** мақолада камбағалликни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирлар кўриб чиқилган. Унда мамлакатимизда камбағалликни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирлар дастури ва уни амалга ошириш бўйича илмий-амалий тавсиялар ҳам ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** хизмат кўрсатиш, камбағаллик, камбағаллик даражаси, аҳолининг бандлиги, фаровонликка эришиш йўллари.

**Аннотация:** в статье рассматриваются пути снижения бедности за счет развития сферы услуг. Также разработана программа мероприятий, направленных на сокращение бедности в нашей стране и научно-практические рекомендации по ее реализации.

**Ключевые слова:** оказание услуг, бедность, уровень бедности, занятость населения, пути достижения благосостояния.

**Abstract:** the article considers ways to reduce poverty through the development of the service sector. It also developed a program of measures aimed at reducing poverty in our country and scientific and practical recommendations for its implementation.

**Keywords:** service delivery, poverty, poverty level, population employment, ways to achieve well-being.

**Мавзунинг долзарблиги.** Мамлакатимизда инсон шаъни ва фаровонлигини ошириш йўлида тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартда имзоланган “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5975-сонли Фармониэълон қилинди. Ушбу фармонда мамлакатимиз иқтисодиётини янада эркинлаштириш ва иқтисодий ҳаётимизга бозор механизмларини кенг жорий қилиш йўналишлари белгилаб берилган. Бу вазифаларнинг бажарилишиолиб борилаётган ислоҳотларни янги босқичга чиқаришни тақозо қилади. Бунинг учун давлатнинг иқтисодиётдаги ролини камайтириш ва хусусий секторнинг иштирокини кенгайтириш муҳим аҳамиятга эга. Булардан келиб чиқиб, бугунги кунда қилинаётган ишларнинг натижадорлигини оширишга қаратилган иқтисодиётни бошқаришнинг аниқ ва шаффоф инновацион омилларни фаоллаштиришга йўналтирилган механизмларни ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

Мазкур вазифаларни бажариш, энг аввало, ҳудудларда аҳолининг турмуш даражаси ва сифатини яхшилашга қаратилгандир. Бундаги муҳим вазифалардан бири камбағалликни қисқартиришга ҳам қаратилгандир. Ушбу

вазифаларни бажариш учун кўп жиҳатдан иқтисодиётнинг барча тармоқ ва соҳаларининг рақобатбардошлигини оширишни тақозо қилади. Чунки эркин иқтисодиёт шароитида рақобат муҳитининг мавжудлиги албатта ҳар бир хўжалик юритаувчи субъектларни ҳушёр бўлишликка, самарали фаолият кўрсатишга ундайди. Бунга эришиш учун тадбиркорликни ривожлантириш, бунга фундаментал шароитларни яратиб бериб, шунинг ҳисобидан янги ва барқарор иш ўринларини яратиш лозим бўлмоқда. Бунинг учун кенг кўламли тадбирларни амалга ошириш билан боғлиқ чораларни кўриш ҳам керак бўлади. Бу ўз навбатида илмий асосланган тадбирларни ишлаб чиқишни тақозо қилади. Масаланинг айнан ушбу жиҳати ушбу мавзунинг ўта долзарблигини белгилайди.

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи**. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш йўллари билан мамлакатимизнинг кўплаб олимлари шуғулланиб келмоқдалар. Булар жумласига Абдукаримов Б.А. Абдураҳмонов Х.Х., Арабов Н.У., Холмухамедов М.М Қудратов Ғ.Ҳ., Абдукаримов Б.А., Пардаев М.Қ. Ўринбаева Ю.П. Ураков Ж.Р. Очилов И.С. кабиларни[47] киритиш мумкин.

**Тадқиқот методологияси.** Тадқиқот жараёнида мантиқий таҳлил,илмий абстракция, тизимли ёндашув, индукция ва дедукция, макон ва замон усулларидан кенг фойдаланилган.

**Таҳлил ва натижалар**. Аҳолининг фаровонлигини ошириш ва камбағалликни қисқартириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартда имзоланган “Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда унинг тизим ташкилотлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ПҚ-4653-сонли Қарори қабул қининди. Ушбу қарорни бажариш, яъни камбағалликка барҳам бериш учун мамлакатимизда кечиктириб бўлмайдиган масалалар сирасига киритиш мумкин бўлган тадбирлар ҳам белгилаб олишни тақозо қилади. Бизнинг фикримизча, булар қуйидагилардан иборат (1-жадвал).

**1-жадвал**

**Мамлакатимизда камбағалликни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирлар дастури[48]**

| Т/р | Камбағалликни қисқартиришга қаратилган тадбирлар номи | Камбағалликни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирларнинг мазмуни |
|---|---|---|
| 1. | Камбағаллик даражасини аниқлаш мезонлари ва баҳолаш услубиятини жорий қилиш | Мамлакатимизда камбағалликни қисқартириш бўйича аниқ ташкилий, иқтисодий, ҳуқуқий механизмларини ишлаб чиқиш, хорижий тажрибани инобатга олган ҳолда камбағаллик даражасини аниқлаш мезонлари ва |

[47]Ўшбу олимлар асарлари адабиётлар рўйхатида келтирилган.

[48]Тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан ишлаб чиқилдган

| | | |
|---|---|---|
| | | баҳолаш услубиятини жорий қилиш, |
| 2. | Аҳоли таъминотининг минимал стандартлари ва меъёрий асосларини ишлаб чиқиш | Аҳолининг ижтимоий-иқтисодий таъминоти, истеъмол саватчасининг минимал стандартлари ва меъёрий асосларини ишлаб чиқиш ва амалиётда кенг фойдаланишни йўлга қўйиш. |
| 3. | Аҳолиининг яшаш шароитлари а ижтимоий аҳволи ўрганилиб, яшаш минимуми ва минимал истеъмол саватини ҳисоблаш методология-сини ишлаб чиқиш | Ҳар бир маҳалла кесимида Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги томониданҳамда аҳоли даромадлари табақалашувини ўрганиш бўйича тизимли ишларни олиб бориш ҳамда уларнинг давлат мақсадли дастурлари билан ўзаро мувофиқлигини таъминлаш орқали камбағалликни қисқартириш бўйича аниқ чораларни кўриш. |
| 4. | Маҳалла бўйича аҳоли ижтимоий аҳволи танг бўлган қатламларининг рўйхатини шакллантириш ва уларнинг ҳар бирида қандай имкониятлар мавжудлигини ўрганилиши | Аниқланган ижтимоий аҳволи танг аҳоли қатламларининг шаклланган рўйхатинияна бир бор янгилаш ва уларнинг ҳар бирида қандай имкониятлар мавжудлигини ўрганилиши ва шунга асосланган ҳолда камбағалликни тугатишнинг аниқ манзилли йўналиш-ларини маҳаллабай ишлаб чиқиш лозим бўлади. |
| 5. | Камбағалликни қисқар-ишига юзаки қарамаслик ва расмиятчилик учун фақат рақамлар билан ҳисобот бериш билан чекланмас-дан, балки реал ҳолат асосида баҳолаш лозим | Шуни инобатга олиш жоизки, мазкур масалада камбағалликнинг қисқаришига юзаки қарамаслик ва расмиятчилик учун фақат рақамлар билан эмас, балки реал ҳолат асосида баҳолашлозим бўлади. Айрим ҳолларда майда нарсадек туюлган жараён катта мувоффақиятларга олиб келиши мумкин. |
| 6. | Мамлакатимизда меҳнат бозори ва унинг таркибини сифат жиҳатдан ўрганиб чиқиш ва имкон қадар янги иш ўринларини очиш. | Мамлакатимизда меҳнат бозори ва унинг таркибини сифат жиҳатдан ривожланти-риш, ишчи кучи миграцияси жараёнла-рини таҳлил қилиш, такомиллаштириш ҳамда меҳнат ресурсларини тақсимлаш, аҳолининг ўзини ўзи банд қилиш прин-ципини жорий қилиш эвазига бандлик муаммосини ҳал қилишга эришиш. |
| 7. | Мамлакатимиз миқёсида истеъмол саватчаси | Мамлакатимиз миқёсида ва унинг барча ҳудудларида, уларнинг ўзига хос |

| | | |
|---|---|---|
| | ва тирикчилик учун зарур бўлган энг кам миқдорлардаги даромадлар даражасини ҳудудлар кесимида ишлаб чиқиш | хусусиятларидан келиб чиқиб, истеъмол саватчаси ва тирикчилик учун зарур бўлган энг кам миқдорлардаги даромадлар даражасини ишлаб чиқиш ва жорий қилинишини тезлаштириш ҳам мақсадга мувофиқ. |
| 8. | Ҳар бир маҳаллада камбағаллик даражасини ва сонини аниқлаш | Камбағаллик даражасини ва сонинг маҳаллалар бўйича билиб олиб, уни бартараф қилиш ишларига аниқ манзилли тадбирлар билан киришиш лозим. |
| 9. | Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган чора тадбирларнинг ижросини таъминлашнинг тизимли назорати ўрнатилиши лозим | Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги “Ўзбекистон Республикаси-нинг 2030 йилгача “Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш концепцияси” ва “Саноатни ривожлантириш стратегияси”, “Камбағалликни қисқартириш дастури” кенг жамоатчилик фикрини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилган. Уларнинг ҳар бир бандини назорат қилиб бажарилишини таъминлаб бориш лозим. |
| 10. | Аҳолининг камбағал ва ишсиз қатламлари, айниқса аёллар ва ёшларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларни касбга ўқитишни ташкил қилиш мақсадга мувофиқ | Маҳаллалар томонидан рўйхатга олинган аҳолининг камбағал ва ишсиз қатламлари, айниқса аёллар ва ёшларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касбий таълим бўйича маҳаллий эҳтиёждан келиб чиқиб, бюджет ҳисобидан ўқув курсларини очиш ва уларни касбга тайёрлаш ишларини жадаллаштириш ҳам мақсадга мувофиқ. |
| 11. | Ҳар бир ҳудуд бўйича камбағаллик даражасини аниқлаш, уларни баҳолаш бўйича тегишли индикаторлар ишлаб чиқиш. | Тегишли маълумотлар асосида ҳар бир ҳудуд бўйича камбағаллик даражасини аниқлаш, уларни баҳолаш бўйича тегишли индикаторлар ишлаб чиқиш, ушбу маълумотлардан келиб чиқиб, ҳар бир ҳудудда қанчадан камбағал оилаларнинг мавжудлиги маҳаллалар кесимида аниқ белгилаш ва уларни камайтириш бўйича маҳаллий ҳокимият томонидан аниқ чораларни қўллаш. |

Ушбу жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, мамлакатимизда камбағалликни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирлар жуда кўп экан.

Буни биз англаган тадбирларнинг бир қисми халос. Чунки ушбу масалага қандай ёндошилса, ўша йўналишда бир қанча имкониятларни ҳам топиш мумкин. Шундай қилиб, тадқиқот жараёнида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш мумкинлиги ҳақида бир қанча хулосаларга келинди ва таклифлар ишлаб чиқилди.

**Хулоса ва таклифлар**. Мамлакатимизда камбағалликни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирлар дастурини мукаммал бажариш учун бир қанча тавсиялар ҳам ишлаб чиқилди. Булар қуйидагилардан иборат:

Биринчидан, камбағалликни қисқартириш бўйича белгиланган чора-тадбирларни молиялаштириш лозим. Бу ҳар бир ҳудудлар кесимида, унинг қанча қисми Давлат бюджетидан, қанчаси маҳаллий бюджетдан, қанчаси тадбиркорлар ҳисобидан ажратилиши бўйича аниқ манбаларни ҳам белгилаш ва уларнинг назоратини олиб бориш мақсадга мувофиқ.

Иккиинчидан, камбағалликни қисқартиришга қаратилган лойиҳаларни ўз муддатида ва сифатли бажаришга тўсқинлик қилаётган муаммоларни аниқлаш ҳам масаланинг ечимларидан биридир. Бунда ҳар бир ҳудудни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари доирасида бартараф қилиш, ҳудуднинг эҳтиёжига мос бўлган янги иш ўринларини яратиш масаласига алоҳида аҳамият бериш лозим.

Учинчидан, қаерда иш ўринлари яратилиши лозим ва мумкин бўлса, ўша жойда янги иш ўринларини яратиш чораларини кўриш. Бундаҳудудлараро ривожланишнинг табақалашувини қисқартириш чораларини кўриш баробарида, қишлоқ ҳудудларда ҳам саноат зоналарини ташкил этиш, уларни жойлаштириш юзасидан услубий қўлланмаларни ишлаб чиқиш. Бунда мазкур ҳудудни ривожлантиришга қаратилган ягона давлат сиёсатини амалга оширишни йўлга қўйиш.

Тўзртинчидан, ҳудудларда маҳалла кесимида оилавий тадбиркорлик ва касаначиликни ривожлантириш. Ушбу тадбир камбағалликни қисқартиришнинг муҳим омили сифатида, бу борадагимавжуд тўсиқ ва муаммоларни бартараф қилишга катта кўмак бўлади. Бунда мазкур соҳани молиялаштиришнинг содда тизимини ишлаб чиқиш ва амалиётда кенг қўллаш ҳам лозим бўлади.

Бешинчидан, йирик тадбиркорларга сув иншоатларини қуриш ва уларни белгиланган тартибда фойдаланувчиларга сотиш тизимини жорий қилиш механизмини яратиш лозим. Чунки бу тадбирқишлоқ жойларда камбағалликни қисқартириш учун ишлатилмай келаётган ер участкаларини ҳозиргидек, ёшларга тақсимлаш тизимини янада давом эттириш ва такомиллаштириш имконини яратади. Зеро, тақсимланган майдон лалми жойлардан бўлса ҳамма кишининг сув чиқариш имконияти бўлмайди ва озгина жойни суғориш учун жуда катта харажат қилишга ҳожат қолмайди.

Олтинчидан, мамлакатимизда давлат миқёсидаги ва ҳудудлар бўйича камбағалликни қисқартиришнинг бир қанча йўлларини ишлаб чиқиб, амалиётга жорий қилиш лозим. Бунда қабул қилинадиган ижтимоий-иқтисодий дастурларда белгиланган вазифаларни бажаришда камбағаллик даражасига таъсирини инобатга олиб, уни бутунлай бартараф этиш

чораларини кўриш мақсадга мвофиқ.

Еттиинчидан, мамлакатимиз иқтисодиётига инвестицияларни жалб қилишда асосий эътиборни камбағалликни қисқартириш масаласига йўналтириш мақсадга мувофиқ. Бунга эришиш учун мамлакатимизнинг камбағаллиги мавжуд бўлган ҳудудларида ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш объектларини янгидан барпо қилиш, аҳолининг ўзини ўзи иш билан таъминлашни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ.

Саккизинчидан, ёшларни бирорта мутахассислик бўйича тайёрлашда бир вақтнинг ўзида ҳам назарий, ҳам амалий билимга эга бўлишлигини таъминлаш. Бунда қайси мутахассис ёки қайси даражадаги ўқиши (ўрта, ўрта махсус, олий) бўлмасин, барчасида ўзини ўзи иш билан таъминлаш кўникмасига ўргатиш, уларга назарий ва амалий дарслар орқали шу соҳага оид билимларни беришни ўқув режасига киритиш лозим.

Тўққизинчидан, ҳозир ўқув муассасаларида ўқиётган талабаларни ўқув муассасасини битиргач қаердадир фаолият кўрсатиши бўйича аниқруҳияти шаклланган бўлиши лозим. Шунда талаба ҳам шу корхона ёки муассасада ишлашни мўлжаллаб, шунга тайёргарлик кўриб боради. Албатта бунинг самараси юқори бўлиши учун рағбат (мативация) бўлади.

Ўнинчидан, аҳолида мавжуд томорқадан самарали фойдаланишга катта эътибор бериш ва бу тадбирни янада такомиллаштириш лозим. Масалан, шаҳарда 1 сотих ери бор киши тўрт бурчагига 4 та турли навдаги узум, ўртасига 2 та мевали дарахт (ўрин ва гилос) экиб парваришлаб ўсдирса, озиқ-овқат билан боғлиқ бир қисм муаммолари шу ерда ҳал бўлади, деярли бозорга бормайди. Бозорга кетадиган маблағларнинг тежалиши эвазига оилага яхшигина қўшимча даромад олиб келади.

Ўн биринчидан, бирор нарсага ихтисослашишдан олдин ички ва ташқи бозорни яхши ўрганиш мақсадга мувофиқ. Бу тадбир ўзимиздаги мева-сабзавот маҳсулотларини экспорт қилишдек катта имкониятимиздан самарали фойдаланишга шароит яратади. Шунингдек, эспортбоб меваларни саралаш, стандартлаштириш, сақлаш масалаларига алоҳида аҳамият бериб, ностандарт бозор “тортмайдиган” маҳсулотларни қайта ишлашни йўлга қўйиш ҳам аҳолининг моддий фаровонлигини янада ошириш имконини беради.

Ўн иккиинчидан, хизмат кўрсатиш соҳаси аҳоли бандлигини таъминлашда энг катта имкониятлардан бири эканлигини инобатга олиб, ушбу соҳани алоҳида камбағалликни тугатишга йўналтири лозим бўлади. Чунки халқаро меҳнат ташкилоти таҳлилларига кўра, сервис индустриясининг 1 фоизга ўсиши камбағаллар сонини 1,5 фоизга қисқартириши исботланган. Аммо Ўзбекистонда бу соҳа салоҳиятидан тўла фойдаланилмаётгани таъкидланган. Демак хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришга алоҳида аҳамият бериш объектив зарурият эканлигини унутмаслик керак.

Ун учинчидан, ҳизмат кўрсатиш соҳаси келажакда аҳолини иш билан таъминлаш, иқтисодиётни ривожлантиришда ҳам роли катта бўлади. Мамлакатимизда бу соҳанинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши ҳозирда 35 фоизни ташкил этмоқда Аммо буни кўпайтириш учун жойларда маиший ускуналарни таъмирлаш устахоналари, кимёвий тозалаш шохобчалари,

компьютер дизайнерлиги, бухгалтерия, реклама, пуллик тиббий хизмат каби тадбиркорлик субъектларини очиш эвазига мазкур йўналишда камида 160 минг қўшимча иш ўрни яратиш мумкинлигини ҳам Президентимиз кўрсатиб ўтган эди.

Ўн тўртинчидан, камбағалликни қисқартишнинг муҳим омиллари ва йўналишларидан бири ички туризмни ривожлантириш масалаласидир. Айрим ҳисоб-китобларга кўра, бу соҳада 200 мингдан зиёд аҳолини иш билан таъминлаш мумкин экан. Шунингдек, туризмга хизмат қилувчи умумий овқатланиш, транспорт, чакана савдо каби йўлдош тармоқларда яна кўплаб иш жойлари ташкил этилиши ҳам мумкин. Муҳтарам Президентимиз 2020 йил апрелдаги видеоселекторида ҳар бир ҳудудда имконият ҳам, саёҳатчилар диққатига сазовор жойлар ҳам етарли эканини қайд этди. Мисол учун, Янгиқўрғон туманида 16 та дам олиш масканини тиклаш ҳисобига 1 минг 500 нафар аҳолини, Бўстонликда 10 минг ўринга мўлжалланган кўчма дам олиш масканлари ташкил этиш орқали 8 мингга яқин кишини иш билан таъминлаш мумкинлиги кўрсатиб берилган эди.

Ўн бешинчидан, Ўзбекистоннинг нафақат қадимий шаҳарларидаги сайёҳлик имкониятлари, балки соҳани ривожлантириш учун бошқа чексизимкониятлардан ҳам фойдаланишни йўлга қўйиш лозим. Бунинг учунтуризмга мутасадди бўлган ташкилотлар маҳаллий ҳокимликлар билан бирга янги ички туризм маршрутларини очиш, кўчма дам олиш масканларини кўпайтириш, тиббиёт ва соғломлаштириш туризмини тараққий эттириш бўйича аниқ манзилли чораларни кўриши мақсадга мувофиқ.

Ўн олтинчидан, ҳокимлар ва сектор раҳбарлари сайёҳлар борадиган барча объектлар, меҳмонхона ва овқатланиш шохобчаларининг тегишли талабларга жавоб берадиган даражада ташкил қилинишини, тегишли инфратузилманинг яратилишини таъминлашга кўмаклашишлари лозим. Агар ушбу ҳуддудда бўш иш ўринлари бўлмаса шу соҳани ривожлантириш эвазига янги иш ўринларини яратишга ҳам алоҳида аҳамият бериш мақсадга мувофиқ. Ҳозирги пайтда аксарият ёшлар ўзини-ўзи иш билан таъминлаш ҳақида ўйлаб кўриши лозим. Кўп ҳолларда ишсиз ёшлар мамлакатимизнинг бошқа ҳудудларига ёки хорижга иш ахтариб кетишга кўникиб қолишди. Бунинг ўрнига шу ерда ишлаш чораларини кўриш мақсадга мувофиқ. Асосий эътибони шунга қаратиш лозим.

**Умумий хулоса**қилиб айтганда, мамлакатимизда камбағалликни қисқартириш масаласи бугунги кунда ўта долзарб бўлиб, у билан боғлиқ муаммолар ҳам, уларнинг ечимлари ҳам жуда кўп. Буларни аниқлаш ва ҳал қилиш фақат мутасадди вазирликларнинг ёки маҳаллий ҳокимиятларнинг иши эмас, балки ҳар бир оиланинг, шахсларнинг иши бўлмоғи лозим. “Мен камбағал бўлиб қолмаслигим учун нима қилишим керак?”, деган саволни ҳар бир киши, айниқса ёшлар ўзига бериши ва энг аввало, жавобини ўзи ахтаришилозим. Агар ўзининг “қўли калталик” қилиб қолсагина, давлатга, маҳаллий ҳокимиятга мурожаат қилиши имкониятларидан фойдаланиш ҳам фойдадан холи бўлмайди. Бундайларга маҳаллий ҳокимият, бор имкониятларини ишга солган ҳолда лаббай деб жавоб бериши – миллатимиз,

халқимиз олдидаги бурчимиз, деб қараш одатий ҳолга айланди. Масъулият ҳар томонлама бўлмас экан, кўзланган муваффақиятга эришиб бўлмайди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартда имзоланган “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5975-сонли Фармони. // “Халқ сўзи” газетаси. 2020 йил 27 март. – 1-2 бетлар.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартда имзоланган “Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда унинг тизим ташкилотлари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ПҚ-4653-сонли Қарори. // “Халқ сўзи” газетаси. 2020 йил 27 март. – 1-2 бетлар.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январда имзолаган “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сонли қарори. // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 28январь. – 1-2 бетлар.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 апрелда имзоланган “Касаначиликни ривожлантириш асосида аҳоли бандлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-214-сонли қарори.// “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 22апрель. – 1-2 бетлар.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22июлда имзоланган “Хотин-қизларни касб-ҳунар ва тадбиркорликка ўқитиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-329-сонли қарори. // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 23 июль. – 1-2 бетлар.
6. Абдукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик. 2-нашр.– Т.: ”IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 384 б.,
7. Абдураҳмонов Х.Х., Арабов Н.У., Холмухамедов М.М. Аҳоли даромадлари ва турмуш сифати. Ўқув қўлланма. Т.: “Тафаккур бўстони”. 2014. 242 б.
8. Қудратов Ғ.Ҳ., Абдукаримов Б.А., Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти, 2016. – 508 бет,
9. Пардаев М.Қ., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Монография. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2011. – 172 б.
10. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Очилов И.С. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – 384 б.
11. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2014. – 264 бет.
12. Пардаев М.Қ., Пардаев О.М. Камбағалликни баҳолаш ва уни камайтириш йўллари. Илмий-услубий тавсия. Самарқанд, СамИСИ, 2020. – 68

13. Ураков Ж.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолияти самарадорлигини ошириш. Монография. – Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2013. – 127 бет.
14. Ўринбаева Ю.П. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва аҳоли турмуш даражаси: ўзаро боғлиқлиги ва ривожланиш истиқбллари. Монография. – Т.: “Фан” нашриёти, 2013. – 144 бет.
15. http/www.dissercat.com.
16. http/pscgspace/ cgiav/org.
17. http/setd/ohiolink/edv.

**У.Худайбердиев –** Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти, и.ф.н.
**Н.З.Юлдашова –** Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ўқитувчиси

## ЁШЛАРНИ ИШ БИЛАН ТАЪМИНЛАШГА ДОИР ЧОРА-ТАДБИРЛАР

**Аннотация:** Мазкур мақолада мамлакатимиздаги ишсиз ёшларни иш билан таъминлаш бўйича олиб борилган изланишлар натижалари ёритилган. Ёшларнинг бандлиги ва ишсизлиги бўйича тадқиқот натижалари, таҳлиллар асосида ёшларнинг бандлигини ошириш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** ёшлар, тадбиркорлик, бизнес-лойиҳа, рағбатлантириш, мутахассислар, бизнес, хунармандлар, меҳнатга лаёқатли ёшлар

**Аннотация:** В данной статье описаны результаты исследования занятости безработной молодёжи в нашей стране. На основе результатов исследований и анализа занятости и безработицы молодёжи даются предложения и рекомендации по увеличению занятости

**Ключевые слова:** молодёжь, предпринимательство, бизнес-проект, поощрение, специалисты, ремесленники, трудоспособная молодёжь

**Abstract:** This article describes the results of a study of the employment of unemployed youth in our country. Based on the results of research and analysis of youth employment and unemployment, proposals and recommendations are given to increase employment

**Keywords:** youth, entrepreneurship, business project, encouragement, specialists, artisans, able-bodied youth

Ўзбекистон аҳолиси мунтазам равишда кўпаймоқда. Ўзбекистон аҳолиси 2000 йилда 24,5 млн киши бўлса, 2024 йилга келиб – 37,9 млн кишидан ошиб кетди. Умумий аҳоли сонининг 32,0 фоизини ёшлар, 58,0 фоизини меҳнатга лаёқатли ёшдагилар ҳисобланади. Шунинг учун ҳам аҳолини, айниқса ёшларни иш билан таъминлаш актуал масала ҳисобланади. Бу борада Ўзбекистон Президентининг 2024 йил 21 февралдаги “Ўзбекистон-2030” Стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони ёшларни иш билан таъминлашдаги муҳим қадам бўлди. Бу фармонда худудлар кесимида,

мутахассислар, ҳунармандлар тайёрлаш, уларни ўқитиш, ўргатиш, истъедод-иқтидорларини аниқлаш ва рағбатлантириш йўллари кўрсатилган.

Хозирги даврда ёшларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, уларнинг янги бизнес-режаларини қўллаб-қувватлаш ва банклар томонидан берилаётган имтиёзли кредитлар билан таъминлашга кўмаклашиш каби жараёнлар жадаллашмоқда. Бу ишларнинг умумий мақсади – ёшларни касбга йўналтириш, уларни замонавий ва малакали кадрлар сифатида тарбиялаш, кейинги босқичларда ёшларни иш билан таъминлаш учун қулай шарт-шароит яратишдан иборат.

Бугунги кунда ёшларнинг бандлиги давлатимизнинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади, уларнинг тадбиркорликда ва бизнесда салмоқли улуши – мамлакатимизнинг эртанги иқтисодий ўсиши ва ривожланишини таъминлайди.

Ёшлар ўртасида тадбиркорликни кенг оммалаштириш ва бизнес билан шуғулланишга қўшимча имкониятлар яратиш мақсадида – “Ёшлар дафтари” жамғармаси маблағлари ҳисобидан ёшларни чет тиллари ва касб-ҳунарларга ўқитиш, ёш хотин-қизларни тадбиркорлик, маркетинг, график-дизайн каби замонавий касбларга ўргатиш учун “Қизлар академияси” платформасини ишга тушириш;

- “Бизнесни қўллаб-қувватлаш дастури” доирасида 2024 йилда 2 миллион аҳолини бизнесга жалб қилиш;

- Ёшларнинг истиқболли бизнес лойиҳа ва ғоялари бўйича танловлар ўтказиш, ғолибларни аниқлаш ва уларни рағбатлантириш кўзда тутилган;

- Танловларда ғолиб бўлган бизнес лойиҳа ва ғоялар эгаларини имтиёзли кредитлар бериш, хорижий давлатларда малака ошириш имкониятлари берилган;

- 7,5 минг нафар ёшларни замонавий касбларга ўқитиш, чет тиллари бўйича юқори балл олган 6 минг нафар ёшларнинг имтихон харажатларини қоплаб бериш кўзда тутилган.

Булардан ташқари, ёшларнинг яхши билим олишлари учун мактабларни электрон доска, компьютер, китоблар, спорт жиҳозлари билан таъминлаш, спортнинг футбол, волейбол, стол тенниси, шахмат, миллий кураш каби турларини ривожлантириш, ёшларнинг соғлигини тиклаш бўйича, айниқса ёшлар орасида юрак-қон томир, қандли диабет ва бошқа касалликлар хавфини аниқлаш бўйича профилактик кўриклар ташкил этиш белгиланган.

Ёшларни иш билан таъминлаш, биринчидан аҳолининг меҳнат ҳақи бўйича даромадини кўпайтиради, турмушини яхшилайди; иккинчидан маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини ошириб, мамлакат иқтисодий қудратини кучайтиради.

2023 йилда мамлакат ЯИМ ҳажми 90,8 млрд долларга етди ва 2022 йилга нисбатан 6,0 фоизга кўпайди. Бунда саноат маҳсулотлари 655,8 трлн сўм бўлиб, 6,0 фоизга ўсган; қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги – 426,3 трлн сўм бўлиб, 4,1 фоизга ўсган, хизматлар соҳаси эса 470,3 трлн сўмни ташкил этиб, 6,8 фоизга ўсган. Мамлакат ЯИМ ҳажмини ҳар йили камида 6,0 фоизга кўпайтириш “Ўзбекистон-2030” Стратегиясида белгиланган.

**Таклиф ва тавсиялар:**

1. Ёшларни хозирги замон талабларига мос касбий йўналишларга тайёрлаш ва уларнинг мутахассислиги ва малакаси бўйича иш билан таъминлаш.
2. Ёшларни касбга йўналтиришда нафақат давлат, балки нодавлат таълим марказларини ривожлантириш лозим.
3. Ёшлар орасида ишсизлик даражасини камайтириш мақсадида, меҳнат бозорида юзага келадиган камчиликларни бартараф этиш керак.
4. Меҳнат бозорида ёшлар учун мавжуд бўлган иш ўринларини сақлаб қолиш ва уларнинг эгаллаган касблар бўйича янги иш ўринларини яратиш.
5. Иш жойини йўқотган ёшларга давлат томонидан ёрдам бериш ва ҳ.
6. Давлат ва нодавлат секторларда юқори малака талаб этмайдиган иш ўринларини кўпайтириб, шу аснода ўз-ўзини банд қилишни янада рағбатлантириш лозим.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 18.01.2021 йилдаги “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 23-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 19.01.2022 йилдаги “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-92-сонли қарори.
3. Молодежь как особая социально-демографическая группа. www.grandars.ru
4. Внешняя молодежная миграция в странах Центральной Азии: анализ рисков и минимизация негативных последствий. www.iom.kz



**Ахтамова Мохигул Эркиновна** - PhD, и/о доцент кафедры «Менеджмент» Самаркандский институт экономики и сервиса

**Синько Юлианна Викторовна –** студентка группы МН-223, факультета «Бухгалтерский учет и менеджмент» Самаркандского института экономики и сервиса


## РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН


**Аннотация:** В данной статье анализируется необходимость инноваций в экономическом и социальном обществе, что является одной из наиболее характерных черт экономического развития и фактором, ускоряющим развития рынка. В статье упомянута стратегия инновационного развития страны, а также внесены предложения усовершенствования высшего образования.



**Ключевые слова:** Стратегия, статистика, экономика, прогресс, развитие, инновационные идеи, человеческий капитал, стартап-инициативы,

рынок труда, механизмы, финансирование, образование, квалифицированные кадры.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola iqtisodiy va ijtimoiy jamiyatda innovatsiyalar zarurligini tahlil qiladi, bu iqtisodiy rivojlanishning eng xarakterli xususiyatlaridan biri va bozor rivojlanishini tezlashtiruvchi omil hisoblanadi. Maqolada mamlakatning innovatsion rivojlanish strategiyasi, shuningdek, oliy ta'limni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit sozlar:** Strategiya, statistika, iqtisodiyot, taraqqiyot, rivojlanish, innovatsion g'oyalar, inson kapitali, startap tashabbuslari, mehnat bozori, mexanizmlar, moliyalashtirish, ta'lim, malakali kadrlar.

**Annotation:** This article analyzes the need for innovation in economic and social society, which is one of the most characteristic features of economic development and a factor accelerating the development of the market. The article mentions the strategy of innovative development of the country, as well as proposals for improving higher education.

**Key words:** Strategy, statistics, economics, progress, development, innovative ideas, human capital, startup initiatives, labor market, mechanisms, financing, education, qualified personnel.

На сегодняшний день инновации это настоящий двигатель прогресса. От того, насколько динамично применяются новые технологии, напрямую зависят эффективность отдельного человека и предприятий, развитие страны и ее экономики. Это также метод конкуренции на рынке и, соответственно, возможность для развития даже в условиях кризиса. Инновации также содействуют росту процветания общества через повышение уровня благосостояния и уровня безопасности, сокращение отрицательных экологических последствий.

Реализация Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019 — 2021 годы достигла лучших результатов в обеспечении и изменении инновационного и технологического прогресса в отраслях экономики и социальной сфере, в том числе сельском хозяйстве, энергетике, строительстве, образовании, здравоохранении. В частности:

5) республика взошла на 36 позиций по сравнению с 2015 годом в рейтинге Глобального инновационного индекса, который оценивается по 81 индикатору;

6) размер годовых средств, отводимых из Государственного бюджета на инновационную и научную сферы, по сравнению с 2018 годом увеличился в 3 раза и была достигнута сумма около 1,5 триллиона сумов;

7) если в 2018 году контингент молодых ученых составляло 6,5 тысяч, то этот коэффициент в 2022 году достиг 10,8 тысяч человек, то есть обеспечен рост в полтора раза;

8) за последние четыре года число специализированных институтов по финансированию инновационной деятельности (инновационные фонды, венчурные организации и другие) доведено до 28 единиц;

Начиная с 2018 года в Узбекистане проводится Международная неделя инновационных идей «Innoweek.uz». Со временем она превращается в

платформу инновационных технологий, объединяющую зарубежные научные и инновационные центры, инвестиционные фонды, технологические агентства, технопарки и бизнес-инкубаторы на пути к одной цели.

В связи с этим, 19 октября 2023 года в городе Ташкенте в рамках Международной недели инновационных идей «InnoWeek.Uz-2023» была проведена панельная сессия: «Реализация проекта Всемирного банка Modernizing Uzbekistan National Innovation System (MUNIS). Текущая активность и дальнейшие планы». Всемирный банк придерживается повестки инновационной политики Республики Узбекистан, финансируя проект «Модернизация национальной инновационной системы Узбекистана» (MUNIS), реализацию которого положило начало Министерство инновационного развития (в соответствии с Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПКМ-172 от 3 апреля 2021 года «О мерах по реализации проекта «Модернизация национальной инновационной системы Узбекистана» с участием Международной ассоциации развития) и продолжается Министерством высшего образования, науки и инноваций. К участию в мероприятии были приглашены более 150 представителей научного и бизнес-сообществ, международные эксперты, сотрудники уполномоченных государственных органов и заинтересованных организаций.

Для обеспечения ускорения инновационного развития в республике, широкого внедрения инноваций и технологий во всех отраслях экономики, развития человеческого капитала, научных и инновационных сфер.

Главной целью данной стратегии является достижение к 2026 году включительно вхождения Республики Узбекистан в состав 56 передовых стран мира по рейтингу Глобального инновационного индекса; в объявленном в 2021 году рейтинге Глобального инновационного индекса Узбекистан поднялся на 7 ступеней, занял 86-е место среди 132 государств и вошел в топ-10 стран, заметно улучшивших свои позиции.

Республиканскому совету по работе с международными рейтингами и индексами совместно с Министерством инновационного развития, заинтересованными министерствами, ведомствами и организациями в месячный срок разработать и реализовать план мероприятий на 2022 — 2026 годы по улучшению позиции Республики Узбекистан в рейтинге Глобального инновационного индекса.

На сегодняшний день остаются следующие основные проблемы в сфере инновационного развития, которые потребно решить в ближайшей перспективе:

**во-первых**, ежегодно на рынок труда в нашей стране выходит 600 — 700 тысяч человек. Также, охват высшим образованием по сравнению с 2016 годом увеличился с 9 процентов до 38 процентов и этот показатель в ближайшем будущем будет доведен 50 процентов. Это требует разработки эффективных механизмов обеспечения выпускников вузов высокотехнологичными рабочими местами;

**во-вторых**, существует большая потребность перехода на систему создания капитала, то есть обеспечения малозатратного и универсального

производства (превращающего «один в тысячу») посредством создания множества новых рабочих мест, дальнейшего стимулирования деятельности субъектов предпринимательства при поддержке предприятий отраслей и кластеров, венчурных организаций и различных инструментов соответствующих финансовых рынков путем увеличения производственных организаций и видов оказания услуг с помощью инноваций во всестороннем содействии повышению занятости и доходов населения, обеспечении занятости безработных, особенно молодежи, женщин и выпускников, впервые выходящих на рынок труда;

**в-третьих**, требуется поддержка малого и инновационного предпринимательства путем совершенствования и увеличения объема механизмов финансирования научно-исследовательских и инновационных проектов в государственно-частном партнерстве, привлечения средств международных финансовых организаций и фондов, через технопарки, инновационные центры и молодежные технопарки;

**в-четвертых**, не разработаны региональные программы инновационного развития с учетом экономической специализации, научно-технического потенциала и имеющихся ресурсов, а инновационные технологии требуют акцентирования и приоритетности при внедрении решений, направленных на обеспечение непрерывного обновления технической и технологической базы производства;

**в-пятых**, не выработаны оптимальные механизмы поддержки путем принятия успешных стартап-проектов в членство инновационных технопарков и свободных экономических зон на этапах серийного производства, не внедрены специальные меры поддержки для усиления интереса частного сектора к новым научным разработкам и стимулирования заинтересованности в «софинансировании» (co-finance) инноваций;

**в-шестых**, в республике отсутствует целостная система, включающая в себя периодичность «отрасль-регион-научная/высшая образовательная организация» и капитальное функционирование инноваций для создания циклических отношений «подрывные» — «устойчивые» — «эффективные» инновации, а ее основные процессы остаются в весьма фрагментарном виде.

Узбекистану необходимо серьезно заняться решением инновационных проблем и улучшением уровня жизни населения. Очень важно повысить инновационный климат, развить технологии и стимулировать деятельности малых инновационных фирм. Для улучшения и обновления инновационных технологий, требуется заключить договоры о поставке улучшенных технологий на территорию Узбекистана, с такими странами как Япония, Германия, Китай, Америка и другие.

**Использованная литература:**

1.Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии «Узбекистан 2030»» от 11 сентября 2023 года №УП-158

2.Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждениеи стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022 — 2026

годы» от 6 июля 2022 года №УП-165
3.https://kapital.uz
4.https://lex.uz

**Хилола Нематовна Очилова –** Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доцент в.б., PhD
**Дилшод Шомурод ўғли Ҳакимов –** Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, менежмент йўналиши талабаси

# БИЗНЕСНИ БОШҚАРИШДА ЖАМИЯТДА МАВЖУД БЎЛГАН ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация:** ушбу мақолада жамият тушунчасининг назарий асослари, жамиятга хос белгилар ва ўзига хос хусусиятлари, бизнес юритишда бутун жамият фаолияти билан ўзаро боғлиқликда ҳаракатлари назарий жиҳатлари ёритиб берилди.

**Калит сўзлар:** бизнес, жамият, тадбиркорлик, манфаатдор томонлар, бизнес муҳити, иқтисодий муносабат.

**Аннотация:** в данной статье разъяснены теоретические основы понятия общества, особенности и характеристики общества, теоретические аспекты его деятельности в связи с деятельностью всего общества по ведению бизнеса.

**Ключевые слова:** бизнес, общество, предпринимательство, заинтересованные стороны, бизнес-среда, экономическое отношение.

**Abstract:** in this article, the theoretical foundations of the concept of society, the characteristics and characteristics of society, the theoretical aspects of its activities in connection with the activities of the whole society in conducting business have been explained.

**Key words:** business, society, entrepreneurship, stakeholders, business environment, economic attitude.

Бизнес, инсоннинг у ёки бу йўналишда ривожланишига ҳисса қўшадиган бошқа ҳар қандай фаолият каби жамиятнинг мавжудлиги учун асосдир.

Бизнес ва тадбиркорликни янада ривожлантириш ва аҳолининг фаровонлигини ошириш мақсадида давлатимизда ҳам жуда кўплаш ишлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимиз раҳбари ҳам жуда кўп қарор ва фармонларни аҳолининг фаровонлигини янада ошириш ҳамда мамлакатни ривожлантириш мақсадда қабул қилмоқда.

Бундан ташқари Президентимиз ҳар бир маърузаларида, жумладан 2022 йил 20 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида “... иқтисодий ислоҳотларни қатъий давом эттирамиз, ички имкониятларни тўлиқ сафарбар қилиб, хусусий секторни янада қўллаб-қувватлаймиз. Бунинг учун, энг аввало, тадбиркорлик муҳитини тобора яхшилаш бўйича ислоҳотларни

жадаллаштирамиз”, деган сўзлари бу соҳани янада аҳамият бериш зарурлигини кўрсатиб турибди.

Республикамизнинг иқтисодий ривожланишида бизнес фаолиятининг ўрни беқиёсдир. "Бизнес" ва "жамият" тушунчалари ўртасидаги муносабатлар узоқ вақтдан бери мавжуд бўлиб, улар билан қандай муносабатда бўлишимиз ва уларни ўзимиз учун шахсан қабул қилишимиздан қатъи назар, амалда қабул қилинган умумий қонунларга бўйсунишимиз лозим. Шу билан бирга, ҳар бир таркибий қисмни таҳлил қилишда биз таянадиган тушунчалар ўртасидаги муносабатларнинг умумий схемаларини белгилаш керак: шахс (индивидуал) - жамият - бизнес. Жамият – моддий оламнинг табиатдан ажратилган қисми бўлиб, инсон ҳаётининг тарихан ривожланиб бораётган шаклини ифодалайди.

Ижтимоий фанларда “жамият” тушунчаси турлича талқин қилинган ва ҳозир ҳам талқин қилинмоқда:

1) “ижтимоий инстинктларни” қондириш (Аристотел), ўз ҳаракатларини назорат қилиш учун бирлашувчи инсонлар йиғиндиси (Хоббес Томас, Ж.Ж. Руссо). ;

2) жамиятни алоҳида шахслар манфаатларининг бир хил йўналиши сифатида, конвенция, келишув асосида тушуниш XVII-XVIII асрлар буржуа фалсафасига хос эди;

3) 19-асрда жамиятнинг «шартнома» назарияси танқиди пайдо бўлди: О.Конт жамиятнинг келиб чиқишини мураккаб ва уйғун тизимлар шаклланишининг қандайдир мавҳум қонуни таъсирида кўрди; Гегел “фуқаролик жамияти”ни иқтисодий муносабатлар соҳаси сифатида талқин қилган, бунда ҳар кимнинг ҳар кимга қарамлиги ҳар томонлама чамбарчас боғлиқ;

4) замонавий номарксистик социологияда «жамият мавҳум шахслар йиғиндиси» тушунчаси «жамият худди шу индивидларнинг ҳаракатлари йиғиндиси» тушунчаси билан алмаштирилади;

5) марксистик фалсафада жамиятни тушунишда улар инсон мавжудлиги фактининг ўзи жамият моҳиятини очиб бера олмаслигидан келиб чиқадилар, чунки. “Жамият алоҳида шахслардан иборат эмас, балки бу шахслар бир-бири билан боғлиқ бўлган алоқа ва муносабатлар йиғиндисини ифодалайди” (К.Маркс).

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “жамият —(араб тилидан олинган бўлиб, йиғилиш, уюшма, гуруҳ) 1) тарихий тараққиётнинг маълум босқичида моддий бойликлар яратишнинг муайян усуллари муайян ишлаб чиқариш муносабатлари билан характерланадиган ижтимоий муносабатлар мажмуи” [49], деб келтирилган.

Жамиятга хос белгилар ва ўзига хос хусусиятлар: Жамиятга замонавий таъриф бериш учун унинг ўзига хос белгилари ва белгиларини кўриб чиқиш керак:

1. Жамиятнинг биринчи белгиси одатда одамлар ўртасидаги муносабатлар ривожланиб, ижтимоий алоқалар мустаҳкамланган ҳудуд деб

[49] https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20J.pdf

аталади.

2. Иккинчи белги - жамиятнинг барқарорлиги, яъни. юқори интенсивликдаги ички муносабатларни сақлаб қолиш ва кўпайтириш қобилияти.

3. Учинчи белги - жамиятнинг автономлиги ва ўзини ўзи бошқаришнинг юқори даражаси, бунда ташқи кучлар аралашувисиз одамларга ўз имкониятларини рўёбга чиқариш ва ижтимоий зинапояларга кўтарилиш имкониятини бериши керак.

4. Тўртинчи белги - жамиятнинг бирлаштирувчи кучи. Жамият ҳар бир янги авлодни ижтимоийлаштиради, уни мавжуд муносабатлар тизимига киритади ва умумий тил, маданият ва келиб чиқиши билан боғланган одамлар унга интилади.

Шундай қилиб, биз шундай таъриф беришимиз мумкин: Жамият - бу асосий эҳтиёжларни қондириш учун доимий ва барқарор ўзаро таъсир ўтказадиган одамлар бирлашмаси. Шу билан бирга, ижтимоий муносабатларни тартибга солиш механизмлари жамият томонидан ишлаб чиқилади ва у томонидан қайта ишлаб чиқарилади.

Жамиятда мавжуд бўлган ҳар бир шахс, тан оладими ёки йўқми, ўша жамиятда қабул қилинган иқтисодий қонунлар ва меъёрларга бўйсунади. Жамият ижтимоий категория сифатида унинг алоҳида вакиллари – индивидлар ҳаракатларининг ҳам манбаи, ҳам мақсадидир; бир томондан, туғилган пайтдан бошлаб шу жамиятда қабул қилинган ахлоққа асосланган иқтисодий ва ҳуқуқий қонунлар таъсирига тушади; бошқа томондан, у ўзи иқтисодий соҳада ҳар қандай ҳаракатни бошлаши биланоқ, у аллақачон жамиятда мавжуд бўлган иқтисодий муносабатларни улар билан тўлдиради ва шу билан жамият ичида ва бизнесда ҳамма билан бирга яшайди.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида “Бизнес (инг. businnes– иш, машғулот) даромад келтирадиган, фойда олиш мақсадлари кўзланган ва қонунларга хилоф бўлмаган ҳар қандай ташкилий, хўжалик фаолияти; тижорат, ишбилармонлик. Бизнес хўжалик юритиши кўламига қараб, йирик, ўрта ва кичик турларга бўлинади”[50], деб келтирилган.

Бундан ташқари тадбиркорлик фаолиятининг моҳияти бошқа хўжалик субъектлари – корхоналар, ташкилотлар, фуқароларга сотиш учун мўлжалланган маҳсулот ишлаб чиқариш мақсадида моддий, молиявий, меҳнат ва ахборот ресурсларини бирлаштиришдан иборат. Тадбиркорлик шахснинг у ёки бу йўналишда ривожланишига ҳисса қўшадиган фаолият тури сифатида жамият мавжудлигининг асосидир. Тадбиркорлик ривожланмаган жамият ўз ривожланиши учун имкониятга эга бўлмайди. Шахснинг жамият вакили сифатидаги тадбиркорлик фаолияти жамиятнинг бошқа аъзоларининг ўхшаш фаолияти билан боғлиқ ва шунга мос равишда бутун жамият фаолияти билан ўзаро боғлиқ бўлса, бошқа томондан, жамият бутунлай муваффақиятга боғлиқ. Унинг вакилларининг бизнесдаги ҳатти-ҳаракатлари, уларнинг фаолиятлари жамиятнинг ривожланишига имкон беради;

[50] https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20B.pdf

Демак, ҳар қандай бизнеснинг пировард мақсади – бу шахс фаолият юритадиган жамият ва шахснинг соҳадаги ҳаракатлари қанчалик даражада эканлиги билан белгиланади. Бизнес маълум бир даврда жамиятнинг талабларини ва унинг ушбу фаолиятга бўлган эҳтиёжларини қондиради, бу бизнеснинг ривожланиши жуда боғлиқ.

Жамият айни пайтда унинг вакиллари - шахсларнинг мавжуд бўлиш муҳити ва ҳаёт доираси бўлиб, бу шахсларнинг хатти-ҳаракатларини қўллаш соҳаси бўлиб, у қуйидагиларни ўз ичига олади:

• тадбиркорлик шахснинг у ёки бу йўналишда ривожланишига ҳисса қўшадиган фаолият тури сифатида жамият мавжудлигининг асосидир; бизнес ривожланмаган жамият ўз ривожланиши учун имкониятларга эга эмас;

• шахснинг жамият вакили сифатидаги тадбиркорлик фаолияти жамиятнинг бошқа аъзоларининг ўхшаш фаолияти билан боғлиқ ва шунга мос равишда бутун жамият фаолияти билан ўзаро боғлиқдир; бошқа томондан, жамият бутунлай ўз вакилларининг бизнесдаги муваффақиятига боғлиқ, чунки фақат уларнинг фаолияти жамиятнинг бир бутун сифатида ривожланишига имкон беради.

Шундай қилиб, ҳар қандай бизнеснинг пировард мақсади шахс фаолият юритадиган жамиятдир ва бу бизнеснинг ривожланиши шахснинг тадбиркорлик соҳасидаги ҳаракатлари жамият талабларига ва унинг ушбу фаолиятга бўлган эҳтиёжларига қанчалик мос келишига боғлиқ.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ҳар қандай бизнес фаолиятида мамлакатнинг қонун-қоидаларига риоя қилган ҳолда, жамият манфаатлари, корхона манфаатлари ҳамда шахс манффатларини инобатга олиб фаолият юритиши лозим.

**Yu.P.Urunbayeva –** SamISI dotsenti, i.f.f.d
**S.S.Shodiyev –** SamISI ik-524 guruh talabasi

## MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

***Anotatsiya***. *Ushbu tezis mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mehnat unumdorligini oshirish orqali foydani o‘stirishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlarning g‘arb iqtisodchi olimlari va mamlakatimizning iqtisodiyot sohasi vakillarining fikrlari bayon qilingan. Mehnat unumdorligiga berilgan ta’riflar o‘rganilib, ularning eng maqbuli sifatida saralanganlari keltirib o‘tilgan.*

***Аннотация***. *В данной статье изложены взгляды западных экономистов и представителей экономического сектора нашей страны на научно-теоретические взгляды, направленные на увеличение прибыли за счет повышения производительности труда в процессе производства продукции. Изучены определения производительности труда и приведены те из них, которые выбраны наиболее приемлемыми.*

***Annotation***. *This article presents the views of Western economists and representatives of the economic sector of our country on scientific and theoretical*

*views aimed at increasing profits by increasing labor productivity in the production process. Definitions of labor productivity are studied and those that are chosen as the most acceptable are given.*

***Kalit so‘zlar**: Iqtisodiyot, mehnat unumdorligi, samaradorlik, mahsulot, xizmat, tannarx, ichki imkoniyatlar, qo‘l mehnati, texnologiya, ilmiy qarashlar, ishchi kuchi, vaqt birligi, xarajat, foyda.*

***Ключевые слова:** Экономика, производительность труда, эффективность, продукт, услуга, стоимость, внутренние возможности, ручной труд, технология, научные взгляды, рабочая сила, единица времени, стоимость, прибыль.*

***Key words:** Economics, labor productivity, efficiency, product, service, cost, internal capabilities, manual labor, technology, scientific views, labor force, unit of time, cost, profit.*

Iqtisodiyot-dunyo miqyosida mamlakatlarning tayanchi hisoblanuvchi sohadir. Shu bois uning izchil rivojlanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy barqarorlikka erishish mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida intensiv, ichki imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishni taqazo etadi. Bunday vaziyatda esa mehnat unumdorligini oshirish zarurati yuzaga chiqadi. Mehnat unumdorligi hamda iqtisodiy taraqqiyot muammosi hamisha kishilarni qiziqtirib kelgan va ushbu qiziqish ishlab chiqarishni mashinalashtirishdan boshlab yalpi tus olgan.

Dastlab, Adam Smit, keyinroq David Rikardo mehnat unumdorligi to‘g‘risidagi ta’limotga asos soldilar. Bu iqtisodchi olimlar tayyor mahsulot, ishlab chiqaruvchi xodimlar va ular foydalanadigan ishlab chiqaruvchi kuchlarning qudrati o‘rtasidagi nihoyatda oddiy bog‘liqliklarni aniqlab berdilar[51].

Iqtisodiy adabiyotlarda, asosan, mehnat unumdorligi, uning ko‘rsatkichlari, o‘lchash usullari xususida bahslar hamon davom etmoqda. Shunga bog‘liq holda masalaga bo‘lgan asosiy yondashuvlar va konsepsiyalarni ko‘rib chiqamiz. Mehnat unumdorligi bilan ishlab chiqaruvchi mehnat kuchining nisbati to‘g‘risidagi masala yuzasidan bahs - munozaralar XX - asrning 20-yillarida boshlanib, keyingi davrlarda u yoki bu darajada keskinlik bilan davom etdi.

Mamlakatimiz amaliyotida ijtimoiy ishlab chiqarish darajalari bo‘yicha mehnat hisoblashning turli tamoyillariga asoslanadigan ko‘rsatkichlardan uzoq vaqt davomida foydalanib kelindi. Chunonchi, milliy iqtisodiyotda va uning tarmoqlarida ijtimoiy mehnat unumdorligi hamda uning dinamikasi jami xarajatlar, ya’ni faqat mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan jonli mehnatgina emas, balki buyumlashgan mehnat xarajatlarini ham tejashni aks ettirar edi. Ayni vaqtda, korxonalar darajasida mehnat unumdorligi dinamikasi faqat jonli mehnat tejalishini aks ettirar edi. Bu hol ijtimoiy ishlab chiqarish darajalari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni umumlashtirishga va xodimlarning iqtisodiy manfaatlariga kerakli yo‘nalishda samarali ta’sir ko‘rsatishga imkon bermas edi.

[51] Адам Смит о проблеме разделения труда [Электронный ресурс]–Электрон. текстовые дан. – 2018 – Режим доступа: http://studbooks.net, свободный (дата обращения: 7.03.18).

Jahon amaliyotida ***“mehnat unumdorligi” va “unumdorlik”*** atamalaridan keng foydalaniladi. Bu atamalar ana shu ko‘rsatkichlarni hisoblab chiqarishga asos bo‘ladigan mehnat natijalarining ta’rifi va tarkibi bilan farqlanadi. Mehnat unumdorligi atamasi faqat yaratilgan (sotilgan) mahsulotlar (xizmatlar) hajminigina o‘z ichiga oladi, holbuki, unumdorlik atamasi qo‘shimcha ravishda mehnat natijalarida buyumlashgan mehnatning tejalishi yoki ortiqcha sarflanishini ham hisobga oladi. Ko‘rinib turibdiki, mehnat unumdorligini aniqlashga turli sohada turli olimlar tomonidan turlicha yondashilgan. Ularni nazariy jihatdan bir xil holatga keltirib olish uchun ushbu ko‘rsatkichning nafaqat aniqlanish yo‘llarini, balki nazariy jihatdan uning ta’rifini ham ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

A. B.Vaxobov, A. Ishanqulov va N. Ibroximovlarning bergan ta’rifiga ko‘ra: Mehnat unumdorligi – ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida qaralgan va uni ifodalash uchun ham ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozimligi uqtirilgan. Bunda bitta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot olingan[52].

E.A. Markaryan, G.P.Gerasimenko, S.E.Markaryan kabilar quyidagicha mehnat unumdorligini ta’riflaganlar: bunda ikkita ko‘rsatkich bilan ifodalash tavsiya qilingan: bitta xodimga va bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarilgan mahsulotdir[53].

G.V.Savitskaya esa, mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlar tizimida ifodalanadi, deb ko‘rsatgan va asosiy umumlashtirilgan ko‘rsatkich sifatida bitta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot olingan deb hisoblaydi.

Sh. R. Xolmo‘minov, X. M. Xakimov, I. A. Boqiyeva, M. A. Allayeva , A. T. Mahkamboyevlar: Mehnat unumdorligi darajasiga baho berish uchun umumlashtiruvchi, xususiy va yordamchi ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llaniladi. Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarga bitta ishchining ishlab chiqargan o‘rtacha yillik, o‘rtacha kunlik, va o‘rtacha soatlik mahsuloti, shuningdek, bitta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik mahsulot ishlab chiqarishning qiymat ifodasi kiradi, deb hisoblaydilar[54].

Z. Akbarova – mehnat unumdorligi darjasi qilingan mehnatdan olingan samarani (mahsulot yoki xizmat) baholab berishi lozim. Shuning uchun bu ko‘rsatkichni hisoblashda sarf qilingan mehnat – T, natijaviy ko‘rsatkich – Q lar nisbati olinadi, deb hisoblaydi[55].

I.T.Abdukarimov, L.G.Abdukarimova, V.V.Smagina – mehnat unumdorligi bitta xodim tomonidan bir vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ifodalaydi va ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini (natural va qiymat ko‘rinishida) o‘rtacha band bo‘lgan xodimlar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi, degan fikrni bildirganlar.

M.Q. Ochilov: xizmat ko‘rsatish sohasining umumiy mehnat unumdorligi shu

---

[52] O‘lmasov A., Vaxabov A.B. Iqtisodiyot nazariyasi.-T.: Iqtisod-moliya, 2014, 480 b.

[53] Alekseycheva E. Yu., Magomedov M.D., Kosin I. B., Tashkilot (korxona) iqtisodiyoti. Darslik. M.: Dashkov va Co. 2020 y. 290-b

[54] Abdurahmonov Q.H, Holmo’minov Sh.R. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Toshkent-2004 yil, 126-143 betlar.

[55] Akbarova Z. Mehnat statistikasi. O’quv qo’llanma. –T.:TDIU,2014.–63-b.

sohada band bo‘lgan xodimlar mehnatining samaradorligini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichning miqdori bitta xodimning ma’lum vaqt birligida qancha mahsulot (xizmat) ishlab chiqarilganligini ifoda etadi. Shunday qilib, mehnat unumdorligi deganda, bitta xodimning bir vaqt birligi (soat, smena, oy, chorak, yil) davomida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) xajmining miqdori (natural, natural-shartli, qiymat, mehnat) yoki bir mahsulot birligining ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o‘lchanishi tushuniladi[56].

Mehnat unumdorligi oshishi moddiy mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanishiga, narx va inflatsiyani jilovlab turishga, jonli mehnatni tovar-moddiy mehnatga, pul bilan ta’minlangan talabni shakllantirishga, aholi daromadlari va farovonligini oshirishga hamda innovatsion iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat unumdorligini oshirish orqali erishish mumkin bo‘lgan natija va yutuqlar haqida bildirilgan ko‘plab fikrlar keltirildi, lekin yuqori mehnat unumdorligiga erishish asosiy masala hisoblanadi. Bugungi kunda sanoat korxonalarida bu boradagi mavjud muammolarga yechim topish, kamchiliklarni to‘ldirish, yangiliklarni joriy etish bilan kutilgan natijaga ega bo‘lishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
2. Адам Смит о проблеме разделения труда [Электронный ресурс] /.– Электрон. текстовые дан. – 2018 – Режим доступа: http://studbooks.net, свободный (дата обращения: 7.03.18).
3. Sh.Sh. Shodmonov, U.V G‘ofurov Iqtisodiy nazariya. Ma’ruzalar matni.- T:“Fan va texnalogiya” nashr-2018.
4. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Barkamol fayz-media, 2017, 783 bet
5. O‘lmasov A., Vaxabov A.B. Iqtisodiyot nazariyasi.-T.: Iqtisod-moliya, 2014, 480 b.

**Саттарова Наргиз Тохировна** – в.б.дотцент PhD кафедры “Менежмент” Самаркандского института экономики и сервиса.
e-mail: nargiza19844@icloud.com

## МОДЕЛИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРАН

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено модели социально-экономического развития стран, основные типы моделей национальной экономики развитых стран, сложившиеся в мире к настоящему времени, роль и основные функция государств в социально-экономического развития в

[56] Sh.Sh. Shodmonov, U.V G‘ofurov Iqtisodiy nazariya. Ma’ruzalar matni.- T:“Fan va texnalogiya” nashr-2018.

включая в себя последовательное рассмотрение проблем управленческого структурирования и анализа государственных и партийных стратегий

**Ключевые слова:** устойчивого развития, национальная экономика,ВВП,конкуренция,модели рыночной экономики.

Концепция устойчивого развития – это парадигма сбалансированного, самоподдерживающегося развития, *путем взаимосвязанного достижения экологических, социальных и экономических целей*.Основными элементами моделей социально-экономического развития страны, признанными в настоящее время во всех странах СНГ, являются выбранная экономическая политика в стране с целью достижения повышения уровня благосостояния и качества жизни населения, выбор оптимальной структуры развития экономики, соответствующей потенциалу и целям страны, а также выбор путей обеспечения ресурсами для реализации поставленных целей.

На сегодняшний день развитые промышленные страны осуществили поворот к новой цивилизации, получившей название постиндустриального или информационного общества. Этот тип национальной экономики охватывает лишь 15,6 % населения мира. Но он является основным производителем и потребителем товаров и услуг нашей планеты и производит свыше 2/3 ВВП мира, используя основную часть его ресурсов. На его долю приходится 95 % общемировых расходов на НИОКР.

Экономические системы, которые традиционно называются «капиталистическими», или «рыночными», являются внутренне неоднородными. Мы рассмотрим основные типы моделей национальной экономики развитых стран, сложившиеся в мире к настоящему времени. Все они носят смешанный характер при ведущей роли рыночных принципов.

Дискуссия о различии моделей в рамках развитой рыночной системы началась в компаративистике с работы М. Альбера «Капитализм против капитализма» (1991), где он выделил англосаксонскую и рейнскую модели, сравнивая хозяйства США и Германии. М. Альбер писал, что мир «стремится к биполяризации, к разделению капитализма на два основных типа сравнительно одинаковой значимости и что вопрос, за которым из них будущее, еще не решен». Мир опять вступает в эру противостояния хозяйственных систем, и каждой стране придется определиться, к какому лагерю примкнуть.

Можно выделить следующие наиболее распространенные подходы к типологии капитализма:

**страновой подход**. В названии моделей упомянуты модели конкретных стран, регионов (средиземноморский капитализм, азиатский капитализм);

**идеологический подход**. В центре внимания находится доминирование той или иной идеологии (либеральный капитализм, стейтизм, социал-демократическая модель);

**подход с позиций координации**. В зависимости от способа координации деятельности говорят о координированной, нескоординированной рыночной экономике, «укорененном» капитализме и др.

Несмотря на то что многие вопросы классификации, терминологии остаются дискуссионными, в большинстве работ исследователи выделяют примерно одни и те же модели, анализируют ограниченное число наиболее изученных стран.Под национальной экономической моделью мы будем понимать комплекс устойчивых характеристик, описывающий функционирование экономики отдельной страны. Модель социально-экономического развития — это совокупность ключевых направлений, институтов, механизмов развития народного хозяйства, обеспечивающих стабильное экономическое развитие.

Основные параметры, которые будут использоваться для характеристики модели, следующие: уровень социально-экономического развития, степень участия государства, свобода конкуренции, развитие системы образования, здравоохранения, спектр социальных гарантий, инновационные механизмы. В массиве развитых стран мы выделим следующие модели рыночной экономики:

неолиберальная (Англия, США); социально-рыночная (Германия, Франция);

социал-демократическая (Швеция);

корпоративная (Япония);

южноевропейская модель развития (средиземноморский капитализм; Италия, Греция, Португалия).

Наиболее известной моделью рыночной экономики является англосаксонская социально-экономическая модель неолиберализма.

Понятие моделей экономического развития Характеристики моделей развития экономики зависят от конкретных условий соотношения и взаимодействия факторов на основе теоретических особенностей функционирования объектов. Применение моделей зависит от конкретных условий страны, так, модели могут применяться и в чистом, и в модифицированном виде. Исторические, социокультурные, географические условиях в странах и регионах обуславливают конкретные соотношения факторов, а, следовательно, и особенности развития региональных и страновых моделей. Страновые модели экономического развития основаны на экономических ресурсах, национальных особенностях, характере экономики, уровне экономического развития, организационной и отраслевой структуре хозяйства, системе государственного регулирования экономики и т.д. Основой моделей развития интеграционных группировок являются цели и задачи данных группировок, организационная структура и ресурсы, место и роль в мировом хозяйстве, проблемы и перспективы развития, программы развития. При характеристике модели мирового экономического развития основное внимание уделяется динамике ресурсной и хозяйственной структур экономики, процессам глобализации и интернационализации, а также другим новейшим тенденциям социально-экономического развития.

Основой функционирования любого государства является определенная модель социально-экономического развития. В современном мире известны несколько типов государственной социально-экономической политики:

Либеральный; Консервативный; Социал-демократический. Характерными чертами либеральной политики являются: приоритетность прав и свобод населения, несущественное государственное вмешательство в экономику, минимум государственных социальных программ, поощрение деятельности различных негосударственных организаций в сфере социального обеспечения, социальной защиты.

### *Американская модель развития*

Для нее характерны:

- малый удельный вес государственной собственности и минимальная регулирующая роль государства;
- всемерное поощрение предпринимательства (80% новых рабочих мест создается за счет малого предпринимательства);
- резкая дифференциация населения на богатых и бедных;
- приемлемый уровень жизни малообеспеченных групп населения;
- непредусмотренность сокращения имущественного и социального неравенства между гражданами.

**Японская модель развития**

Японская модель развития подразумевает:

- высокий уровень государственного воздействия на основные области экономики;
- составление планов развития экономики;
- незначительное различие в уровне заработной платы главы фирмы и служащих;
- социальную направленность модели.

**Немецкая модель развития**

Ее характеристики следующие:

- высокий уровень государственного воздействия на экономику;
- прогнозирование основных макроэкономических показателей;
- незначительное различие в уровне заработной платы главы фирмы и служащих;
- социальная направленность модели.

**Шведская модель развития**

Шведскую модель развития обусловливают:

- социальная направленность экономики;
- сокращение имущественного неравенства через распределение национального дохода;
- забота о малообеспеченных слоях населения;
- активное вмешательство государства в процесс ценообразования, установление фиксированных цен;
- высокий удельный вес государственного сектора.

**Французская модель развития**

Для этой модели развития характерны:

▪ высокая регулирующая роль государства (с 1947 г. составляются пятилетние планы развития);

▪ значительные масштабы прямой предпринимательской деятельности государства;

▪ вмешательство государства в процесс накопления капитала.

**Южнокорейская модель развития**

В южнокорейской модели развития широко используются:

▪ планирование экономического развития (с 1962 г. разрабатываются пятилетние планы);

▪ государственный контроль в кредитно-финансовой сфере;

▪ регулирование внешнеэкономической сферы, направленное на стимулирование экспорта и ограничение импорта.

Основу социал-демократической социально-экономической модели составляют: высокая доля госсектора, в котором преобладают социально значимые объекты, финансирование социальной сферы из государственного бюджета, государственное регулирование безработицы

**Основная литература:**

1.Петросян, Д. С. Институциональная экономика: управление формированием и развитием социально-экономических институтов: Учебное пособие / Д.С. Петросян. - Москва : НИЦ ИНФРА-М, 2014. - 279 с. (ВО: Магистратура). ISBN 978-5-16-006778-0. - Текст : электронный. - URL: https://znanium.com/catalog/product/406881 (дата обращения: 31.03.2020).

2.Эффективность управления социально-экономическим развитием административно-территориальных образований : монография / под ред. д-ра экон. наук, проф. В.И. Терехина. - Москва : ИНФРА-М, 2018. - 315 с. - (Научная мысль). - ISBN 978-5-16-006444-4. - Текст : электронный. - URL: https://znanium.com/catalog/product/924711 (дата обращения: 31.03.2020).

3. Батракова, Л. Г. Социально-экономическая статистика : учебник / Л. Г. Батракова. - Москва : Логос, 2020. - 480 с. - ISBN 978-5-98704-657-9. - Текст : электронный. - URL: https://znanium.com/catalog/product/1213741 (дата обращения: 31.03.2020).

**Гулшан Акмаловна Абдувохидова -** ассистент стажёр кафедры Менеджмент, СамИЭС

**Рузиев Рустамжон Махмудович -** студент 4 курса группы ирб-221, СамИЭС

## ЗНАЧЕНИЕ НАЛОГОВЫХ ПЛАТЕЖЕЙ В РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА

**Аннотация.** Важность налоговых платежей для развития малого бизнеса заключается в их многогранной роли в экономике страны. Малые предприятия

играют ключевую роль в создании рабочих мест, стимулировании инноваций и улучшении конкурентоспособности рынка. Налоговая система и налоги, в частности, влияют как на финансовое состояние бизнеса, так и на его способность к росту и расширению

**Ключевые слова:** Налоговые платежи, малый бизнес, экономическое развитие, финансовая устойчивость, экономический рост, рабочие места.

**Annotation.**The importance of tax payments for the development of small businesses lies in their multifaceted role in the country’s economy. Small businesses play a key role in creating jobs, driving innovation and improving market competitiveness. The tax system and taxes, in particular, affect both the financial condition of a business and its ability to grow and expand.

**Key words**: Tax payments, small business, economic development, financial stability, economic growth, jobs.

**Annotatsiya**.Kichik biznesni rivojlantirish uchun soliq to'lovlarining ahamiyati ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ko'p qirrali rolidadir. Kichik biznes ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va bozor raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Soliq tizimi va soliqlar, xususan, biznesning moliyaviy holatiga ham, uning rivojlanishi va kengayish qobiliyatiga ham ta'sir qiladi.

**Kalit so'zlar:** Soliq to'lovlari, kichik biznes, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari.

Налоговые платежи играют важную роль в развитии малого бизнеса. Они представляют собой обязательные платежи, которые предприниматели и компании должны уплачивать государству на основе своей прибыли и оборота. Налоги являются основным источником доходов для государства и используются для финансирования различных социальных программ, образования, здравоохранения и других сфер жизни общества.

Для малых бизнесов налоговые платежи имеют несколько важных функций. Они способствуют поддержке экономической стабильности страны, так как налоги увеличивают доходы бюджета и помогают финансировать различные программы поддержки предпринимательства. Кроме того, уплата налогов позволяет компаниям соблюдать законодательство и поддерживать прозрачные финансовые отношения с государством.

Важно отметить, что правильное уплата налогов также может способствовать повышению репутации компании перед инвесторами, потенциальными клиентами и партнерами. Достаточная прозрачность в финансовых операциях может повысить доверие к малому бизнесу и создать благоприятные условия для его дальнейшего развития.

Налоги - это обязательные платежи, взимаемые государством с физических и юридических лиц на основании законодательства. Они используются для финансирования различных общественных нужд, таких как оборона, здравоохранение, образование, социальная защита и другие государственные программы.

Налоговые платежи могут иметь значительное влияние на развитие

малого бизнеса. С одной стороны, налоги обычно являются основным источником финансирования государственных программ, которые могут способствовать развитию предпринимательства. С другой стороны, высокие налоговые нагрузки могут оказывать давление на малые бизнесы, уменьшая их прибыль и затрудняя инвестиции в развитие.

Правительства могут также предоставлять налоговые льготы, субсидии или другие формы поддержки для стимулирования развития малого бизнеса. Это может включать возможность отсрочки уплаты налогов, снижение ставок налогообложения для недавно созданных предприятий или программы поощрения инноваций.

Таким образом, значение налоговых платежей в развитии малого бизнеса зависит от способности правительства создавать подходящую налоговую политику, которая будет способствовать росту и конкурентоспособности этого сектора экономики.

Налоговые платежи играют важную роль в развитии малого бизнеса по нескольким причинам:

1. Инфраструктура: Налоговые средства используются для создания и поддержания инфраструктуры, которая необходима для успешного функционирования малых предприятий, такой как дороги, коммуникации, энергоснабжение и т.д.

2. Образование и подготовка кадров: Часть налоговых средств направляется на образование и профессиональную подготовку рабочей силы, что способствует повышению уровня квалификации работников малых предприятий.

3. Поддержка программ развития: Некоторые государственные программы направлены на поддержку развития малого бизнеса, и налоги являются основным источником финансирования таких программ.

4. Социальная защита: Часть налоговых доходов используется на обеспечение социальной защиты работников малого бизнеса через систему социального обеспечения, медицинское страхование и другие социальные программы.

Таким образом, налоговые платежи играют важную роль в создании благоприятной экономической среды для развития малого бизнеса и обеспечивают необходимую инфраструктуру, образование кадров и социальную защиту для успешной деятельности предприятий этого сектора.

Следующие 3 налоговых режима применяются к ИП в зависимости от оборота:

- 1 Режим: НДФЛ (при годовом обороте менее 100 млн. сўм)
- 2 Режим: Налог с оборота (при годовом обороте от 100 млн. до 1 млрд).
- 3 Режим: Налог на прибыль + НДС 12% (при годовом обороте свыше 1 млрд).
- Налог на прибыль
- НДС – налог на добавленную стоимость

**Сколько стоит налог на ИП в Узбекистане?**

Сейчас эта сумма составляет 50% БРВ в месяц (165 тысяч сумов в месяц,

1,98 млн сумов в год), что в 6 раз больше. За уплату налога отвечает индивидуальный предприниматель, с кем физлица заключили трудовой договор

С 1 февраля 2024 года ставки налога для индивидуальных предпринимателей, уплачивающих налог в фиксированном размере, индексируются на 10 %. Например, ИП, занимающийся в г. Ташкенте розничной торговлей продовольственными и непродовольственными товарами будет платить в 2024 году 907 500 сум.

При непредставлении уведомления в сроки, указанные в части четвертой настоящей статьи, индивидуальный предприниматель уплачивает налог с оборота.

**Налоговые показатели СМБ и ИП в 2020 - 2021 годах.**

| | |
|---|---|
| Сумма налоговых платежей от СМБ (трлн. сум) | 12,5 |
| Доля в ВВП (%) | 5 % |
| Средняя сумма налога на одного СМБ (млн. сум) | 2,5 % |

**Заключение.**

В заключение можно сказать, что налоги являются важным инструментом государственного регулирования экономики и обеспечения социальной справедливости. Они позволяют финансировать различные государственные программы и обеспечивать необходимые услуги для населения. Однако, важно также помнить о необходимости эффективного управления налоговыми доходами, борьбы с коррупцией и обеспечения прозрачности в системе налогообложения. В целом, правильное использование налоговых ресурсов способствует устойчивому развитию экономики и социальной стабильности в стране.

Налоговые платежи играют значительную роль в развитии малого бизнеса. Они являются основным источником доходов государства, который направляется на социальные программы, образование, здравоохранение и инфраструктуру, что способствует улучшению бизнес-среды и созданию благоприятных условий для развития предпринимательства. Кроме того, уплата налогов способствует укреплению доверия со стороны государства и общества к предпринимателям, а также способствует соблюдению законности и прозрачности ведения бизнеса. Таким образом, налоги не только являются обязанностью для предпринимателей, но также играют важную роль в стимулировании экономического роста и развития малого бизнеса.

**Список использованных источников.**

**1.** Роберт Кийосаки “Налоговые секреты”

**2.** "Налоги. Право и практика" **(автор — Н. В. Князева)**

**3.** "Налоги и налогообложение: теория и практика" **(авторы — Ю. А. Киселев, С. А. Коваль)**

**4.** "Налоговое планирование" **(автор — В. С. Власов)**

**5.** "Основы налогового права" **(автор —** М. В. Михайлов)

**6.** https://finsabat.kg/taxes-deductions/taxes-deductions-articles/65
**7.** https://znanierussia.ru/article
**8.** https://www.banki.ru/news/daytheme/?id=11004823
**9.** https://www.gazprombank.ru/pro-finance/business/vse-o-nalogakh

**Жўраев Хусан Атамуратович -** Термиз иқтисодиёт ва сервис университети Молия ва туризм кафедраси катта ўқитувчиси и.ф.ф.д Phd

## ҲУДУДЛАРДА СОЛИҚ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

***Аннотация:*** *Мақолада Ҳудудларда солиқ салоҳияти тушунчаси, давлат солиқ салоҳиятини баҳолаш, бюджет-солиқ сиёсати, солиқ салоҳиятини баҳолаш методлари, солиқ салоҳияти таснифи,давлат бюджети даромадларини оширишда солиқ салоҳиятининг аҳамияти борасида амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

***Калит сўзлар****: Солиқ салоҳияти, ҳудуд солиқ салоҳияти, инвестициялар, ҳудуд солиқ салоҳиятини баҳолаш.*

***Аннотация:*** В статье разработаны развитие понятие налогового потенциала регионов, оценка налогового потенциала государства, бюджетно-налоговая политика, методы оценки налогового потенциала, классификация налогового потенциала, значение налогового потенциала в увеличении доходов государственного бюджета

***Ключевые слова***: Налоговый потенциал, налоговый потенциал территории, инвестиции, оценка налогового потенциала территории.

***Abstract:*** In the article, the concept of tax potential in regions, assessment of state tax potential, budget-tax policy, methods of tax potential assessment, classification of tax potential, importance of tax potential in increasing state budget revenues are developed.

***Key words:*** Tax potential, tax potential of the territory, investments, assessment of the tax potential of the territory.

Давлатнинг солиқ сиёсатининг асосий вазифаси – иқтисодиётнинг айрим соҳаларида солиқ юкини оптимал даражага келтирган ҳолда барча даражадаги бюджетлар ўртасидаги мувозанатни таъминлашдан иборатдир. Давлатнинг бу йўналиши самарали ва натижали бўлиши учун барча ҳудудлар иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашга қодир бўлган солиқ салоҳияти даражасига интилиши зарур. Солиқ салоҳияти ҳудуднинг ўзига хос "хавфсизлик ёстиғи" ҳисобланади, унинг самарали баҳоси, шаклланиши ва зарур даражада қўллаб-қувватланиши давлат, ҳудуд ёки маҳаллий ҳокимиятнинг муваффақиятли ривожланишининг кафолатидир.

Кўпгина тадқиқотчилар солиқ салоҳияти тушунчасини иқтисодий ва молиявий категориядан ажратиб, уни солиқ категорияси сифатида

ажратишган. Улар бунга иқтисодий назария илм-фаннинг асосий тури эканини ва ундан кейин молиявий ва солиқ йўналишлари шаклланганини асос сифатида кўрсатишади. Шунингдек, давлатнинг иқтисодий-ижтимоий ривожланиши жараёнида солиқ йўналиши заруриятга айланади. Давлатнинг солиқ салоҳиятини шакллантириш барча даражадаги бюджетлар ўртасидаги солиқ тушумларини тақсимлаш муаммоси билан бевосита боғлиқ. Бироқ, солиқ салоҳияти тушунчаси кўпинча давлат эмас, балки ҳудудларга нисбатан ишлатилади.

Тадқиқотимизнинг мақсади – «солиқ салоҳияти» тушунчаси мазмунини аниқлашга оид ёндашувларни ўрганиш ва солиқ салоҳиятига таъсир кўрсатувчи омилларнинг таснифи асосида солиқ салоҳиятини бошқаришнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлашдан иборат.

Фикримизча, солиқ салоҳиятини тушуниш учун трансакцион ёндашувни ажратиш мумкин. Трансакцион ёндашув доирасида солиқ салоҳиятини ҳудуддаги барча солиқ тўловчилардан тушиши мумкин бўлган солиқлар ва йиғимларнинг энг юқори миқдори сифатида, солиқ ва йиғимларни тўламаслик хавфларини ҳисобга олган ҳолда, ва солиқбузарликлар учун жарималардан келиб тушиши мумкин бўлган қўшимча суммаларни ҳисобга олган ҳолда кўриш мумкин. Бу ёндашув фискал ёндашувга яқин бўлса-да, унинг муҳим фарқлари бор: биринчидан, солиқ салоҳиятини баҳолашда солиқ хавфларини ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга; иккинчидан, трансакцион ёндашувда солиқ салоҳияти давлат ва солиқ тўловчилар ўртасида ўзаро манфаатли ҳамкорлик муносабатлари натижаси сифатида тушунилади; учинчидан, солиқ салоҳияти фақат солиқ идоралари солиқ тўловчидан олиши мумкин бўлган суммаларни эмас, балки солиқ тўловчи давлат томонидан кафолатланган манфаатларни олиш мақсадида тўлашга тайёр бўлган маблағларни ҳам ўз ичига олади.

Бизнинг фикримизча, «солиқ салоҳияти» категориясини танлаш тўғридан-тўғри қўйиладиган вазифалар билан боғлиқ. Агар ҳудудда солиқ маъмуриятини яхшилаш ва солиқ сиёсатини амалга ошириш самарадорлигини ошириш масаласи кўрилса, ресурсий ёндашувга амал қилиш лозим. Солиқ тушумлари динамикасини баҳолаш зарур бўлганда, фискал ёндашувни танлашни тавсия қиламиз. Бюджетлараро ёндашув ҳудуд солиқ салоҳияти даражасининг унинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига таъсирини баҳолашда самарали бўлиши мумкин.

«Солиқ салоҳияти» тушунчасининг тўғри таърифини шакллантириш мақсадида ушбу масаланинг қуйидаги асосий жиҳатларини ажратиб кўрсатамиз:

**I. Солиқ салоҳияти икки томонлама табиатга эга.** Бир томондан, ҳудуднинг солиқ салоҳияти унинг таркибидаги барча муниципал тузилмаларнинг солиқ салоҳиятлари йиғиндисидан иборат бўлиб, солиқ имтиёзлари йўқлиги ва солиқдан қочиш ҳолатлари мавжуд бўлмаганида энг юқори даражага эришилади. Бошқа томондан, ҳудуднинг солиқ салоҳияти солиқ тўловчиларнинг солиқ салоҳиятига боғлиқ бўлгани учун, максимал натижага эришиш учун ноформал ва «яширин» иқтисодиётини

легаллаштириш зарур.

**II. Солиқ салоҳиятининг табиатига кўра, уни қуйидаги позициялардан келиб чиқиб ўрганиш зарур:**

- Солиқ салоҳияти келажакка йўналтирилган прогноз кўрсаткичдир.
- Солиқ салоҳияти бюджетга келиб тушадиган фактик солиқ тушумлари йиғиндисидир.
- Солиқ салоҳиятининг прогноз кўрсаткичи солиқ хавфларини ҳисобга олган ҳолда шакллантирилиши керак, чунки улар солиқ ва йиғимлардан келиб тушган реал суммаларга таъсир қилади.

Шунингденк, солиқ салоҳиятини қуйидаги тасниф бўйича ҳам кўриб чиқиш лозим:

1. **Стратегик солиқ салоҳияти** – солиқ базасининг келажак даврларда бюджетга солиқ тушумларини келтириш салоҳияти, узоқ муддатли прогноз қилишни талаб қилади.
2. **Қисқа муддатли солиқ салоҳияти** – бир календарь йил доирасида аҳоли ижтимоий эҳтиёжларини қондириш учун бюджетга максимал даражада тушадиган солиқ тушумлари йиғиндиси, прогноз қилишни талаб қилади.
3. **Аниқ солиқ салоҳияти** – белгиланган календарь санада солиқ тушумлари миқдори, қисқа муддатли солиқ салоҳияти бажарилишини таҳлил қилиш имконини беради.

Давлат бюджети ҳар бир мамлакат молиявий тизимида асосий ўринни эгаллайди**.** Умумдавлат даромадларини тақсимлаш ва уларни кейинги фойдаланиш жараёнида федерал ва ҳудудий бюджетлар иштирок этади. Ҳудудий бюджетнинг асосий вазифаси ҳудуд бошқарув органларининг барча функцияларини тўлиқ моддий таъминлашдир. Ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий фаровонлигини таъминлашда муҳим тушунча бўлган солиқ салоҳиятини аниқлаш жараёнида солиқ ва бюджет федерализми принциплари катта аҳамиятга эга ва улар қуйидагилар:

1.Ҳар бир бюджет даражасига муайян солиқларни бириктириш принципи.

2.Қуйи даражаларга солиқ ставкаларини ўзгартириш, солиқ имтиёзларини бериш ва ўз солиқларини жорий қилиш функцияларини топшириш принципи. Бу принцип қуйи даражаларнинг ўз солиқ базасини шакллантириш жараёнида фаол иштирок этишини таъминлаш, шунингдек, маҳаллий даражадаги турли фаолият турларини рағбатлантиришга қаратилган.

Солиқ салоҳияти тушунчаси муаммоси бюджетлараро муносабатларини шакллантириш муаммоси билан узвий боғлиқдир**.** Ҳозирги кунда трансфертларга бўлган эҳтиёж ҳудудий бюджетларни тенглаштириш зарурати билан боғлиқ, бу эса ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаларидаги ҳамда бюджет ва солиқ салоҳияти даражаларидаги катта тафовутларни ҳисобга олади. Шунинг учун ҳудудларда солиқ салоҳиятини бошқариш самарадорлигини ошириш талаб этилади. Бунга эришиш учун унга таъсир этувчи омилларни аниқлаш ва унинг баҳосини мунтазам мониторинг қилиш зарур. Ҳудуднинг иқтисодий ривожланишидаги ўсиш кўп омилларга боғлиқ. Ушбу ҳолатда омиллар деб ички потенциал ресурсларни

белгилайдиган ҳодисалар ёки жараёнлар тушунилади, улар реал ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, ўсиш самарадорлиги ва сифатини кўтариш учун ишлатилиши мумкин.

Ҳозирги замонавий иқтисодий адабиётларда ҳудуднинг солиқ салоҳиятига таъсир этувчи омилларнинг турли хил классификациялари мавжуд бўлиб, уларсиз солиқ салоҳияти тушунчасининг мазмунини тўғри очиб бериш мумкин эмас. Энг амалий йўналтирилган классификациялардан бири — бу шаклланиш даражасига кўра ташқи ва ички омилларга бўлинадиган классификациядир.

Солиқ салоҳияти ҳажмига таъсир этувчи яна бир ички омил сифатида мамлакатдаги даромадлар даражасини қўшиш мумкин.

Хулоса ўрнида мазкур мақолада кўтарилган асосий нуқталарга тўхталиб ўтамиз:

Солиқ салоҳияти кўп қиррали тушунча бўлиб, уни давлатнинг фақат фискал функциясини бажаришигагина боғлаб бўлмайди. Ҳозирги замонавий иқтисодий тараққиёт босқичида солиқ салоҳияти тегишли ҳудуддаги барча солиқ тўловчилар иштирокида шаклланадиган ва солиқ органлари томонидан таъминланадиган комплекс институт сифатида намоён бўлмоқда.

Солиқ салоҳияти мазмунини аниқлашда солиқ салоҳияти институтига солиқ хатарлари тизими катта таъсир кўрсатишини ҳисобга олиш лозим. Шу боис, солиқ салоҳиятини кўриб чиқишда давлат ташкилотлари ва солиқ тўловчилар томонидан солиқ хатарларини минималлаштириш вазифаларини ҳал қилиш заруриятини инобатга олиш лозим. Бу стратегик (режали) солиқ салоҳиятини ҳақиқий солиқ салоҳияти кўрсаткичига яқинлаштиришга ёрдам беради. Солиқ салоҳияти мазмуни назарий тушунча сифатида солиқ салоҳиятини шакллантирувчи ташқи ва айниқса ички омиллар билан узвий боғлиқ ҳолда очиб берилиши лозим. Бу омилларни эътиборсиз қолдириш ёки нотўғри баҳолаш амалиётда солиқ салоҳияти миқдорини нотўғри аниқлашга, яъни стратегик ва ҳақиқий солиқ салоҳияти ўртасида сезиларли фарқ ва шу билан бирга бюджет дефицити ва давлатнинг ижтимоий-иқтисодий мажбуриятларини бажаришда муаммоларга олиб келиши мумкин.

**Qilichov Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li –** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Menejment kafedrasi assistent-stajori.

## O‘ZBEKISTON XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBAT MUHITI HOLATINI BELGILOVCHI OMILLAR VA XUSUSIYATLAR

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda xizmatlar bozori raqobat muhiti, iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Raqobat muhitining holati, bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, yangi texnologiyalarni tatbiq etish, xizmatlarning sifati, innovatsiyalar va mijozlarning talablariga moslashuv kabi omillar orqali shakllanadi. O‘zbekiston xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston xizmatlar bozoridagi raqobat muhiti holatiga

ta'sir etuvchi asosiy omillar va xususiyatlar tahlil qilinadi. Tahlil natijalari, raqobatning kuchayishi va xizmatlar sifatining oshishi, bozorning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Xizmatlar bozori, Raqobat muhiti, O‘zbekiston iqtisodiyoti, Bozor ishtirokchilari, Innovatsiyalar, Xizmatlar sifati, Mijozlar talablariga moslashuv, Raqobatbardoshlik, Iqtisodiy resurslar, Bozor tahlili.

**Abstract:** The competitive environment of the services market in Uzbekistan is one of the important components of economic development. The state of the competitive environment is formed by such factors as interaction between market participants, the introduction of new technologies, the quality of services, innovations and adaptation to customer requirements. Increased competition in the services market of Uzbekistan creates opportunities for efficient allocation of economic resources and business development. This article analyzes the main factors and features affecting the state of the competitive environment in the services market of Uzbekistan. The results of the analysis show that increased competition and improved quality of services contribute to the further development of the market.

**Keywords:** Services market, Competitive environment, Economy of Uzbekistan, Market participants, Innovations, Quality of services, Adaptation to customer requirements, Competitiveness, Economic resources, Market analysis.

**Аннотация:** Рынок услуг в Узбекистане является одной из важных составляющих конкурентной среды и экономического развития. Состояние конкурентной среды формируется такими факторами, как взаимодействие между участниками рынка, внедрение новых технологий, качество услуг, инновации и адаптация к требованиям клиентов. Узбекистан создает возможности для усиления конкуренции на рынке услуг, эффективного распределения экономических ресурсов и развития бизнеса. В данной статье анализируются основные факторы и особенности, влияющие на состояние конкурентной среды на рынке услуг Узбекистана. Результаты анализа, усиление конкуренции и повышение качества услуг, будут способствовать дальнейшему развитию рынка.

**Ключевые слова:** Рынок услуг, Конкурентная среда, Экономика Узбекистана, Участники рынка, Инновации, Качество услуг, Адаптация к требованиям клиентов, Конкурентоспособность, Экономические ресурсы, Анализ рынка.

O‘zbekiston xizmatlar bozorida raqobat muhiti iqtisodiy rivojlanish, aholining talab va ehtiyojlari o‘sishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi islohotlar va xorijiy investitsiyalar kirib kelishi bilan jadal rivojlanmoqda. O‘zbekistonda xizmatlar bozori tarkibiga turizm, savdo, transport, bank-moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya kabi keng ko‘lamli sohalar kiradi. O‘zbekiston xizmatlar bozorida raqobat muhiti holatini belgilovchi omillar va xususiyatlar haqida batafsil ma’lumot:

**1. Xizmatlar bozoridagi raqobatning umumiy xususiyatlari**

O‘zbekistonda xizmatlar bozori ko‘p tarmoqli va dinamik rivojlanayotgan bo‘lib, bozor o‘yinchilari soni ham ko‘paymoqda. Buning natijasida raqobat muhiti

shakllanib, xizmat koʻrsatish sifatini oshirish va yangi innovatsiyalarni joriy etishga undovchi omillar kuchaymoqda. Shuningdek, raqobat muhiti korxonalarning xizmat koʻrsatishda yangi yondashuvlarni qoʻllashiga, mijozlarga qaratilgan xizmatlarning rivojlanishiga turtki bermoqda.

**2. Xizmatlar bozorida raqobat muhiti holatini belgilovchi omillar**

**a) Hukumat islohotlari va bozorni liberallashtirish**

- Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston hukumatining xizmatlar sohasini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida amalga oshirgan islohotlari bozor raqobatini yanada kuchaytirdi. Xususan, turizm, bank-moliya va IT sohalarida yengilliklar berilishi bozorning jadal oʻsishiga sabab boʻlmoqda.
- Liberal iqtisodiy siyosat va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash xizmatlar bozoriga yangi oʻyinchilar kirib kelishiga va raqobat muhiti kuchayishiga olib keldi.

**b) Xorijiy investitsiyalar va xalqaro kompaniyalar ishtiroki**

- Xorijiy investitsiyalar kiritilishi, xalqaro kompaniyalar va brendlarning kirib kelishi xizmatlar bozoridagi raqobatni oshirdi. Xususan, xalqaro mehmonxonalar tarmogʻi, xalqaro banklar va axborot texnologiyalari sohasidagi yetakchi kompaniyalar Oʻzbekistonda oʻz faoliyatini yoʻlga qoʻydi.
- Xalqaro kompaniyalar va brendlarning kirib kelishi mahalliy kompaniyalarni xizmat sifatini oshirish va global standartlarga moslashishga undaydi.

**c) Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning joriy qilinishi**

- Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda raqamli texnologiyalar va onlayn xizmatlar bozori jadal rivojlanmoqda. Bu esa xizmatlar bozori raqobatini yanada oshirdi, chunki korxonalar oʻz mijozlariga onlayn xizmat koʻrsatishni yoʻlga qoʻyishga harakat qilmoqda.
- Raqamlashtirish sohasida, xususan, elektron toʻlovlar, elektron tijorat, mobil banking, onlayn ta’lim va telemeditsina kabi xizmatlar jadal rivojlanmoqda. Bu xizmatlarning rivojlanishi orqali raqobat muhiti shakllanmoqda va yangi bozor segmentlari yaratilmoqda.

**d) Mahalliy talab va iste’molchilar ehtiyojlarining oshishi**

- Aholining turmush darajasi va daromadlari oʻsishi bilan xizmatlarga boʻlgan talab ham oshmoqda. Odamlar sifatli, tezkor va qulay xizmatlardan foydalanishga intiladi. Bu esa xizmat koʻrsatish sohasidagi korxonalardan raqobatbardoshlikni oshirishni talab qiladi.
- Turizm va mehmonxona xizmatlari, savdo va transport sohalaridagi raqobat ham aholining ehtiyojlarining ortishi bilan kuchaymoqda. Mahalliy iste’molchilarning talabiga koʻra korxonalar xizmat sifati va narx siyosatini qayta koʻrib chiqishga majbur boʻlmoqda.

**e) Innovatsiyalar va xizmat turlarining diversifikatsiyasi**

- Bozordagi oʻyinchilar oʻz xizmatlarini diversifikatsiyalashga, ya’ni yangi xizmat turlarini joriy etishga harakat qilmoqda. Bu esa raqobatni kuchaytirishga olib kelmoqda, chunki har bir korxona oʻziga xos xizmatlarni taklif qilish orqali bozorda ustunlikka ega boʻlishga intiladi.

- Xususan, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarida onlayn kurslar, konsultatsiyalar va treninglar, shuningdek, telemeditsina kabi xizmat turlarining rivojlanishi kuzatilmoqda.

**3. Asosiy xizmat sohalari bo‘yicha raqobat muhiti holati**

**a) Turizm va mehmonxona xizmatlari**

- Turizm xizmatlari sohasida raqobat kuchaymoqda. Xalqaro mehmonxonalar va mahalliy xususiy mehmonxonalar o‘rtasida raqobat o‘sib bormoqda. Xususan, O‘zbekistonning qadimiy shaharlari (Samarqand, Buxoro, Xiva) sayyohlarni jalb qilishda asosiy rol o‘ynaydi.
- Bu sohada xizmat sifati, mehmonxonalar sonining ko‘payishi, xizmatlarning ko‘p turlari va xalqaro standartlarga moslashish raqobatni belgilovchi omillardir.

**b) Bank va moliya xizmatlari**

- Bank va moliya xizmatlari sohasida raqobat juda yuqori, ayniqsa, raqamli xizmatlar (mobil banking, onlayn to‘lovlar) rivojlanishi bilan kuchaymoqda. Xalqaro banklarning kirib kelishi mahalliy banklarni xizmat sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni kengaytirishga undamoqda.
- Bank sohasidagi raqobat innovatsiyalar, mijozlarga qaratilgan maxsus xizmatlar va raqamli xizmatlar bilan ajralib turadi.

**c) Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya**

- O‘zbekistonda IT va telekommunikatsiya sohasida raqobat kuchli bo‘lib, bozorga yangi kompaniyalar kirib kelmoqda. Xususan, mobil operatorlar, internet provayderlari va IT-kompaniyalar o‘rtasida raqobat o‘smoqda.
- Bu sohada raqamli xizmatlar, tezkor internet xizmatlari va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish raqobatni belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

**d) Ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari**

- Ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari bozorida ham raqobat kuchaymoqda, ayniqsa, xususiy maktablar, universitetlar, kasb-hunar o‘quv markazlari, xususiy klinikalar va sog‘liqni saqlash markazlari ko‘paymoqda.
- Xususiy sektorning rivojlanishi va raqamli xizmatlarning kengayishi ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi raqobatni kuchaytirib, sifatni oshirishga va yangicha xizmatlarni joriy qilishga undaydi.

**4. Xizmatlar bozorida raqobat muhitining afzalliklari va kamchiliklari**

**Afzalliklari:**

- **Sifat oshishi**: Raqobat muhiti xizmatlarning sifatini oshiradi, chunki korxonalar mijozlarni jalb qilish uchun xizmat ko‘rsatish darajasini yaxshilashga intiladilar.
- **Innovatsiyalar va texnologiyalar joriy etilishi**: Raqobat innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning joriy etilishiga turtki beradi, bu esa xizmat ko‘rsatish jarayonini optimallashtiradi.
- **Narxlarning moslashuvchanligi**: Raqobat xizmatlar narxini moslashuvchan qiladi va bu mijozlarga yanada qulay imkoniyatlar taqdim etadi.

**Kamchiliklari:**

- **Raqobatbardoshlik uchun yuqori xarajatlar**: Korxonalar raqobatbardosh bo‘lish uchun katta xarajatlar qilishi kerak, bu esa ba’zan xizmat narxining oshishiga olib keladi.
- **Mahalliy kompaniyalar uchun qiyinchiliklar**: Xalqaro kompaniyalar bilan raqobatlashish mahalliy kompaniyalar uchun qiyin bo‘lishi mumkin, ayniqsa, katta mablag‘ va zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lmagan korxonalar uchun.

O‘zbekiston xizmatlar bozorida raqobat muhitini belgilovchi omillar quyidagilar:

| Omil | Tavsif |
|---|---|
| **Bozor ishtirokchilari** | Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar. |
| **Xizmatlar sifati** | Raqobatdagi asosiy omillardan biri bo‘lib, xizmatning mijozlar tomonidan qabul qilinish darajasini belgilaydi. Qisqa muddatda va barqaror sifatni ta’minlash. |
| **Texnologik innovatsiyalar** | Xizmatlarni raqobatbardosh qilish uchun yangi texnologiyalar va raqamli xizmatlar qo‘llaniladi. Innovatsiyalar bozorni rivojlantirish va samaradorlikni oshiradi. |
| **Mijoz talablariga moslashuv** | Xizmatlar bozoridagi raqobatni belgilovchi asosiy omil bo‘lib, mijozlar ehtiyojlariga tez va samarali javob berish, xizmatlarning moslashuvchanligi. |
| **Resurslarni taqsimlash** | Xizmat ko‘rsatish sohasidagi resurslar, shu jumladan, inson resurslari va moliyaviy mablag‘larni samarali taqsimlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish. |
| **Raqobatbardoshlik darajasi** | Raqobatning kuchayishi xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashni kuchaytiradi, bu esa xizmat sifatini oshirishga olib keladi. |
| **Bozor tendensiyalari** | O‘zbekiston xizmatlar bozorida o‘zgarayotgan tendensiyalar, yangi bozor segmentlari va xarid qilish xulq-atvoridagi o‘zgarishlar. |
| **Davlat siyosati** | Davlatning xizmatlar bozoriga ta’siri, raqobatni qo‘llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladigan siyosatlar va normativ-huquqiy bazalar. |
| **Iqtisodiy omillar** | Iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya darajasi, soliq siyosati va boshqa makroiqtisodiy faktorlardan kelib chiqadigan omillar. |

Bu jadvalda, O‘zbekiston xizmatlar bozoridagi raqobat muhiti holatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va xususiyatlar keltirilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. **Keller, K. L., & Kotler, P.** (2016). *Marketing Management*. Pearson Education.

2. **Porter, M. E.** (2008). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. Free Press.

3. **Zeithaml, V. A., Bitner, M. J., & Gremler, D. D.** (2009). *Services Marketing: Integrating Customer Focus Across the Firm*. McGraw-Hill.

4. **Sullivan, M. M.** (2012). *The Competitive Service Economy: The Impact of Technology and Globalization*. Oxford University Press.

5. **Czinkota, M. R., & Ronkainen, I. A.** (2007). *Global Marketing*. Cengage Learning.

6. **Shapero, A. F.** (2014). *Business and the Competitive Environment in Emerging Markets*. Routledge. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xizmatlar bozoridagi raqobat muhiti va iqtisodiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

7. **Kunc, M., & Williams, D.** (2012). *Service Industries and the Global Economy*. Palgrave Macmillan.

**Abdumonnonov Maxsud., Suvonov Obidjon., Xujamov Ziyovuddin -**
Ilmiy adabiyotlarda va xorijiy nashrlarda keng qo‘llanilib kelinayotgan ta’lim xizmati tushunchasi, “nodavlat oliy ta’lim” tushunchalariga ko‘plab ta’riflar keltirilganligi ilmiy adabiyotlarda ushbu masala bo‘yicha ko‘plab munozaralar mavjudligidan dalolat beradi.

Xorijlik olim Dj. Stiglis “xizmatlar ta’lim xizmatlarining ijtimoiy hisoblangan ma’lum bir qismini qamrab oladi, bu boshlang‘ich va o‘rta ta’limdir, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi va kasbiy ta’lim va jamiyatga xos ijtimoiy ne’matlar tarkibiga kiradi”[62] deya ta’rif bergan.

Nazarimizda ta’lim xizmatlarining mohiyatini yoritishda J.Stigis tomonidan berilgan ta’rifga asoslanadigan bo‘lsak, nodavlat oliy ta’lim xizmatlari yoki oliy

[61]Valiev Sh.E va boshq. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish tendensiyalari va omillari tahlili// Современное образование (Узбекистан). 2022. №6 (115). https://cyberleninka.ru/article/n/nodavlat-oliy-talim-tashkilotlarini-tashkil-etish-tendentsiyalari-va-omillari-ta-lili.

[62] Стиглиц Дж. Экономика государственного сектора/ Дж. Стиглиц.-М.: Инфра-М,1997. – 221с

ta’limning yuqori darajada tijoratlashuvi, ijtimoiy faoliyat turidan xizmatlar tarkibiga kiritilishi taraqqiyotining servislashgan jamiyatga o‘tayotganligidan dalolat beradi.

O.S.Batalovaning tadqiqotlariga ko‘ra ta’lim xizmati “...iste’molchilar, ish beruvchilar va davlatning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ma’lum bir ta’lim dasturi doirasidagi kasbiy xususiyatga ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘tkazishga qaratilgan kompleks jarayon” deb ta’rif keltirilgan.

N.N.Belovaning fikriga asoslanadigan bo‘lsak, “...bir (yoki bir necha) shaxs(lar) tomonidan bilim, ko‘nikma, qadriyat va axloqiy-axloqiy munosabatlar majmuini, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va rivojlantirish maqsadida pullik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi asosida ham, turli darajadagi byudjet mablag‘lari hisobidan ham amalga oshiriladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni rivojlantirish va boshqa shaxs tomonidan o‘zlashtirish jarayonini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya” sifatida izoh keltirilgan.

Sh.Z.Valievning keltirishicha, “.....ta’lim muassasasi tomonidan alohida ta’lim dasturi doirasida ma’lum miqdordagi bilim, ko‘nikma va malakalarni iste’molchiga o‘tkazish va to‘plash, iste’molchining o‘zini o‘zgartirishga qaratilgan maqsadli ijodiy jarayon” [63]dir.

Ye.V.Vasilevaning fikriga ko‘ra “.....ta’lim xizmatlari iqtisodiy kategoriya sifatida, sotuvchi va xaridor (iste’molchi) o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi hisoblanib, ular o‘rtasidagi ta’sir natijasidir. Ushbu o‘zaro ta’sir bilim, ko‘nikma va malakalarni axborot resurslari to‘plami shaklida uzatishni o‘z ichiga oladi”[64].

I.B.Romanova “.....xo‘jalik birligining ma’lum bir sub’ektning ta’limga (ya’ni tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallashga) bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ushbu sub’ektning oldindan roziligi bilan amalga oshiriladigan mehnat faoliyati”[65] sifatida izoh keltirilgan.

Yuqorida O.S.Batalova, N. N. Belovalarning mualliflik yondashuvidagi ta’riflari oliy ta’limning avvalo shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni rivojlantirishga yo‘nalganligi, nufuz omiliga aylanib ulgurganligi(Sh.Z.Valiev), oliy ta’lim xizmatlarining bozor xususiyatlarini (E.V.Vasileva), oliy ta’limni istalgan vaqtda, yoshda va shaklda davom ettirish mumkinligi (I.B.Romanova) to‘liq e’tiborga olgan bo‘lib, bizning fikrimizcha nodavlat oliy ta’lim xizmatlari ko‘rsatishning bugungi kun holatini kengroq ochib berishga xizmat qilgan.

M. V. Fedorova tomonidan keltirilgan ta’rifda “...tashqi ta’sirga ayniqsa sezilarli ega bo‘lgan davlat xizmati turi sifatida ushbu xizmatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchisiga qo‘shimcha ravishda, ish haqi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligining oshishi yo‘nalishida, ish beruvchiga mehnat

[63] Валиев, Ш.З. Рынок образовательных услуг: теоретические аспекты: монография / Ш.З. Валиев, В.И. Сухочев. – Уфа: Дизайн Полиграф Сервис, 2008. – 84 с.

[64] Васильева Елена Валерьевна. Образовательная услуга как экономическая категория в условиях рыночных отношений // Московский экономический журнал. 2020. №10. https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatelnaya-usluga-kak-ekonomicheskaya-kategoriya-v-usloviyah-rynochnyh-otnosheniy

[65] Романова, И.Б. Управление конкурентоспособностью высшего учебного заведения / И.Б. Романова. – Ульяновск: Средневолжский научный центр, 2005. – 140 с.

unumdorligining o‘sishi shaklida ijobiy darajada ta’sir ko‘rsatadi”[66] mazmunidagi sharh berilgan.

M.V.Fedorova ta’lim xizmatlarini davlat xizmati sifatida izohlagan holda ta’limning aynan davlat tomonidan amalga oshirilishi bugungi kunda nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish imkoniyatining cheklanishiga olib kelishi e’tiborga olinmagan.

V.A.Dolyatoyskiy, O.A. Mazurlarning ilmiy tadqiqotlarida ta’lim xizmatlari “...jarayon sifatida shaxsning ongiga yo‘naltirilgan, shaxsning ma’lum bir turdagi bilim, ko‘nikma, ko‘nikmalarni egallashga, kasb yoki malaka olishga bo‘lgan ehtiyojini ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydigan nomoddiy harakatlar va mehnat bozoridagi talabni qondirishni ta’minlash jarayoni”[67] sifatida izohlangan.

Bizning fikrimizga ko‘ra, V.A. Dolyatoyskiy va boshqalar tomonidan keltirilgan ta’rif nodavlat oliy ta’lim xizmatlari ko‘rsatishga ham taalluqli bo‘lib, nodavlat oliy ta’limga bo‘lgan bugungi kun talabini ham ifodalashga xizmat qiladi.

A.M. Strijov fikriga ko‘ra “...ta’lim xizmati - jarayon sifatida ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri bilan tavsiflangan va shaxsning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir[68].

S.A.Zaychikova, I.N. Mayaskayalar tomonidan ta’lim xizmatlari tushunchasiga “Shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan va inson kapitalini oshirishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalar tizimi”[69] tarzdagi izoh keltirilgan.

S.A.Zaychikovalarning ta’rifiga munosabatimiz shundan iboratki, jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida oliy ta’lim nafaqat bilim va ko‘nikmalar tizimini ifodalaydi, balki shaxs ushbu uquvlardan foydalanish yoki foydalanmasligidan qat’iy nazar nufuz omili ham hisoblanadi.

Ye.D Lipkina tomonidan ta’lim xizmatlariga “...shaxs va jamiyatning intellektual rivojlanishi hamda kasbiy ko‘nikmalarni egallashidagi o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladigan bilimlar, ko‘nikmalar va uquvlar, shuningdek ayrim ma’lumotlar to‘plami” [70] deya izoh keltirilgan.

Aynan yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib nodavlat oliy ta’lim xizmatlari tushunchasiga keltirilgan ayrim ta’riflarga e’tibor qaratamiz:

T.N.Fadina tomonidan “...nodavlat oliy ta’lim mustaqil ravishda ta’lim xizmatlarini sotishdan tushgan daromad orqali o‘zini o‘zi to‘liq moliyalashtiruvchi, tashqi muhit xatarlarini o‘z zimmasiga olgan holda faoliyat olib boruvchi va bozor kon’yunkturasining o‘zgaruvchan omillariga munosib javob qaytara olish

---

[66] Федорова М. В. Образовательные услуги и их типология в инноватsионной экономике // ПСЭ. 2011. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatelnye-uslugi-i-ih-tipologiya-v-innovatsionnoy-ekonomike

[67] Долятовский, В.А. Стратегическое планирование деятельности вуза на рынке образовательных услуг: монография. В.А. Долятовский, О.А.Мазур, И.В.Кузнецова, Э.Е. Сакиев, Т.Н.Рябченко / Под ред. В.А. Долятовского, О.А.Мазура. - Ростов-на-Дону-Невинномыск: СКНЦ ВШ-РГЭУ “РИНХ”-НИЭУП, 2005.-235с.

[68] Стрижов, А.М. Понятие качества образовательной услуги в условиях рыночных отношений. / А.М. Стрижов// Стандарты и мониторинг в образовании. - 1999. - № 3. - С. 47-50

[69] Зайчикова, С.А. Стратегия маркетинга высшего учебного заведения в системе открытого образования: Монография / С.А. Зайчикова, И.Н. Маяцкая. – М.: Изд-во РГСУ, 2006. – 115 с.

[70] Липкина Е.Д. Конкурентоспособность вузов на современном рынке образовательных услуг: монография / Е.Д. Липкина. – Омск: Изд-во ОмГПУ, 2006. – 136 с.

imkoniyatiga ega bo‘lgan zamonaviy ta’lim tashkiloti, nodavlat oliy ta’lim faoliyatining asosiy xususiyati zamon talablariga javob berish qobiliyatidir” – deya ta’rif bergan..

Ye.D. Lipkina tomonidan nodavlat oliy ta’lim xizmatiga – “...alohida shaxs, ish beruvchining va jamiyatning muhim bilim, ko‘nikma va uquvlarini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyat majmui”[71] mazmunidagi izoh keltirilgan. Muallifning nazarida nodavlat oliy ta’lim xizmatlari shaxslarning ushbu xizmatni iste’mol imkoniyatini yanada kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni, bozorda muhitiga xos ta’lim xizmtlari ko‘rsatishni nazarda tutadi.

S.G.Borisova tomonidan ta’lim xizmatlarining mohiyatini yoritishda "ta’lim xizmati" va “ta’lim mahsuli” tushunchalariga urg‘u qaratilgan. Uning ta’rifiga ko‘ra “...ta’lim mahsuloti – bu o‘quv jarayonini tashkil qilish, boshqarish, uni uslubiy, moddiy va kadrlar bilan ta’minlash, o‘quv-uslubiy majmualarni va boshqalarni o‘z ichiga olgan ta’lim dasturini anglatadi. muallifning fikriga ko‘ra, ta’lim mahsulotlari ta’lim ixtirolari, patentlar, dasturlar va tadqiqot natijalaridan iborat. Ta’lim mahsuli esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega va ma’lum vakolatlarga ega bo‘lgan shaxs, bitiruvchidir”[72].

Rossiyalik olim Ye.S.Kupreevaning ilmiy yondashuviga ko‘ra nodavlat oliy ta’lim xizmatlari “...yangicha ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida jamiyatning madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirish, shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini, yangicha ijtimoiy muhit munosabatlariga moslashuini ta’minlash, ijtimoiy mavqeini oshirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish zaruriyatini ta’minlashni amalga oshiradi”[73]. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari ushbu vazifalarni amalga oshiruvchi maxsus ijtimoiy institutdir. Bizning nazarimizcha Ye.S.Kupreevaning pedagogik nuqtai nazardan yondashuvi zamonaviy jamiyat a’zolarining menejment, marketing, turizm kabi eng ko‘p talab etilayotgan va faolligi yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda, pedagogik ta’lim sohasidagi turli “bo‘shliq”larni to‘ldirishda, milliy maktablar, diniy ta’lim muassasalarini rivojlantirish, qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish asosida oliy ta’limga qamrov darajasini oshirishda nodavlat oliy ta’limning o‘rni beqiyosligini har tomonlama asoslashga imkon beradi.

K.B.Ivanenko tomonidan “...nodavlat oliy ta’lim tushunchasi mohiyatini yoritishda shuni ta’kidlish joizki, ushbu atama noo‘rin qo‘llanilgan holda ta’limning butun mazmuni va chuqurligini qamrab olmaydi. Shuningdek, ushbu atama barcha rasmiy hujjatlarda va hukumat qarorlarida “nodavlat”, “xususiy”, “byudjetdan tashqari” kabi shakllarda uchraydi. Nodavlat oliy ta’lim davlat manfaatlari uchun mutaxassislarni tayyorlash, ishchi lavozimlarni to‘ldirish va boshqa vazifalarni hal

[71] Фадина Таисня Витальевна. Формирование рынка образовательных услуг высшей школы. автореферат диссертатsiи на соискание учёной степени кандидата экономических наук Москва, 2011. 35 стр

[72] Борисова, С. Г. Оценка эффективности маркетинговых решений в сфере образования [Текст]/ С. Г.Борисова. – Новосибирск: Изд. НГПУ, 2008. – 156 с.

[73] Купреева Елена Станиславовна. Негосударственные образовательные учреждения в региональном образовательном пространстве (на материале Владимирской области). автореф. дис. …пед.наук: Рязань 2004. – 24 стр.

qiladi-ki, uslubiy jihatdan noto‘g‘ri qo‘llanilgan bo‘lishi ham mumkin”[74].

K.B.Ivanenkoning yondashuviga asoslangan holda mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining “nodavlat”, “xususiy” kabi atamalarda faoliyat yuritayotganligini e’tiborga olib, bu borada chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

O‘zbekistonlik olimlardan A.A.Xamidovaning tadqiqotlarida bozor munosabatlari rivojlanishining xususiyatlari, shart-sharoitlariga asoslanib ta’lim xizmatlari bozori tushunchasini yoritishga keng urg‘u qaratilgan. Tadqiqotchining yondashuviga ko‘ra “...bu ta’lim xizmatlarini ishlab chiqish, ayirboshlash va iste’mol qilish bo‘yicha ta’lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchilari, iste’molchilari va vositachilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuasini o‘zida namoyon etadi”[75].

A.A.Xamidova tomonidan ta’lim xizmatlarini izohlashda ta’lim xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi tavsifi nodavlat ta’lim xizmatlarining xususiyatlari qamrab olinmagan.

S.A.Babanazarovaning ilmiy tadqiqotlarida “xodimlar (professor-o‘qituvchilar) tomonidan amalga oshiriladigan ta’lim xizmatlari samaradorligi va sifatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini, ularning butun faoliyatini qamrab oladigan yo‘nalishlar bo‘yicha qarab chiqilgan”[76].

Bizning fikrimizga ko‘ra sifat tushunchasining mavhumligi, ishlab chiqaruvchi, iste’molchi tomonidan turlicha his etilishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, S.Babanazarovaning oliy ta’lim xizmatlari sifati va samaradorligini baholash yondashuvi kelgusida oliy ta’lim xizmatlari sifatining iste’molchilar tomonidan sifatli deb topilishiga imkon bermaydi.

J.R.Toxirov tomonidan “...ta’lim xizmati – ta’lim beruvchi tashkilot va undagi professor-o‘qituvchilar tomonidan davlatning hamda jamiyatning rivojlanishi uchun ma’lum belgilangan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan, inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan kishilarga naf keltiradigan, ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi”[77] mazmunidagi izoh keltirilgan.

Bizningcha, J.R.Toxirov tomonidan ta’lim xizmatiga izoh berishda uning nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan kengayishi, nafaqat ta’lim tashkilotlari, jahon tajribasidan kelib chiqib, yirik korxona va korporatsiyalar tomonidan ham o‘z ehtiyojlari uchun mutaxassislar tayyorlash mumkinligi e’tiborga olinmagan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, “Ta’lim xizmati” tushunchasining ko‘p qirraliligi uning nodavlat oliy ta’lim xizmatlari segmentiga xos bo‘lgan mazmun va tarkibiga yangicha talablarni zamonaviy ilmiy yondashuvlar va ilmiy-metodik talablarga asoslanib har tomonlama va xolis baho berishni, shu bilan birga oliy ta’lim sohasida nodavlat oliy ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga imkon beradigan

[74] Ksenia B. Ivanenko. Comparative Analysis of State and Non-State Higher Educational Institutions in Terms of their Adaptation to New Societal Conditions in Post-Soviet Russia

[75] Xamidova A.A. Ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (oliy ta’lim muassasalari misolida). I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. SamISI, 2022 y.- 54 b

[76] Babanazarova S. A. Ta’lim xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. SamISI, 2022 y. –53 b.

[77] J.R.Toxirov. Ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish. I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus 2022 y.- 61 b.

tavsiyalar va uslubiy vositalarni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bizning fikrimizga ko‘ra nodavlat oliy ta’lim sohasida xizmatlarni tashkil qilish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-boshqaruv masalalari ta’lim xizmatlari bozorining barcha ishtirokchilari manfaatlarini hisobga olgan holda mohiyatini ochib berishga, xizmatlar sifatini baholashga hamda samardorligini oshirishga qaratilgan tizimli ilmiy tahlillarni amalga oshirishning uslubiy apparatini yaratishga qaratilishi lozim.

Tahlillarga asoslanib, jahonda nodavlat oliy ta’lim xizmatlari ko‘rsatishning 3 ta asosiy jihatini alohida ajratib ko‘rsatishni lozim deb hisoblaymiz.

*Birinchisi,* nodavlat ta’lim muassasalari diniy-madaniy yo‘nalishdagi oliy ta’lim xizmatlari ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, asosan diniy qadriyatlar ustunlik qiluvchi qatlamlarini keng qamrab olishni ko‘zda tutadi.

*Ikkinchisi,* nufuzli segmentga yo‘naltirilgan oliy ta’lim bo‘lib, asosan aholining daromadli va o‘ziga to‘q qatlami uchun yo‘naltirilgan.

*Uchinchisi,* aholining keng qatlami uchun yo‘naltirilgan ommaviy oliy ta’lim bo‘lib, kam daromadli, oliy ta’limgacha to‘plangan bilim saviyasi yetarli bo‘lmagan aholi vakillariga yo‘naltirilgan.

**Abduvohidova Gulshan Akmalovna -** SamISI,Menejment kafedrasi assistant stajyori, gulshanabduvohidova@gmail.com

## INSON RESURSLARI MENEJMENTIDA MOTIVATSIYANING ROLI

**Annotatsiya.**Tashkilotlarning iqtisodiy salohiyati xodimlarning mehnat unumdorligiga bevosita bog‘langan va hozirgi kunda motivatsiyaning maqsadli yo‘naltirilishi ahamiyati oshib boryotganligining asosiy sababi bu inson resurslarni boshqa iqtisodiy resurslari eng qimmatli resurs ekanligidir. Ushbu ishning maqsadi iqtisodiy salohiyatni kuchaytirish jarayonida inson resurslarini boshqarishdagi motivatsiya ahamiyatini o‘rganish.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy salohiyat, moliyaviy salohiyat, motivatsiya, mehnat unumdorligi, inson resurslarini boshqarish.

**Аннотация**.Экономический потенциал организаций напрямую связан с производительностью труда сотрудников, и основная причина, по которой сегодня возрастает важность целевой мотивации, заключается в том, что человеческие ресурсы являются наиболее ценным ресурсом среди других экономических ресурсов. Целью данной работы является изучение значения мотивации в управлении человеческими ресурсами в процессе укрепления экономического потенциала.

**Ключевые слова**: экономический потенциал, финансовый потенциал, мотивация, производительность труда, управление человеческими ресурсами.

**Abstract.**The economic potential of organizations is directly related to the labor productivity of employees, and the main reason why the targeted orientation of motivation is currently gaining importance is that human resources are the most valuable resource among other economic resources. The purpose of this work is to study the importance of motivation in human resource management in the process of

strengthening economic potential.

**Key words**: economic potential, financial potential, motivation, labor productivity, human resource management.

Sog‘lom raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish va uni barqaror rivojlantirishda inson resurslarining o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun kadrlar salohiyatini yuqori darajada saqlash, ularning motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson resurslarini boshqarish va motivatsiya usullari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Klassik motivatsiya nazariyalari (Maslou, Vroom, Herzberg) va zamonaviy yondashuvlar orqali iqtisodiy rivojlanishda motivatsiyaning turli jihatlari tahlil qilingan. Ko‘pgina tadqiqotlarda motivatsiya jarayonlari individual darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy salohiyatni oshirishga qo‘shgan hissasi kam o‘rganilgan.

“Motivatsiya” tushunchasiga umumiy ta’rif sifatida shunday jumlalarni bersak bo‘ladi: Motivatsiya – bu inson faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi kuchlar majmui.

Inson resurslarini boshqarishda motivatsiya va iqtisodiy salohiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchli va bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyatga ega. Motivatsiya xodimlarning ishga bo‘lgan munosabatini shakllantirib, ularning samaradorligini oshiradi. Bu o‘z navbatida, tashkilot va umumiy iqtisodiyotning salohiyatini kuchaytiradi. Korxona tashkilotlar uchun muhumlilik darahjasiga ko‘ra Moliyaviy salohiyat va iqtisodiy salohiyat o‘zaro tengdir. Moliyaviy salohiyat bu tashkilotlarni rentabelligi, samradorligi kabi ko‘rsatkichlar bilan ifodalansa, iqtisodiy salohiyatning zamirida asosiy vositalar bilan ta’minlanganlik, aylanma pul mablag‘lari, nomoddiy aktivlar bilan bir qatorda mehnat resurslari ham asosiy tarkibiy elamentlar sirasiga kiradi.

Iqtisodiy salohiyatni kuchaytirish uchun innovatsiya, infratuzilma, investitsiya, intelekt va eng asosiysi institut tamoyillarni baravar kuchaytirish hisobiga erishish mumkin. Mehnat unumdorligini oshirish uchun iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqgan holda yuqoridagi tamoyillarga asoslanib quyidagicha turlarni o‘z ichiga olish mumkin:

1. Tashkilotning asosiy vositalarni modernizatsiya qilish;
2. Yordamchi ishlab chiqarishni tashkil qilish.
3. Tashkilot xodimlariga nisbatan motivatsiya;

Birinchi va ikkinchi yo‘nalish xodimlarga nisbatan motivatsiyaga qaraganda amalga oshirish uchun uzoq vaqt va ko‘p mabalag‘ talab qiladi.

Motivatsiyaning ma’qul tomonlaridan bu uning reaksiyasi tezligidir. Menejer qo‘l ostidagilarga ular kutgan ijobiy so‘zlarni aytishining o‘zidayoq xodimnlarni ishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatdikki, motivatsiya bu og‘riq qoldiruvchi dori, ko‘p ishlatilsa oraliq masofa qisqaradi va dozani oshirishni talab qiladi. Ushbu hr menejer teoremasini to‘ldirish uchun xodimlarni demotivlashtirish jarayonlariga ham urg‘u berish shart. Korxonalarda motivlash manbasi bu uning rahbari rahbari eknaligini uning ta’sirini kuchaytirb beradi. Eng kuchli motivlash manbasi sifatida odatda ichki motivatsiya tushuniladi.

Motivatsiya iqtisodiy salohiyatni quyidagi jihatlar orqali kuchaytirishi mumkin:

1. Mehnat unumdorligini oshiradi: motivatsiyaga ega xodimlar yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, korxona va davlat miqyosida iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

2. Ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantiradi: motivatsiyali xodimlar yangi fikrlar, innovatsion loyihalar va texnologiyalar yaratishga qiziqadi, bu esa iqtisodiy salohiyatga bevosita ta’sir qiladi.

3. Ishchi kuchining sadoqati: motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan xodimlar tashkilotda uzoq muddatli ishlashni afzal ko‘radi, bu esa resurslarni tejaydi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, motivatsiya bu tashkilot rahbarlari uchun iqtisodiy salohiyatni balanasda ushlash yoki kuchaytirish uchun xizmat qiladigan jarayon faqat uni to‘g‘ri yo‘lda ishlata bilish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.01.2019 yildagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5614-sonli farmoni.

2. E.Sh.Shodmonov va bshq. “Korxonalor iqtisodiyoti” – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi T., 2020.- 592 b.

3. M.Q.Pardayev, T.I.Yahyoyev “Iqtisodiy tahlil” – Samarqand, “FAN BULOG‘I” nashriyoti, 2024 -403 b.

4. N.K.Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov “Menejment”–T. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. - 392 b.

**Abduvohidova Gulshan Akmalovna –** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Menejment kafedrasi assistent-stajori

## INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR

**Annotatsiya:** Inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlar mavzusi, tashkilotlarda inson kapitali va uning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Katta-katta kompaniyalarda inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlar jarayonini olib borish muhim ahamiyatga egadir. Har bir xodim va rahbar ish faoliyatini muloqotlar orqali ham olib boradi.

**Kalit so'zlar:** Shaxslararo munosabat, inson resurslarini boshqarish, xodm va rahbar,professional rivojlanish, rahbarlik va ta’sir, konfliktlarni boshqarish, motivatsiya va xodimlarning qoniqishi, ochiq komunikatsiya, samarali komunikatsiya.

**Abstract:** The topic of interpersonal relations in human resource management is important for increasing human capital and its effectiveness in organizations. In large companies, it is important to conduct the process of interpersonal relations in the management of human resources. Every employee and manager conducts work

through communication.

**Keywords:** Interpersonal relations, human resource management, employee and leader, professional development, leadership and influence, conflict management, motivation and employee satisfaction, open communication, effective communication.

**Аннотация:** Тема межличностных отношений в управлении человеческими ресурсами важна для увеличения человеческого капитала и его эффективности в организациях. В крупных компаниях важно вести процесс межличностных отношений при управлении человеческими ресурсами. Каждый сотрудник и руководитель осуществляет работу посредством общения.

**Ключевые слова:** Межличностные отношения, управление человеческими ресурсами, сотрудник и лидер, профессиональное развитие, лидерство и влияние, управление конфликтами, мотивация и удовлетворенность сотрудников, открытое общение, эффективное общение.

Shaxslararo munosabatlar inson resurslarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ular tashkilot ichidagi kommunikatsiya, hamkorlik va jamoaviy ishlashni ta'minlaydi. Bunday munosabatlar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Ish muhitini yaratish: Ishchilar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar ijobiy ish muhitini yaratadi, bu esa samaradorlikni oshiradi.
- Motivatsiya: Samimiy va ishonchli munosabatlar xodimlarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.
- Qaror qabul qilish: Shaxslararo munosabatlar orqali tashkilot ichida samarali qaror qabul qilish jarayoni amalga oshadi.
- Tadqiqot va innovatsiyalar: Jamoalarda o'zaro fikr almashish yangiliklarni kiritishga va yaxshilanishlarga olib keladi.
- Maqsadlarni belgilash: Xodimlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar orqali umumiy maqsadlar belgilanishi va ularga erishishga ko'maklashish muhimdir.

Shuning uchun, inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlarni yaxshilash tashkilot muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlar muhim o'rin tutadi, chunki samarali va muvaffaqiyatli tashkilot yaratishda xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning motivatsiyasi va jamoaviy ishlash qobiliyati asosiy omil hisoblanadi. Shaxslararo munosabatlar yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, ish joyidagi muhitni ijobiy va ishlab chiqarishdagi samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

1. Komanda tuzish va jamoaviy ishlash:

Shaxslararo munosabatlar, eng avvalo, samarali jamoa tuzishga yordam beradi. Komandadagi har bir a'zo o'zining rollarini va mas'uliyatlarini yaxshi tushunishi kerak, shuningdek, boshqa jamoa a'zolari bilan samarali ishlashga tayyor bo'lishi lozim. Yaxshi muomala, o'zaro hurmat, va ochiq muloqot komandadagi ishonchni oshiradi va umumiy maqsadga erishishga yordam beradi.

2. Motivatsiya va rag'batlantirish:

Xodimlarning ishga nisbatan qiziqishi va ishtiyoqi ularning o'zaro munosabatlari orqali shakllanadi. Agar xodimlar o'rtasida ijobiy va qo'llab-

quvvatlovchi munosabatlar bo'lsa, ularning motivatsiyasi yuqori bo'ladi. Rahbarlar va jamoa a'zolari o'rtasidagi samimiy va ochiq muloqot xodimlarni rag'batlantirishi, ularning ishga bo'lgan ishonchini oshirishi va mehnat natijalariga erishishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Ish joyida konfliktlarni boshqarish:

Har qanday ish muhitida konfliktlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarda shaxslararo munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Yaxshi rahbar konfliktlarni hal qilishda xodimlar o'rtasidagi muammolarni samarali va adolatli tarzda hal qilishi kerak. Bu, o'z navbatida, jamoa o'rtasida ishonchni mustahkamlash va ish joyidagi salbiy atmosferani bartaraf etishga yordam beradi.

4. Kommunikatsiya va ochiq muloqot:

Shaxslararo munosabatlar samarali kommunikatsiyaga bog'liq. Tashkilotlarda ochiq, aniq va samarali muloqot muhimdir, chunki bu xodimlarning bir-birlarini yaxshi tushunishiga, o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga va jamoa maqsadlariga mos keladigan qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi. Bu nafaqat rahbarlar va xodimlar o'rtasidagi, balki xodimlar o'rtasidagi ham o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi.

5. Ijtimoiy va emotsional intellekt:

Inson resurslarini boshqarishda ijtimoiy va emotsional intellekt katta ahamiyatga ega. Xodimlar bir-birlarining his-tuyg'ularini tushunish, ularning ehtiyojlarini inobatga olish va konfliktlarni hal qilishda hissiy jihatdan moslashuvchan bo'lishi kerak. Rahbarlar ham emotsional intellektni rivojlantirib, xodimlar bilan munosabatlarda muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

6. Xodimlarning farovonligini qo'llab-quvvatlash:

Inson resurslari boshqaruvining asosiy yo'nalishlaridan biri - xodimlarning farovonligini ta'minlash. Bu nafaqat moliyaviy va professional yordam, balki shaxslararo munosabatlar orqali ham amalga oshiriladi. Jamoa muhitida o'zaro qo'llab-quvvatlash va yordam berish xodimlar o'rtasida kuchli aloqalarni mustahkamlaydi va ish joyidagi umumiy farovonlikka olib keladi.

7. Rahbarlik va liderlik:

Rahbarning shaxsiy munosabatlari va kommunikatsiya uslubi jamoa muhitiga katta ta'sir ko'rsatadi. Samarali rahbar jamoaning ruhiy holatini tushunishi, individual ehtiyojlarni inobatga olishi va o'z fikrini aniq ifodalashi kerak. Shaxslararo munosabatlarda rahbarning ijobiy namunalari va qo'llab-quvvatlashi jamoaning yaxlitligini ta'minlaydi.

Mashhur kompaniyalarda shaxslararo munosabatlarning ahamiyati bugungi kunda tashkilotlarning muvaffaqiyatini ta'minlashda juda katta rol o'ynaydi. Katta kompaniyalar, ayniqsa texnologiya, xizmatlar va ishlab chiqarish sohalarida, shaxslararo munosabatlarni boshqarish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bunday munosabatlar nafaqat ish joyidagi atmosferani, balki kompaniyaning umumiy samaradorligini, innovatsion salohiyatini va xodimlarning motivatsiyasini oshirishga ham yordam beradi.

Mana, mashhur kompaniyalarda shaxslararo munosabatlarning ahamiyatini ko'rsatadigan bir necha asosiy jihatlar:

1. Kreativlik va Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash:

Mashhur kompaniyalar, masalan, Google, Apple va Microsoft kabi texnologik gigantlar, o'z xodimlari o'rtasidagi samarali shaxslararo munosabatlar orqali yangi g'oyalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Yaxshi shaxslararo aloqalar o'zaro fikr almashish, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalar yaratish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Google kompaniyasida xodimlar o'rtasida ochiq va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar yaratish uchun maxsus ish muhitlari va brainstorming sessiyalarini tashkil etishadi. Bu kompaniya "kreativ va innovatsion fikrlash"ni rag'batlantirishga intiladi, chunki ular yaxshi shaxslararo munosabatlarni shakllantirish orqali g'oyalar o'zgaruvchan va yangilanishga asoslangan muhitni yaratadilar.

2. Motivatsiya va Ishonchni O'stirish:

Shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo'lishi xodimlarni rag'batlantiradi va ularning kompaniyaga bo'lgan ishonchini oshiradi. Zappos kabi kompaniyalar, masalan, o'z xodimlarining o'zaro hurmatga asoslangan, ochiq va samarali kommunikatsiya qurishlariga alohida e'tibor qaratadilar. Zapposda har bir xodimning hissi va fikrini hurmat qilish, ularga o'zaro kuchli bog'lanish va hamkorlik muhitini yaratishga yordam beradi.

Zappos kompaniyasi o'zining xizmat ko'rsatish strategiyasi bilan mashhur, ularning muvaffaqiyati shaxslararo munosabatlar va xodimlarning motivatsiyasi bilan bog'liq. Kompaniya o'z xodimlarini faqat professional ko'nikmalariga qarab emas, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalariga ham baho beradi, bu esa shaxslararo munosabatlarni yanada mustahkamlaydi.

3. Ish joyida farovonlik va xodimlar salomatligi:

Katta kompaniyalar, masalan, Salesforce va Facebook, ish joyidagi farovonlikni qo'llab-quvvatlash va xodimlarning salomatligini ta'minlashga katta e'tibor beradilar. Shaxslararo munosabatlar xodimlarning o'zini qulay his qilishlari va stressni boshqarishlari uchun zarur bo'lgan psixologik xavfsizlikni yaratadi.

Salesforce kompaniyasi "Ohana" deb ataladigan oilaviy va hamjamiyat tuyg'usini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Bu kompaniya shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishni va jamoaviy ruhni mustahkamlashni o'zining asosiy qadriyatlaridan biri sifatida ko'radi. Yaxshi shaxslararo aloqalar xodimlarning farovonligini oshiradi, ular bir-biriga yordam berishadi va umumiy maqsadga erishish uchun hamkorlik qiladilar.

4. Xodimlarning O'zaro Ishtiroki va Jamoaviy Ishlash:

Shaxslararo munosabatlar kompaniyadagi xodimlarning o'zaro ishtirokini va jamoaviy ishlash qobiliyatini oshiradi. Tesla, Amazon kabi kompaniyalar jamoaviy ishlashni rivojlantirgan va xodimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan yondashuvni joriy etgan.

Amazonda samarali shaxslararo munosabatlar va jamoaviy ish tizimi muhim ahamiyatga ega. Kompaniya "Leadership Principles" asosida ishlaydi, bu prinsiplar xodimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytiradi va jamoaviy muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi. Ularning "Day 1" madaniyati xodimlarni o'zaro yaxshi munosabatlarda ishlashga undaydi.

5. Konfliktlarni samarali hal qilish:

Katta kompaniyalarda xodimlar o'rtasidagi konfliktlar tabiiy holat bo'lishi mumkin, ammo bu muammolarni samarali hal qilish kompaniya muvaffaqiyatini ta'minlash uchun juda muhimdir. IBM kabi kompaniyalar jamoalar o'rtasidagi konfliktlarni hal qilishda o'zaro hurmat, ochiq muloqot va samimiyatni o'zlarining asosiy strategiyalari sifatida ko'radilar.

IBMning muvaffaqiyatli shaxslararo munosabatlar siyosati jamoalar o'rtasidagi ijobiy aloqalarni yaratishga va mavjud bo'lgan konfliktlarni tezda hal qilishga qaratilgan. Bu kompaniya ochiq va erkin kommunikatsiya muhitini yaratish orqali xodimlar o'rtasidagi ishonchni oshiradi.

6. Korporativ madaniyat va brend imidji:

Kompaniyaning shaxslararo munosabatlar strategiyasi nafaqat ichki muhitga, balki tashqi brend imidjiga ham ta'sir qiladi. Netflix, Patagonia kabi kompaniyalar o'zining ijtimoiy va shaxsiy qiymatlarini xodimlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar orqali targ'ib qilishadi.

Netflix kompaniyasi o'zining "freedom and responsibility" (erkinlik va mas'uliyat) madaniyatini rivojlantirishda shaxslararo munosabatlar va kommunikatsiyaning o'rnini yuqori baholaydi. Xodimlar o'rtasidagi ochiq va samimiy munosabatlar ularning kompaniyaga bo'lgan sadoqatini oshiradi va bu o'z navbatida kompaniyaning tashqi brend imidjini mustahkamlaydi.

**Xulosa**

Umuman olganda, shaxslararo munosabatlar inson resurslarini boshqarishning markaziy jihatidir. Tashkilotlar, xodimlar o'rtasidagi salbiy yoki ijobiy aloqalar natijasida katta farq qilishi mumkin. Agar shaxslararo munosabatlar sog'lom, ochiq va qo'llab-quvvatlovchi bo'lsa, bu tashkilotning umumiy ish samaradorligini oshiradi, jamoaviy ruhni mustahkamlaydi va xodimlarning o'zaro ishonchini kuchaytiradi. Demak, inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlar — nafaqat ish muhitining sifatini, balki kompaniyaning muvaffaqiyatini belgilaydigan omil hisoblanadi.

Mashhur kompaniyalar shaxslararo munosabatlarga katta ahamiyat berishadi, chunki bu ularning muvaffaqiyatini ta'minlashda, xodimlarning motivatsiyasini oshirishda, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda va jamoaviy ruhni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Yaxshi shaxslararo munosabatlar nafaqat ichki ish muhitini yaxshilaydi, balki kompaniyaning tashqi brendini ham mustahkamlaydi va uning bozor raqobatbardoshligini oshiradi.

Inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatli ish muhitini yaratishda, xodimlar o'rtasida hamkorlikni va jamoaviy ruhni shakllantirishda, shuningdek, tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yaxshi shaxslararo munosabatlar nafaqat jamoaning ichki atmosferasini yaxshilaydi, balki xodimlarning motivatsiyasi, ishonchi va ishga bo'lgan sadoqatini ham oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Organizational Behavior" by Stephen P. Robbins & Timothy A. Judge

Ushbu kitob inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlar va jamoaviy ishlashni o'rganadi. Kitobda psixologik, ijtimoiy va kommunikatsion

faktorlarga asoslanib, ish muhitidagi munosabatlar va ularning ish samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Nashr yili: 2020 (17-nashr)

2. "Human Resource Management" by Gary Dessler

Bu kitobda inson resurslarini boshqarishning barcha aspektlari, jumladan, shaxslararo munosabatlar va xodimlarning motivatsiyasi, boshqaruvi va jamoaviy ishlashga oid materiallar mavjud.

Nashr yili: 2020 (15-nashr)

3. "The Five Dysfunctions of a Team" by Patrick Lencioni. Lencioni jamoaviy ishlashdagi asosiy muammolarni va shaxslararo munosabatlardagi kamchiliklarni qanday bartaraf etish kerakligini tushuntiradi. Bu kitob jamoa rahbarlari va xodimlarga jamoaviy muammolarni hal qilishda yordam beradi. Nashr yili: 2002

**Abduvohidova Gulshan Akmalovna –** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Menejment kafedrasi assistent-stajori

## HUDUDIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA BIZNES INKUBATORLAR VA ULARNING ROLI

**Annotatsiya:** Maqolada biznes-inkubatorlarning tadbirkorlarni rivojlantirish va rag'batlantirishdagi roli asoslab berilgan. Biznes-inkubatorlar kichik va o'rta korxonalarga kirishga yordam beradi, innovatsiyalar va tadbirkorlarning resurslari, shuningdek, ularning ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardosh bo'lish va iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish uchun yangi korxonalarni boshlash tushuniladi. Shuning uchun innovatsiya va tadbirkorlik inkubatorlarning ikkita asosiy vazifasi yoshlar biznes inkubatorlarini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'nggi yigirma yil ichida inkubatorlar soni tez sur'atlar bilan o'sdi. Dunyo bo'ylab va har bir mintaqada inkubatsiya xizmatlari yoki kuchli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidir. Hozirgi vaqtda muhim maqsad - bu yaratishdir. Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va inkubatsiya funktsiyalarini inkubatsiya qilish uchun yoshlar biznes inkubatorlari aniq. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadi ish o'rinlarini yaratish uchun iqtisodiy rivojlanish vositalari, asosiy qiymat taklifi inkubatorlarga ham bog`liq. Bu yoshlar inkubatorlari yuqori mahsuldorlikka olib keladi, degan umumiy fikrda mujassamlangan. Kamroq biznesdagi uzilishlar bilan ko'proq startaplar yaratish zarur.

**Kalit so'zlar:** biznes inkubator, tadbirkorlik jarayoni, yoshlar biznesi inkubator, raqobatbardoshlik

**Abstract:** The role of business incubators in the development and promotion of entrepreneurs is explained in the article. Business incubators provide access to small and medium-sized enterprises, innovation and entrepreneurial resources, as well as to expand their research and development capabilities, to become competitive and to start new enterprises to promote economic development. Therefore, innovation and entrepreneurship, the two main tasks of incubators, play a decisive role in the creation of youth business incubators. In the last two decades, the number of

incubators has grown rapidly. Incubating services around the world and in every region is the way to develop a strong economy. An important goal now is to create. Youth business incubators are clear to improve the quality of service and to incubate the incubation functions. Many studies show that economic development tools for job creation, the main value proposition, also depend on incubators. This is embodied in the common belief that youth incubators lead to higher productivity. More startups need to be created with less business disruption.

**Key words:** business incubator, entrepreneurial process, youth business incubator, competitiveness.

**Аннотация:** В статье раскрыта роль бизнес-инкубаторов в развитии и продвижении предпринимателей. Бизнес-инкубаторы предоставляют доступ к малым и средним предприятиям, инновационным и предпринимательским ресурсам, а также расширяют их возможности в области исследований и разработок, чтобы стать конкурентоспособными и открывать новые предприятия для содействия экономическому развитию. Поэтому инновации и предпринимательство, две основные задачи инкубаторов, играют решающую роль в создании молодежных бизнес-инкубаторов. За последние два десятилетия количество инкубаторов быстро выросло. Инкубирование услуг по всему миру и в каждом регионе – это путь к развитию сильной экономики. Сейчас важной целью является созидание. Молодежные бизнес-инкубаторы призваны улучшить качество обслуживания и реализовать инкубационные функции. Многие исследования показывают, что инструменты экономического развития для создания рабочих мест, что является основным ценностным предложением, также зависят от инкубаторов. Это воплощено в распространенном убеждении, что молодежные инкубаторы ведут к более высокой производительности. Необходимо создавать больше стартапов с меньшими нарушениями в бизнесе.

**Ключевые слова:** бизнес-инкубатор, предпринимательский процесс, молодежный бизнес-инкубатор, конкурентоспособность.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev yurtimizda agroklasterlar barpo etish masalasi g‘oyasini ilgari surgan edi. Hozirgi kunda klasterlarni tashkil qilish va faoliyatini yuritish borasida asosiy ishlar amalga oshirilib, ular soni 800 tadan oshdi. Olim va mutaxassislarning ko‘pchiligi bu yo‘lni tanlashmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznesning rolini oshirish tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalar va inklyuziv o‘sishni rivojlantirishning muhim strategiyasidir

**Biznes inkubator** — kichik va o‘rta biznesni yuritish malakalari berish va tadbirkorlik madaniyatini tarbiyalash bilan shugullanadigan ixtisoslashgan muassasa. Biznes inkubator, asosan, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarga dastlabki faoliyatida bozor iqgisodiyoti bo‘yicha zarur bilimlarni o‘rgatish, biznes reja tuzish, mablag‘lar topish, xalqarr grantlar olishda ko‘maklashish, tadbirkorlik g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish va joriy etish, shuningdek kichik va o‘rta korxonalarga menejment va marketing xizmatlari, tashkiliy, texnikaviy, iqtisodiy yo‘sindagi xizmatlar ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradi. Biznes inkubator

tadbirkorlik malakalarini rivojlantirish va mahalliy ishbilarmonlarni, shu jumladan yoshlar, ayollar va aholining boshqa guruhlarini xalq xo‘jaligiga jalb etishni kuchaytirish muammolarini yechishga xizmat ko‘rsatadi. Biznes inkubator faoliyat turiga ko‘ra korxona inkubatorlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari, innovatsiya va menejment markazlariga bo‘linadi. Dastlabki Biznes inkubator lar 20-asrning 70 —80 yil lari da AQSH da paydo bo‘ldi. Keyinchalik jahondagi boshqa mamlakatlarda ham keng tarqala boshladi. Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha 2000 dan ortiq yirik Biznes inkubator lar ish olib boradi. O‘zbekistonda birinchi Biznes inkubator 1995-yilda BMTning YUNISKO tashkiloti va Ozbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasining hamkorliqdagi "O‘zbekistonda biznes inkubatorlar tarmog‘ini shakllantirish va rivojlantirish" loyihasi asosida tashkil etildi. Biznes inkubatorlari yangi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga biznesni rivojlantirishda yordam berish maqsadida tashkil etilgan tuzilmalar. Ular yangi boshlovchi tadbirkorlarga o‘z g‘oyalarini amalga oshirishda kerakli resurslar, bilim va ko‘nikmalarni taqdim etadi. Biznes inkubatorlarining asosiy vazifalari va ularning hududda tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli quyidagilardan iborat:

**1. Ta'lim va trening**. Biznes inkubatorlari tadbirkorlarga biznes yuritish, marketing, moliya va boshqaruv kabi sohalarda ta'lim beradi. Bu treninglar yangi tadbirkorlarning bilim darajasini oshiradi va ularga muvaffaqiyatli biznes yaratishga yordam beradi.

**2. Resurslar bilan ta'minlash**. Inkubatorlar tadbirkorlarga ofis joylari, texnologik infratuzilma, kompyuter va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlaydi. Bu resurslar yangi biznesning boshlanishida katta yordam beradi.

**3. Mentorluk va tarmoq yaratish**. Biznes inkubatorlari tajribali mutaxassislar va mentorlar bilan aloqalar o‘rnatishga yordam beradi. Bu esa yangi tadbirkorlarga o‘z g‘oyalarini yanada rivojlantirishda va muvaffaqiyatli biznes modeli yaratishda yordam beradi.

**4. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash**. Ba'zi inkubatorlar investorlar bilan aloqalar o‘rnatishga yordam beradi yoki o‘zlari moliyaviy yordam ko‘rsatishi mumkin. Bu yangi tadbirkorlarning dastlabki bosqichda moliyaviy qiyinchiliklardan qochishlariga yordam beradi.

**5. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish**. Biznes inkubatorlari innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlaydi va yangi texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Bu esa hududda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

**6. Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish**. Biznes inkubatorlari tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning ijodkorligini rag‘batlantirish va muvaffaqiyatli tadbirkorlar misolida ilhomlantirishga yordam beradi.

**7. Ijtimoiy mas'uliyat.** Ko‘plab inkubatorlar ijtimoiy mas'uliyatni ham o‘z zimmasiga oladi, ya'ni ular mahalliy jamoalarga yordam berish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga intiladi.

Biznes inkubatorlari hududda tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular yangi g‘oyalarni amalga oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda tadbirkorlarga zarur yordam ko‘rsatadi. Shu sababli, ularning faoliyati hududning iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Biznes inkubatorlari tadbirkorlik muhitini yaxshilash va yangi g‘oyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslar va qo‘llab-quvvatlashni taqdim etuvchi muhim tuzilmalar hisoblanadi. Ular yangi tadbirkorlarni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. **Ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash sohasida** – tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik sub'yektlarini ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyati sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi ustidan jamoat ekspertizasini tashkil etish va jamoat nazoratini kuchaytirishga keng jalb qilish, jumladan:

- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik muhiti va investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha davlat dasturlari, shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- tadbirkorlik sub'yektlarini ishbilarmonlik muhiti holatini yanada yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga keng jalb qilish, tadbirkorlik tuzilmalari bilan birgalikda me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini, jumladan, sanoat, transport, qurilish, moliya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, savdo va xizmatlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalar bo‘yicha ekspert kengashlarini tashkil etish orqali tashkil etish;
- tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari kafolatlarini mustahkamlash, ularning rivojlanishini rag‘batlantirishni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- respublikamiz tumanlari (shaharlari), viloyatlari kesimida joylardagi ishbilarmonlik muhitining holati hamda qonunchilikdagi me'yorlar va talablarning amalga oshirilishi natijalari bo‘yicha har chorakda tahlil o‘tkazish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli organlarga ularni yaxshilash bo‘yicha tahliliy materiallar va takliflarni taqdim etish talab va takliflari berildi.

**Xulosa va takliflar**

Biznes inkubatorlari hududda tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim vositalardir. Ular yangi g‘oyalarni amalga oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda yordam beradi. Bu inkubatorlar orqali tadbirkorlar o‘z faoliyatlarini muvaffaqiyatli boshlashlari va rivojlantirishlari uchun zarur bo‘lgan barcha resurslarga ega bo‘ladilar.

- Mahalliy hukumat va tashkilotlar tomonidan yangi inkubatorlarni ochish va mavjudlarini kengaytirish, shuningdek, ularning infratuzilmasini yaxshilashga e'tibor qaratish.
- Yangi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar, subsidiyalar va investitsiya dasturlarini yaratish.
- Inkubatorlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va tajribalarni almashish uchun seminarlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish.
- Inkubatorlar orqali ijtimoiy mas'uliyat loyihalarini amalga oshirish, bu esa mahalliy jamoalarga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.
- Tadqiqot institutlari, universitetlar va biznes inkubatorlari o‘rtasida hamkorlikni

rivojlantirish, bu esa innovatsiyalarni yanada rag‘batlantiradi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali hududda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta'minlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tormysheva T. A. Razvitiye biznes-inkubatorov v usloviyakh postroyeniya rossijskoj innovatsionnoj ekonomiki [Development of business incubators in the conditions of creation of the Russian innovative economy]: avtoref. dis. … kand. ekon. nauk. M., 2013.

2. Tormysheva T. A. Rol' biznes-inkubatorov v innovatsionnom razvitii Rossii [Role of business incuba tors in innovative development of Russia]. URL: http//www.rair-info.ru PUBLIKATSII RAIR.

3. Ioda E. V., Ioda Yu. V. Formirovaniye innovatsionnoj infrastruktury v regione: podkhody k resheniyu «starykh» problem [Formation of innovative infrastructure in the region: approaches to the solution of «old» problems] // Vestnik Samarskogo munitsipal'nogo instituta upravleniya, 2015. № 2. S. 45-55.

4. Chep'yuk O. R. Studencheskij biznes-inkubator kak chast' innovatsionnoj sistemy universiteta [Student's business incubator as part of innovative system of the uni versity] // Innovatsii № 6 (188), 2014, S. 21-24.

5. Ioda E. V., Kuznetsova E. Yu. Malye innovatsionnye predpriyatiya na baze vuzov kak instrument razvitiya innovatsionnoj ekonomiki [The small innovative enterprises on the basis of higher education institutions as the instrument of development of innovative economy] // Sotsial'no-ekono-micheskiye yavleniya i protsessy. 2015. T. 10. № 11. S. 29-33.

6. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

**Abduvohidova Gulshan Akmalovna** - SamISI,Menejment kafedrasi assistant stajyori

## XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INTELLEKTUAL RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*"Intangib foyda"* deganda, moddiy jihatdan qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan, lekin iste'molchilarga bevosita yoki bilvosita qoniqish va foyda yetkazadigan xizmatlar nazarda tutiladi. Bu turdagi foydalar moddiy mahsulotlar kabi aniq ko'rinishga ega emas, lekin ular insonlar va tashkilotlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

1. **Yaxshi xizmat ko'rsatish tajribasi** — mijozning qoniqishi va brendga sadoqati oshadi.
2. **Maslahatlar va bilimlar** — maslahat beruvchi xizmatlar orqali kompaniyalar samaradorlikni oshirishi mumkin.
3. **Tibbiy xizmatlar** — bemorning sog'lig'ini yaxshilash, bu esa to'g'ridan-to'g'ri moddiy foyda emas, balki intangib sog'liq yutug'i hisoblanadi.
4. **Ta'lim xizmatlari** — bilim va ko'nikmalar ortishi, bu esa keyinchalik ish faoliyatida foyda beradi.
5. **Raqamli xizmatlar** — onlayn qo'llab-quvvatlash, texnik yordam, yoki kontent yetkazib berish orqali mijozlar qulaylikka ega bo'lishadi.

Xizmatlarning intangib foydasi ularni moddiy mahsulotlardan ajratib turadi, chunki ular mijozlarning hayot sifatini, bilim darajasini va umumiy qoniqishini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori nafaqat iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni ta'minlaydi, balki jamiyatning turli sohalarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Xizmatlar iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatdan rivojlanishni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. **Kotler, Philip**, *Marketing Management* (16th edition)
2. **Zeithaml, Valarie A., Bitner, Mary Jo, Gremler, Dwayne D.**, *Services Marketing: Integrating Customer Focus Across the Firm*
3. **Grönroos, Christian**, *Service Management and Marketing: Managing the Service Profit Logic*



**Qilichov Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li –** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Menejment kafedrasi assistent-stajori


## XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIY ASOSLARI


**Annotatsiya:** Xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorligini baholash uslubi, zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Ushbu uslub yordamida xizmatlar sifatini o‘lchash, mijozlarning ehtiyojlarini qondirish darajasi va xizmat ko‘rsatish jarayonidagi samaradorlikni aniqlash mumkin. Samaradorlikni baholash uslubi iqtisodiy resurslarni to‘g‘ri va samarali taqsimlashga yordam beradi, natijada tashkilotlarning bozor raqobatbardoshligini oshiradi. Xizmat ko‘rsatish sohasida samaradorlikni baholash uchun bir qator analitik usullar, metodlar va ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos afzalliklarga ega. Ushbu maqolada samaradorlikni baholashning asosiy metodologik yondashuvlari va ularning amaliyotdagi qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.



**Kalit so‘zlar:** Xizmat ko‘rsatish sohasi, Samaradorlikni baholash, Tahlil usullari, Iqtisodiy samaradorlik, Resurslarni taqsimlash, Raqobatbardoshlik,

Ko‘rsatkichlar, Metodologiya.

**Abstract**: The method of assessing the effectiveness of the service sector plays an important role in the modern economy. With the help of this method, it is possible to measure the quality of services, the level of satisfaction of customer needs and determine the efficiency of the service process. The method of assessing effectiveness helps to correctly and efficiently allocate economic resources, which, as a result, increases the market competitiveness of organizations. There are a number of analytical methods, techniques and indicators for assessing effectiveness in the service sector, each of which has its own advantages. This article considers the main methodological approaches to assessing effectiveness and their application in practice.

**Keywords:** Service sector, Effectiveness assessment, Analytical methods, Economic efficiency, Resource allocation, Competitiveness, Indicators, Methodology.

**Аннотация:** Методика оценки эффективности сферы услуг занимает важное место в современной экономике. С помощью этого метода можно измерить качество услуг, уровень удовлетворения потребностей клиентов и эффективность процесса обслуживания. Метод оценки эффективности помогает правильно и эффективно распределять экономические ресурсы, как следствие, повышает рыночную конкурентоспособность организаций. Существует ряд аналитических методов, приемов и показателей оценки эффективности в сфере услуг, каждый из которых имеет свои преимущества. В данной статье рассматриваются основные методические подходы к оценке эффективности и их практическое применение.

**Ключевые слова:** Сфера услуг, Оценка эффективности, Аналитические методы, Экономическая эффективность, Распределение ресурсов, Конкурентоспособность, Показатели, Методология.

Xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini baholash korxonaning xizmat sifatini, mijoz qoniqishini, moliyaviy ko‘rsatkichlarni va raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Quyida xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini baholash uslubiy asoslari, ko‘rsatkichlari va asosiy baholash usullari haqida batafsil ma’lumot keltiriladi.

**1. Xizmat ko‘rsatish samaradorligini baholashning mohiyati**

Xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini baholash korxonaning faoliyati natijalari va qo‘yilgan maqsadlar orasidagi moslikni aniqlashga yordam beradi. Samaradorlikni baholash orqali korxona mijozlarning qoniqish darajasini, xizmat sifatini, iqtisodiy samaradorlikni va boshqaruvning muvaffaqiyat darajasini aniqlaydi. Bu jarayon orqali korxona o‘z faoliyatini yanada samaraliroq yo‘lga qo‘yishi, xizmat sifatini oshirishi va moliyaviy natijalarni yaxshilashi mumkin.

**2. Xizmat ko‘rsatish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari**

Xizmat ko‘rsatish samaradorligini baholashda bir necha asosiy ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Ular korxonaning har xil jihatlarini qamrab oladi va quyidagi asosiy toifalarga bo‘linadi:

**a) Moliyaviy ko‘rsatkichlar**

1. **Daromad va foyda koʻrsatkichlari**: Korxonaning umumiy daromadi, sof foydasi, operatsion foydasi, rentabellik va foyda marjasi.

2. **Xarajatlar**: Xizmat koʻrsatish jarayonidagi xarajatlar, ular samaradorlikni oshirish uchun optimallashtirilishi kerak.

3. **Rentabellik**: Moliyaviy natijalar orqali xizmat koʻrsatishning iqtisodiy foydasini baholaydi.

**b) Sifat koʻrsatkichlari**

1. **Xizmat sifati**: Mijozlarning xizmat sifatiga boʻlgan qoniqishi, xizmatning toʻgʻri va tez bajarilishi.

2. **Mijoz qoniqishi**: Mijozlardan olingan soʻrov natijalari, ularning taklif va mulohazalari asosida aniqlanadi.

3. **Xizmatni takroran sotish darajasi**: Doimiy mijozlar soni va ularga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifati koʻrsatkichi.

**c) Ishlab chiqarish va operatsion samaradorlik koʻrsatkichlari**

1. **Xizmat koʻrsatish jarayoni tezligi**: Xizmat koʻrsatish jarayonining davomiyligi va mijozlar xizmatdan qancha tez foydalanishi.

2. **Ish hajmi**: Xizmat koʻrsatish korxonasi bajaradigan xizmat hajmi, xizmatlar soni.

3. **Avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasi**: Xizmat koʻrsatishda qoʻllaniladigan texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlari samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

**d) Xodimlar samaradorligi koʻrsatkichlari**

1. **Xodimlarning ish unumdorligi**: Xodimlarning xizmat koʻrsatishdagi samaradorligi, ishlab chiqarish unumdorligi.

2. **Xodimlar qoniqishi va motivatsiya**: Xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar, ularning ishga boʻlgan qiziqishi va motivatsiyasi.

3. **Malaka va bilim darajasi**: Xodimlarning bilim va tajriba darajasi, malaka oshirish kurslaridan oʻtishi.

**e) Mijoz bilan aloqalar va xizmatning barqarorligi koʻrsatkichlari**

1. **Mijozlarni jalb qilish va ushlab turish**: Yangi mijozlarni jalb qilish darajasi va mavjud mijozlarni saqlab qolish koʻrsatkichi.

2. **Mijozga xizmat koʻrsatish vaqtida kechikishlar**: Xizmat koʻrsatishda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan kechikishlar darajasi.

3. **Shikoyatlar va muammolar**: Mijozlar tomonidan bildirgan shikoyatlar soni va ularning hal etilishi.

**3. Xizmat koʻrsatish samaradorligini baholash usullari**

**a) Moliyaviy tahlil** Moliyaviy tahlil orqali korxonaning iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Bu usul orqali daromad va xarajatlarni tahlil qilish, foyda va rentabellik koʻrsatkichlarini baholash mumkin. Moliyaviy tahlil xizmat koʻrsatish korxonalarining umumiy moliyaviy holatini aniqlashga yordam beradi va kelgusida qanday choralar koʻrish kerakligini belgilashda muhim oʻrin tutadi.

**b) Soʻrovnoma va mijoz mulohazalari tahlili** Mijozlar qoniqishini baholashda soʻrovnomalar va mulohazalar tahlili asosiy oʻrin tutadi. Ushbu usul mijozlarning xizmat sifatiga nisbatan fikrlarini toʻplash va ularning talab va ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu sohada **NPS (Net Promoter**

**Score)** va **CSI (Customer Satisfaction Index)** kabi indekslar keng qo‘llaniladi.

**c) KPI (Kalit ko‘rsatkichlar) tahlili** Xizmat ko‘rsatish samaradorligini baholashda asosiy ko‘rsatkichlar tahlili (KPI) qo‘llaniladi. KPI orqali xodimlarning va xizmat ko‘rsatish jarayonining samaradorligi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligi va sifat ko‘rsatkichlari baholanadi. KPI tahlili xizmat ko‘rsatish sohasidagi samaradorlikni baholashda korxona strategik maqsadlariga erishish jarayonini kuzatish imkonini beradi.

**d) Benchmarking (mezonlash)** Benchmarking usuli orqali xizmat ko‘rsatish korxonasi o‘z ko‘rsatkichlarini boshqa korxonalarning o‘xshash ko‘rsatkichlari bilan taqqoslaydi. Bu usul yordamida raqobatbardoshlik darajasi aniqlanadi va eng yaxshi tajribalarni o‘rganib, ularni joriy qilish imkoniyati yaratiladi.

**e) Operatsion tahlil** Operatsion tahlil xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini baholash uchun qo‘llaniladi. Bunda xizmat ko‘rsatish jarayonining davomiyligi, xizmat hajmi va kechikishlar tahlil qilinadi. Bu usul xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish va vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi.

**f) Xodimlar samaradorligi tahlili** Xodimlar samaradorligini baholash uchun xodimlar ish unumdorligi va motivatsiyasini aniqlash mumkin. Xodimlarning malaka darajasi, xizmat ko‘rsatish madaniyati va mijozlarga ko‘rsatgan e’tibori ularning samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

**4. Xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar**

Xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- **Mijoz qoniqishini doimiy ravishda o‘rganish va kuzatish**: Mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq o‘rganish va ularning takliflarini hisobga olish.
- **Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish**: Bu xizmat ko‘rsatish jarayonini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.
- **Xodimlar malakasini oshirish**: Xodimlarni muntazam ravishda o‘qitish va motivatsiya berish, ularni xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun tayyorlash.
- **Sifat nazoratini joriy etish**: ISO sertifikatsiyalari kabi sifat standartlariga rioya qilish xizmat sifatini nazorat qilish imkoniyatini beradi.
- **Xizmat jarayonini doimiy optimallashtirish**: Operatsion jarayonlarni tahlil qilib, ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish va samaradorlikni oshirish.

Xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini baholash xizmatlar sifatini oshirish, mijozlarning qoniqishini ta’minlash va moliyaviy natijalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Bunda turli baholash usullaridan foydalanish korxonaga o‘z samaradorligini real baholash va uni oshirish uchun muhim ma’lumotlarni beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. **Keller, K. L. & Kotler, P.** (2016). *Marketing Management*. Pearson Education.

2. **Parasuraman, A., Zeithaml, V. A., & Berry, L. L.** (1985). *A Conceptual Model of Service Quality and Its Implications for Future Research*. *Journal of Marketing*, 49(4), 41-50.

3. **Grönroos, C.** (1984). *A Service Quality Model and Its Marketing Implications*. *European Journal of Marketing*, 18(4), 36-44.

4. **Zeithaml, V. A., Bitner, M. J., & Gremler, D. D.** (2009). *Services Marketing: Integrating Customer Focus Across the Firm*. McGraw-Hill.
5. **Lovelock, C. H., & Wirtz, J.** (2011). *Services Marketing: People, Technology, Strategy*. Pearson Education.
6. **Kotler, P., & Keller, K. L.** (2015). *Marketing Management*. 15th ed., Pearson.
7. **Bateson, J. E. G., & Hoffman, K. D.** (2011). *Services Marketing: Concepts, Strategies, & Cases*. Cengage Learning.
8. **Sampson, S. E., & Froehle, C. M.** (2006). *Foundations and Implications of Service Factories*. *Production and Operations Management*, 15(2), 266-282.

**Qilichov Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li –** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Menejment kafedrasi assistent-stajori
**Xoldarova Sadoqat Farkhadovna-** Samarqand Iqtisodiyot va serves instituti talabasi

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Anatatsiya:** Mazkur maqolada hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanish hamda xizmat ko‘rsatish intensivligi ta’minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy – iqtisodiy mexanizimni takomillashtrish alohida dolrzab masala hisoblanadi.
**Kalit so‘zlar:** xizmat, Xizmat ko‘rsatish, raqamli iqtisodiyot, samaradorlik.
**Abstract:** In this article, in the context of the transformation of the economy, the improvement of the socio-economic mechanism for increasing efficiency in ensuring the continuous sustainable development of service enterprises and the intensity of service provision is a particularly urgent issue.
**Keywords:** service, Service provision, digital economy, efficiency
**Аннотация:** В данной статье в условиях трансформации экономики особое значение приобретает непрерывное развитие предприятий сферы услуг и совершенствование социально-экономического механизма повышения эффективности обеспечения интенсивности услуг.
**Ключевые слова:** сервис, предоставление услуг, цифровая экономика, эффективность.

**Kirish.** Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘z mazmuniga ko‘ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish,zamonaviy tarmoqlarning shakillanishi bilan bog‘liq bo‘lgan inson kapitalini rivojlantrish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mexnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasini ta’minlash bo‘yicha xo‘jalik faoliyatning turli yo‘nalishlarini qamram oladi.

Shunga ko‘ra, xizmati ko‘rsatish korxonalari faoliyatining samaradorligini

oshirish hamda ular faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligi oshirish, resuslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyatini samaradorligini ta’minlash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liqroq qondirish bilan bog‘liq masalalar soha rivojlanishining muhim muammolari hisoblanadi.

Shuningdek, soha korxonalarining xalqaro bozorlardagi xizmatlar sifati va raqobatbardoshliligini oshirish hamda xizmatlar eksporti hajmini ko‘paytirish respublikamizda iqtisodiy o‘sishga erishishda muxim axamiyatga ega.

**Mavzuga doir adabiyotlar sharxi.** Q.X.Abdurahmonov, SH.R.Xolmo‘minov, A.B.Hayitov,A.M Akbarov. Xodimlarni boshqarish nomli o‘quv qo‘llanmasidan korxona va tashkilotlarni shakillantirish inson omili, xodimlarni va inson resuslarni boshqarish strategiyasi, xodimlar bilan ishlashni boshqarish, xodimlarning xizmat-kasb jihatidan o‘sib borishni boshqarish, kadrlar tizimidagi yangiliklarni boshqarish, xodimlar xafsizligini boshqarish, xizmat martabasini boshqarish, boshqaruv xodimlari mehnatini tashkil etish kabi bir qator muomolar yoritib berilgan.

**Asosiy qism.** Iqtisodiy o‘sish, servis iqtisodiyoti rivojlanishi, xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini,xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishi omillari, zamonaviy xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari,zamonaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish,mexnat unimdorligini o‘sishi, personalning innavatsion rivojlanishi bilan bog‘liq.

”Xizmat” tushunchasining aniqroq ta’rifini keltiradigan bo‘lsak, bizningcha, **“xizmat** uni bajaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi bevosita o‘zaro aloqalrning natijasi bo‘lib iste’molchining talabini qondirish bo‘yicha bajaruvchining foydali faoliyatida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir “ ta’kidlash kerakki, xizmat tushunchasini ko‘rib chiqishda xizmatlar bozorini davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositalaridan biri sifatida xizmatlarni standartlashtirishga alohida e’tibor qaratadi. Xizmat ko‘rsatishda standartlar kimyoviy tozalash, kir yuvish, mexmoxona biznesi,aloqa,sug‘urta, bank, savdo, transport xizmatlari, avtomobillarga xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda qo‘llanishi mumkin.

**Natija va tahlil:** Xizmatlar bozorida talabning barqarorligi sharoitida xizmatlarni saqlash muhim hisoblanmaydi. Biroq talabning o‘zgarib borishi natijasida korxonaning xizmat ko‘rsatishi va faoliyatining rentebelligi bilan bog‘liq qiyinchiliklar va muomolar yuzaga keladi. Xizmatlar bozorini rivojlantrishning **transversallik** tamoyili. Ushbu tamoyil xizmat ko‘rsatish sohasida infratuzilmaviy va institutsional cheklovlarni bartaraf etish, hududiy iqtisodiy munosabatlarni rivojlantrish bo’yich maqsadli dasturlarni ishlab chiqarish hamda realizatsiy qilish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantrishda an’analar va innovatsiyalarnini gintegratsiyasini ta’minlash kabilarini o‘z ichiga oladi.




Yuqorida ko'rsatilgan grafikda raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘llari aks ettirilgan. Grafikda turli yo'nalishlarda amalga oshirilgan o'zgarishlarning samaradorlik o'sishi foizlarda ifodalangan:

- Texnologiyalarni joriy etish: 80%
- Ma'lumot analitikasi va sun'iy intellekt (AI): 85%
- Ish jarayonlarini avtomatlashtirish: 75%
- Mijozlar bilan raqamli aloqalar: 90%
- Xodimlarni rivojlantirish: 70%
- Xizmatlar sifatini oshirish: 95%

Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar korxonalarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, mijozlar bilan raqamli aloqalar va xizmatlar sifatini oshirish kabi yo‘nalishlar yuqori samaradorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega

**Xulosa va takliflar.** Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining menejerlari uchun muhim muammo – bu samaradorlik hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mehnat unumdorligini oshirish – bu ham davlat darajasida, ham korxona darajasida belgilanadigan muhim maqsaddir. Ta’kidlash mumkinki, mehnat unumdorligini oshirmasdan samaradorlikni oshirish bu qoniqarsiz natijalarga erishishning ancha oson yo‘llarini topishning o‘zginasidir. Xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat unumdorligini oshirish vazifasi nafaqat uning oshishi, balki ko‘p jihatdan rahbariyatning harakatlari natijasi bo‘lib hisoblanadigan baholash bilan ham bog‘liq bo‘ladigan o‘ziga xos murakkabliklarni namoyon qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi yana bir muhim o‘ziga xos xususiyatlardan biri shundan iboratki, bunda ko‘plab xizmatlarni ko‘rsatish mulkchilik huquqlarining o‘rin almashuvisiz va xizmatlarning iste’molchilari hamda ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishisiz amalga oshirilishidir.

Ko‘plab xizmatlar moddiylashgan bo‘lmagani va nomoddiy qiymatliklar bilan munosabatlarga egaligi sababli buyumlarga bo‘lgan mutlaq huquq kabi mulkchilik

huquqi ham an’anaviy, tipik xizmatlarning nomoddiy, ko‘zga ko‘rinmaydigan tabiati bilan bog‘liq bir qancha murakkabliklarga duch keladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘pchilik vaziyatlarda nisbiy huquq, ya’ni bir tomondan, ishlab chiqaruvchining iste’molchiga talablari huquqi va ishlab chiqaruvchiga nisbatan iste’molchilarning majburiyatlari, ikkinchi tomondan esa iste’molchining ishlab chiqaruvchiga nisbatan talablari huquqi va ishlab chiqaruvchining iste’molchiga nisbatan majburiyatlari amal qiladi. Xizmatlarni ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitlariga mulk huquqi muayyan darajada iste’molchining huquqlari bilan cheklanadi va bu yerda nozik huquqiy munosabatlar rivojlanadi. Ular iste’molchiga yetkazilgan ziyon o‘rnini qoplash majburiyati xizmatlarni ko‘rsatuvchining yoki mulk egasining zimmasiga yuklatilishini ko‘zda tutib, bunda xavfsizlik talablariga yetarlicha darajada rioya qilmaslik anchagina zarar keltirishi mumkin bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Баринов Н.А. Указ. Соч. – С. 17.

2.Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, З.Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. – Москва: КНОРУС, 2007. – 328 с.

3.Веснин В.Р. Управление персоналом. Теория и практика. – Москва: Проспект, 2011. – 688 с.

4.Q.X.Abdurahmonov,SH.R.Xolmo‘minov, A.B.Hayitov,A.M Akbarov. Xodimlarni boshqarish.Darslik.T.O‘zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg‘armasi nashiryoti,2005,240 b,

5.Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество и культура: Пер. с англ. Под. ред. О.И. Шкаратана. – Москва : ГУВШЭ, 2000.

## VII YO‘NALISH. “YASHIL” IQTISODIYOT

**I.f.d. prof. Mahmudov N.M.** - TDIU, Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrasi professori
**Shomirzayev A.A.** - TerDU, Iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktoranti
**L.Azimova** - TTYSI, ilmiy tadqiqotchisi
Tel:+998907492142. E-mail: shomirzaevabdugaffor@gmail.com

# SANOAT TARMOQLARINI “YASHIL” IQTISODIYOT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI (Surxondaryo viloyati misolida)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda “yashil” iqtisodiyot va sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotning ahamiyati va Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatlari xususida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** “yashil” iqtisodiyot, “yashil” ishlab chiqarish, ishlab chiqarish salohiyati.

**Аннотация:** В данной диссертации выражено значение «зеленой» экономики в развитии «зеленой» экономики и отраслей промышленного производства, а также потенциал и возможности промышленного производства Сурхандарьинской области.

**Ключевые слова:** «зеленая» экономика, «зеленое» производство, производственный потенциал.

**Abstract:** In this thesis, the importance of the "green" economy in the development of the "green" economy and industrial production sectors and the industrial production potential and opportunities of the Surkhandarya region are expressed.

**Key words:** "green" economy, "green" production, production potential.

“Yashil” iqtisodiyot atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda ko‘proq amaliy xususiyatga ega. “Yashil” iqtisodiyot ilm-fan sohasi emas, balki ustun darajada real iqtisodiy siyosat, aniq iqtisodiy faoliyat sohalari (energetika, innovatsia, qishloq xo‘jaligi va b.)ga aloqador hamda u nazariy jihatdan xo‘jalik yuritish tizimini “yashillashtirish”ning umumiy strategiyasini ishlab chiqish va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berish bilan shug‘ullanadi[131].

Sanoat tarmoqlarini “yashil” iqtisodiyot asosida shakllantirish hamda rivojlantirish barqaror rivojlanish va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. “Yashil” qitisodiyot atrof muhitni himoya qilish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Sanoat tarmoqlari esa iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlari yaratishda asosiy ro‘l o‘ynaydi. “Yashil” iqtisodiyotning asosiy maqsadi sanoat tarmoqlarining atrof muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishga e’tibor qaratishdir. Misol tariqasida, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

[131] Vahobov A.V. Xajibakiyev Sh.X. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020. 12 b

jarayonlarida energiya sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu nafaqat xarajatlarni, balki, atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni ham minimallashtiradi. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyot, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish orqali sanoat tarmoqlarida innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va chiqindilarni kamaytirish orqali sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi.

Surxondaryo viloyati sanoat tarmoqlarini “yashil” iqtisodiyot asosida rivojlantirish va viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun viloyatning hali ishga solinmagan ulkan salohiyati mavjud.

**1-jadval**

**Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari**[132]

| № | | **2020- y.** | **2021- y.** | **2022- y.** | **2023- y.** | **2024- yil yanvar-sentabr*** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m | 5322,7 | 6675,3 | 7229,8 | 8848,6 | 9809,3 |
| 2 | Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o‘sish sur`ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda | 106,7 | 109,7 | 104,2 | 106,3 | 108,8 |
| | **Shu jumladan:** | | | | | |
| 3 | Qazib oluvchi sanoat, mlrd. so‘m | 212,5 | 245,9 | 222,0 | 246,2 | 282,0 |
| 4 | Qayta ishlovchi sanoat, mlrd. so‘m | 4747,0 | 5967,1 | 6382,3 | 7832,4 | 8828,7 |

* yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

Yuqoridagi jadvaldan shuni anglash mumkinki, sanoat mahsulotlari hajmi pandemiyadan keyingi davrda ba’zi yillarda o‘sish suratining sekinlashishi kuzatilgan bo‘lsada, o‘sishda davom etayotganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, viloyatning qazib olish hamda qayta ishlash sanoatlari asosiy sanoat ishlab chiqarish

[132] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlariga asosan muallif ishlanmasi

tarmoqlari sirasiga kirishi bilan birga, pandemiyadan keying davrda muntazam o‘sish suratiga ega bo‘lgan, so‘ngi yillarda ushbu tarmoqlar mos ravishda 14,5 % va 12.7% o‘sish suratiga ega bo‘lgan.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatini sanoat sohasini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va ulkan salohiyat borligini alohida qayd etib o‘tish lozim. Sherobod tumanida Xo‘jaikon tuz konidagi mavjud mineral tuzlarni qayta ishlab oliy navli osh tuzi, texnik tuz, NaCl-eritmalari ishlab chiqarish mumkin. Bugungi kunda Davlat Geologiya qo‘mitasi tasarrufidagi 38,6 mln tonna mineral tuz zaxirasiga ega kon mavjud. Mazkur hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar kondan deyarli foydalanmay kelmoqda. Muammo: “Xo‘jaikon-Tuz” MCHJ kondan foydalanish uchun litsenziya olgan bo‘lib, ostki qismidan foydalanish imkoniyati berilmagan. Berilgan litsenziyaga tegishli tartibda o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq ish bo‘ladi[133].

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatida yiliga 8,5 tonnagacha yod va 180 tonnagacha brom olish imkoni mavjudligi aniqlangan. Ammo, yod va bromni qayta ishlab kristall yod, kaliy yodit va kimyo va farmakalogiya uchun brom ishlab chiqarish bugungi kungacha yo‘lga qo‘yilmagan[134].

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vahobov A.V. Xajibakiyev Sh.X. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020.
2. surxondaryo.uz - Surxondaryo viloyati hokimligi ochiq ma’lumotlar partali.
3. surxonstat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi.

**Avezov Humoyun Ilxomovich –** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tayanch doktoranti

## QISHLOQ XO‘JALIGIDA YONG‘OQ ISHLAB CHIQARISH TUSHUNCHASINING MAZMUNI, TARKIBI VA UNI IFODALOVCHI MUHIM JIHATLARI

***Annotatsiya.*** *Hozirgi kunga qadar o‘quv adabiyotlari va ilmiy nashrlarda qishloq xo‘jaligida yong‘oq yetishtirish va yong‘oq ishlab chiqarish tushunchalariga aniq ta’rif keltirilmagan bo‘lib bu esa ko‘p hollarda bu ikki terminlarni sinonnim sifatida ishlatilishi ommalashgan. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida yong‘oq ishlab chiqarishining umumiy xususiyatlari va farqli jihatlari nazariy tahlil qilingan. Qishloq xo‘jaligida meva o‘stirish, yetishtirish, ishlab chiqarish, qayta ishlash kabi bosqichlar umumiyligi va farqlari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Yong‘oq yetishtirish,, yong‘oq ishlab chiqarish, qayta ishlash, yetkazib berish zanjiri, qiymat zanjiri, eksport.*

[133] Surxondaryo viloyati hokimligi ochiq ma’lumotlar partali
[134] Surxondaryo viloyati hokimligi ochiq ma’lumotlar partali

***Авезов Хумоюн Ильхомович*** *-Ташкентский государственный экономический университет, Самаркандский филиал, докторант*

# СОДЕРЖАНИЕ, СТРУКТУРА И КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ПОНЯТИЯ ПРОИЗВОДСТВА ГРЕЦКОГО ОРЕХА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

***Аннотация.*** *До сих пор в учебной литературе и научных публикациях не дано четкого определения понятий выращивание грецкого ореха и производство ореха в сельском хозяйстве, поэтому эти два термина часто используются как синонимы. В данной статье теоретически анализируются общие черты и различные аспекты концепции производства грецкого ореха в сельском хозяйстве. Приведены общие черты и различия таких этапов, как выращивание, выращивание, производство, переработка фруктов в сельском хозяйстве.*

***Ключевые слова:****. Выращивание грецкого ореха, производство грецкого ореха, переработка, цепочка поставок, цепочка создания стоимости, экспорт.*

***Avezov Humoyun Ilhomovich*** *- Samarkand branch Tashkent State University of Economics, PhD student*

# CONTENT, STRUCTURE, AND KEY ASPECTS OF THE CONCEPT OF WALNUT PRODUCTION IN AGRICULTURE

***Annotation.*** *Until now, educational literature and scientific publications have not provided a clear definition of the concepts of walnut cultivation and walnut production in agriculture, which is why these two terms are often used as synonyms. In this article, the common features and different aspects of the concept of walnut production in agriculture are theoretically analyzed. Commonalities and differences of stages such as fruit growing, cultivation, production, processing in agriculture is given.*

***Key words:*** *Walnut cultivation, walnut production, processing, supply chain, value chain, export.*

**Kirish.**

Qishloq xo‘jaligi boshqa tarmoqlardan farqli ravishda, o‘ziga xos xususiyatlari mavjud . Bunda texnik- texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy biologik jarayonlarning chambarchas bog‘liqligini kuzatish mumkin. Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyati yerdan asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanishdir. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalaridan sezilarli farq qiladi. Bu farqlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

Birinchidan, yer tabiat mahsulidir. Bundan farqli o‘laroq, boshqa ishlab chiqarish vositalari inson faoliyati natijasi hisoblanadi. Hozirgi kunda insoniyat allaqachon tuproq o‘rnini bosuvchi o‘simliklarning ildizlari ozuqaviy eritma berish orqali yetishtirish gidroponika usulini yaratishgan, Biroq, gidroponika yordamida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi juda kam.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga qaraganda, mahsulotlarning tovarlilik darajasi nisbatan kamroq hisoblanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning katta qismi qishloq xo‘jaligi korxonalarida qoladi, bozorga kirmagan holda ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatiladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yana bir xususiyati-ishlatiladigan mehnat vositalarining sekin aylanishi. Gap shundaki, qishloq xo‘jaligida mehnat vositalarining ko‘p turlari faqat ma’lum bir vaqt ichida qo‘llaniladi.

**Adabiyotlar tahlili.**

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish masalasi bo‘yicha jahon va yurtimiz olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bular jumlasiga O. Murtazayev, Ergashev R.X., Shakirov F.K., Z. A. Artukmetov, Mustafakulov, SH. I., Korolev Yu.B., Pastuxov, A. Madvaliyev A.K., Ванькевич А. И, Я. В. Воронина, И. П. Чупина, Barrick, R. K. Harmon, H. L. kabilarni misol keltirish mumkin. Mualliflarning tegishli ilmiy ishlarida Ishlab chiqarishning mohiyati, mazmuni, shakllanish bosqichlari, uni takomillashtirish bo‘yicha tegishli omilllar qarab chiqilgan. Ammo ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi, ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari yetarli darajada yoritib berilmagan. Shu sababli mazkur ishning mavzusi hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, abstrakt fikrlash, monografik kuzatish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.**

Har qanday kategoriyaning mazmun va mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan yoritib berish uchun uning ta’rifini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Bu masalada olimlar va sohaga aloqador mutaxassislarning fikr va qarashlari, shuningdek belgilangan qonun va qonun osti hujjatlarda ta’riflar turlicha. (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**Ishlab chiqarishning ta’rifi va tushunchalari bo‘yicha turli olimlar fikrlari**

| | Berilgan ta’riflar | Manba |
|---|---|---|
| . | **Ishlab chiqarish** — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar) ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste’mol va investitsiyalar uchun mo‘ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Ishlab chiqarish faqat mahsulot Ishlab chiqarishdan iborat bo‘lmay, balki taqsimot, ayirboshlash va iste’molni ham o‘z ichiga oladi | O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Beshinchi jild. Toshkent, 2002-yil |

| | | |
|---|---|---|
| . | **ISHLAB CHIQARUVCHI** Iste’molchilarga yetkazib berish, sotish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor | Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati.<br>A. Madvaliyev [va boshq.] I 26 Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati– Toshkent: “SAHHOF” nashriyoti, 2021. 109-b |
| . | **Ishlab chiqarish** - bu asosiy (mehnat va kapital) va oraliq ishlab chiqarish omillari (xom ashyo, materiallar va boshqalar) yordamida har qanday mahsulotni yaratish jarayoni. | Производство // Малый энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. — 2-е изд., вновь перераб. и значит. доп. — Т. 1—2. — СПб., 1907—1909. |
| . | Ishlab chiqarish - bu inson va tabiat o‘rtasidagi almashishning o‘ziga xos turi bo‘lib, aniqroq aytganda, odamlar tomonidan tabiiy resurslarni har qanday mahsulotga faol aylantirish jarayoni hisoblanadi | Производство. Национальная экономическая энциклопедия. Дата обращения: 15 мая 2020. Архивировано 25 ноября 2015 года. |
| . | Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi deganda tegishli xizmatlar ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish, ishlab chiqarish va qayta ishlash bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari majmui tushuniladi. | Федеральный закон от 29.12.2006 N 264-ФЗ (ред. от 25.12.2023) "О развитии сельского хозяйства" |
| . | **Ishlab chiqaruvchi** — iste’molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkor. | O‘zbeksiton Respublikasining 26.04.1996 yildagi 221-I-sonli “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonuni 1-modda |
| . | Dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan urug‘lik, mineral o‘g‘itlar hamda yoqilg‘i-moylash materiallarini sotib olishda, shuningdek boshqa moddiy resurslar hamda xizmatlardan foydalanishda boshqa qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bilan teng huquqlarga egadir. | O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil1-apreldagi O‘RQ-680-sonli “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida” gi Qonuni 12-moddasi. |
| . | Ishlab chiqarish - barcha tarmoqlar moddiy ishlab chiqarishining umumlashgan shakli bo‘lib, ishlab chiqarish uchun shart-sharoit - ishlab chiqarish vositalari va iste’mol buyumlarini ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish sohasiga sanoat, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, transport, aloqa, energetika, savdo, umumiy ovqatlanish, xo‘jalik omborxonalari va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, ilmfan (innovatsion) yutuqlari kiradi. | Mustafakulov, SH. I. Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati [Matn] : lug‘at / SH.I. Mustafakulov, O.A. Raximberdiyev, M.SH. Egamberdiyeva - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019 188-b. https://genderi.org/download/sh-i-mustafakulov-o-a-raximberdiyev-m-sh-egamberdiyeva-iqtisod.doc |

| | | |
|---|---|---|
| . | Ishlab chiqarish jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddiy ne'matlarni yaratish jarayonidir. | Маркс К., Капитал, Соч., 2 изд., т. 12, с. 713) |
| 0. | **Ishlab chiqarish** - Muayyan ijtimoiy munosabatlar sharoitida kishi mehnati tufayli jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar yaratish.<br>Ratsionalizatorlar tomonidan yaratilgan yangiliklar ishlab chiqarishda keng qo‘llanmoqda. *Gazetadan*<br>**Ishlab chiqarmoq**<br>Mahsulot tayyorlamoq.<br>- Stendlarga talabalar o‘ylab topgan, yasagan, ijod qilgan va ishlab chiqargan turli buyumlar tartibi bilan qo‘yilgan. *Gazetadan* | Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati.<br>A. Madvaliyev [va boshq.] I 26<br>Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati– Toshkent: “SAHHOF” nashriyoti, 2021. 109-b. |
| 1. | Qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarish sohalaridan biri bo‘lib, u dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanadi - aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo‘jaligining bir necha tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlaydi**.** | Z. A. Artukmetov. Qishloq xo‘ jaligi asoslari. «o‘zbeklston faylasuflar milliy jamlyati» nashriyoti toshkent – 2012. 3-b. |
| 2. | Dehqonchilik-o‘simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o‘simliklar (qishloq xo‘jaligi ekinlari)ni yetishtirish; qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri. | Ermatov A., Dehqonchilik. Toshkent., 1990. 25-bet. |
| 3. | **REALIZATSIYA** [lot. realis – moddiy, haqiqiy] 1 Ma’lum bir reja, loyiha, dastur, maqsadni amalga oshirish, turmushga tatbiq etish. 2 iqt. Tovar va molmulk sotish, mol-mulk yoki qimmatbaho qog‘ozlarni pulga aylantirish. | IJTIMOIY-SIYOSIY TERMINLARNING QISQACHA IZOHLI LUG‘ATI.<br>A. Madvaliyev [va boshq.] I 26<br>Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati– Toshkent: “SAHHOF” nashriyoti, 2021. 109-b. |

Ishlab chiqarish odamlarning mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy tovarlar (tovar va xizmatlar) yaratish faoliyatini anglatadi. Ishlab chiqarish jarayonida har bir ishlab chiqarish ishtirokchisi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, shaxs jamiyatdan ajratilgan holda amalda mahsulot ishlab chiqara olmaydi. Ko‘pgina tovarlarni ishlab chiqarish uchun insonning jismoniy imkoniyatlaridan tashqari, materiallar va texnologiyalar ham zarur hisoblanadi. Ba’zi odamlar ishlab chiqarish uchun shart - sharoit yaratsalar, boshqalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Oddiy qilib aytganda, ishlab chiqarish jarayoni sotish uchun mo‘ljallangan mahsulotni yaratish nuqtasidir. Iqtisodiyot nazariyasida bu jarayon mahsulot yaratish deb ataladi.

Ishlab chiqarish jarayonini tadqiq etishda quyidagilarni yodda tutish zarur hisoblanadi:

- ishlab chiqarish jarayoni nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi;

- ishlab chiqarish har doim iste'molchilarni nafaqat mahsulot, balki xizmatlar bilan ham ta’minlaydi;

- qayta ishlash jarayoni qayta ishlanadigan mahsulotga qo‘shimcha qiymat yoki foyda qo‘shishni anglatadi;

- odamlar, texnika va mehnat vositalari qayta ishlash jarayonining manbai va asosidir.

Ishlab chiqarish iqtisodiy jarayon bo‘lib, unda ishlab chiqaruvchi iste'mol uchun tovarlar yaratadi. Tovar ham moddiy, ham nomoddiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Chunki xizmat xizmat ko‘rsatishning o‘zi ham ishlab chiqarish obyekti sifatida bo‘lishi mumkin. Bunga parallel ravishda, infratuzilma ham keng ma’noda, foydalanuvchiga ega bo‘lmasada lekin u ham ishlab chiqariladi.

Iqtisodiy faoliyatning barcha turlari ikki guruhga birlashtirilgan: moddiy ishlab chiqarish sohasi va ijtimoiy-madaniy soha.







**1-rasm. Moddiy ishlab chiqarish sohasi. 2-rasm. Ijtimoiy-madaniy soha.**

Jadval va rasmlardan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish va uning mazmunini ifodalash bo‘yicha turli xil yondashuvlar mavjud ekan. Ushbu ta’riflarda bir qancha umumiylikka ega. Bular: Avvalo, ishlab chiqarish bir necha bosqichli jarayon, shuningdek, har qanday ishlab chiqarish moddiy va nomoddiy shakldaligi. Yana bir umumiylik esa barchasida inson omili ishtiroki asosida ishlab chiqarish amalga oshirilishi takidlangan. Bunday qarashlar o‘z-o‘zidan shakllanib qolmagan. Iqtisodiyotning har qanday tarmog‘i vujudga kelishi va rivojlanishing asosi qaysidir ko‘rinishdagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, shu qatorda qishloq xo‘jaligida ham asosiy o‘rinni egallaydi. Bulardan kelib chiqqan holda qishloq xo‘jaligida yong‘oq ishlab chiqarish bo‘yicha o‘z ta’rifimizni shakllantirishga harakat qilamiz. Yong‘oq (*Juglans regia L.*) — yong‘oqdoshlar oilasiga mansub daraxt turi, yong‘oqmevali daraxt [1].

**Yong‘oq ishlab chiqarish deganda, yong‘oq yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va uni realizatsiya qilishdan iborat jarayonlar majmui tushuniladi**. Ushbu ta’rifning mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchidan, yong‘oq yetishtirishning o‘ziga ishlab chiqarish sifatida qarash va bu tushunchalarni sinonim sifatida ishlatish noo‘rin hisoblanadi. Sabab: Yong‘oq deyarli barcha mintaqalarning tabiiy o‘rmonlarida insoniyat tomonidan iste’molga kiritilguniga qadar bir necha ming yillar davomida yetilib kelgan va davom etmoqda. Faqatgina o‘z iste’moli va daromad olish maqsadida ehtiyojidan ko‘proq

miqdorda yetishtirilgan va hosili ma’lum qismi sotuvga yo‘naltirilgandagina bu to‘laqonli yong‘oq ishlab chiqarish jaryoni sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, yong‘oq yetishtirishning o‘zi bir necha bosqichni qamrab olgan faoliyat hisoblanadi. Bular : Yong‘oqzorlar tashkil qilish uchun joy tanlash; ko‘chat yetishtirish; ko‘chatni payvandlash; payvand qilingan ko‘chatni ko‘chirib o‘tkazish va boshqalar. Umuman olganda hozirda ilmiy adabiyotlarda yong‘oq yetishtirish va yong‘oq o‘stirish tushunchalari keng miqyosda sinonim sifatida qo‘llanilib kelinmoqda [2] va bu nisbatan to‘g‘ri deyishimiz mumkin.

**Yong‘oq ishlab chiqarish tarkibi nimalardan iborat?**

“Resurs-Mahsulot” modelidan foydalanib, yong‘oq ishlab chiqarishni qayta ishlash jarayoni sifatida ko‘rsatish mumkin. Bunda iste'molchilar uchun mo‘ljallangan kerakli mahsulotni kerakli shakl va ko‘rinishda ishlab chiqarishda resursga qiymati qo‘shiladi. Ehtimol, bu eng soddalashtirilgan ta’rif, ammo u ishlab chiqarishning mohiyati to‘g‘risida amaliy tushuncha beradi va yong‘oq ishlab chiqarishning iqtisodiy modeli uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yong‘oq ishlab chiqarishning asosiy jihatlaridan biri bu xo‘jalik sotib olgan yoki mavjud resurs (yong‘oq)larni keyinchalik iste'molchilarga muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirishdir. Bu sizning mijozlaringiz mahsulotingizni raqobatdosh mahsulotlarga nisbatan qimmatroq deb bilishini anglatadi. Shuning uchun ishlab chiqarishga qo‘shimcha qiymat qo‘shadigan qayta ishlash jarayoni sifatida qarash mumkin.

*Ushbu jarayonni sxematik ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:*




Korxona, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning vazifasi ishlab chiqarish omillarini (xarajatlarini) kirim sifatida qabul qilish, ularni qayta ishlash va tayyor mahsulotni (natijani) ishlab chiqarishdan iborat. Bu esa umumiy ***ishlab chiqarish*** faoliyati deb ataladi.

1. **Resurslar** ishlab chiqarish jarayoni yo‘lga qo‘yilishi uchun resurslar mavjud yoki sotib olingan bo‘lishi kerak. Ular turli xil shaklda bo‘lishi mumkin: ba’zilari ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha ishlatiladi, boshqalari esa uzoq muddat davomida foydalaniladi. Bular qatoriga yer, ishchi kuchi, materiallar, uskunalar, yetishtirilgan chaqilmagan yong‘oq, mehnat vositalari va shu kabilarni kiritish mumkin.

**2. Ishlab chiqarish jarayonida** boshlang‘ich resurslar tayyor mahsulotga aylanadi. Bu bosqichda qayta ishlash usullari va asosiy operatsiyalar faol tarzda ishlaydi. U kundalik va uzoq muddatli qarorlar qabul qilishni, kata hajmdagi

faoliyatni, ishchi kuchlari va ularning vaqtini va turli faoliyatlarni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishni raqazo etadi. Shu o‘rinda ishlab chiqarish jarayonidagi har bir faoliyat alohida mustaqil amalga oshirilmasligini takidlash lozim. Ishlab chiqarish jaroyonidagi elementlar uzviy bog‘liq bo‘lishiga qaramasdan malakali boshqaruvni talab etadi.

3. **Tayyor mahsulot** ishlab chiqarishning oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi. Xo‘jalik ishlab chiqargan tayyor mahsulot har doim o‘ziga xos mahsulot bo‘lsada, lekin xizmat ko‘rsatish iste’molchi nazarida mahsulotga qiymat qo‘shadigan element hisoblanadi. Ishlab chiqarishning asosiy vazifasi resurslarni raqobatchilaringizga qaraganda iste'molchilar uchun ko‘proq qiymatga ega tayyor mahsulotga aylantirishdir.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib bizning fikrimizcha yong‘oq ishlab chiqarish va yong‘oq yetishtirish o‘rtasidagi asosiy farq quyidagicha:

1. **Yong‘oq yetishtirish** – bu yong‘oq daraxtlarini parvarishlash va meva olish jarayonidir. Bu jarayon yong‘oq urug‘larini ekish, daraxtlarni parvarish etish, sug‘orish va hosilni yig‘ib olish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi. Yong‘oq yetishtiruvchilar o‘z bog‘larida hosil olish uchun turli agronomik texnikalarni qo‘llaydi.

2. **Yong‘oq ishlab chiqarish** – bu yetishtirilgan yong‘oqlarni qayta ishlash, tozalash, qadoqlash va bozorga chiqarish jarayonidir. Bu jarayonda yong‘oqlar iste’molchilarga yetkazib berish uchun tayyorlanadi. Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar mahsulotni tozalash, quritish, maydalash yoki qadoqlash bilan shug‘ullanadi va uni ommaviy yoki chakana bozorlar uchun tayyorlaydi.

Shunday qilib, yong‘oq yetishtirish o‘simlikni parvarishlash va meva olishga qaratilgan bo‘lsa, yong‘oq ishlab chiqarish tayyor mahsulotni bozorlarga chiqarish uchun tayyorlashga qaratilgan.

**Xulosa va takliflar**

Yong‘oq ishlab chiqarish tushunchasining mazmun - mohiyati, tarkib - tuzulishi va uni ifodalovchi ko‘rsatkichni aniqlash yo‘llarini tadqiq qilish natijasida bir qancha xulosalarga kelindi va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotini, aholisining farovonligini ta’minlashda, uning raqobatbardoshligini oshirishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi muhim rol o‘ynamoqda. Bulardan kelib chiqib, Yong‘oq ishlab chiqarish bo‘yicha ta’rif shakllantirildi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri bo‘lgan inson kapitalining tarkibi haqida turli qarashlar mavjud. Shulardan kelib chiqqan holda, inson kapitalining tarkibi, ularning bog‘liqligi o‘rganib chiqildi.

Yong‘oq ishlab chiqarish tashkil etishda ekish va yoki yetishtirishdan tashqari qayta ishlash saralash qadoqlash, mahsulotni saqlash va realizatsiya jarayonlari ham mujassam bo‘lish kerakligi asoslandi. Tadqiqotlar davomida yong‘oq yetishtirish va ishlab chiqarishning farqli jihatlarini asoslashda qo‘shimcha yana bir yondashuv shakllantirildi. Bu yondashuvda asosan ishlab chiqarish bir necha bosqichli murakkab jarayon ekanligi va yetishtirish esa bu jarayonning bir qismi sifatida qarash zarurligiga ahamiyat berildi.

Dunyo aholisining ortib borishi, ularning ehtiyojlarining ham ortib borishiga

asos bo‘ladi. Bu tabiiy ekologik muhitning ham o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababli insonlarning bilim, saviya, tajribasi resurslardan samarali foydalanish lozimligini belgilaydi. Bu esa ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish qishloq xo‘jaligidagi subyektlar rivojlanishining asosidir. Demak yong‘oq ishlab chiqarishning mohiyatini anglash, to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish dolzarb masalalardan biridir.

***Manba va foydalanilgan adabiyotlar:***

**1.** O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Uchinchi jild. Toshkent, 2002-yil.

**2.** Umurzakov E.U., Po‘latov O.A., Abdulloyev K.T. Grek yong‘og‘i (Juglans regia L.). Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2023. – 224 b.

**3.** Производство // Малый энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. — 2-е изд., вновь перераб. и значит. доп. — Т. 1—2. — СПб., 1907—1909.

**4.** Производство. Национальная экономическая энциклопедия. Дата обращения: 15 мая 2020. Архивировано 25 ноября 2015 года.

**5.** Avezov, H. (2023). SAMARQAND VILOYATIDA YONG‘OQ ISHLAB CHIQARISH VA UNING SAMARADORLIGI MASALALARI. Iqtisodiyot Va ta’lim, 24(1), 452–456. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a70

**6.** Avezov Kh. (2023). ANALYSIS OF VALUE CHAIN OF WALNUT IN MOUNTAIN AND SUB-MOUNTAIN AREAS OF UZBEKISTAN. POLISH JOURNAL OF SCIENCE, 68, 22–29. https://doi.org/10.5281/zenodo.10132212

**7.** Khumoyun Avezov, Theoretical and methodological aspects of formation of walnut value chain development, August 24 Special Issue SJIF 8.001 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512 Journal of Management Value & Ethics

**Djumaboyeva Nodira Yuldashevna -** Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi Assistant o‘qituvchi, *Tel:90-123-44-27*
E-mail: yuldashevna1310@gmail.com

## «YASHIL» IQTISODIYOT. O‘RTA OSIYO MINTAQASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi ahamiyati va unga o‘tishning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Mintaqaning qazib olinadigan yoqilg‘i resurslariga qaramligi, suv resurslarining cheklanganligi, ekologik zararlar hamda yashil texnologiyalarning yetishmovchiligi asosiy muammolar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Bu muammolarni hal qilish yo‘lida qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish, suv resurslarini samarali boshqarish va ekologik me’yorlarni kuchaytirish kabi yechimlar taklif qilinadi. Yashil iqtisodiyotning rivoji mintaqaning barqaror va ekologik xavfsiz kelajagini ta’minlashda muhim omil sifatida tavsiflanadi.

**Kalit so‘zlar:** Yashil iqtisodiyot, O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, qayta tiklanadigan energiya, suv resurslari, ekologik muammolar, yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье анализируется важность зелёной экономики и актуальные проблемы её внедрения в Узбекистане и Центральной Азии. Основные вызовы включают зависимость региона от ископаемых видов топлива, нехватку водных ресурсов, экологический ущерб и недостаток зелёных технологий. В качестве решений предлагается использование возобновляемых источников энергии, эффективное управление водными ресурсами и усиление экологических норм. Развитие зелёной экономики рассматривается как ключевой фактор для обеспечения устойчивого и экологически безопасного будущего региона.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, Узбекистан, Центральная Азия, возобновляемая энергия, водные ресурсы, экологические проблемы, зелёные технологии, устойчивое развитие.

**Abstract:** This book in detail examines the role of the green economy and urgent questions of its transition in the Republic of Uzbekistan and Central Asia. Main challenges facing the region involve dependence on fossil fuels, scarce water resources, environmental degradation, and lack of green technologies. Correspondingly, possible solutions include transfer to renewable sources of energy, efficient water management, and reinforcement of environmental regulations. It is maintained that the green economy's development is just that very factor which will guarantee a sustainable, ecologically safe future of the region.

**Keywords:** Green economy, Uzbekistan, Central Asia, renewable energy, water resources, environmental issues, green technologies, sustainable development.

**Kirish.**

Global iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar dunyo bo‘ylab yashil iqtisodiyotga o‘tish zaruratini oshirmoqda. Yashil iqtisodiyot, ya’ni barqaror va ekologik toza iqtisodiy model, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari tabiiy resurslarga nisbatan boy bo‘lishiga qaramay, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Suv resurslarining cheklanganligi, qazib olinadigan yoqilg‘ilarga qaramlik va ekologik holatlardan kelib chiqayotgan zararlar bu hududda yashil iqtisodiyotga o‘tishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhimligi, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, suv resurslaridan samarali foydalanish va yashil texnologiyalarga investitsiya kiritish muhim omillar sifatida qaraladi.

Yashil iqtisodiyot-bu mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ekologik zararlarni minimallashtirish va barqaror rivojlanishga intilish tamoyiliga asoslangan iqtisodiy modeldir. Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston, katta tabiiy resurslarga ega bo‘lsada, bu resurslardan uzoq muddatli foydalanuvchi barqaror iqtisodiyotni

shakllantirishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

**Muammolar.**

***Energiya resurslariga qaramlik***. O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar ko‘proq qazib olinadigan yoqilg‘i resurslariga, xususan gaz va neftga tayanadi. Bu iqtisodiy model atrof-muhitga katta zarar yetkazadi. Sanoat va energetika sohalaridagi texnologiyalar eskirgan bo‘lilb, ular ko‘p miqdorda zararli gazlar va boshqa chiqindilar ajratadilar.

***Suv resurslarining yetishmovchiligi***. Markaziy Osiyo mintaqasi qurg‘oqchil hududlar hisoblanib, suv yetishmovchiligi katta muammolardan biri. Orol dengizining qurishi va boshqa suv xavzalaridagi suv zahiralarining keskin kamayib borishi mintaqada ekologik falokatlarga olib kelmoqda. Bu muammolar dehqonchilik va suvga bog‘liq boshqa sohalarni barqaror rivojlanishini xavf ostiga qo‘ydi.

***Atrof-muhit ifloslanishi***. O‘zbekiston va qo‘shni davlatlarda sanoat rivojlanishi bilan bog‘liq ekologik zararlar, jumladan havo, tuproq va suv havzalarining ifloslanishi va chiqindi boshqaruvi muammolari mavjud. Sanoat chiqindilari, kimyoviy moddalar va qishloq xo‘jaligida pestitsidlarning keng qo‘llanishi tuproq va suv manbalarining zaharlanishiga olib kelmoqda.

***Yashil texnologiyalar yetishmasligi***. Ko‘plab davlatlar yashil iqtisodiyotni shakllantirish uchun yangi energiya manbalarini tadbiq etishmoqda. Ammo O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari bunday texnologiyalarni keng joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu sohadagi qoidalar va tashabbuslar yetarli darajada shakllanmagan.

***Yashil texnologiyalarni joriy etish va undan keng ko‘lamda foydalanishni ta’minlashda malakali kadrlar yetishmovchiligi.*** Mamlakatga zamonaviy yashil texnologiyalarga asoslangan texnologik uskunalarni olib kirish hamda ulardan oqilona foydalanish nafaqat katta miqdordagi moliyaviy investitsiyalar kiritish, balki bunday tenologiyalardan maksimal ravishda unimli foydalanishni ta’minlab beruvchi yetuk kadrrlarni voyaga yetkazishni taqozo etadi.

**Yechimlar.**

***Yangilangan energiya manbalariga o‘tish***. Quyosh, shamol va suv energetikasi Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O‘zbekiston quyosh energiyasidan foydalanishda ijobiy qadamlar tashlamoqda. Bu yo‘nalishda ko‘proq investitsiyalarni jalb qilish va innovatsiyalarni joriy qilish zarur.

Quyosh energiyasidan foydalanishni moliyalashtirishning O‘zbekistondagi holatiga e'tibor beradigan bo‘lsak, joriy yilda banklar 116 MVtlik quyosh panellarini sotib olish uchun jami 1 trln 52 mlrd so‘m, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlariga 740,8 mlrd so‘m (86 MVt) va aholiga 311,7 mlrd so‘m (30 MVt) kreditlar ajratdi.

Shuningdek, mintaqada shamol energiyasidan foydalanish miqyosini yanada kengaytirish juda ahamiyatlidir. Birgina O‘zbekistonda shamol energiyasidan foydalanishning texnik potensiali 100-500 milliard kVt./soatgacha yetadi. Lekin shamol energiyasi quyoshga nisbatan doimiy mavjud bo‘lishi undan foydalanishda afzallikni oshiradi.

2024-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qorao‘zak tumanida quvvati

100 megavatt, Buxoro viloyatining Peshku va G‘ijduvon tumanlarida har birining quvvati 500 megavattdan bo‘lgan 2 ta (jami 1 000 MVt) va Navoiy viloyatining Tomdi tumanida quvvati 500 megavatt bo‘lgan sanoat miqyosidagi jami 4 ta shamol elektr stansiyalari ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

***Suv resurslarini samarali boshqarish***. Suvdan oqilona foydalanish Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi uchun muhim. Tomchilab sugorish, suvni qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish orqali suv resurslari yetishmovchiligi muammosini kamaytirish mumkin. Orol dengizi hududida ekologik tiklanish loyihalari mintaqaning ekologik barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Suv tanqisligi tobora kuchayayotgan bugungi zamonda mamlakatimizda uni qadrlash, tejab foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda 472 ming gektar yer tomchilatib va 48 ming gektari yomg‘irlatib sug‘orishga o‘tkazildi, 97 ming gektarda boshqa suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi. 649 ming gektar yer lazerli tekislandi.

Shunday chora-tadbirlar natijasida birgina 2023 yilda 2 milliard kub metr suv tejalgan.

**Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish:**

**Nazariy ahamiyat:** Qayta tiklanadigan energiya manbalarining (quyosh, shamol, gidroenergetika) iqtisodiy va ekologik ta’sirlarini chuqur tahlil qilish yashil iqtisodiyot nazariyasini boyitadi. Ushbu manbalardan foydalangan holda energiya ishlab chiqarish usullarini optimallashtirish yangi ilmiy ishlanmalarni talab qiladi.

**Amaliy tavsiyalar:** Ishlab chiqarish istiqbollari O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida quyosh energiyasidan keng foydalanish uchun imkoniyatlar mavjud. Investitsiyalarni jalb qilish va energetika infratuzilmasini rivojlantirish orqali qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish zarur. Bu jarayonda xalqaro tajriba va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish amaliy yechimlar sifatida xizmat qiladi.

**Suv resurslaridan samarali foydalanish va boshqarish:**

**Nazariy ahamiyat:** Ilmiy tadqiqotlar olib borish, suv yetishmovchiligi va qurg‘oqchilik muammolarini yechishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish suv resurslaridan foydalanishni samarali tashkil etish imkonini beradi.

**Amaliy tavsiyalar:** Suv tejovchi texnologiyalarning keng qo‘llanilishi, masalan, Markaziy Osiyoda tomchilatib sug‘orish tizimlaridan qo‘llanilishi, suvni qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun zarurat mavjud.

Mintaqaviy hamkorlikning transchegaraviy suv resurslari boshqaruvi bo‘yicha kuchaytirilishi ushbu masalani hal etish muhimdir.

**Ekologik standartlar va huquqiy me'yorlarni kuchaytirish:**

**Nazariy ahamiyat:** Huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar tahlili, barqaror rivojlanish va ekologik tozalikni ta’minlash uchun, ekologik qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini iqtisodiyotning barcha sohalariga tadbiq qilish uchun ilmiy asos yaratiladi.

**Amaliy tavsiyalar:** Sanoat va qishloq xo‘jaligidagi ekologik xavfsizlikka doir qat'iy qoidalari joriy etish zarur. Chiqarilayotgan chiqindilar va ularning atrof-muhitga ta’sirini nazorat qilish bo‘yicha davlat va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ecologik standartlarga rioya qilmagan korxonalarga

moliyaviy jazolarni oshirish ham muhim yechim bo‘lisi mumkin.

**Yashil texnologiyalarni keng joriy etish:**

**Nazariy ahamiyat:** Ilmiy tadqiqotlar yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘lida yangi yondashuvlarni taklif qilishi lozim. Ayniqsa, chiqindisiz texnologiyalar, energiya samarador texnologiyalari bo‘yicha innovatsion g‘oyalar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish nazariyasini yanada boyitadi.

**Amaliy tavsiyalar:** Yashil texnologiyalarni joriy etish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish zarur. Innovatsion yechimlar, masalan, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samarador texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq qilish iqtisodiyotning turli sohalarida ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi.

**Ixtisoslashgan xalqaro tajriba va hamkorlikni kengaytirish:**

**Nazariy ahamiyat:** Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirishda xalqaro tajriba va muvaffaqiyatli yashil iqtisodiy modelni o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

**Amaliy tavsiyalar:** Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jumladan, Jahon banki va BMTning Barqaror rivojlanish dasturlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, yashil iqtisodiyotga oid texnologiyalar va texnikaviy yordamni jalb qilish kerak. Shu bilan birga, xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yashil iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish mintaqa uchun foydali bo‘ladi.

Mazkur taklif va tavsiyalar O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirish, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Yashil texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishida milliy kadrlarni o‘qitish:**

**Amaliy tavsiyalr:** Markaziy Osiyo mintaqasidagi muammolarning uzviy bog‘liqligini inobatga olib, yashil texnologiyarni chuqur o‘rganuvchi yagona ilmiy markaz yaratish; ilg‘or chet el davlatlari tajribalarini tahlil qilgan holda va mintaqadagi ekologik holatdan kelib chiqqan mavjud muammolarni xal etishga qaratilgan yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash kelgusida mintaqada joriy etilayotgan yangi texnologiyalarga o‘tish, ushbu texnologiyalardan maksimal oqilona foydalanish uchun o‘ta foydali omil hisoblanadi.

**Xulosa.**

Yashil iqtisodiyot O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari uchun nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Mintaqaning qazib olinadigan yoqilg‘ilarga qaramligi, suv resurslarining yetishmovchiligi va atrof-muhit ifloslanishi yashil iqtisodiyotga o‘tishni kechiktirib bo‘lmas muammoga aylantirmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, suv resurslarini samarali boshqarish, ekologik me'yarlarni kuchaytirish va yashil texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida xalqaro tajriba va hamkorlikning ahamiyati katta. Xalqaro moliyaviy institutlar va ilmiy markazlar bilan yaqin hamkorlik qilib, innovatsion texnologiyalar va barqaror rivojlanish

dasturlarini keng joriy etish orqali mintaqaning kelajagi ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

Мирзиёев, Ш.М. О стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах. — Т.: УзА, 2017. — 48 с.

Корженевский, А.В. Основы зеленой экономики. — М.: Экономика, 2018. — 256 с.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligining rasmiy sayti ma’lumotlari 2023-2024 yillar.

Программа Организации Объединённых Наций по окружающей среде (ЮНЕП). Зеленая экономика в Центральной Азии. — Женева: ООН, 2020. — 112 с.

**Ibragimov I.H. -** Marketing kafedrasi dotsenti i.f.n. SamISI
**Musabaeva L.A.** – Iqtisodyi tahlil va statistika kafedrasi katta o‘qituvchi SamISI

## “YASHIL” IQTISODIYOT: KONSEPSIYA, ASOSIY TAMOYILLAR VA RIVOJLANISH YOLLARI

**Annotatsya:** Maqolada yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va maqsadlari, uning barqaror rivojlanish uchun ahamiyati, qayta tiklanadigan energiya va yashil texnologiyalarning roli ko‘rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish hayot sifatini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish va uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha strategik echimlar muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik texnologiyalar, energiya tejash, qayta ishlash, iqlim o‘zgarishi.

## "ЗЕЛЕНАЯ" ЭКОНОМИКА: ПОНЯТИЕ, ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И ПУТИ РАЗВИТИЯ

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные принципы и цели зеленой экономики, ее значение для устойчивого развития, а также роль возобновляемых источников энергии и зеленых технологий. Обсуждались стратегические решения для улучшения качества жизни, создания новых рабочих мест и обеспечения долгосрочной экологической устойчивости с переходом к зеленой экономике.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии, экологические технологии, энергосбережение, переработка отходов, климатические изменения.

## "GREEN" ECONOMY: CONCEPT, BASIC PRINCIPLES AND DEVELOPMENT PATHS

**Abstract**: The article discusses the basic principles and goals of the green economy, its importance for sustainable development, as well as the role of renewable energy sources and green technologies. Strategic solutions were

discussed to improve the quality of life, create new jobs and ensure long-term environmental sustainability with the transition to a green economy.

**Keywords**: green economy, sustainable development, renewable energy sources, environmental technologies, energy efficiency, waste recycling, climate change.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi yondashuvlar tobora ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada **"yashil iqtisodiyot"** (green economy) tushunchasi keng tarqalmoqda. "Yashil iqtisodiyot" atamasi, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning barqaror shaklini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy tizimni ifodalaydi. Yashil iqtisodiyot global issiqlikni kamaytirish, tabiiy resurslarni samarali boshqarish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish maqsadlarini o‘z ichiga oladi.

**Material va metod. Yashil iqtisodiyot kontsyasi.** Yashil iqtisodiyot – bu ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik manfaatlarni uyg‘unlashtirgan iqtisodiy modeldir. U insoniyatning barqaror va ekologik xavfsiz rivojlanishini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslarni tejash va energiya samaradorligini oshirishdir. Bu iqtisodiyot modeli iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning yangi yo‘nalishlarini taqdim etadi.

**Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlari:**

- **Atrof-muhitni muhofaza qilish:** Atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash.
- **Resurslarni samarali boshqarish:** Tabiiy resurslarni uzluksiz ravishda foydalanishni ta’minlash, masalan, qayta tiklanadigan energiyalardan foydalanish.
- **Ijtimoiy barqarorlik:** Yashil iqtisodiyot jamiyatda tenglikni, barqaror ish o‘rinlarini yaratishni va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirishni maqsad qiladi.

**Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari**

Yashil iqtisodiyotda bir qator tamoyillar mavjud bo‘lib, ular jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.

**Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish asosidir.** Barqaror rivojlanish — bu hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini ham inobatga olish tamoyilidir. Yashil iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish atrof-muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi, ya’ni resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish ta’minlanadi.

**Energiyani samarali boshqarish.** Yashil iqtisodiyotda energiya samaradorligi muhim o‘rin tutadi. Bu energiya tejash va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish orqali amalga oshiriladi. Quyosh, shamol va boshqa yashil energiya manbalarini keng qo‘llash kerak.

**Yashil texnologiyalarni rivojlantirish.**Yashil iqtisodiyotda ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Yashil texnologiyalar ekologik izni kamaytiradi va resurslarni tejashga yordam beradi. Masalan, energiyani tejovchi qurilmalar, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari va toza energiya tizimlari.

**Resurslardan samarali foydalanish.** Tabiiy resurslar kam bo‘lgan dunyo

sharoitida ularni tejash va ularning muvozanatini ta’minlash kerak. Yashil iqtisodiyot resurslardan maksimal samarali foydalanish, ularni qayta ishlash va uzluksiz ta’minlash tamoyiliga asoslanadi.

**Yashil iqtisodiyotning asosiy sohalari:**

**Qayta tiklanadigan energiya manbalari.** Yashil iqtisodiyotning eng asosiy sohasi bu qayta tiklanadigan energiya manbalaridir. Quyosh, shamol, geotermal, biokütle kabi energiya manbalari, tabiiy resurslarga nisbatan yanada samarali va ekologik toza hisoblanadi. Bularning barchasi, karbon chiqindilarini kamaytirishda va issiqxona gazlarining konsentratsiyasini pasaytirishda muhim o‘rin tutadi.

**Atrof-muhitni muhofaza qilish.** Yashil iqtisodiyotning atrof-muhitni himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalari ham katta ahamiyatga ega. Bu, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash, biologik xilma-xillikni saqlash kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Bunday tizimlar ekologik barqarorlikni ta’minlaydi va tabiiy resurslarni himoya qiladi.

**Yashil qurilish va urbanizatsiya.** Yashil iqtisodiyotda yashil qurilish va urbanizatsiya ham muhim ahamiyatga ega. Bunga energiya samarali binolar qurish, tabiiy resurslardan foydalanishni minimallashtirish, karbon chiqindilarini kamaytirish va ekologik toza materiallar ishlatish kiradi. Buning natijasida, shaharlar va qishloqlardagi atrof-muhitga bo‘lgan ta’sir sezilarli darajada kamayadi.

**Natijalar. Yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari:**

**Yangi ish o‘rinlari yaratish.** Yashil iqtisodiyot yangi sanoatlar va texnologiyalarni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi. Masalan, qayta tiklanadigan energiya sektorida, yashil qurilish va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

**Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.** Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishni hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu iqtisodiy model ekologik toza sanoatni rivojlantirish va tabiiy resurslarni samarali boshqarish orqali uzoq muddatda iqtisodiy foyda keltiradi.

**Sog‘liqni saqlashni yaxshilash.** Yashil iqtisodiyotda atrof-muhitni himoya qilish va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish orqali havo sifatini yaxshilash va sog‘liqni saqlash tizimlarini mustahkamlash mumkin. Masalan, ifloslangan havoning salbiy ta’sirlarini kamaytirish sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytiradi.

**Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun strategiyalar:**

**1. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash.** Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida raqamli texnologiyalarni, masalan, aqlli shaharlar, aqlli tarmoq tizimlari, elektron avtomobillarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

**2. Yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish.** Yashil iqtisodiyotga o‘tishda yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish zarur. Hukumatlar va xususiy sektor tomonidan yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni bozorda tatbiq etishga qaratilgan siyosatlar ishlab chiqilishi kerak.

**3. Ta’lim va jamoatchilikni xabardor qilish.** Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun ta’lim va jamoatchilikni xabardor qilish zarur. Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik haqida keng omma ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Bu orqali jamiyatning yashil iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqishi va ishtiroki oshadi.

Yashil iqtisodiyot – bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Ushbu model dunyo bo‘ylab iqlim o‘zgarishlariga, resurslarning kamayishiga va atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish uchun qabul qilinmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun turli xil yechimlar ko‘rib chiqiladi.

**Xulosa.** Yashil iqtisodiyot – bu global ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi va barqaror iqtisodiy modeldir. Yashil iqtisodiyot orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va yangi ish o‘rinlarini yaratish mumkin. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yaxshi rejalashtirilgan va qo‘llab-quvvatlangan bo‘lishi zarur.

**Adabyiotlar ro‘yxati:**


1. **Smith, M.** "Digital Transformation in Education," Springer, 2020.*The role of technology in the transition towards a green economy by increasing energy efficiency and resource management.*
2. **Usmonova, B. Yu.** "Raqamli Ta’lim: Konsepsiyalar, Innovatsiyalar va Tajribalar," Tashkent: "Fan va Texnologiyalar", 2021.*This work discusses digital solutions in managing green economy policies.*
3. **Henderson, A., and Piazzese, K.** "Learning with Digital Technologies," Routledge, 2019.*An exploration of how technology can contribute to sustainable energy solutions and green economy models.*
4. **Uzbekistan's National Strategy for Sustainable Development 2020-2030**/ *The official strategy by the government of Uzbekistan focused on green economy policies, renewable energy, and sustainable development.*
5. **"Paris Agreement,"** UN Framework Convention on Climate Change, 2015. *An international treaty that aims to reduce global carbon emissions and promote a green economy through global cooperation.*
6. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi, "Yashil Iqtisodiyotga o‘tish va uning rivojlanishi," 2021.** *The official document by the Ministry of Higher and Secondary Special Education of Uzbekistan outlining national green economy transition strategies.*
7. **European Commission, "A European Green Deal," 2019.** *A roadmap by the EU to achieve a green economy by focusing on renewable energy, energy efficiency, and resource circularity.*
8. **Uzbekistan's Law on Renewable Energy Sources, 2020.** *National legislation focusing on promoting the use of renewable energy sources in Uzbekistan as part of the green economy transition.*
9. **Global Trends in Green Economy, OECD, 2022.** *An analysis of global green economy trends, focusing on the role of renewable energy and green technologies in sustainable development.*

**Karimov Shamsiddin Akram o‘g‘li** – yetakchi mutaxassis Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi, +99890 99617996
leo_shk96@mail.ru

# YASHIL KREDITLARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tish masalalari, yashil iqtisodiyotga o‘tishning dolzabrliligi hamda uning asosiy moliyalashtirish mexanizmlari keltirilgan. Shuningdek, maqolda banklarning yashil iqtisodiyotda tutgan o‘rni, yashil banklar va yashil kredit liniyalarning ortib borishi keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:*** *barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiy o‘sish, bank, tijorat banki, investitsiya, kredit, yashil bank, yashil kredit, yashil moliyalashtirish, ESG tizimi.*

**Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы перехода к зеленой экономике в условиях устойчивого экономического развития, актуальность перехода к зеленой экономике и основные механизмы ее финансирования. В пословице также упоминается роль банков в зеленой экономике, растущее присутствие зеленых банков и зеленых кредитных линий.

**Ключевые слова***: устойчивое развитие, зеленая экономика, зеленый экономический рост, банковское дело, коммерческий банкинг, инвестиции, кредит, зеленый банк, зеленый кредит, зеленое финансирование, система ESG.*

**Abstract.** The article presents issues of the transition to a green economy in the context of sustainable economic development, the relevance of the transition to a green economy and its main financing mechanisms. The article also presents the role of banks in the green economy, the growth of green banks and green credit lines.

***Key words:*** *sustainable development, green economy, green economic growth, Banking, Commercial Bank, Investment, Credit, Green bank, Green credit, green financing, ESG system.*

## Kirish

Barqaror rivojlanish (sustainable development) - bu hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlarning ham o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo‘ymasdan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni uyg‘unlashtirish jarayonidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”[135] deb belgilab qo‘yilgan.

1987-yilda BMT tomonidan tayyorlangan Brundtland hisobotida barqaror rivojlanish konsepsiyasi ta’riflangan. Bu tushuncha uch asosiy omilga asoslanadi:

[135] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023-yil.

Iqtisodiy barqarorlik - iqtisodiy o‘sish va taraqqiyot orqali jamiyat farovonligini oshirish. Ijtimoiy barqarorlik - adolatli, teng huquqli jamiyatni yaratish, odamlar farovonligini ta’minlash. Ekologik barqarorlik - tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish va ekologik muvozanatni saqlash.

Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi bu uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash va inson hayotining barcha jabhalarida farovonlikka erishishdir.

**Muhokama va natijalar**

Barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning roli katta, chunki u iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan yondashuvdir. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlashni maqsad qilgan.

Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” atamasi xalqaro maydonda keng tarqalmoqda. Yashil iqtisodiyotga olimlar tomonidan turlicha ta’riflab o‘tilgan.

Amerikalik/avstraliyalik ekolog iqtisodchi olim Robert Costanza esa ekologik iqtisodiyot sohasida taniqli olim bo‘lib, iqtisodiy tizimlarni ekologik tizimlar bilan integratsiya qilish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. U yashil iqtisodiyotni “ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun mo‘ljallangan iqtisodiy model”[136] deb ta’riflagan.

Amerikalik ekolog va iqtisodchi Herman Edvard “yashil iqtisodiyotning maqsadi iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishdir”[137] deya ta’kidlagan.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining nisbatan to‘liq ta’rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “yashil iqtisodiyot” – bu “insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir”[138].

Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi asosiy rollari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Tabiiy resurslarni samarali boshqarish. Bunda yashil iqtisodiyot cheksiz resurslar mavjud degan noto‘g‘ri qarashni inkor etadi. U suv, havo, yer kabi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlab qolish orqali kelajak avlodlar uchun ham imkoniyat yaratishga urg‘u beradi.

2. Atrof-muhitning himoyasi. Bunda, yashil iqtisodiyot korxona va sanoatlarni ekologik jihatdan zarar keltirmaydigan texnologiyalarga o‘tishga undaydi. Bu chiqindilarni kamaytirish, havoni toza saqlash, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiyaga e’tiborni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

3. Ijtimoiy adolat. By yashil iqtisodiyot faqat ekologiyaga emas, balki

[136] Robert Costanza, Modelling and measuring sustainable wellbeing in connection with the UN Sustainable Development Goals, 2016, 18 page.

[137] Herman, For the Common Good: Redirecting the Economy toward Community, the Environment, and a Sustainable Future 2nd Edn (Beacon Press).

[138] Shtayner (2011), Yashil iqtisodiyot sari: barqaror rivojlanish va qashshoqlikni yo'q qilish yo'llari, UNEP/Grid Arendal, 17-bet.

ijtimoiy adolatga ham e’tibor qaratadi. Bu yondashuv qashshoqlikni kamaytirish, bandlikni oshirish va sog‘lom yashash sharoitlarini yaratish orqali jamiyatning barcha qatlamlari farovonligini ta’minlashga yordam beradi.

4. Karbon izini kamaytirish. Bunda, iqlim o‘zgarishi barqaror rivojlanishga katta xavf tug‘diradi. Yashil iqtisodiyot ushbu muammoni hal qilish uchun kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqlim o‘zgarishining oldini olishda muhimdir.

5. Innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot yangi texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun texnologik yutuqlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda banklarning roli oshib bormoqda. Jumladan, yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda “yashil banklar” (green bank) keng tarqalmoqda. Yashil banklar (green banks) bugungi kunda tezkor rivojlanib borayotgan moliyaviy institutlar hisoblanadi. Yashil banklar tarmog‘i global miqyosda tezkor sur’atda rivojlanib bormoqda.

So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan bu sohaga katta e’tibor qaratilib, huquqiy zamin yaratildi. “Yashil energiya” manbalarini barpo qilish bo‘yicha katta dasturlar boshlandi. Investorlar uchun jozibador muhit tashkil etildi.

Shuningdek, ijtimoiy soha ob’yektlari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlarga tegishli binolar va aholi xonadonlarida umumiy quvvati 457 megavattli quyosh panellari o‘rnatildi. Bu ishlarga banklar tomonidan qariyb 2 trillion so‘m resurs ajratildi.Natijada qo‘shimcha 5 milliard kilovatt-soat ekologik toza elektr ishlab chiqarish va 1,5 milliard kub metr gaz tejash imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, Yashil banklar tomonidan yangi moliyaviy instrumentlar (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil lizinglar va h.k.) joriy etilmoqda. Bu esa yashil investitsiyalar uchun yangi manbalarni jalb qilishga yordam bermoqda.

Yashil kreditlar bilan birgalikda yashil obligatsiyalar ham keng tarqalib bormoqda. Yashil obligatsiyalar barqaror daromadli qimmatli qog‘ozlarning o‘sib borayotgan toifasi bo‘lib, ular atrof-muhitga foyda keltiradigan loyihalar uchun kapital jalb qiladi.




**1-rasm. Yashil obligatsiyalar emissiya qiluvchi eng yirik davlatlar (mlrd.dollar)[139]**

Rivojlangan AQSh va Germaniya mamlakatlari bugungi kunda eng yirik

[139] Climete Bonds initivate: $500bn Green Issuance 2021: social and sustainable acceleration: Annual green $1tn in sight: Market expansion forecasts for 2022 and 2025 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yashil obligatsiyalar emissiya qiluvchi mamlakatlar hisoblanadi. Shuningdek. Xitoy ham yashil obligatsiyalar bozoridagi eng katta o‘yinchisi hisoblanadi (1-rasm). 2016-yildan boshlab faol ravishda yashil obligatsiyalar chiqarish va investitsiya jalb qilish bilan shug‘ullanmoqda. 2022-yilga kelib Xitoyda chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi umumiy 300 milliard dollardan oshdi. Yashil obligatsiyalar emissiya qiluvchi asosiy mamlakatlar Yevropa qit’asiga to‘g‘ri keladi.

Yashil obligatsiyalar umumiy obligatsiyalar bozorining kichik qismini tashkil qilsada, ular ko‘proq e’tiborni tortmoqda, chunki emissiyani qisqartirish maqsadlariga erishish uchun davlat va xususiy sektordan trillionlab dollar kapital kerak bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, “barqaror rivojlanish” konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining bosh maqsadiga aylanib bormoqda[140].

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda barqaror rivojlanish birgina mamlakat iqtisodiyotigagina emas, butun insoniyat uchun muhim bo‘lgan majburiyat sifatida kirib kelmoqda. Barqaror rivojlanish esa bevosita yashil iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish esa faqatgina davlat yoki hukumat tomonidan amalga oshiriladigan islohotlar natijasida rivojlanib qolmaydi. Bunga bevosita xususiy sektorlarni ham jalb qilishni talab etadi. Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish borasida asosiy subyekt banklar hisoblanib, banklarda ESG tizmini to‘liq joriy etish hamda loyihalarni yashillashtirish borasida tegishli ishlarni amalga oshirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risidagi qonun.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun.
4. Robert Costanza, Modelling and measuring sustainable wellbeing in connection with the UN Sustainable Development Goals, 2016, 18 page.
5. Herman, For the Common Good: Redirecting the Economy toward Community, the Environment, and a Sustainable Future 2nd Edn (Beacon Press), 1994.
6. Shtayner (2011), Yashil iqtisodiyot sari: barqaror rivojlanish va qashshoqlikni yo‘q qilish yo‘llari, UNEP/Grid Arendal, 17-bet.
7. Climete Bonds initivate: $500bn Green Issuance 2021: social and sustainable acceleration: Annual green $1tn in sight: Market expansion forecasts for 2022 and 2025.
8. A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev (2020), “Yashil iqtisodiyot” darslik, Toshkent.: “Universitet”, 16-bet.

www.cbu.uz
www.lex.uz

[140] A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev (2020), “Yashil iqtisodiyot” darslik, Toshkent.: “Universitet”, 16-bet.

**Nabiyeva Anargul Muxametkaziyevna -** Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi, +998 90 982 42 22, anoranabieva2902@gmail.com,

**Zoxidjonov Bekzodbek Baxodirjon o‘g‘li** - Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi, +998941024800, zoxidjonovbekzodbek@gmail.com

# YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVASION VA INVESTISION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola yashil iqtisodiyotda innovasion va investision faoliyatni rivojlantirish muammolarini o‘rganadi. Maqolada yashil texnologiyalar, barqaror qishloq xo‘jaligi va ekologik transport kabi innovatsion sohalar taqdim etiladi. Investitsiya manbalari, jumladan davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya tashkilotlarining roli ham muhokama qilinadi. Maqola innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish uchun ta’lim, hamkorlik va ochiq innovatsiyalar kabi strategiyalarni ko‘rib chiqadi. Natijada, yashil iqtisodiyot orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash imkoniyatlari ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *yashil iqtisodiyot, innovatsiyalar, investitsiyalar, yashil texnologiyalar, barqaror qishloq xo‘jaligi, energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya, transport infratuzilmasi, ochiq innovatsiyalar, ekologik barqarorlik.*

# РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ И ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются проблемы развития инновационной и инвестиционной деятельности в зеленой экономике. В статье представлены инновационные отрасли, такие как зеленые технологии, устойчивое сельское хозяйство и экологический транспорт. Также обсуждается роль инвестиционных источников, включая государственный, частный сектор и международные финансовые организации. В статье рассматриваются такие стратегии, как образование, сотрудничество и Открытые инновации, для поощрения инновационной деятельности. В результате открываются возможности для обеспечения устойчивого развития через зеленую экономику.*

**Ключевые слова:** *зеленая экономика, инновации, инвестиции, зеленые технологии, устойчивое сельское хозяйство, энергоэффективность, возобновляемые источники энергии, транспортная инфраструктура, Открытые инновации, экологическая устойчивость.*

# INNOVATION AND INVESTISION ACTIVITY DEVELOPMENT IN THE GREEN ECONOMY

**Annotation:** *this article explores the challenges of innovation and investision activity development in the green economy. The article presents innovative areas*

*such as green technology, sustainable agriculture and environmental transport. Investment sources are also discussed, including the role of public, private sector and international financial organizations. The article examines strategies such as education, collaboration, and open innovation to encourage innovative activities. As a result, the possibilities of ensuring sustainable development through the green economy are revealed.*

**Keywords:** *Green Economy, Innovation, Investment, green technology, sustainable agriculture, energy efficiency, renewable energy, transport infrastructure, open innovation, environmental sustainability.*

**Kirish**

Yashil iqtisodiyot atamasi, ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida iqtisodiy faoliyatni qayta ko‘rib chiqish va uni ekologik nuqtai nazardan yaxshilashni anglatadi. Bu tushuncha jahon miqyosida atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Innovasion va investision faoliyat esa yashil iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

**Natija va muhokama**

Xozirgi globallashuv jaroyonlari yashil iqtisodiyotning sanoat tarmoqlariga ta’sir etish bilan bir qatorda kapitalni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish juda muhimdir. Davlatlar ochiq muloqotni rag‘batlantirishi, shaffof qoidalarni o‘rnatishi va investitsiya xavfini kamaytirish uchun mustahkam huquqiy asoslarni ta’minlashi kerak. Yashil investitsiya tashabbuslarini ishlab chiqishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi uzoq muddatli majburiyatlarni yanada kuchaytirishi va investorlarning ishonchi va ishonchini kuchaytirishi mumkin. Korxonalarning innovatsion rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish jarayoni, balki ularning samarali faoliyati bilan bog‘liq barcha sohalarni, shu jumladan ishlab chiqarishni tashkil etish, zamonaviy menejment va marketing kabi sohalarni qamrab oladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion rivojlanishiga shart-sharoit yaratishga alohida e’tibor berilib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyulidagi PF-165 sonli “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni bilan mamlakatimiz innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta’lim, sog‘liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanish bo‘yicha davlat siyosatining maqsadli yo‘nalishlarini belgilab berib uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

-innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash;

-innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llabquvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

-kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning

ijtimoiy-iqtisodiy jadal o‘sishini ta’minlash;

-yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning kompleks tizimini shakllantirish va bu orqali innovatsiyalar talabini rag‘batlantirish;

-innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.

Shuningdek, mazkur strategiya doirasida innovatsion faoliyat subyektlari ya’ni sanoat ishlab chiqarish tashkilotlari sonini 613 tadan 2250 tagacha yetkazish, innovatsion infratuzilma subyektlari sonini 3 baravarga oshirish, innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o‘rinlari sonini 4 baravarga oshirish maqsad qilingan. Bundan tashqari, yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish, innovatsion markazlar sonini 494 tagacha yetkazish, texnologik innovatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi mahalliy sanoat korxonalari sonini 600 tagacha yetkazish, hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish, yillik patentlar sonini 184 tagacha yetkazish va ko‘plab boshqa vazifalar bajarilishi nazarda tutilgan,

Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalari ko‘plab iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida o‘rin olgan. Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya tushunchasini (atamasini) dastlab qo‘llagan olim Y.Shumpeter bo‘lib, u o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (Theory of Economic Development) nomli asarida innovatsion jarayon natijasidagi o‘zgarishlarni quyidagi besh yo‘nalishga ajratib ko‘rsatib bergan: -yangi texnik va texnologik o‘zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish; -yangi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulot turlarini diversifikatsiyalash; -ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xomashyolardan foydalanish; -ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish; -yangi iste'mol bozorlarini shakllantirish [2]. Keyinchalik, sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlashdagi ahamiyati ko‘plab ilmiy tadqiqot natijalarida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, P.Drukerning fikricha, “Biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jalb qilish bo‘lganligi sababli korxonani ikkita asosiy funksiyasi mavjud marketing va innovatsiya”dan iborat,

Innovatsiyalarning mamlakatlar barqaror o‘sishida va korxonalar raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim drayver vazifasini bajarishi ko‘plab boshqa tadqiqotlarda ham aniqlangan. Ushbu tadqiqotlarda innovatsiya tushunchasiga turlicha yondashgan. Bir guruh tadqiqotchilar innovatsiya jarayonini tarmoqda yangi va texnologik murakkab mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘lashgan bo‘lsa, boshqa bir guruh tadqiqotchilar innovatsiya sifatida ko‘proq yangi boshqaruvtashkiliy munosabatlar shakllanishi masalalariga o‘z e'tiborlarini qaratishgan.

*Yashil iqtisodiyot va innovatsiyalar*

Innovatsiyalar yashil iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Ular quyidagi sohalarda amalga oshiriladi:

1. Yashil texnologiyalar: Energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol), chiqindilarni qayta ishlash va ularni energiyaga aylantirish kabi texnologiyalar rivojlantirilmoqda.

2. Barqaror qishloq xo‘jaligi: Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, agrotexnologiyalarni takomillashtirish va qishloq xo‘jaligi ekotizimlarini barqarorlashtirish.

3. Transport va infratuzilma: Elektr transport vositalarining rivojlanishi va urbanizatsiyadagi yashil infratuzilma loyihalari.

*Investitsiyalar va moliyalashtirish*

Yashil iqtisodiyotda innovasion faoliyatni rivojlantirish uchun investitsiyalar muhimdir. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Davlat investitsiyalari: Hukumatlar yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy rag‘batlar taqdim etishlari mumkin.

2. Xususiy sektor: Xususiy kompaniyalar yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun katta mablag‘lar sarflaydilar. Ular investitsiyalarni qayta tiklanadigan energiya, ekologik toza mahsulotlar va texnologiyalarga yo‘naltirishmoqda.

3. Xalqaro moliya tashkilotlari: Jahon Banki, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun moliyaviy resurslar taqdim etadilar.

*Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish*

Yashil iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi kerak:

1. Ta’lim va o‘qitish: Yashil texnologiyalar bo‘yicha ta’lim dasturlarini rivojlantirish va mutaxassislarni tayyorlash.

2. Hamkorlik va tarmoq: Innovatorlar, tadbirkorlar va olimlar o‘rtasida hamkorlikni oshirish va tarmoqni kengaytirish.

3. Ochiq innovatsiyalar: Ochiq innovatsiya platformalari orqali yangi g‘oyalar va texnologiyalarni birlashtirish.

**Xulosa:** Yashil iqtisodiyot innovasion va investision faoliyat orqali nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy o‘sishni ham ta’minlaydi. Innovatsiyalar va investitsiyalar birgalikda barqaror rivojlanishni ta’minlaydi va kelajak avlodlar uchun yanada yashil va toza muhitni yaratadi. Buni amalga oshirish uchun barcha ijtimoiy qatlamlar, davlatlar va tashkilotlar birgalikda harakat qilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. "Green Economy: Concept, Principles, and Applications" - United Nations Environment Programme (UNEP).

2. "Sustainable Development Goals Report 2023" - United Nations.

3. "Innovations in Green Technologies" - International Journal of Environmental Science and Technology.

4. "The Role of Investment in Green Economy Transition" - World Bank Publications.

5. "Sustainable Agriculture: Innovations and Challenges" - Food and Agriculture Organization (FAO).

6. "Renewable Energy and Sustainable Development" - International Renewable Energy Agency (IRENA).
7. "Green Innovation: Policy, Opportunities, and Challenges" - OECD Green Growth Studies.

**Payazov Murod Maqsudovich** - iqtisod fanlari nomxodi, dotsent.
Farg‘ona politexnika instituti “Menejment” kafedrasi (DSc) doktoranti.
Email: fayz19700308@gmail.com, tel: +998905334762

## “O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI”AJ “YASHIL IQTISODIYOT” DAGI XISSASINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

